

88
A95

AXMETJANDV M.M. JUMAYEV U.S. XAITOV J.N.

KASBIY FAOLİYAT PSIXOLOGİYASI



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Axmetjanov M.M., Jumayev U.S., Xaitov J.N.

KASBIY FAOLIYAT PSIXOLOGIYASI

darslik

5320400 – kimyoviy texnologiya (noorganik moddalar)
yo`nalishi talabalari uchun

BUXORO - 2020
«DURDONA» NASHRIYOTI

88.4

377:159.9(07)

A 95

Axmetjanov M.M.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi [Matn] : darslik / Axmetjanov M.M., Jumayev U.S., Xaitov J.N. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy» Durдона nashriyoti, - 2020. – 344 b.

UO'K 377:159.9(07)

BBK 88.4


TAQRIZCHILAR

- Barotov SH.R. – BuxDU Psixologiya kafedrası mudiri, psixologiya fanlari doktori, professor.
- Gaffarov A.X. – BuxMTI Metrologiya va standartlashtirish kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Ushbu darslikda mualliflar 5320400 – kimyoviy texnologiya (noorganik moddalar) ta'lim yo'nalishi talabarlari uchun kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining predmeti, tarkibi, vazifalari va metodlari, shaxs va uning psixodiagnostikasi, pofessiogrammaning mohiyati, asosiy tushunchalari, kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari, kasbiy layoqat tashxisi, pofessiografiyaning mohiyati, uning yuzaga kelish tarixi, ilk o'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari, talabalar psixologiyasi va o'quv faoliyatini rivojlantirish, tarbiya psixologiyasi, pedagog faoliyatining psixologik muammolari, ta'lim jarayonini boshqarish nazariyalari haqida ma'lumot berganlar.

Darslik oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari va talabarlari ga mo'ljallangan.

Mazkur o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 14-avgust 418-sonli buyrug'iga asosan nashr qilishga ruxsat etilgan.



ISBN 978-9943-7078-4-9 © Axmetjanov M.M., Jumayev U.S., Xaitov J.N.

Аннотация

В данном учебнике авторы дают сведения для студентов направления 5320400 - химическая технология (неорганические соединения) о предмете, структуре, задачах и методах профессиональной психологии, о личности и её психодиагностике, сущности профессии, основных понятиях, методах исследования профессиональной психологии, диагностике профессиональной компетентности, сущности профессиографии, истории её возникновения, о психологических особенностях ранней юности, о развитии психологии учащихся и воспитательной деятельности, о психологии образования, психологических проблемах педагогической деятельности, о теории управления образовательным процессом.

Учебник предназначен для преподавателей и студентов вуза.

Annotation

In this textbook the authors 5320400 - subject, structure, tasks and methods of professional psychology for students of chemical technology (inorganic substances), personality and its psychodiagnostics, the essence of the profession, basic concepts, research methods of occupational psychology, diagnosis of professional competence, the essence of professionalism, the history of its emergence, the psychological characteristics of early adolescence, the development of student psychology and educational activities, educational psychology, psychological problems of pedagogical activity, theories of management of the educational process.

The textbook is intended for professors and students of the university.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil

20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarorining qabul qilinishi, yoshlarni har tomonlama bilim olishlari, ularda yaratuvchilik imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan imkoniyatlari yanada kengaydi.

Mazkur darslik 5320400 - kimyoviy texnologiya (noorganik moddalar) yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak mutaxassislarning psixologik tayyorgarligini oshirish maqsadida yaratilgan novbatdagi manbadir.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi yosh avlodni tarbiyalash, ularni o'qitish va ma'lumotli qilishning qonuniyatlari, qoidalari, shakllari, metodlari, usullari va vositalarini o'rganuvchi fandır.

Mazkur tushunchalarning mazmuni, mohiyati, funksiyalari haqida ma'lumot beruvchi "Kasbiy faoliyat psixologiyasi" fani bo'lajak mutahassislarni o'z kasbiga ilmiy-nazariy va tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, har bir mavzuning oxirida o'z bilimini tekshirish maqsadida nazorat savollari va amaliy ishlar topshiriqlari berilganki, ular talabalarining bo'lajak sohasida o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash, ko'nikma, malakalarini shakllantirishga katta yordam beradi.

Ushbu darslik shaxsning kasbiy faoliyat psixologiyasiga oid asosiy tushunchalarni, "Kasbiy faoliyat psixologiyasi" fani taraqqiyotining asosiy bosqichlari, va metodlari, vazifalari, shaxs haqida tushuncha, kasbiy faoliyatning psixologik tahlili, muloqot, psixik jarayonlar, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, fanning tarmoqlari, fanning boshqa fanlar bilan aloqasi, boshqaruv va mehnat psixologiyasi haqidagi masalalarni qamrab oladi.

Ushbu darslikdan olingan bilim, ko'nikma va malakalar bo'lajak mutaxassislarda kasbiy muloqotni amalga oshirish, o'z ustida ishlash, kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun asosiy manba hisoblanadi.

Ushbu darslikning maqsadi - talabalarda o'z kasbiga doir psixologik bilimlarni egallashga, shaxs psixologiyasi, uning faoliyati va muloqoti, psixik taraqqiyot qonuniyatlari, shaxsni psixologik metodlar yordamida o'rganish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Darslikning vazifasi - talabalarga voq'elik va jamiyatdagi voq'ea-

hodisalarning, jamiyat hayotida psixologik hodisalar, holatlar va jarayonlarning mohiyatini tahlil etishga, insonning shaxs va mutaxassis sifatidagi kamoloti va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, uning individual psixologik xususiyatlari, emotsional va irodaviy sifatlarini tahlil etishga o'rgatishdan iboratdir.

Darslikni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- psixologik tushunchalarni, voqealik va jamiyatdagi voq'ea-hodisalarni, shaxsning o'zida kechadigan ijtimoiy-psixologik jarayonlarni, shaxsni psixologik tadqiq qilish usullarini bilishi;

- talaba voq'elikni psixologik mushohada etish, narsa-hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o'rganish, ilmiy tafakkur va psixologik tassavo'ning uyg'unligini ta'minlash, mustaqil va zamonaviy fikrlash, o'zining shaxsiy va kasbiy faoliyatida psixologik bilimlarni va qonuniyatlarini qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- talaba voq'ea-hodisalarni psixologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq qilish, shaxs kasbiy faoliyati motivatsiyasi, faoliyat jarayonida yuzaga chiqadigan emotsional va irodaviy sifatleri, individual psixologik xususiyatlari, shaxs va jamiyat orasidagi munosabatning psixologik qonuniyatlarini aniqlash va ular asosida kasbiy faoliyatni amalga oshirish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Shuning bilan bir qatorda bo'lajak mutahassislarni mam-lakatimizda keyingi yillarda qurilish tizimining izchil taraqqiy etayotgani mazkur sohada qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni kechagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bo'lajak kimyo soha egalarini faollashtirish, psixologik bilimlarni o'zlashtirish jarayonining samaradorligini oshirishni yo'lga qo'yish maqsadida darslikning oxirida manbalar tavsiya etilgan. Bu manbalar talabalar mustaqil o'qishlarini yo'lga qo'yish hamda mustaqil bilim olishlari uchun ancha qulayliklar yaratadi.

Albatta, mazkur darslikda barcha muammolar o'z yechimini topgan deb bo'lmaydi. Unda ba'zi bir kamchilik va nuqsonlar bo'lishi tabiiy. Shu boisdan mualliflar darslikning nazariy va uslubiy saviyasini yanada oshirishga doir o'z takliflarini bildirgan kitobxonlarga chuqur minnatdorchilik bildiradi.

Darslik haqidagi fikr-mulohazalaringizni Buxoro muhandislik-texnologiya instituti «Metrologiya va standartlashtirish» kafedrasiga yuborishingizni so'raymiz. Manzilimiz: Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15-uy, tel: 65 - 223-46-76.

MODUL I. KASB PSIXOLOGIYASINING TADQIQOT METODLARI

MODULNING UMUMIY MAQSADI: Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining tarkibiy to'zilishi, asosiy tarmoqlari, maqsad va vazifalariga oid nazariy bilim berish, boshqa fanlar bilan aloqadorligi faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish, talabalarga kasbiy faoliyatda psixologik bilimlarning ahamiyati, kasbiy psixologiya fani haqida tushuncha, kasbiy psixologiyaning fan sifatida rivojlanish bosqichlari, psixik hodisalarning asosiy shakllari, kasbiy psixologiya bo'limiga kirish, kasb psixologiyasining predmeti, vazifalari va ahamiyati, kasb psixologiyasining ijtimoiy hayotda tutgan o'mi, kuzatish metodlari. test metodlari, kasbning psixologik mohiyatini ochishda fanlar integratsiyasiga asoslanuvchi kompleks (majmuaviy) metodlariga oid ko'nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- **ta'limiy maqsad:** talabalarga kasbiy faoliyat psixologiyasi fani va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o'zlashtirish orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda fanning o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish, o'rganiladigan o'quv materiallari bo'yicha tarbiyaviy xulosalar chiqarish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashi va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

1.1. Kasbiy psixologiya bo'limiga kirish. Kasb psixologiyasining predmeti, vazifalari va ahamiyati.



Tayanch iboralar:

Kasbiy psixologiya-fan sifatida, psixik aks ettirish, psixik hodisalar, jarayonlar, holatlar, shaxsning xususiyatlari, ilmiy psixologiyaning nazariy asoslari, kasbiy psixologiyaning fan sifatidagi taraqqiyoti, hozirgi zamon psixologiyasining asosiy yo'nalishlari, turli qarashlar, oqimlar, kasbiy psixologiyaning fan sifatidagi vazifalari, yoshlarning ma'naviyatini shakllantirish, ta'lim-tarbiyanin roli. kasbiy psixologiyaning tutgan o'rni.

Har qanday inson kundalik hayotida odamlar bilan uchrashib, muloqotga kirishar ekan, u o'zining bosiq yoki qiziqqon, beparvo yoki qiziquvchan, mehribon yoki bag'ritosh, jahldor yoki bosiq va

hokazolardan iborat ichki va tashqi ruhiy olamini namoyon qiladi. Bu ruhiy holatlar ongli va ongsiz tarzda namoyon bo'ladi. Ana shu holatlarning barchasi insonning psixikasini tashkil qiladi.

Inson psixikasi moddiy va ma'naviy borliqdagi narsa va hodisalarni jonli yaratuvchi murakkab jarayon bo'lib, u insoniyatning uzoq davom etgan fiziologik rivoji uyg'unligining mahsuli hisoblanadi.

Xo'sh, psixika nima?

Psixika - yuqori darajada tashkil topgan materiyaning tizimli xossasi (xususiyati), subyekt tomonidan obyektiv borliqni faol aks ettirish, mazkur borliq manzaralarini subyekt o'zidan uzoqlashtirmay ifodalashi, xuddi shu asnoda o'z xulqi va faoliyatini shaxsan boshqarishidir. Psixikada o'tmishning, hozirgi davr va kelgusi zamonning hodisalari ifodalangan, tartibga solingan faoliyat va xatti-harakatlarni boshqarishdir¹.

Uning namoyon bo'lish shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi psixik (bilish) jarayonlar (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq va diqqat), psixologik holatlar (hissiyot, emotsiya, e'tiqodlilik, bardamlik, tetiklik, qiziquvchanlik, hayratlanish, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish), shaxsning xususiyatlari (yo'nalishlar, temperament, xarakter, qobiliyat, iqtidor, aqliy salohiyat, xulq motivatsiyasi, ish uslubi, mas'uliyat) da kuzatiladi.

Psixologiya - psixikaning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek, insondagi onglilik va ongsizlik fenomenlarining hilma-hil ko'rinishlarini o'rganuvchi fan.

Psixologiya yunoncha «psixologos» so'zidan olingan bo'lib, «jon», «ruh» haqidagi fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi. Biroq hozirgi davr ilmida «jon» tushunchasi o'rniga «psixika» atamasini qo'llash qabul qilingan. Chunki lingvistik nuqtai nazardan «jon», «psixika» tushunchalari aynan bir ma'noni bildiradi. Lekin «psixika» atamasi bugungi kunda «jon»ga nisbatan kengroq ma'noga, ko'lamga ega bo'lib, inson ruhiyatining ham ko'zga ko'rinuvchi, ham ko'zga ko'rinmas tomonlarini o'zida aks ettiradi.

Psixologiya fanining obyektiga psixika, ong va ongsizlik, shaxs va uning faolligi kirsa, uning predmetini ana shu obyekt haqidagi muayyan bilimlar tashkil qiladi (Obyekt - kishilarning diqqatini o'ziga tortadigan moddiy va ma'naviy borliq. Predmet - moddiy va

¹ Qarang: G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. - 25-b.

ma'naviy borliq haqidagi bilimlar majmuasi va o'rganiladigan masalalar).

Psixologiya fani: umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogik psixologiya, zoopsixologiya, yosh davrlari psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, yuridik psixologiya, harbiy psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, savdo psixologiyasi, kasbiy faol psixologiyasi kabi tarmoqlarga bo'linadi. Bunda:

- umumiy psixologiya psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlari va ularning o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus soha hisoblanadi;

- pedagogik psixologiya kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi;

- yosh davrlari psixologiyasi turli yoshdagi odamlarning tug'ilganidan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini individning yoshiga mos tarzda o'zgarishi tamoyillarini o'rganadi;

- ijtimoiy psixologiya odamlarning jamiyatda birgalikda faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinma va xulq-atvorlarni o'rganadi;

- muhandislik psixologiyasi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari operatorlarining faoliyatini, *odam-texnika* o'rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi;

- harbiy psixologiya kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, zobitlar bilan oddiy askarlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;

- savdo psixologiyasi - jamiyatda tijoratning psixologik shart-sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi;

- tibbiyot psixologiyasi shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi;

- kasbiy faoliyat psixologiyasi turli soha egalari psixologiyasini, kasb egalari xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi.

Shuningdek, psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, sport psixologiyasi, psixodiagnostika, siyosiy va tashkiliy psixologiya kabi ko'plab sohalar mavjudki, ularning har biri jamiyatdagi real ehtiyojlar va ularni qondirishda psixologiyaning fan sifatidagi o'rni

va maqsadidan kelib chiqadi².

Xo'sh, kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining bahs mavzui nima?

Kasbiy faoliyat psixologiyasi, o'z mohiyatiga ko'ra, psixologiya fani tarkibiga kiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda *kasbiy psixologiya* o'ziga xos *predmet* bo'lib, psixologiyaning nozik tomonlarini qamrab oladi. Ya'ni bu fan psixologiya sohalarining kesishuvida yuzaga keladi. Psixologiya muayyan shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatlarining o'ziga xos tomonlarini o'rganadi. Bundan ko'rinadiki, har ikkala fanning obyekti va subyekti shaxs, inson hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, kasbiy psixologiya faoliyat psixologiyasi psixologiya tarkibida yuzaga kelgan bo'lib, aniq faoliyat, ya'ni kasb faoliyatidagi psixologik jihatlarining muhim tomonlarini o'rganishga bag'ishlangan fan hisoblanadi.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi ilmiy-amaliy fan bo'lib, umumiy psixologiyaning qonuniyatlarini o'rganadi va bu fanning samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqadi.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani kasb doirasidagi munosabatlar, odamlarning psixik faoliyatini boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır. Bunda kasb egalarining psixologik asoslarini o'rganish *maqsad* qilib qo'yilgan.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining maqsadi – kasb egalari faoliyatining taraqqiyot qonuniyatlari, turli toifadagi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Shu ma'noda, kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, faylasuf-allomalarning kasb psixologiyasi faniga oid g'oya va nazariyalari hamda hukumat qonunlari, OvaO'MTVning buyruq va ko'rsatmalari tashkil etadi.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining predmetini quyidagilar tashkil etadi:

- kasb egalari psixikasini har tomonlama o'rganishdan hosil bo'lgan bilimlar;
- kasb egalarining ongi, ruhiyati, onglilik va ongsizlik holatidan hosil bo'lgan xulosalar;
- kasb egasi shaxsining to'zilishi, uning faoliyati va faolligini

² Qarang: *Karimova V. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.*

o'rganish orqali olingan nazariy va amaliy xulosalar.

Barcha fanlar singari kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining ham o'z obyektini mavjud, ular quyidagilardan iborat:

- kasb egalarining psixologiyasi;
- fuqarolarning onglik va ongsizlik holatlari;
- shaxsning to'zilishi;
- shaxsning faoliyati;
- shaxsning faolligi va uning shakllari.

Shunday qilib, kasbiy faoliyat psixologiyasi kasb egalari xodimlari faoliyatidagi psixika, ong, ongsizlik kabi fenomenlarning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani ham ma'lum bir psixologik qonuniyatlarni o'rganadi va ularni amalda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

Psixologik qonuniyat u yoki bu ruhiy hodisani keltirib chiqaruvchi va rivojlantiruvchi sabab bilan natijaning ichki bog'liqligidan iboratdir. Bunday psixologik qonuniyatlardan biri ma'lum sharoitda u yoki bu ruhiy hodisaning takror namoyon bo'lishidir. Psixologik qonuniyatlarni bilish - muayyan psixik hodisani tushunish, oldindan ko'ra olish va ularni qayta tiklash imkonini beradi. Shuningdek, ichki ishlar idoralari xodimlariga fuqarolarning ruhiy faoliyatlari umumiy xususiyatlarini chamalab ko'rishga, fikr yuritish va xulq-atvorlarini belgilashga, ayniqsa, jinoyatchi shaxsning qilmishlarini ochish ishlarini tashkil qilishda xatoga yo'l qo'ymasliklarida yordam beradi. Har bir xodim shaxsning individual xususiyatlarini, sof tasodifiy holatlarni keltirib chiqaradigan boshqa narsalarni hamisha o'rganib borishi va hisobga olishi shart. Psixologik qonuniyatlar umumiy va jo'z'iy bo'lishi mumkin. Umumiy qonuniyatlar hamma shaxslarga yoki ko'pchilikka aloqador bo'lishi mumkin. Masalan, hamma shaxslarda sezgilarning intensivligi (tez, jadal) qo'zg'atuvchining kuchiga nisbatan (o'rtacha kuchiga nisbatan) logarifma mutanosibligida o'sib boradi.

Juz'iy qonuniyatlar ba'zi yoshdagi kasb egalari va ba'zi toifadagi shaxslarga xos qonuniyatlardir. Masalan, o'smirlarda abstrakt fikrlashning tezlik bilan rivojlanishi hamma shaxslarga emas, faqat o'smirlarga xos bo'lgan jo'z'iy qonuniyatdir. Psixologik qonuniyatlarni jiddiy o'ylab tashkil qilingan hamda rejali ravishda olib boriladigan tekshirishlar orqali aniqlash mumkin. Qanchalik

murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, ko'pgina psixologik tekshirishlar mutaxassis uchun tushunarlidir va ularni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish mumkin.

Psixologik qonuniyatlar jarayonini ba'zi asosiy bosqichlarga ham bo'lish mumkin.

1. *Masalaning qo'yilishi.* Har qanday ilmiy-tekshirish ishlari kabi, psixologiyada olib boriladigan ilmiy tekshirish ishlari ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masalani aniqlashdan, shuningdek, bu masala fanda qanchalik o'rganilganligini bilish uchun mazkur mavzuga oid adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi.

2. *Tekshirish metodikasini tanlash.* Psixologik kuzatishlar turli metodlar (bu metodlar haqida quyida batafsil fikr yuritiladi) bilan olib boriladi. Ishning muvaffaqiyatli chiqishi ko'p jihatdan metodni tanlashga bog'liq bo'ladi.

3. *Aniq ma'lumotlarni to'plash.* Ma'lumotlar, I. P. Pavlov ta'biri bilan aytganda, olim uchun go'yo havodek zarur narsadir. To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammoga mos kelishi zarur. Ilmiy ma'lumotlarga bo'lgan asosiy talab - ularning to'liq va izchil bo'lishidir. To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan masalani har jihatdan tavsiflab berishi kerak.

4. *Aniq ma'lumotlarni ishlash.* To'plangan ma'lumotlarni matematik va mantiqiy jihatdan ishlab chiqish umumiylikni, tipiklikni topish va ularni tasodifiy materiallardan ajratish imkonini beradi. Bunda to'plangan materiallarning o'rtacha miqdori (arifmetik, kvadrat va h.k.), foizi va boshqalar aniqlanadi, songa oid ma'lumotlar jadvallarga joylashtiriladi, grafik, diagramma ko'rinishlarida aks ettiriladi. Murakkab mutanosiblikdagi ma'lumotlarni aniqlashda esa variatsion statistika metodlari qo'llanadi.

5. *Qonuniyatning ifodalanishi.* Bu tekshirishning eng qiyin va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. Chunki bu bosqichda ma'lumotlarning mohiyatini chuqur tushunish, ularning o'zaro bog'liqlikni hisobga olish kerak bo'ladi, binobarin, bitta ma'lumotdan turlicha xulosa chiqarish mumkin. Ko'pincha chiqarilgan xulosalar taxminiy xususiyatga ega bo'lib, keyingi tekshirishlar, aniqlashlar uchun asos bo'ladi.

6. *Qonuniyatni amalda qo'llash.* Aniqlangan qonuniyat ma'lum bir amaliyot sohasida, masalan, tergov jarayonida gumon qilinuvchini so'roq qilish psixologiyasini o'rganishdan to'plangan

tajriba keyingi tergov jarayoni uchun kerak bo'ladi. Ko'pgina xodimlar amaliy faoliyatlarida hamisha shaxsiy hamda boshqalarning tajribalarini umumlashtiradilar. Lekin, shunday bo'lsa ham, har holda bunday umumlashtirishlar ilmiy jihatdan yetarli asoslangan bo'lmaydi, boshqacha qilib aytganda muhim aniqlik va teranlik bilan ajralib turmaydi.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani o'rganishi kerak bo'lgan qonuniyatlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1) shaxs va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan psixik qonuniyatlar;

2) soha egasining psixikasini o'rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar;

3) kasb egalariga har hil sabablar bilan murojaat qiladigan fuqarolarning psixologiyasini o'rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar.

Hozirgi kunda o'zbek psixolog olimlari ushbu muammolar ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Kasbiy faoliyat psixologiyasining o'ziga xos prinsiplari mavjud. Har qanday usulda o'tkaziladigan psixologik tekshirishlar qator prinsiplarga rioya qilishni talab etadi. Masalan: subyektiv (psixologik) asosga nisbatan obyektiv (moddiy) asosning birlamchiligi, psixikaning taraqqiyotida faoliyatning yetakchilik roli, psixik hodisalarning o'ziga xos bog'liqligi prinsipi, psixologik faoliyatni o'rganishda obyektivlik prinsipi, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi.

Subyektiv asosga nisbatan obyektiv asosning birlamchiligi prinsipi psixika moddiy bo'lmasa ham moddiylikdan ayri holda yashay olmasligidan kelib chiqadi. Shaxsni o'rganishda biz psixik faoliyatning ko'plab tashqi ko'rinishlariga duch kelamiz. Ulardan asosiylari:

- *og'zaki va yozma nutq*. Psixolog uchun shaxsning o'zi (shaxsiy hisobot ma'lumotlari) haqidagi mulohazalari g'oyat muhim hisoblanadi. Nutq orqali shaxslarning fikrlari, hissiyotlari, qarashlari, intilishlari, bilimi va boshqalar haqida xulosaga kelish mumkin;

- *shaxs faoliyatining mahsuli*. Shaxslar psixikasi haqida ularning o'z qo'llari bilan yasagan buyumlar, asbob-uskunalar, turli yasamalar, rasmlar va boshqalar aniqroq ma'lumot beradi;

-psixik faoliyatning tashqi ko'rinish va tanada namoyon bo'lishi.
Bu ko'z qarashining ma'nodorligi, yuz mimikasi, imo-ishora, nafas olish va qon aylanishining o'zgarishi, miya elektr faolligining o'zgarishi va hokazo.

Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, bunday holatda faqat psixikaning tashqi namoyon bo'lishigina emas, balki psixikaning o'zi tashqi namoyon bo'lishiga qarab ham o'zgaradi. Masalan, soha egasi ishida xatoga yo'l qo'ydi. Ushbu faktni aniqlashdan avval xatoning sabablarini bilish lozim.

Psixikani tashqi namoyon bo'lish shakli orqali o'rganish vositali bilish deyiladi. Psixologiya fani tarixida uzoq yillarga qadar psixikani o'rganishning asosiy metodi sifatida o'z-o'zini kuzatish (intropsensiya) metodidan foydalanib kelingan. Biz o'z ichki dunyomizni bevosita his qilamiz. Psixologiya uchun o'z-o'zini kuzatish metodi o'ta qulay tuyuladi. Lekin masalaga bunday qarash xatodir, chunki o'z-o'zini kuzatish ko'pincha umumiydan oddiy yoki tasodifiyini farqlash imkonini bermaydi, psixik faoliyat jarayonini noto'g'ri ko'rsatadi. SHu sababdan psixik faoliyat jarayonini o'rganishda quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

Psixika taraqqiyotida faoliyatning yetakchi o'rin tutishi prinsipi inson psixikasining mehnatda yuzaga kelishi va faoliyatda tarkib topishidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, psixikani kishining amaliy faoliyatidan ayrim holda o'rganish mumkin emas.

Psixik hodisalarning o'zaro bog'liqlik prinsipi bizning ichki dunyomiz yagona, bir butun ekanligidan, ma'lum shart-sharoitlarda shakllangan, muayyan shaxslarga xos miyaning mahsuli ekanligidan kelib chiqadi. Shu jihatdan shaxslarning ayrim tomonlarini, uning psixikasini o'rganishning o'zi asosiy maqsad bo'lib qolmasligi kerak. Har bir tekshirishda biror psixik hodisaning boshqa psixik hodisalar bilan uzviy aloqasini va ta'sirini hisobga olish lozim bo'ladi.

Psixik faoliyatni o'rganishda obyektivlik prinsipi boshqa tekshiruvchilar qatori psixologdan ham hodisaning aniq tafsilotlarini o'rganishni, real holatni ifodalamaydigan shoshilinch umumlashtirish va xulosalarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi.

Nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi nazariya amaliyot uchun asos ekanligini, u o'z qobig'iga o'ralib olmasdan amaliyot uchun yangi-yangi yo'nalishlar ko'rsatishni anglatadi.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining bu prinsiplari birgalikda

qo'llaniladi va ular har bir aniq psixologik metodning asosini tashkil qiladi.

Shaxsning ong osti holatini chuqur va har tomonlama o'rganishga imkon beradigan psixoanaliz metodi kasbiy psixologiya uchun muhim hisoblanadi. Psixoanaliz jinoiy xatti-harakat motivlari, murakkab nizolarning haqiqiy sabablarini tadqiq etish darajasini aniqlashda keng qo'llaniladi.

Mamlakatimizda huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonining borishi ichki ishlar idoralari xodimlari zimmasiga bir qator yangi vazifalarni yuklaydi.

Kasbiy faoliyat psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning ichki his-tuyg'ularini o'rganish, ish faoliyatida kelib chiqadigan subyektiv va obyektiv sabablarini o'rganishdir.

Shu bilan birga, bu fanni o'rganish jarayonida quyidagi omillarga alohida e'tibor muhimdir:

- betartibsizlikning oldini olish;
- betartibsizlikni batamom tugatish;
- soha egalari o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish;
- fuqarolarning huquqiy bilimdonligini oshirish;
- inson omilini birinchi o'ringa olib chiqish.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanini o'qitishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

-bo'lg'usi kimyoviy texnologiya soha egalarini kasbiy psixologik bilimlar bilan qurollantirish;

-kasbiy vazifalarni hal etishda olingan nazariy bilimlardan mohirona foydalanish va ularni hayotga, amaliyotga tatbiq etish;

-mutaxassisligiga xos zamonaviy kasbiy fazilatlarini har tomonlama shakllantirish;

-kimyoviy texnologiya soha yo'nalishida ta'lim olayotgan mutaxassislarning kasbiy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish;

-kasbiy sezgirlik, xotira, tafakkur, fuqarolar bilan muloqotda bo'lish va psixologik aloqa o'rnatish mahoratiga ega bo'lish.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani ana shu vazifalarning maqsadi va ko'lamidan kelib chiqqan holda quyidagi bir qator vazifalarni bajaradi:

1) kimyoviy va psixologik bilimlarni chuqur o'rganish hamda ularni ilmiy jihatdan sintezlash;

2) kimyoviy texnologiya tushuncha va kategoriyalarining kimyoviy-psixologik mohiyatini ochib berish;

3) kimyo sohasi xodimlariga oid asosiy obyekt - inson xulq-atvorining ruhiy jihatlarini tushuntirish;

4) kimyo sohasi munosabatlarga kirishayotgan subyektlar o'rtasidagi psixik jarayonlarni o'rganish va ularning ruhiy holatlarini ko'rsatish;

5) jamiyatning ijtimoiy holatini tartibga solishni yanada takomillashtirish uchun tavsiyanomalar ishlab chiqish;

6) kimyo sohasi xodimlari uchun psixologik xizmat ko'rsatish taktikasi va metodikasini ishlab chiqish.

Shu ma'noda, kimyo sohasi xodimlari uchun psixologik bilimlar ijtimoiy kategoriyalar (motiv, maqsad, shaxs va boshq) ni va alohida ijtimoiy vazifalar, ya'ni psixologik ekspertizasini tayinlash, tarkibini klassifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Kasbiy faoliyat psixologiyasini fan sifatidagi ahamiyatini aytib bering.

2. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

3. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani metodlarini tavsiflang.

4. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining qonuniyatlari va o'ziga xos tomonlari nimalarda ko'rinadi?

5. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani qaysi fanlar bilan uzviy bog'liq?

6. Kasbiy faoliyat psixologiyasining asosiy yo'nalishlari qaysilar?

7. Kasbiy faoliyat psixologiyasining dolzarb muammolari nimalardan iborat?

8. Kasbiy faoliyat psixologiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

9. Kasbiy faoliyat psixologiyasi muhim jihatlarini ko'rsating.

10. Kasb xodimlari faoliyatida psixologik bilimlarning o'rni va ahamiyati qanday?

Testlar

1. Psixika deganda nimani tushunamiz? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) Psixika - yuqori darajada tashkil topgan materiyaning tizimli xossasi (xususiyati), subyekt tomonidan obyektiv borliqni faol aks ettirish, xuddi shu asnoda o'z xulqi va faoliyatini shaxsan boshqarishidir;

b) Psixika - yuqori darajada tashkil topgan materiyaning tizimli xossasi (xususiyati), subyekt tomonidan obyektiv borliqni faol aks ettirish, mazkur borliq manzaralarini subyekt o'zidan uzoqlashtirmay ifodalashi, xuddi shu asnoda o'z xulqi va faoliyatini shaxsan boshqarishidir;

c) Psixika - yuqori darajada tashkil topgan materiyaning tizimli xossasi (xususiyati), mazkur borliq manzaralarini subyekt o'zidan uzoqlashtirmay ifodalashi, xuddi shu asnoda o'z xulqi va faoliyatini shaxsan boshqarishidir;

d) Psixika - yuqori darajada tashkil topgan materiyaning tizimli xossasi (xususiyati), subyekt tomonidan obyektiv borliqni faol aks ettirish, mazkur borliq manzaralarini subyekt o'zidan uzoqlashtirmay ifodalashi va faoliyatini shaxsan boshqarishidir.

2. Uning namoyon bo'lish shakllari va o'zaro bog'liqligi nimada kuzatiladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) psixik jarayonlar, psixologik holatlar, bardamlik, hayratlanish, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish, shaxsning xususiyatlarida kuzatiladi;

b) psixik jarayonlar, tetiklik, qiziquvchanlik, hayratlanish, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish, shaxsning xususiyatlarida kuzatiladi;

c) psixik jarayonlar, psixologik holatlar, bardamlik, tetiklik, qiziquvchanlik, hayratlanish, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish, shaxsning xususiyatlarida kuzatiladi;

d) psixik jarayonlar, psixologik holatlar, bardamlik, tetiklik, qiziquvchanlik, hayratlanish, shaxsning xususiyatlarida kuzatiladi.

3. Psixologiya nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) Psixologiya - psixikaning kelib chiqishi, shuningdek, insondagi onglik va ongsizlik fenomenlarining hilma-hil ko'rinishlarini o'rganuvchi fan;

b) Psixologiya - rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek,

insondagi onglilik va ongsizlik fenomenlarining hilma-hil ko'rinishlarini o'rganuvchi fan;

c) Psixologiya - psixikaning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek, fenomenlarining hilma-hil ko'rinishlarini o'rganuvchi fan;

d) Psixologiya - psixikaning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek, insondagi onglilik va ongsizlik fenomenlarining hilma-hil ko'rinishlarini o'rganuvchi fan.

4. Psixologiya nimani anglatadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) Psixologiya yunoncha «psixologos» so'zidan olingan bo'lib, «jon», «ruh» haqidagi fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi;

b) Psixologiya inglizcha «psixologos» so'zidan olingan bo'lib, «jon», «ruh» haqidagi fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi;

c) Psixologiya fransuzcha «psixologos» so'zidan olingan bo'lib, «jon», «ruh» haqidagi fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi;

d) Psixologiya ruscha «psixologos» so'zidan olingan bo'lib, «jon», «ruh» haqidagi fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi.

5. Psixologiya fanining obyektiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) Psixologiya fanining obyektiga psixika, shaxs va uning faolligi kiradi;

b) Psixologiya fanining obyektiga psixika, ong va ongsizlik, shaxs va uning faolligi kiradi;

c) Psixologiya fanining obyektiga ong, ongsizlik va uning faolligi kiradi;

d) Psixologiya fanining obyektiga psixika, ong va ongsizlik kiradi.


6. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasb doirasidagi munosabatlar va qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır;

b) odamlarning psixik faoliyatini boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır;

c) kasb doirasidagi munosabatlar, odamlarning psixik faoliyatini boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır;

d) kasb doirasidagi munosabatlar, odamlarning psixik



faoliyatini boshqarish mexanizmlarini o'rganuvchi fandır.

7. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining maqsadiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasb egalari faoliyatining taraqqiyot qonuniyatlari, turli toifadagi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir;

b) kasb egalari faoliyatining taraqqiyot qonuniyatlari, psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir;

c) turli toifadagi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir;

d) kasb egalari faoliyatining taraqqiyot qonuniyatlari, turli toifadagi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

8. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining predmetini nimalar tashkil etadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasb egalari psixikasini har tomonlama o'rganishdan hosil bo'lgan bilimlar, kasb egalarining ongi, ruhiyati, onglilik va ongsizlik holatidan hosil bo'lgan xulosalar, kasb egasi shaxsining to'zilishi, uning faoliyati va faolligini o'rganish orqali olingan nazariy va amaliy xulosalar;

b) kasb egalari psixikasini har tomonlama o'rganishdan hosil bo'lgan bilimlar, kasb egasi shaxsining to'zilishi, uning faoliyati va faolligini o'rganish orqali olingan nazariy va amaliy xulosalar;

c) kasb egalari psixikasini har tomonlama o'rganishdan hosil bo'lgan bilimlar, kasb egalarining ongi, ruhiyati, kasb egasi shaxsining to'zilishi, uning faoliyati va faolligini o'rganish orqali olingan nazariy va amaliy xulosalar;

d) kasb egalari psixikasini har tomonlama o'rganishdan hosil bo'lgan bilimlar, kasb egalarining ongi, ruhiyati, hosil bo'lgan xulosalar, uning faoliyati va faolligini o'rganish orqali olingan nazariy va amaliy xulosalar.

9. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining obyektiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasb egalarining psixologiyasi, shaxsning to'zilishi, shaxsning

faoliyati, shaxsning faolligi va uning shakllari;

b) kasb egalarining psixologiyasi, fuqarolarning onglilik va ongsizlik holatlari, shaxsning to`zilishi, shaxsning faoliyati, shaxsning faolligi va uning shakllari;

c) fuqarolarning onglilik va ongsizlik holatlari, shaxsning to`zilishi, shaxsning faoliyati, shaxsning faolligi va uning shakllari;

d) kasb egalarining psixologiyasi, fuqarolarning onglilik va ongsizlik holatlari, shaxsning to`zilishi, shaxsning faolligi va uning shakllari.

10. Psixologik qonuniyatlar jarayonining asosiy bosqichlariga nimalar kirishi mumkin? To`liq va aniq javobni belgilang.

a) tekshirish metodikasini tanlash, aniq ma'lumotlarni to'plash, aniq ma'lumotlarni ishlash, qonuniyatning ifodalanishi, qonuniyatni amalda qo'llash;

b) masalaning qo'yilishi, aniq ma'lumotlarni to'plash, aniq ma'lumotlarni ishlash, qonuniyatning ifodalanishi, qonuniyatni amalda qo'llash;

c) masalaning qo'yilishi, tekshirish metodikasini tanlash, aniq ma'lumotlarni to'plash, aniq ma'lumotlarni ishlash, qonuniyatning ifodalanishi, qonuniyatni amalda qo'llash;

d) masalaning qo'yilishi, tekshirish metodikasini tanlash, aniq ma'lumotlarni to'plash, qonuniyatning ifodalanishi, qonuniyatni amalda qo'llash.

11. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani o'rganishi kerak bo'lgan qonuniyatlarni nechta guruhga ajratish mumkin? To`liq va aniq javobni belgilang.

a) besh guruhga;

b) to`rt guruhga;

c) ikki guruhga;

d) uch guruhga.

12. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani o'rganishi kerak bo'lgan qonuniyatlarni qaysi guruhlarga ajratish mumkin? To`liq va aniq javobni belgilang.

a) shaxs va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan psixik qonuniyatlar, soha egasining psixikasini o'rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar, kasb egalariga har hil sabablar bilan murojaat qiladigan fuqarolarning psixologiyasini o'rganishga

qaratilgan psixologik qonuniyatlar;

b) shaxs va mexnat faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan psixik qonuniyatlar, kasb egalariga har hil sabablar bilan murojaat qiladigan fuqarolarning psixologiyasini o'rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar;

c) soha egasining psixikasini o'rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar, kasb egalariga har hil sabablar bilan murojaat qiladigan fuqarolarning psixologiyasini o'rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar;

d) shaxs va mexnat faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan psixik qonuniyatlar, soha egasining psixikasini o'rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar, murojaat qiladigan fuqarolarning psixologiyasini o'rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar.

13. Shaxsni o'rganishda biz psixik faoliyatning qaysi tashqi ko'rinishlariga duch kelamiz? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) shaxs faoliyatining mahsuli, psixik faoliyatning tashqi ko'rinish va tanada namoyon bo'lishi;

b) og'zaki va yozma nutq, shaxs faoliyatining mahsuli, psixik faoliyatning tashqi ko'rinish va tanada namoyon bo'lishi;

c) og'zaki va yozma nutq, psixik faoliyatning tashqi ko'rinish va tanada namoyon bo'lishi;

d) og'zaki va yozma nutq, shaxs faoliyatining mahsuli, tanada namoyon bo'lishi.

14. Psixik faoliyat jarayonini o'rganishda qaysi prinsiplarga asoslanadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) psixika taraqqiyotida faoliyatning yetakchi o'rin tutishi prinsipi, psixik hodisalarning o'zaro bog'liqlik prinsipi, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi;

b) psixika taraqqiyotida faoliyatning yetakchi o'rin tutishi prinsipi, psixik hodisalarning o'zaro bog'liqlik prinsipi, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi;

c) psixika taraqqiyotida faoliyatning yetakchi o'rin tutishi prinsipi, psixik hodisalarning o'zaro bog'liqlik prinsipi, psixik faoliyatni o'rganishda obyektivlik prinsipi, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi;

d) psixik hodisalarning o'zaro bog'liqlik prinsipi, psixik

faoliyatni o'rganishda obyektivlik prinsipi, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi.

15. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanini o'rganish jarayonida qaysi omillarga alohida e'tibor muhimdir? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) betartibsizlikning oldini olish, soha egalari o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish, fuqarolarning huquqiy bilimdonligini oshirish, inson omilini birinchi o'ringa olib chiqish;

b) betartibsizlikning oldini olish, betartibsizlikni batamom tugatish, fuqarolarning huquqiy bilimdonligini oshirish, inson omilini birinchi o'ringa olib chiqish;

c) betartibsizlikning oldini olish, betartibsizlikni batamom tugatish, soha egalari o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish, inson omilini birinchi o'ringa olib chiqish;

d) betartibsizlikning oldini olish, betartibsizlikni batamom tugatish, soha egalari o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish, fuqarolarning huquqiy bilimdonligini oshirish, inson omilini birinchi o'ringa olib chiqish.

16. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanini o'qitishda nimalarga e'tiborni qaratish zarur? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) bo'lg'usi kimyoviy texnologiya soha egalarini kasbiy psixologik bilimlar bilan qurollantirish, kasbiy vazifalarni hal etishda olingan nazariy bilimlardan mohirona foydalanish va ularni hayotga, amaliyotga tatbiq etish, mutaxassisligiga xos zamonaviy kasbiy fazilatlarni har tomonlama shakllantirish, kimyoviy texnologiya soha yo'nalishida ta'lim olayotgan mutaxassislarning kasbiy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish, kasbiy sezgirlik, xotira, tafakkur, fuqarolar bilan muloqotda bo'lish va psixologik aloqa o'rnatish mahoratiga ega bo'lish;

b) bo'lg'usi kimyoviy texnologiya soha egalarini kasbiy psixologik bilimlar bilan qurollantirish va ularni hayotga, amaliyotga tatbiq etish, mutaxassisligiga xos zamonaviy kasbiy fazilatlarni har tomonlama shakllantirish, kimyoviy texnologiya soha yo'nalishida ta'lim olayotgan mutaxassislarning kasbiy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish, kasbiy sezgirlik, xotira, tafakkur, fuqarolar bilan muloqotda bo'lish va psixologik aloqa o'rnatish mahoratiga ega bo'lish;

c) bo'lg'usi kimyoviy texnologiya soha egalarini kasbiy psixologik bilimlar bilan qurollantirish, kasbiy vazifalarni hal etishda olingan nazariy bilimlardan mohirona foydalanish va ularni hayotga, amaliyotga tatbiq etish, mutaxassisligiga xos zamonaviy kasbiy fazilatlarni har tomonlama shakllantirish, kasbiy sezgirlik, xotira, tafakkur, fuqarolar bilan muloqotda bo'lish va psixologik aloqa o'rnatish mahoratiga ega bo'lish;

d) bo'lg'usi kimyoviy texnologiya soha egalarini kasbiy psixologik bilimlar bilan qurollantirish, kasbiy vazifalarni hal etishda olingan nazariy bilimlardan mohirona foydalanish va ularni hayotga, amaliyotga tatbiq etish, mutaxassisligiga xos zamonaviy kasbiy fazilatlarni har tomonlama shakllantirish, kimyoviy texnologiya soha yo'nalishida ta'lim olayotgan mutaxassislarning kasbiy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish va psixologik aloqa o'rnatish mahoratiga ega bo'lish.

17. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani qanday vazifalarni bajaradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kimyoviy va psixologik bilimlarni chuqur o'rganish hamda ularni ilmiy jihatdan sintezlash, kimyo sohasi xodimlariga oid asosiy obyekt - inson xulq-atvorining ruhiy jihatlarini tushuntirish, kimyo sohasi munosabatlarga kirishayotgan subyektlar o'rtasidagi psixik jarayonlarni o'rganish va ularning ruhiy holatlarini ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy holatini tartibga solishni yanada takomillashtirish uchun tavsiyanomalar ishlab chiqish, kimyo sohasi xodimlari uchun psixologik xizmat ko'rsatish taktikasi va metodikasini ishlab chiqish;

b) kimyoviy va psixologik bilimlarni chuqur o'rganish hamda ularni ilmiy jihatdan sintezlash, kimyoviy texnologiya tushuncha va kategoriyalarining kimyoviy-psixologik mohiyatini ochib berish, kimyo sohasi xodimlariga oid asosiy obyekt - inson xulq-atvorining ruhiy jihatlarini tushuntirish, kimyo sohasi munosabatlarga kirishayotgan subyektlar o'rtasidagi psixik jarayonlarni o'rganish va ularning ruhiy holatlarini ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy holatini tartibga solishni yanada takomillashtirish uchun tavsiyanomalar ishlab chiqish, kimyo sohasi xodimlari uchun psixologik xizmat ko'rsatish taktikasi va metodikasini ishlab chiqish;

c) kimyoviy va psixologik bilimlarni chuqur o'rganish hamda

ularni ilmiy jihatdan sintezlash, kimyoviy texnologiya tushuncha va kategoriyalarining kimyoviy-psixologik mohiyatini ochib berish, kimyo sohasi xodimlariga oid asosiy obyekt - inson xulq-atvorining ruhiy jihatlarini tushuntirish, kimyo sohasi munosabatlarga kirishayotgan subyektlar o'rtasidagi psixik jarayonlarni o'rganish va ularning ruhiy holatlarini ko'rsatish, kimyo sohasi xodimlari uchun psixologik xizmat ko'rsatish taktikasi va metodikasini ishlab chiqish;

d) kimyoviy va psixologik bilimlarni chuqur o'rganish hamda ularni ilmiy jihatdan sintezlash, kimyoviy texnologiya tushuncha va kategoriyalarining kimyoviy-psixologik mohiyatini ochib berish, kimyo sohasi xodimlariga oid asosiy obyekt - inson xulq-atvorining ruhiy jihatlarini tushuntirish, kimyo sohasi munosabatlarga kirishayotgan subyektlar o'rtasidagi psixik jarayonlarni o'rganish va ularning ruhiy holatlarini ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy holatini tartibga solishni yanada takomillashtirish uchun tavsiyanomalar ishlab chiqish va metodikasini ishlab chiqish.

18. Psixik hodisalarning o'zaro bog'liqlik prinsipi deganda nimani tushunamiz? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) bizning ichki dunyomiz yagona, bir butun ekanligidan, ma'lum shart-sharoitlarda shakllangan, shaxslarning ayrim tomonlarini, biror psixik hodisaning boshqa psixik hodisalar bilan uzviy aloqasini va ta'sirini hisobga olish lozim bo'lishi tushuniladi;

b) bir butun ekanligidan, ma'lum shart-sharoitlarda shakllangan, muayyan shaxslarga xos miyaning mahsuli ekanligidan kelib chiqib, shaxslarning ayrim tomonlarini, biror psixik hodisaning boshqa psixik hodisalar bilan uzviy aloqasini va ta'sirini hisobga olish lozim bo'lishi tushuniladi;

c) bizning ichki dunyomiz yagona, bir butun ekanligidan, ma'lum shart-sharoitlarda shakllangan, muayyan shaxslarga xos miyaning mahsuli ekanligidan kelib chiqib, shaxslarning ayrim tomonlarini, biror psixik hodisaning boshqa psixik hodisalar bilan uzviy aloqasini va ta'sirini hisobga olish lozim bo'lishi tushuniladi;

d) bizning ichki dunyomiz yagona, bir butun ekanligidan, ma'lum shart-sharoitlarda shakllangan, muayyan shaxslarga xos miyaning mahsuli ekanligidan kelib chiqib, shaxslarning ayrim tomonlarini va ta'sirini hisobga olish lozim bo'lishi tushuniladi.

19. Psixik faoliyatni o'rganishda obyektivlik prinsipi deganda nimani tushunamiz? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) boshqa tekshiruvchilar qatori psixologdan ham hodisaning aniq tafsilotlarini o'rganishni va xulosalarga yo'l qo'ymaslikni talab

qilinishi tushuniladi;

b) boshqa tekshiruvchilar qatori psixologdan ham hodisaning aniq tafsilotlarini o'rganishni, real holatni ifodalamaydigan shoshilinch umumlashtirish talab qilinishi tushuniladi;

c) boshqa tekshiruvchilar qatori psixologdan ham hodisaning aniq tafsilotlarini o'rganishni, xulosalarga yo'l qo'ymaslikni talab qilinishi tushuniladi;

d) boshqa tekshiruvchilar qatori psixologdan ham hodisaning aniq tafsilotlarini o'rganishni, real holatni ifodalamaydigan shoshilinch umumlashtirish va xulosalarga yo'l qo'ymaslikni talab qilinishi tushuniladi.

20. Nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi deganda nimani tushunamiz? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) nazariya amaliyot uchun asos ekanligini, u o'z qobig'iga o'ralib olmasdan amaliyot uchun yangi-yangi yo'nalishlar ko'rsatishni anglatadi;

b) nazariya amaliyot uchun asos ekanligini, u o'z qobig'iga o'ralib olmasdan amaliyot uchun eski-eski yo'nalishlar ko'rsatishni anglatadi;

c) nazariya amaliyot uchun asos emasligini, u o'z qobig'iga o'ralib olmasdan amaliyot uchun yangi-yangi yo'nalishlar ko'rsatishni anglatadi;

d) nazariya amaliyot uchun umumiy tushuncha ekanligini, u o'z qobig'iga o'ralib olmasdan amaliyot uchun yangi-yangi yo'nalishlar ko'rsatishni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psvchology.ru
6. www.psycho.all.ru
7. www.psychology.net.ru

1.2. Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Kasb psixologiyasining ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini.



Tayanch soʻz va iboralar: Psixologik tashkilotlar, psixologik muammolar, jiddiy xatolarga yoʻl qoʻymaslik, qoʻllanilayotgan qoidalar, texnik taraqqiyot, tabiiy fanlar.

Hozirgi vaqtda kasbiy faoliyat psixologiyasi oʻzining alohida predmetiga, oʻzining maxsus vazifalariga va oʻzining maxsus tekshirish metodlariga ega. Kasbiy faoliyat psixologiyasi sohasiga taalluqli bir qancha psixologik tashkilotlar, oʻquv yurtlari, nashriyotlar mavjud. Kasbiy psixologlarning ilmiy assosiatlari, psixologlar jamiyatlari ish koʻrmoqda. Psixologik muammolar boʻyicha respublikamizda va xalqaro konferentsiyalar, kongresslar yigʻilib turibdi. Psixologiya fanini, uning ilmiy va amaliy ahamiyatini hozirgi kunda hamma tan olmoqda. Maʼlumki, psixologiya fani XX asrda falsafa fani tarkibidan mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Oʻz-oʻzidan ravshanki, bu bilan psixologiya falsafadan chetda qolib, undan butunlay uzoqlashgani yoʻq. Hozirgi zamon psixologiya fanining asosini falsafadagi ilmiy-falsafiy tasavvurlar, turli falsafiy qarashlar tashkil qiladi. Shu bilan birga psixologiya sohasida erishilayotgan ilmiy va amaliy yutuqlar oʻz navbatida falsafa fanini, falsafiy amaliyot va nazariyani boyitadi.

Kasbiy faoliyat psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi, uning shu yoʻnalishdagi muammolarni maʼlum maʼnoda oʻrganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bular birinchi novbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari boʻlib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei oʻziga xos va yetakchidir.

1. **Falsafa** va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan boʻlgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini toʻla anglash va uning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdagi oʻrni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid boʻlgan umumiy qonuniyatlar va prinsiplarni kasbiy psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga oʻzi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy

ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan-falsafa va kasbiy psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik, avvalo, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko'ndalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

2. **Sotsiologiya** fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, kasbiy psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko'lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan kasbiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladi. Qolaversa, xuquqiy, demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining xuquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar dunyoqarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbqiqiy ahamiyat kasb etadi.

3. **Pedagogika** bilan kasbiy psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi **shaxsni** kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbqiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham kasbiy psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish

texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish asosida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish kasbiy psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyillarini o'quv yurtida va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiiq etishni nazarda tutadi.

4. Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.q. psixik xodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob'ektiv o'rganish uchun material beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab tizimining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e'tirof etgan holda kasbiy psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etgani sababli, o'sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan (miya assimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik xodisalarni aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o'lchash metodlari) o'z o'rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan.

5. Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lgan XX va har bir alohida ma'lumotning qadr-qimmati oshishi kutilayotgan XXI asrda informatsion texnologiyalar va modellashtirish borasida kasbiy psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini

oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinni foydalanish zamonaviy kasbiy psixologiyasining jamiyatdagi o'rni va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

6. Texnika fanlari bilan kasbiy psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, asr oxiriga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo'lsa, texnika progressiga intilayotgan bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan «muloqot» qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo'lgan masaladir. Ayniqsa, mustaqil O'zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir-asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzarb bo'lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fuqaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va «odam-mashina» dialogining eng samarali yo'llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol «tillashadigan» malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

7. Iqtisodiyot bilan kasbiy psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. O'zbekiston Prezidenti SH.M. Mirziyayev fuqarolarda, birinchi noavbatda, yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkur shakllanishining jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e'tiborni qaratmoqda. Demak, yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida kasbiy psixologiya iqtisodiyot fanida qo'lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o'z novbatida iqtisodiy islohotlarning ob'ekti hamda sub'ekti bo'lmish

inson omilidagi barcha psixologik o'zgarishlarni aniqlash, taxlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak.

Yuqorida ta'kidlangan fan tarmoqlari kasbiy psixologiya bilan bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, kasb psixologiyasi o'sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi. Bu tibbiyot, qishloq ho'jaligi, kimyo va oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati, xuquq va madaniyatshunoslik kabi o'nlab fan sohaslaridir.

Yuqoridagi fikrlar va kasbiy psixologiya bilan bevosita aloqador bo'lgan fanlarning xarakteriga bog'liq tarzda bugungi kunda psixologiyadan nisbatan aloxida bo'lib ajralib chiqqan tarmoqlar to'g'risida ham fikr yuritish mumkin.

Psixologiyaning tarmoqlari. Psixologiyaning alohida tarmoqlarini differentsiatsiya qilish, eng avvalo, ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohaslar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsining esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin. Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson shaxsi faoliyat ko'rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko'ra ish olib borish muhimdir. Shuning uchun hozirgi davr mutaxassislari psixologik bilimlardan boxabar bo'lishlari lozimdir.

Psixologiyaning 300dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi: masalan,

- **umumiy psixologiya** - psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlari va ularning o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi;
- **pedagogik psixologiya** - kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi;
- **yosh davr psixologiyasi** - turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini,

shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini, individning yoshiga mos tarzda o'zgarishi tamoyillarini o'rganadi;

- **ijtimoiy psixologiya** - odamlarning jamiyatda birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi;

- **mehnat psixologiyasi** - kishi mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini, qonuniyatlarini o'rganadi;

- **muxandislik psixologiyasi** - avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorining faoliyatini, **odam - texnika** o'rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi;

- **yuridik psixologiya** - huquq sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi;

- **harbiy psixologiya** - kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, zobitlar bilan oddiy askarlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;

- **savdo psixologiyasi** - jamiyatda tijoratning psixologik shart-sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi. Bu sohadan ajrab chiqqan, modalar psixologiyasi inson didi va uning xulqda aks etishi kabi qator masalalarini o'rganadi;

- **tibbiyot psixologiyasi** - shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi.

Shuningdek psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, sport psixologiyasi, psixodiagnostika, siyosiy va tashkiliy psixologiya kabi boshqa ko'plab sohalar mavjudki, ularning har biri jamiyatdagi real ehtiyojlar va ularni qondirishda psixologiyaning fan sifatidagi o'rni va maqsadidan kelib chiqadi.

Hozirgi zamon texnik taraqqiyoti kishi psixikasiga katta talablar qo'yadi. Barcha sohalarda psixik omillarning roli oshib bormoqda. Kishining xotirasiga, tafakkuriga, idrokiga, temperament xususiyatlariga, reaksiya tezligini hisobga olishga e'tibor kuchaymoqda. Chunki odamning ishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasligi, ishni buzmasligi uning psixik va shaxsiy fazilatlariga ko'p jihatdan bog'liq. Shu sababli "Odam - mashina" tizimini to'g'ri tashkil qilishda psixologiya fanining ahamiyati ortib bormoqda. Bu

esa, texnik fanlar va psixologiya o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga, bir-biriga kirishib ketishiga olib kelmoqda.

Psixologiya va pedagogika o'rtasidagi aloqalarni alohida ko'rsatib o'tish lozim. Garchi psixologiya va pedagogika o'zaro bog'liq fanlar bo'lsada, ular orasidagi aloqa ko'p yillar mobaynida ko'p jihatdan psixologiyaning pedagogikaga "moslashuviga", pedagogika esa, psixologiya sohasida erishilgan "tayyor ma'lumotlarni" yuzaki hisobga olish tarzida bo'ldi.

Har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasi va psixologiya sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda psixologiyaning imkoniyatlaridan keng foydalanish imkonini beradi.

Psixologiya oldida turgan vazifalardan biri, pedagogik amaliyotda qo'llanilayotgan qoidalarni (ta'lim va tarbiya mazmuni, metodlari, usullari va h.k.) psixologik jihatdan asoslab berishdan iborat emas. Psixologiya pedagogik amaliyotdan oldinda borishi, pedagogika uchun yangi yo'llar ko'rsatishi lozim. Psixologiyaning yordamisiz pedagogika o'z oldiga qo'ygan ko'plab vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila olmaydi. Chunki texnik taraqqiyot, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan informatsiyalar hajmi va o'zlashtirish sur'atining keskin oshishi, mustaqil va ijodiy fikrlashga talabning oshishi amalda psixologik bilimlardan keng foydalanishni taqozo etadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1) Hozirgi vaqtda psixologiya o'zining alohida predmetiga, o'zining maxsus vazifalariga va o'zining maxsus tekshirish metodlariga ega. Bu haqida Sizning fikringiz qanday?
- 2) Psixologiya qaysi fanlar bilan chambarchas bog'liq?
- 3) Nima uchun psixologiya va pedagogika o'rtasidagi aloqalarni alohida ko'rsatib o'tish lozim?
- 4) Psixologiyaning 300dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi. Bu haqida Sizning fikringiz qanday? O'z fikringizni bayon eting.
- 5) Hozirgi kunda kishining xotirasiga, tafakkuriga, idrokiga, temperament xususiyatlariga, reaksiya tezligini hisobga olishga

e'tibor kuchaymoqda. Bu haqida Sizning fikringiz qanday? O'z fikringizni bayon eting.

6) Psixologiya oldida turgan asosiy vazifalarga nimalar kiradi?

Testlar

1. Psixologiya fanini qaysi fan tarkibidan ajralib chiqqan? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) falsafa;
- b) dinshunoslik;
- c) tarix;
- d) pedagogika.

2. Hozirgi zamon psixologiya fanining asosini nima tashkil qiladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) falsafadagi ilmiy-falsafiy tasavvurlar, falsafiy amaliyot va nazariya tashkil qiladi;
- b) falsafadagi ilmiy-falsafiy tasavvurlar, turli falsafiy qarashlar, falsafiy amaliyot va nazariya tashkil qiladi;
- c) turli falsafiy qarashlar, falsafiy amaliyot va nazariya tashkil qiladi;
- d) falsafadagi ilmiy-falsafiy tasavvurlar, turli falsafiy qarashlar tashkil qiladi.

3. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani nima uchun xizmat qiladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) odamlarda milliy g'urning shakllanishiga xizmat qiladi;
- b) odamlarda ichki hissiyotning shakllanishiga xizmat qiladi;
- c) odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qiladi;
- d) odamlarda ichki tuyg'ularning shakllanishiga xizmat qiladi.

4. Psixologiya falsafa bilan qanday bog'liq? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chib, tabiat, jamiyat va prinsiplarni kasbiy psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi;

b) inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan

kelib chib, tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi;

c) inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chib, tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va prinsiplarni kasbiy psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi;

d) inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chib, tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va prinsiplarni kasbiy psixologiya falsafaning bazasidan oladi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi.

5. Psixologiya sotsiologiya bilan qanday bog'liq? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladi, xuquqiy madaniyatni ijtimoiy fikr va insonlar dunyoqarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbqiqiy ahamiyat kasb etadi;

b) jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladi, xuquqiy madaniyatni va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbqiqiy ahamiyat kasb etadi;

c) jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladi, xuquqiy madaniyatni va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash, ijtimoiy fikr va insonlar dunyoqarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va metodlarini birlashtirish tadbqiqiy ahamiyat kasb etadi;

d) jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladi, xuquqiy madaniyatni va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash, ijtimoiy fikr va insonlar dunyoqarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbiriqiy ahamiyat kasb etadi.

6.Psixologiya pedagogika bilan qanday bog'liq? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzini oshirish, yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbiriq etish, yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish asosida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etiladi;

b) yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzini oshirish, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbiriq etish, yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish asosida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etiladi;

c) yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzini oshirish, yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi va tarbiya jarayonlariga tadbiriq etish, yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish asosida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etiladi;

d) yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzini oshirish, yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbqiq etish va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish asosida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etiladi.

7. Psixologiya tabiiy fanlar bilan qanday bog'liq? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) psixik xodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish, bosh miyaning hamda markaziy asab tizimining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e'tirof etgan holda kasbiy psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi;

b) psixik xodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob'ektiv o'rganish uchun material beradi, bosh miyaning hamda markaziy asab tizimining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e'tirof etgan holda kasbiy psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi;

c) psixik xodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob'ektiv o'rganish uchun material beradi, bosh miyaning hamda markaziy asab tizimining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi;

d) psixik xodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob'ektiv o'rganish uchun material beradi va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e'tirof etgan holda kasbiy psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi.

8. Psixologiya kibernetika bilan qanday bog'liq? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi, muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinli foydalanish, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi;

b) inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi, muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinli foydalanish, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi;

c) inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi, muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinli foydalanish, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi;

d) inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi, muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, turli kibernetik modellaridan o'rinli foydalanish, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

9. Psixologiya texnika fanlari bilan qanday bog`liq? To`liq va aniq javobni belgilang.

a) murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo`nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo`lgan masaladir;

b) murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan bu ikki yo`nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi, texnika progressiga intilayotgan bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan «muloqot» qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo`lgan masaladir;

c) murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo`nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo`lgan masaladir;

d) murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo`nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi, texnika progressiga intilayotgan bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan «muloqot» qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo`lgan masaladir.

10. Psixologiya iqtisodiyot bilan qanday bog`liq? To`liq va aniq javobni belgilang.

a) bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o`tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o`ziga xos namoyon bo`lish qonuniyatlarini o`rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi, qo`lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olib, iqtisodiyot o`z novbatida iqtisodiy islohotlarning ob`ekti hamda sub`ekti bo`lmish inson omilidagi

barcha psixologik o'zgarishlarni aniqlash, taxlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak;

b) bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi, qo'lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olib, iqtisodiyot o'z novbatida iqtisodiy islohotlarning ob'ekti hamda sub'ekti bo'lmish inson omilidagi barcha psixologik o'zgarishlarni aniqlash, taxlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak;

c) bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi, qo'lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olib, taxlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak;

d) iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi, qo'lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olib, iqtisodiyot o'z novbatida iqtisodiy islohotlarning ob'ekti hamda sub'ekti bo'lmish inson omilidagi barcha psixologik o'zgarishlarni aniqlash, taxlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak.

11. Umumiy psixologiya nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) psixik faoliyatning ayrim qonuniyatlari va ularning o'ziga xos jihatlarini o'rganadi;

b) psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlari va ularning o'ziga xos jihatlarini o'rganadi;

c) psixik faoliyatning ba'zi qonuniyatlari va ularning o'ziga xos jihatlarini o'rganadi;

d) psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlari va ularning rivojlanishini o'rganadi.

12. Pedagogik psixologiya nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kishiga ta'lim va tarbiya berishning barcha qonuniyatlarini o'rganadi;

b) kishiga ta'lim va tarbiya berishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi;

c) kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganadi;

d) kishiga ta'lim va tarbiya berishning asosiy qonuniyatlarini o'rganadi.

13. Yosh davr psixologiyasi nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) turli yoshdagi odamlarning psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini, individning yoshiga mos tarzda o'zgarishi tamoyillarini o'rganadi;

b) turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini, individning yoshiga mos tarzda o'zgarishi tamoyillarini o'rganadi;

c) turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi, individning yoshiga mos tarzda o'zgarishi tamoyillarini o'rganadi;

d) turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini, individning yoshiga mos tarzda o'zgarishi tamoyillarini o'rganadi.

14. Ijtimoiy psixologiya nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) odamlarning jamiyatda birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi;

b) odamlarning jamiyatda birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi;

c) odamlarning jamiyatda birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi;

d) odamlarning jamiyatda birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi;

15. Mehnat psixologiyasi nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kishi mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganadi;

b) kishi mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini, qonuniyatlarini o'rganadi;

c) kishi mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini, qonuniyatlarini o'rganadi

d) kishi mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning qonuniyatlarini o'rganadi.

16. Muxandislik psixologiyasi nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) odam - texnika o'rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi;

b) avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorining faoliyatini va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi;

c) avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorining faoliyatini, odam - texnika o'rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi;

d) avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorining faoliyatini, odam - texnika o'rtasida funksiyalarni taqsimlashini o'rganadi.

17. Yuridik psixologiya nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) tarbiya sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi;

b) iqtisod sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi;

c) odob sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi;

d) huquq sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi.

18. Harbiy psixologiya nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, zobitlar bilan oddiy askarlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;

b) kishining umumiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, zobitlar bilan oddiy askarlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;

c) kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan hatti-harakatlari, zobitlar bilan oddiy askarlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;

d) kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan hislatlari, zobitlar bilan oddiy askarlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi.

19. Savdo psixologiyasi nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) jamiyatda tijoratning psixologik shart-sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga, jinsga oid xususiyatlarini, modalar psixologiyasi inson didi va uning xulqda aks etishi kabi qator masalalarini o'rganadi;

b) jamiyatda tijoratning psixologik shart-sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi inson didi va uning xulqda aks etishi kabi qator masalalarini o'rganadi;

c) jamiyatda tijoratning psixologik shart-sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, va uning xulqda aks etishi kabi qator masalalarini o'rganadi;

d) jamiyatda tijoratning psixologik shart-sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi inson didi va uning xulqda aks etishi kabi qator masalalarini o'rganadi.

20. Tibbiyot psixologiyasi nimani o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) tadbirkor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi;

b) fidokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi;

c) shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi;

d) shifokor faoliyati psixologiyasini, bola xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psvcho.all.ru
7. www.psvchology.net.ru

1.3.Kuzatish metodlari. Test metodlari



Tayanch so'z va iboralar: Ilmiy o'rganish metodlari, psixologik tadqiqot, individual-psixologik xususiyatlar, ruhiy xususiyatlar, eksperimentning sifati, kuzatish metodi, odamlarning diqqati, tashqi kuzatish, o'zini o'zi kuzatish (introspeksiya), test metodi, proektiv testlar.

Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining o'ziga xos ilmiy o'rganish metodlari mavjud. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining ilmiy o'rganish metodlari («metod» grekcha so'z bo'lib, «biror narsaga borish yo'li» degan ma'noni anglatadi) soha egasining psixik jarayonlari, holatlari va individual xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni egallashda qo'llaniladigan nazariy tadqiqotlar hamda amaliy harakat qilish usullari va ularning yig'indisidir.

Psixologik tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

- soha ishi materiallarini psixologik tahlil qilish metodi;
- anamnestik (biografik) metod;
- kuzatish va tabiiy eksperiment metodlari;
- soha egasining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning instrumental (test, anketa va boshq.) metodlari.

Ushbu metodlarning qo'llanishi ziddiyatli vaziyatlarda

subyektning xatti-harakati, emotsional holatlari, tafakkuri va shu kabilarni qayd etishning zamonaviy yo'llarini bilishni, shuningdek, individual xatti-harakat fenomenologiyasini tahlil qilish ko'nikmalarini talab etadi.

Individual-psixologik xususiyatlarni o'rganishning instrumental metodlariga, avvalo, eksperiment metodining turli variantlari, shuningdek, har hil testlar o'tkazish, anketalar, so'rovnomalar kiradi. Ularning mazmuni psixodiagnostikaga oid asosiy qo'llanmalarda berilgan.

Metodlarning ushbu guruhi insonning ayrim ruhiy xususiyatlarining doimiyligi, yoki o'zgaruvchanligi darajasi, to'zilishini aniqlash uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega. Biroq, olinadigan ba'zi materiallarda ayrim xatolar ham bo'lishi muqarrar. Ushbu xatolar inson shaxsini psixologik o'rganishning o'ziga xos «artefaktlari» hisoblanadi. U eksperiment tadqiqotining barcha bosqichlarida maxsus o'rganish va hisobga olishni talab qiladi.

Har bir muayyan eksperimentning sifati ko'p jihatdan tadqiqot metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Eksperimental, testga oid, anketalashtirish va boshqa metodlarni birgalikda qo'llash, olingan ma'lumotlarni o'zaro solishtirish, ekspertiza predmetining har tomonlama tavsiflanishini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan asossiz tanqidga uchramaslik uchun, psixolog-ekspertlar ushbu eksperiment aktlarida nafaqat ularning diagnostik (tashxis qo'yish) imkoniyatlarini ko'rsatishlari, balki turli psixik (ruhiy) hodisalarning yaxlit manzarasini tiklashga imkon beruvchi tizimli tavsiflar sohasida ham nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishlari zarur.

Endi tajribada eng ko'p qo'llanadigan empirik metodlar haqida kengroq ma'lumot beramiz.

Kuzatish metodi. Kasbiy faoliyat psixologiyasida bu metodning ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (o'zini o'zi) kuzatish turlari bor. Soha egalari psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- 1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;
- 2) kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi;
- 3) sinaluvchining yoshi, jinsi aniqlanadi;
- 4) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;
- 5) kuzatish qancha davom etishi qat'iyashtiriladi;

6) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi;

7) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o'tkazilishi) tayinlanadi;

8) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitofon, videomagnitofon va boshqalar) taxt qilinadi.

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokazolar o'rganiladi. Ammo, o'ta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi. Masalan, go'dak bolani kuzatishda uning harakatlari, o'yinchoqlarga munosabati, his-tuyg'usi, talpinishi, mayli, xohishi aniqlanadi. O'quvchining darsdagi holatini kuzatishda esa, diqqatining xususiyati, tashqi qo'zg'atuvchi bilan ta'sirlanishi, temperamenti, hatti-harakatining sur'ati, emotsional kechinmasining o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar to'plashga imkoniyati tug'iladi. O'spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usining o'zgarish xususiyatlari, g'alabaga intilishi, o'zining harakatini idora qila olishi yuzasidan materiallar yig'ish mumkin. Soha egasining dastgoh yonidagi faoliyatini kuzatish natijasida uning o'z diqqatini taqsimlashi, qiyin damlarda o'zini tutishi, imo-ishoralari, tashqi qo'zg'atuvchidan ta'sirlanish darajasi haqida keng ma'lumotlar yig'iladi. Keksalarning muloqot jarayonini kuzatish ularning xarakteri, nutq faoliyati, his-tuyg'usi, ekstravertivligi yoki intravertivligi, qiziquvchanligi va ruhiyatining boshqa xususiyatlarini aniqlash demakdir.

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish: ish ustidagi qayfiyatini, fikrning muayyan ob'ektga yo'naltirilganini, tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga berilmaslikni, chehradagi tashvish va iztirobni, ko'zdagi g'ayri-tabiiylikni, shuningdek, sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni kuzatib tafakkurning kechishidagi o'zgarishni aniqlash mumkin. Bulardan tashqari, qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi, hissiyotning beqarorlashuvi ham inson ruhiyatidagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumot beradi.

Kasbiy faoliyat psixologiyasida o'zini o'zi kuzatishdan (introspeksiya) ham foydalaniladi. Ko'pincha tajribali psixolog yoki yuqori malakali mohir soha egasi o'zini o'zi kuzatish orqali ilmiy xulosa chiqara biladi. Masalan, o'z tafakkurini kuzatib o'zidagi emotsional o'zgarish haqida, shuningdek, tafakkurning ichki mexanizmlari vujudga kelishi va kechishi haqida ma'lumot oladi. Natijada tafakkurning sifati, mazmuni, mohiyati va qay tarzda, qanday tezlikda, qay shaklda, ro'y berishini kuzatadi.

Chet el psixologiyasida o'zini o'zi kuzatishning inson ruhiyatini o'rganishdagi rolini ifodalovchi ilmiy-amaliy materiallar to'plangan. Introspeksiya yo'nalishining yirik namoyondalari o'zlarini o'zlari kuzatganlar va to'plagan materiallarini tahlil qilib umumiy psixologik qonuniyatlarni yaratishga harakat qilganlar. Lekin, inson turli vaziyatlarda o'zini bir hil boshqara olmaydi va shuning uchun bu metodning ilmiy ahamiyati katta emas.

Shunday qilib, kuzatish metodining qulay va samarali jihatlari bilan birga zaif tomonlari ham mavjud. Shu sababli insonning murakkab psixikasi boshqa metodlardan foydalanib tadqiq qilinadi.

Test metodi. Test-inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart masala, topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi. Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llanadi. Test metodining qimmatli tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog'liqdir.

Test bu qisqa topshiriq bo'lib, bajarilgan topshiriqqa sonlar va sifat jihatidan berilgan baho ularning strukturasiidagi asosiy psixik faoliyatlarining kamolot darajasidan ko'rsatkichi bo'ladi. Testlar muayyan qobiliyat bilim, ko'nikma, malakalar bor yoki yo'qligini aniqlash, shaxslar ba'zi sifatlarini tavsiflash hamda u yoki bu kasbga layoqatni bilish imkonini beradi. Test psixodiagnostik va ayniqsa psixoprognostik qiymati ma'lum darajada ilmiy tajribaga hamda test asosida qo'yilgan psixologik faktlar ishonchliligiga bog'liq. Yetarli darajada ilmiy asoslanmagan, to'g'ri nazariyaga tayanmagan, ba'zan bu nazariyani "moslashtirishga" urinish (soddalashtirish)

g'oyat jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin. Testlarga ancha asosli "qo'llanilishi" va doimo asoslanmagan "testlashni" farqlash kerak. Keyingisida doimo testlar yordamida olinadigan natijalardan psixologik tahlil asossiz ravishda to'g'ri yechimlar soni matematik manipulyatsiyasi bilan almashtiriladi. Boshqa metodlar bilan olingan psixologik materiallar ishlashdan matematik metodi o'zidan prinsipial yondashuviga ega bo'la turib, ko'pincha, modellashtirish metodi bilan uyg'unlashib ketadi va psixik hodisalarning miqdoriy ifodasi bilan matematik model yaratish imkonini beradi. Bu metodda u yoki bu psixologik hodisani o'rganish natijalari tekshirilayotgan mehnat jarayonlari hamda shaxs xususiyatlari tahlilini osonlashtiradigan diagramma, grafiklar, sxemalar tarzida ko'rsatmali ifodalanadi. Mehnat psixologiyasiga oid konkret tadqiqotlar metodlaridan o'zlashtirilishi tekshiriladi.

Test metodi oxirgi paytda hayotimizga dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kirib, ular yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida kam sifat, kam miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin. Ayni testga qo'yilgan talab hech qachon o'zgarmaydi, hattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan holda ishlatiladi. Masalan, Ravenning aqliy intellektni o'lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari shular jumlasidandir.

Test-surov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berish so'raladi.

Test-topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreativlikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xohlaganicha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreativligiga baho beriladi, miqdoriy ko'rsatkich aniqlanadi. Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariга nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija

bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi, kamchiligi - ba'zan tekshiriluvchi, agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni falsifikatsiya qilishi mumkinligidir.

Testlar ichida *proektiv testlar* deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi, ya'ni shunday topshiriq beriladiki, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi. Masalan, mashhur Rorshaxning «siyox dog'lari» testi, yoki TAT (tematik appersepshon test), tugallanmagan xikoyalar kabi testlarda bir narsaning proeksiyasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning moxiyati aniqlanadi. Usha 1921 yilda kashf etilgan «siyox dog'lari» va ularga qarab tekshiriluvchining nimalarni eslayotganligi, dog'lar nimalarga o'xshayotganligiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo'nalishlari, xayotiy tamoyillari, qadriyatlariga munosabati, ishni bajarish paytidagi emotsional xolatlari aniqlanadi. Bu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat kasbiy faoliyat psixologiyasida qo'llash va natijalarni moxirona taxlil qilish talab qilinadi.

1905 yilda, ya'ni fransuz psixologi A. Bine va uning shogirdi A. Simon insonning aqliy o'sish va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini olg'a surganidan keyin kasbiy faoliyat psixologiyasida test metodi qo'llana boshlandi.

Chet el psixologlari testlarni shaxsning iste'dod darajasini aniqlash vositasi deb biladilar. Biroq test tekshirilayotgan hodisalarning psixologik mezoni hisoblanmaydi. Ma'lumki, bir muammoning yechimini izlash turli psixologik vositalar bilan amalga oshiriladi. Chet el testologlari tadqiqot ob'ektlarini o'zgartirib turadilar va qobiliyat, tafakkur, bilim, ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar. Sinash jarayonida sinaluvchilarning emotsional holati va salomatligiga bog'liq ruhiy kechinmalarni inobatga olmaydilar. Psixologlar K.M. Gurevich, V.A. Krutetskiy va boshqalar qo'llaydigan testlar tubdan boshqacha prinsip asosida tuzilgan. Ular testlarning tafakkur ko'rsatkichi (indikator) bo'lishi uchun harakat qildilar va muayyan yutuqlarga erishdilar. Shuningdek, tafakkur jarayonining sifat xususiyatlarini bilmay turib, qobiliyatning mohiyatini yoritib bo'lmaydi, degan qoidaga amal qilgan holda testlardan foydalanmoqdalar.

Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan Rorshax, Rozensveyg, Kettel, Vartegg, Veksler, Meyli, Ayzenk, Anastazi, Raven va boshqalar ijodining namunalari kiritish mumkin. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish (maqsadga yetish) testlari (ular darsliklarda berilgan va bilim, malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellekt testlari (aqliy rivojlanish darajasini o'lchashga mo'ljallangan), shaxs testlari (inson irodasi, emosiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va xulqini baholashga yo'naltirilgan diagnostik usullardan iboratdir), shaxs «loyihasi» (proekti) testlari (savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni tahlil qilib shaxs. xususiyatining «loyihasi» ishlab chiqiladi) kiradi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1) Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining o'ziga xos ilmiy o'rganish metodlari mavjud. Bu haqda o'z fikringizni bildiring.
- 2) Psixologik tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy metodlar nimalardan iborat?
- 3) Individual-psixologik xususiyatlarni o'rganishning instrumental metodlariga nimalar kiradi?
- 4) Kasbiy faoliyat psixologiyasida kuzatish metodining ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (o'zini o'zi) kuzatish turlari bor. O'z fikringizni mustaqil bildiring.
- 5) Soha egalari psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun nimalar amalga oshiriladi.
- 6) Kuzatish metodining qulay va samarali jihatlari bilan birga zaif tomonlari ham mavjud. Bu fikrga qanday qaraysiz?
- 7) Test metodi haqida nima deya olasiz? O'z fikringizni bayon eting.
- 8) Testlar ichida *proektiv testlar* deb nomlanuvchi testlar ham bor. Ularning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
- 9) Nima uchun chet el psixologlari testlarni shaxsning iste'dod darajasini aniqlash vositasi deb biladilar. Buning asosiy sababi nimada?

Testlar

1. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining ilmiy o'rganish metodlariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) soha egasining psixik jarayonlari, holatlari va individual xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni egallashda qo'llaniladigan nazariy tadqiqotlar hamda amaliy harakat qilish usullari va ularning yig'indisidir;

b) soha egasining psixik jarayonlari, holatlari va individual xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni egallashda qo'llaniladigan nazariy tadqiqotlar hamda ularning yig'indisidir;

c) soha egasining psixik jarayonlari, holatlari va individual xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni egallashda qo'llaniladigan nazariy tadqiqotlar hamda amaliy harakat qilish usullari;

d) soha egasining holatlari va individual xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni egallashda qo'llaniladigan nazariy tadqiqotlar hamda amaliy harakat qilish usullari va ularning yig'indisidir.

2. Psixologik tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy metodlar nimalardan iborat? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) soha ishi materiallarini psixologik tahlil qilish metodi, kuzatish va tabiiy eksperiment metodlari, soha egasining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning instrumental metodlari;

b) soha ishi materiallarini psixologik tahlil qilish metodi, anamnestic (biografik) metod, kuzatish va tabiiy eksperiment metodlari, soha egasining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning instrumental metodlari;

c) soha ishi materiallarini psixologik tahlil qilish metodi, anamnestic (biografik) metod, soha egasining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning instrumental metodlari;

d) soha ishi materiallarini psixologik tahlil qilish metodi, anamnestic (biografik) metod, kuzatish va soha egasining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning instrumental metodlari.

3. Individual-psixologik xususiyatlarni o'rganishning instrumental metodlariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) har hil testlar o'tkazish, anketalar, so'rovnomalar kiradi;

b) eksperiment metodining turli variantlari, anketalar, so'rovnomalar kiradi;

c) eksperiment metodining turli variantlari, har hil testlar o'tkazish, anketalar, so'rovnomalar kiradi;

d) eksperiment metodining turli variantlari, anketalar, so'rovnomalalar kiradi.

4.Soha egalari psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun nimalar amalga oshiriladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi, tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi, kuzatish qancha davom etishi qat'iyashtiriladi, kuzatish insonning qaysi faoliyatida amalga oshirilishi tavsiya qilinadi, kuzatishning shakli tayinlanadi, kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari taxt qilinadi;

b) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi, kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi, sinalluvchining yoshi, jinsi aniqlanadi, kuzatish insonning qaysi faoliyatida amalga oshirilishi tavsiya qilinadi, kuzatishning shakli tayinlanadi, kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari taxt qilinadi;

c) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi, kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi, sinalluvchining yoshi, jinsi aniqlanadi, tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi, kuzatish qancha davom etishi qat'iyashtiriladi, kuzatishning shakli tayinlanadi, kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari taxt qilinadi;

d) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi, kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi, sinalluvchining yoshi, jinsi aniqlanadi, tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi, kuzatish qancha davom etishi qat'iyashtiriladi, kuzatish insonning qaysi faoliyatida amalga oshirilishi tavsiya qilinadi, kuzatishning shakli tayinlanadi, kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari taxt qilinadi.

5.Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha qanday ma'lumotlar olish mumkin? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) ish ustidagi qayfiyatini, fikrning muayyan ob'ektga yo'naltirilganini, tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga berilmaslikni, chehradagi tashvish va iztirobni, ko'zdagi g'ayri-tabiiylikni, sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni kuzatib tafakkurning kechishidagi o'zgarishni aniqlash mumkin.

b) ish ustidagi qayfiyatini, tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga berilmaslikni, chehradagi tashvish va iztirobni, ko'zdagi g'ayri-tabiiylikni, sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni kuzatib tafakkurning kechishidagi o'zgarishni aniqlash mumkin.

c) ish ustidagi qayfiyatini, fikrning muayyan ob'ektga yo'naltirilganini, chehradagi tashvish va iztirobni, ko'zdagi g'ayri-tabiiylikni, sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni kuzatib tafakkurning kechishidagi o'zgarishni aniqlash mumkin.

d) ish ustidagi qayfiyatini, fikrning muayyan ob'ektga yo'naltirilganini, tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga berilmaslikni, chehradagi tashvish va iztirobni, ko'zdagi g'ayri-tabiiylikni, sinchkovlik kabi ruhiy holatlarni kuzatib tafakkurning kechishidagi o'zgarishni aniqlash mumkin.

6. Test deganda nimani tushunamiz?

- a) Test-nemischa so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir;
- b) Test-inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir;
- c) Test-fransuzcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir;
- d) Test-lotincha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir.

7. Test deb nimaga aytiladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart masala, topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi;

b) shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan, topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi;

c) shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart masala, topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi;

d) shaxsning qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart masala, topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi;

8. Test-surov nimalarni taqozo etadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) keyindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi;

b) bir soat oldin qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi;

c) oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi;

d) yari soat oldin qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi.

9. Test-topshiriq nimani nazarda tutadi?

a) odam hatti-harakatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi;

b) odam yurish-turishini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi;

c) odam uyqusini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni

nazarda tutadi;

d) odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi.

10. Proektiv testlar deb nomlanuvchi testlar nimani nazarda tutadi?

a) testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi;

b) testning asl maqsadi tekshiriluvchiga ayon bo'ladi, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi;

c) testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib nimani aniqlashi mumkinligini biladi;

d) testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'lmaydi, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi.

11. Test metodi qachon qo'llana boshlandi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) 1904 yildan;

b) 1905 yildan;

c) 1906 yildan;

d) 1907 yildan.

12. Test metodi qachon qo'llana boshlandi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) nemis psixologi A. Bine va uning shogirdi A. Simon;

b) ingliz psixologi A. Bine va uning shogirdi A. Simon;

c) fransuz psixologi A. Bine va uning shogirdi A. Simon;

d) italyan psixologi A. Bine va uning shogirdi A. Simon.

13. Chet el testologlari tadqiqot ob'ektlarini qanday o'rganishga intiladilar? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) bilim, ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar;

b) qobiliyat, tafakkur hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar;

c) qobiliyat, ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar;

d) qobiliyat, tafakkur, bilim, ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar.

14. Chet el psixologlari testlarni qanday vosita sifatida biladilar? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) shaxsning iste'dod darajasini aniqlash vositasi deb biladilar;

b) shaxsning harakat darajasini aniqlash vositasi deb biladilar;
c) shaxsning iste'dodriyojlanish darajasini aniqlash vositasi deb biladilar;

d) shaxsning passif darajasini aniqlash vositasi deb biladilar.

15. Chet el testologlari tadqiqot ob'ektlarini nima sababdan o'zgartirib turadilar? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) qobiliyat, ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar;

b) qobiliyat, tafakkur, bilim, ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar;

c) bilim, ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar;

d) qobiliyat, tafakkur, bilim, malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar.

16. Testlarning tafakkur ko'rsatkichi (indiqtatori) bo'lishi uchun harakat qilgan va muayyan yutuqlarga erishgan olimlar nomini to'g'ri belgilang.

a) O.K. Gurevich, A.A. Krutetskiy;

b) M.K. Gurevich, A.V. Krutetskiy;

c) K.M. Gurevich, V.A. Krutetskiy;

d) M.M. Gurevich, V.K. Krutetskiy.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.

2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.

3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1-2 kitob.

4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b

5. www.expert.psychology.ru

6. www.psycho.all.ru

7. www.psychology.net.ru

1.4. Kasbning psixologik mohiyatini ochishda fanlar integratsiyasiga asoslanuvchi kompleks (majmuaviy) metodlari.



Tayanch soʻz va iboralar: Tarixiy taraqqiyot, kasbiy maslaxat, kasbiy saralash, kasbga moslashish, kasb tanlashga yoʻllanma, kasbga moslashishning muvaffaqiyatliligi, kasb tanlashga yoʻllanma, mehnat psixologiyasi namoyandalari.

Kasb psixologiyasi alohida predmet sifatida XIX asrning boshlarida vujudga kelgan boʻlishiga qaramay, uning mustaqil fan sifatida rivojlanishi va qaror topish yoʻli ancha murakkab kechgandir. Mazkur ilmning rivojlanishiga turli dunyoqarashlar oʻrtasida olib borilgan doimiy kurash katta taʼsir koʻrsatgan. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining u yoki bu bosqichida qanday dunyoqarash ustuvorligiga qarab, tekshirishlar darajasi va sifati, olingan natijalarni qanday izohlash zarurligi belgilab berilgan.

Kasbiy maslaxat (konsultatsiya) - yoshlarga asoslangan kasb tanlashga yordam berishga ularning qobiliyatlarini atroflicha baholashga qaratilgan, psixologik, pedagogik va tibbiy tadbir choralar tizimidan iboratdir. Kasbiy maslaxatning maqsadi - shaxs qobiliyatlarini oʻrganishdir. Kasbiy maslaxatni uyushtirish jarayonida kuzatish, suxbat, tarjimai xol, faoliyat maxsulini va xarakat nuqsonini taxlil qilish, test, eksperiment, mustaqil tavsiflar (maktab, yoshlar uyushmasi, ota-onalar, maxalla, ishlab chiqarish) umumlashmasi metodlari qoʻllaniladi.

Kasbiy saralash - yoshlarni u yoki bu kasb hunar, ixtisos boʻyicha oʻqishga layoqatliligi (yaroqliligi)ni aniqlashdan iborat boʻlib, ularni tanlash va qabul qilish maqsadida amalga oshiriladigan jarayondir. Saralash quyidagi bosqichlardan tashkil topadi: a) tibbiy komissiya ularning salomatligini tekshiradi; b) qabul komissiyasi tanlagan mutaxassislik boʻyicha daʼvogarlarining yoshi, jinsi, maʼlumoti, ishchanligi, xoxishi yuzasidan maʼlumot olishga muljallangandir; c) oʻqituvchilar va murabbiylar ularning u yoki bu ixtisosga psixologik jixatdan mutanosibligiga taʼlim jarayonida qobiliyati, mayli, intilishi yordamida namyon boʻlishiga kafolat berishligi kabilar. Qobiliyati past, xoxishi yuzaki, intilishi sust shaxslar bilan uddalay olmay qolib ketmasligi uchun individual yondashuvni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Kasbga moslashish (adaptatsiya qilish) - lavozimi bo'yicha emas, balki shaxsning psixologik qiyofasiga binoan uning talabalik (o'quvchilik) davridan yuqori malakali kasb egasiga aylanishi, ya'ni kasbiy mehnat shart - sharoitlariga asta-sekin kirib kelishidir.

O'zida biologik elementlarni qamrab olgan organizmning ishlab chiqarish (mehnat qilish) muxitiga, kun tartibiga moslashishi aslida ijtimoiy moslashishning asosiy ko'rinishi xisoblanadi.

Kasbiy moslashish davri odatda **uch o'ziga xos xususiyatli bosqichni** bosib o'tadi, uning xar qaysisi o'qituvchining kasbiy ma'lumot olishining muxim qirralari bilan tavsiflanadi. Moslashishning **birinchi bosqichi** tanishuv deb nomlanib, atrof muxitdagi o'zining yangi rolini tushinib yetishi bilan yakunlanadi. Kasbiy moslashishning **ikkinchi bosqichi** tayyorlov deb atalib, ixtisosni egallash, mutaxassislikka oid bilimlar (ko'nikmalar), umumtexnik, gumanitar fan asoslarini chuqur o'rganishni takozo etadi. Kasbiy moslashishning **uchinchi bosqichi** asosiy xisoblanib, yosh mutaxassisni muassasa muxitiga aralashib ketish bilan tavsiflanadi. Amaliyot uning bosh mezoni sifatida xizmat qiladi.

Kasbga moslashishning muvaffaqiyatlilikligi ko'p jixatdan quyidagilarga bogliq:

a) o'qituvchilar va murabbiylar qay yusinda yosh mutaxassislarni ishlab chiqarishga hamda xizmatning boshqa soxasiga tayyorlashiga;

b) ishlab chiqarishda va ta'lim muassasalarida shaxslararo munosabat qay xolatda kechishiga;

c) yosh kadrlar qaysi shakl va tuzilishdagi jamoaga tushib qolishiga va boshqalar.

Shunga qaramasdan, shaxsning faolliigi, kasbiy extiyoji, layoqati, motivatsiyasi, qiziqishi, hayotiy rejasi singari psixologik jabxalarini xisobga olish, bu soxani jonlanishiga ijodiy xizmat qiladi.

Kasb tanlashga yo'llanma berish va uni tashfiqot qilishining usullaridan biri - ko'rgazmali vositalar, fotostendlar, kitoblar ko'rgazmasi, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining maxsulotini namoyish qilish, naqqoshlar va texnika to'garagi ishlarini ko'rgazmaga qo'yishdir. Bundan tashqari, muzeylarga ekskursiya uyushtirish orqali u yoki bu kasbga nisbatan qiziqishini vujudga keltirish mumkin. O'spirinlarda xosil bo'ladigan praksik (lazzatlanish, roxatlanish) xislar kasbga mexrini oshiradi va unga

nisbatan mustaxkamlaydi.

Mehnat psixologiyasi namoyondalari kasb tanlashni o'zgacha usullarini tavsiya qilmoqdalar. Jumladan, barcha fanlarni o'qitishga politexnik xususiyati va xossasini chuqurlashtirish; tabiiy - matematik soxadagi fanlarda atrofda ishlab chiqarishdan ob'ekt sifatida foydalanish; ijtimoiy turkumdagi fanlar o'qitishda o'lkashunoslik materiallarini qo'llagan xolda faoliyat uyushtirish o'quvchilarning kasbga nisbatan qiziqishini orttirish va mehnat qilishga ularni axloqan tayyorlash; fan asoslarini egallashda kasb haqida axborotlar berib borish; mehnat soxalari to'g'risida kasb tanlovchiga mustaqil tanishish sharoitini yaratishdir.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1) Kasbiy faoliyat psixologiyasi alohida predmet sifatida qachon vujudga kelgan?
- 2) Kasbiy maslaxat (konsultatsiya) deganda nimani tushunasiz?
- 3) Kasbiy saralash tushunchasiga izoh bering.
- 4) Kasbga moslashish (adaptatsiya qilish) deganda nimani tushunasiz? Izoh bering.
- 5) Kasbiy moslashish davri o'ziga xos xususiyatli nechta bosqichni bosib o'tadi?
- 6) Kasbga moslashishning muvaffaqiyatliliigi ko'p jixatdan nimalarga bogliq?
- 7) Kasb tanlashga yo'llanma berishining va uni tashfiqot qilishining usullariga nimalar kiradi?

Testlar

1. Kasbiy maslaxat deganda nimani tushunamiz? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) yoshlarga asoslangan kasb tanlashga yordam berishga ularning qobiliyatlarini atroflicha baholashga qaratilgan, psixologik, pedagogik va tibbiy tadbir choralar tizimidir;

b) yoshlarga asoslangan kasb tanlashga yordam berishga ularning psixologik, pedagogik va tibbiy tadbir choralar tizimidir;

c) yoshlarga asoslangan kasb tanlashga yordam berishga ularning qobiliyatlarini atroflicha baholashga qaratilgan, va tibbiy

tadbir choralar tizimidir;

d) yoshlarga asoslangan kasb tanlashga yordam berishga ularning qobiliyatlarini atroflicha baholashga qaratilgan, psixologik tadbir choralar tizimidir.

2. Kasbiy maslaxatni uyushtirish jarayonida qaysi metodlar qo'llaniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kuzatish, suxbat, tarjimai xol, test, eksperiment, mustaqil tavsiflar umumlashmasi metodlari qo'llaniladi;

b) kuzatish, suxbat, tarjimai xol, faoliyat maxsulini va xarakat nuqsonini taxlil qilish, test, eksperiment, mustaqil tavsiflar umumlashmasi metodlari qo'llaniladi;

c) kuzatish, suxbat, tarjimai xol, faoliyat maxsulini va xarakat nuqsonini taxlil qilish, mustaqil tavsiflar umumlashmasi metodlari qo'llaniladi;

d) kuzatish, suxbat, tarjimai xol nuqsonini taxlil qilish, test, eksperiment, mustaqil tavsiflar umumlashmasi metodlari qo'llaniladi.

3. Kasbiy maslaxatning maqsadiga nima kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) shaxs intilishini o'rganishdir;

b) shaxs maqsadini o'rganishdir;

c) shaxs qobiliyatlarini o'rganishdir;

d) shaxs yutuqlarini o'rganishdir;

4. Kasbiy saralash deganda nimani tushunamiz? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) yoshlarni u yoki bu kasb hunar, ularni tanlash va qabul qilish maqsadida amalga oshiriladigan jarayondir;

b) yoshlarni u yoki bu kasb hunar, ixtisos bo'yicha o'qishga layoqatligini aniqlash, qabul qilish maqsadida amalga oshiriladigan jarayondir;

c) yoshlarni u yoki bu kasb hunar, ixtisos bo'yicha o'qishga layoqatligini aniqlash, ularni tanlash va amalga oshiriladigan jarayondir;

d) yoshlarni u yoki bu kasb hunar, ixtisos bo'yicha o'qishga layoqatligini aniqlash, ularni tanlash va qabul qilish maqsadida amalga oshiriladigan jarayondir.

5. Saralash qaysi bosqichlardan tashkil topadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) tibbiy komissiya ularning salomatligini tekshish, qabul komissiyasi tanlagan mutaxassislik bo'yicha da'vogarlarning yoshi, jinsi, ma'lumoti, ishchanligi, xoxishi yuzasidan ma'lumot olishga muljallangan, o'qituvchilar va murabbiylarning u yoki bu ixtisosga psixologik jixatdan mutanosibligiga ta'lim jarayonida qobiliyati, mayli, intilishi yordamida namyon bo'lishiga kafolat berishidir;

b) qabul komissiyasi tanlagan mutaxassislik bo'yicha da'vogarlarning yoshi, jinsi, ma'lumoti, ishchanligi, xoxishi yuzasidan ma'lumot olishga muljallangan, o'qituvchilar va murabbiylarning u yoki bu ixtisosga psixologik jixatdan mutanosibligiga ta'lim jarayonida qobiliyati, mayli, intilishi yordamida namyon bo'lishiga kafolat berishidir;

c) tibbiy komissiya ularning salomatligini tekshish, jinsi, ma'lumoti, ishchanligi, xoxishi yuzasidan ma'lumot olishga muljallangan, o'qituvchilar va murabbiylarning u yoki bu ixtisosga psixologik jixatdan mutanosibligiga ta'lim jarayonida qobiliyati, mayli, intilishi yordamida namyon bo'lishiga kafolat berishidir;

d) tibbiy komissiya ularning salomatligini tekshish, qabul komissiyasi tanlagan mutaxassislik bo'yicha da'vogarlarning yoshi, jinsi, ma'lumoti, ishchanligi, xoxishi yuzasidan ma'lumot olishga muljallangan, psixologik jixatdan mutanosibligiga ta'lim jarayonida qobiliyati, mayli, intilishi yordamida namyon bo'lishiga kafolat berishidir.

6. Qanday paytda individual yondashuvni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) xoxishi yuzaki, intilishi sust shaxslar bilan uddalay olmay qolib ketmasligida;

b) qobiliyati past, xoxishi yuzaki, intilishi sust shaxslar bilan uddalay olmay qolib ketmasligida;

c) qobiliyati past, intilishi sust shaxslar bilan uddalay olmay qolib ketmasligida;

d) qobiliyati past, xoxishi yuzaki shaxslar bilan uddalay olmay qolib ketmasligida.

7. Kasbga moslashishda nimalarga e'tibor berish lozim? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) shaxsning biologik qiyofasiga binoan uning talabalik (o'quvchilik) davridan yuqori malakali kasb egasiga aylanishi, kasbiy mehnat shart - sharoitlariga asta-sekin kirib kelishiga;

b) shaxsning anatomik qiyofasiga binoan uning talabalik (o'quvchilik) davridan yuqori malakali kasb egasiga aylanishi, kasbiy mehnat shart - sharoitlariga asta-sekin kirib kelishiga;

c) shaxsning psixologik qiyofasiga binoan uning talabalik

(o'quvchilik) davridan yuqori malakali kasb egasiga aylanishi, kasbiy mehnat shart - sharoitlariga asta-sekin kirib kelishiga;

d) shaxsning ijobiy qiyofasiga binoan uning talabalik (o'quvchilik) davridan yuqori malakali kasb egasiga aylanishi, ya'ni kasbiy mehnat shart - sharoitlariga asta-sekin kirib kelishiga.

8. Ijtimoiy moslashishning asosiy ko'rinishiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) o'zida psixologik elementlarni qamrab olgan organizmning ishlab chiqarish (mehnat qilish) muxitiga, kun tartibiga moslashishi;

b) o'zida biologik elementlarni qamrab olgan organizmning atrof muxitga, kun tartibiga moslashishi;

c) o'zida biologik elementlarni qamrab olgan organizmning ishlab chiqarish (mehnat qilish) muxitiga, tevarak atrofga moslashishi;

d) o'zida biologik elementlarni qamrab olgan organizmning ishlab chiqarish (mehnat qilish) muxitiga, kun tartibiga moslashishi.

9. Kasbiy moslashish davri odatda nechta o'ziga xos xususiyatli bosqichni bosib o'tadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) uchta o'ziga xos xususiyatli bosqichni;

b) to'rtta o'ziga xos xususiyatli bosqichni;

c) beshta o'ziga xos xususiyatli bosqichni;

d) oltita o'ziga xos xususiyatli bosqichni.

10. Moslashishning birinchi bosqichi nima bilan yakunlanadi?

a) tanishuv deb nomlanib, o'zini tanishtirish bilan yakunlanadi;

b) o'zlashtirish deb nomlanib, atrof muxitdagi o'zining yangi rolini tushinib yetishi bilan yakunlanadi;

c) tanishuv deb nomlanib, atrof muxitdagi o'zining yangi rolini tushinib yetishi bilan yakunlanadi;

d) tanishuv deb nomlanib, atrof muxitda o'zining yangi g'otalarini tushinib yetishi bilan yakunlanadi.

11. Moslashishning ikkinchi bosqichi nimani takozo etadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasbiy moslashishning ikkinchi bosqichi joriy deb atalib, ixtisosni egallash, mutaxassislikka oid bilimlar (ko'nikmalar), umumtexnik, gumanitar fan asoslarini chuqur o'rganishni takozo etadi;

b) kasbiy moslashishning ikkinchi bosqichi tayyorlov deb atalib, ixtisosga tayyorlanish, mutaxassislikka oid bilimlar (ko'nikmalar), umumtexnik, gumanitar fan asoslarini chuqur o'rganishni takozo etadi;

c) kasbiy moslashishning ikkinchi bosqichi tayyorlov deb atalib, ixtisosni egallash, umumtexnik, gumanitar fan asoslarini chuqur o'rganishni takozo etadi;

d) kasbiy moslashishning ikkinchi bosqichi tayyorlov deb atalib, ixtisosni egallash, mutaxassislikka oid bilimlar (ko'nikmalar), umumtexnik, gumanitar fan asoslarini chuqur o'rganishni takozo etadi.

12. Kasbiy moslashishning uchinchi bosqichi nima bilan tavsiflanadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasbiy moslashishning uchinchi bosqichi asosiy xisoblanib, yosh mutaxassisni muassasa muxitiga aralashib ketish bilan tavsiflanadi, amaliyot uning bosh mezoni sifatida xizmat qiladi;

b) kasbiy moslashishning uchinchi bosqichi asosiy xisoblanib, yosh mutaxassisni muassasa muxitiga moslashish bilan tavsiflanib, nazariya uning bosh mezoni sifatida xizmat qiladi;

c) kasbiy moslashishning uchinchi bosqichi asosiy xisoblanib, yosh mutaxassisni muassasa muxitiga aralashib ketish bilan tavsiflanadi;

d) kasbiy moslashishning uchinchi bosqichi asosiy xisoblanib, yosh mutaxassisni muassasa muxitiga aralashib ketish bilan tavsiflanadi.

13. Kasbga moslashishning muvaffaqiyatlilikligi ko'p jixatdan nimalarga bogliq? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) o'qituvchilar va murabbiylar qay yusinda yosh mutaxassislarni ishlab chiqarishga hamda xizmatning boshqa soxasiga tayyorlashiga, ta'lim muassasalarida shaxslararo munosabat qay xolatda kechishiga, yosh kadrlar qaysi shakl va tuzilishdagi jamoaga tushib qolishiga va boshqalar;

b) o'qituvchilar va murabbiylar qay yusinda yosh mutaxassislarni ishlab chiqarishga hamda xizmatning boshqa soxasiga tayyorlashiga, ishlab chiqarishda va ta'lim muassasalarida shaxslararo munosabat qay xolatda kechishiga, yosh kadrlar qaysi shakl va tuzilishdagi jamoaga tushib qolishiga va boshqalar;

c) o'qituvchilar va murabbiylar qay yusinda yosh mutaxassislarni ishlab chiqarishga hamda xizmatning boshqa soxasiga tayyorlashiga, ishlab chiqarishda shaxslararo munosabat qay xolatda kechishiga, yosh kadrlar qaysi shakl va tuzilishdagi jamoaga tushib qolishiga va boshqalar;

d) o'qituvchilar va murabbiylar qay yusinda yosh mutaxassislarni ishlab chiqarishga hamda xizmatning boshqa soxasiga tayyorlashiga, ishlab chiqarishda va ta'lim muassasalarida shaxslararo munosabat qay xolatda kechishiga, tuzilishdagi jamoaga

tushib qolishiga va boshqalar.

14. Kasbga moslashishning muvaffaqiyatli jonlanishiga nimalar ijodiy xizmat qiladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) shaxsning faolligi, kasbiy extiyoji, layoqati, qiziqishi, hayotiy rejasi singari psixologik jabxalarini xisobga olish, bu soxani jonlanishiga ijodiy xizmat qiladi;

b) shaxsning faolligi, kasbiy extiyoji, motivatsiyasi, qiziqishi, hayotiy rejasi singari psixologik jabxalarini xisobga olish, bu soxani jonlanishiga ijodiy xizmat qiladi;

c) shaxsning faolligi, kasbiy extiyoji, layoqati, motivatsiyasi, qiziqishi, hayotiy rejasi singari psixologik jabxalarini xisobga olish, bu soxani jonlanishiga ijodiy xizmat qiladi;

d) shaxsning kasbiy extiyoji, layoqati, motivatsiyasi, qiziqishi, hayotiy rejasi singari psixologik jabxalarini xisobga olish, bu soxani jonlanishiga ijodiy xizmat qiladi.

15. Kasb tanlashga yo'llanma berish va uni tashfiqot qilish usullariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) ko'rgazmali vositalar, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining maxsulotini namoyish qilish, naqqoshlar va texnika to'garagi ishlarini ko'rgazmaga qo'yish;

b) ko'rgazmali vositalar, fotostendlar, kitoblar ko'rgazmasi, yosh rassom va tabiatshunoslar naqqoshlar va texnika to'garagi ishlarini ko'rgazmaga qo'yish;

c) ko'rgazmali vositalar, fotostendlar, kitoblar ko'rgazmasi, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining maxsulotini namoyish qilish,;

d) ko'rgazmali vositalar, fotostendlar, kitoblar ko'rgazmasi, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining maxsulotini namoyish qilish, naqqoshlar va texnika to'garagi ishlarini ko'rgazmaga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psycho.all.ru
7. www.psychology.net.ru

MODUL II. KASBIY LAYOQAT TASHXISI.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: Kasbiy layoqatni aniqlovchi testlarning ishonchliligi, shaxs psixodiagnostikasi, kasbiy psixodiagnostika, professiogramma (professiografiya) tarixi: kelib chiqish sabablari, imkoniyatlari, takomillashishi, sohaning kasb egasiga psixologik talablari va kasbiy faoliyatda psixologik bilimlarning ahamiyati, psixologiya fani haqida tushuncha, psixologiyaning fan sifatida rivojlanish bosqichlari, psixik hodisalarning asosiy shakllariga oid ko'nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- **ta'limiy maqsad:** talabalarga modulni tashkil eitshga oid ratsional ta'lim metodlari orqali interfaol usullarini tanlash, talabalar faolligini rag'batlantirish, o'quv topshiriqlari, mustaqil ishlarini ta'limda optimal tatbiq etish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda fanning o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish, nazariy bilimlar asosida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** mashg'ulotlar tempini talabalarining tayyorgarligiga moslashtirish, modul uchun ajratilgan vaqtdan ratsional foydalanish, kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashi va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

2.1. Kasbiy layoqatni aniqlovchi testlarning ishonchliligi. Shaxs psixodiagnostikasi.



Tayanch so'z va iboralar: Kasbiy psixodiagnostika, individuallikning moyiyati, kasbiy faoliyatni taxlil qilish, kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar, kasbiy faoliyat muvaffaqiyati, kasbiy layoqat, kritik incident, muayyan qoidalarga rioya qilish, test - retest ishonchliligi, parallel shakllar, konseptual validlik, mehnat metodi.

Psixologiya fanida kasbiy layoqatni aniqlash sohasida muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan, o'ziga xos yondashishlar amalga oshirilgan. B.V. Kulaginning fikricha kasbiy psixodiagnostika deganda odamning individual xususiyatlarini tadqiq etish va baholash maqsadida kasbga saralash, kasb tanlashga yo'naltirish, nomzodlarni (da'vogarlarini) ixtisoslikka oqilona taqsimlash, kasbiy

tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy faoliyatni optimallashtirishning amaliy masalalari tizimini yechish tushuniladi.

Individuallikning mohiyatini tushunishga umumiy yondashish kasbga saralash muammosini xal qilishda bevosita ahamiyatga ega. Ma'lumki, kasbga layoqatlilikni tashxis (prognoz) qilish insonning kasbiy xislatlarini xisobga olishga asoslanadi. Mazkur jarayonda qiyosiy taxlil orqali shaxsning xususiyatlari ko'rsatkichlari bilan kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining mustaqil mezonni darajalari aniqlanadi. Xozirgi zamon psixologiyasining ma'lumotlariga qaraganda, tashxis (prognoz) qilish modeli muayyan matematik algoritimga asoslanadi. Guruh uchun o'rtamiyona shaxs imkoniyati tanlanganligi faqat statistik samaraga ega, xolos. Bunday model tashxis (prognoz) qilishda cheklanganlikka ega bo'lib, tashxisning mutlaq aniqlik darajasidan quyiroqdir.

Kasbiy faoliyatni taxlil qilmasdan turib, professional psixodiagnostika (kasbiy psixologik) muammolarini hal qilish mumkin emas, ya'ni professiografiya mohiyatiga va uning tuzilishiga e'tibor qilish zarur. Faqat shundagina faoliyatli yondashuv amalga oshirilib, uning xarakterlari va operatsiyalari testlar yordamida baholanishi mumkin. Chunki xarakterlar va operatsiyalar mazkur faoliyatning tarkibini tashkil qiladi, ularning qiyosiy tavsifi egallash jarayonini osonlashtiradi, unga layoqatli odamlarni tanlashga negiz yaratadi. Faoliyat samaradorligini tashxis qilish va baholash uchun testlarni saralash, asoslash, uning muvaffaqiyati o'lchovi mezonini aniqlashga imkon beradi. Professiografiya, (professiogramma) natijalarini umumlashtirish natijasida kasblarni tasniflash (klassifikatsiyalash) imkoni vujudga keladi.

Kasbiy faoliyatning taxlili maqsadga yo'naltirilgan va tashkiliy jarayon xisoblanib, u uch bosqichdan tashkil topgan bo'ladi: a) kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar to'plash; b) olingan ma'lumot va axborotlarni qayta ishlab chiqish hamda umumlashtirish, ularning negizida professiogramma tuzish; c) amaliy va nazariy masalalarni yechish uchun professiogrammadan foydalanish (kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar tanlash, uni baholash (tashxis qilish) uchun testlar saralash, kasblarni tasniflash va boshqalar.

Kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar (axborotlar) turli manbalardan olinishi mumkin:

1. Muayyan mutaxassislarning kasbiy faoliyatini kuzatish katta ahamiyat kasb etadi.

2. Kasbiy faoliyat to'g'risida ma'lumotlar to'plashning asosiy metodlaridan biri bo'lib, suxbat - intervyu xisoblanadi. Mutaxassislar bilan standart yoki nostandart tarzda intervyu uyushtirish samarali natija beradi.

3. Ba'zan, kasbiy faoliyatning u yoki bu qirralari (jabxalari)ni qayd qiluvchi kundaliklar yoki varaqlardan ham foydalaniladi.

4. Kasb - hunar to'g'risidagi ma'lumotlar (axborotlar) umumlashtiriladi va xar hil shakllarda mutaxassislar xukmiga xavola qilinadi.

Kasbiy faoliyat shaxsning munosabat va motivlaridan iborat bo'lib, xarakterlar va operatsiyalarni nazorat qilish hamda boshqarishni qamrab oladi. Faoliyatning dinamik xususiyatlarini o'rganish uchun unga ko'p yoqlama yondashishni amalga oshirish zarur. Faqat motivatsion va regulyativ jabxalarini xisobga olish bilan kasbiy faoliyat mohiyatini tavsiflab bo'lmaydi, modomiki shunday ekan, uning shaxsga oid, emotsional, kognitiv va operatsional, irodaviy jihatlar bilan bog'liq tomonlarini ham tadqiqot predmetiga kiritish lozim.

Kasbiy faoliyatning taxlili uning muvaffaqiyatini baholashga xizmat qiluvchi mezonlarni aniqlashga imkon beradi. Bu narsa testlarning barqarorligi va validligini tekshirish uchun mutlaqo zarur.

Kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar sifatida shaxsning maqsadga erishuvini tavsiflovchi xar hil ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Mezonlar tariqasida kasbiy bilimlarga va malakalarga nisbatan o'quvchanlik, mutaxassis faoliyatining bevosita va bilvosita ko'rsatkichlari uning hamkorlik faoliyatiga qo'shgan xissasi qo'llaniladi. Kasbiy faoliyat muvaffaqiyati mezonlari qatoriga quyidagilar kiritiladi:

1) samaradorlikning to'g'ridan to'g'ri ko'rsatkichlari: sifat, ishlab chiqarish salmog'i;

2) kasbiy tayyorgarlikni aniqlovchi testlar;

3) kasbiy layoqatni ifodalovchi ma'muriy tadbir va choralar: intizomga taalluqli choralar mukofotlash, xizmat lavozimida ko'tarilish, safarga yuborish, namuna tariqasida stenda joylashtirish;

- 4) kadrlar ko'nimsizligi;
- 5) noxush xolatlar (kechinmalar) va shikastlar (xaloqatlar);
- 6) faoliyat samaradorligini eksperimental tekshirish va o'zini o'zi baholash kabilar.

Yuqorida bayon qilingan mezonlar ma'lum talablarga javob berishi shart. Mezonlarning relevantligi (adekvatligi, validligi) deganda samaradorlik ko'rsatkichi sifatida muxim ahamiyat kasb etishi tushuniladi.

Tanlab olingan mezonlar kasbiy faoliyatning barcha nufuzli tomonidan aks ettirish lozimligi, ya'ni mezonlar to'laqonligidir. Ular mutaxassislarning kasbiy layoqatining yuksakligi va qo'yiligi darajalarini farqlashga xizmat qilishi joiz (mezonlar diskriminativligi). Mezonlar xislatini ochishga yordam beruvchi uning omilkorligi, ya'ni amaliy jixatdan qulayligi muxim o'rin egallaydi va u o'zining soddaligi, kam mehnat talab qilishligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Kasbiy layoqatni (yaroqlilikni) aniqlashda odatda nazorat, sinash natijalari qo'llaniladi (masalan, duradgorning ish sifat, tezkorligi, vaziyatni payqashligi va boshqalar). Ko'pincha mutaxassisning layoqati ma'muriy xujjatlarda o'z ifodasini topadi (muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi qayd qilinadi). Ba'zan kasbiy layoqatni o'rganishda baxtsiz xodisalar (xaydovchi, uchuvchi, mashinist, operator va boshqa kasb egalarida) xisobga olinadi va shaxsning individual xususiyatlari baholanadi.

Kasbiy layoqatni aniqlashda o'quvchanlik kategoriyasidan (bilim olishga nisbatan zexnlilik) foydalaniladi va o'zlashtirish tezligi, kasbiy tayyorgarligi, erishgan natijasi mezon rolini o'ynaydi.

Psixologiya fanida kasbiy muvaffaqiyat, mahoratning qirralari ekspert baholash metodi yordami bilan o'lchanadi. Buning uchun balli shkala, juft (kuch) taqqoslash, tartibga keltirish (ranjirovka qilish) metodlari qo'llaniladi.

Shkalaning sodd ko'rinishi ball bilan baholashga mo'ljallangan. Shkalani baholash o'ziga 5 tadan 7 tagacha gradatsiyani qamrab oladi. Miqdorning kamligi uning differensiatsiyasini yanada kuchaytiradi, farqlar aniqligini ta'minlaydi.

Ba'zi xollarda balli baholash grafik shkala tarzida ham uchraydi (kesma, shakl, parametrik ko'rinish va xokazo). Lekin balli shkala

kasbiy muvaffaqiyatni baholashda ayrim nuqsonlarga ham ega. Ayniqsa, chet el psixologiyasida qo'llanilib kelinayotgan "galo - effekt" metodikasi bunga yaqqol musoldir. Baholanuvchi bilan baholovchi munosabati bir nechta mustaqil shkalalar negizida umumiylikka bog'liq tarzda baholanadi. Natijada shaxsning hilmahil xususiyatlarini differensiyalash imkoni yo'qoladi, yuzaki baholanish jarayoni yuzaga keladi. Buning oqibatida orttirilgan va pasaytirilgan baholash tiplari, ko'rinishlari namoyon bo'ladi.

Ammo, balli shkala baholash tizimini takomillashtirish uchun uning bir necha bosqichlardan, tarkiblardan tuzish ma'qul. Faqat shundagina yaqqol misollar, namunalar negizida kasbiy faoliyatning turlicha samaradorligi namoyon bo'ladi.

Jaxon psixologiyasida keng qo'llanilib kelayotgan metodlardan biri - bu kritik insidentdir. Muayyan o'lchamlarga asoslangan xolda ajratilgan insidentlar tasniflanadi (klassifikatsiya qilinadi), ya'ni taxlil qilish orqali insident xususiyati aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda (u "pretranslyatsiya" deb ataladi) birinchi bosqichdagi mezonlarga asoslanib yangitdan tasnif qilinadi.

Kasbiy layoqatni o'rganishning yana bir metodi tartibga keltirish (ranjirovka qilish) deyiladi. Xar hil vaziyatlarda kuzatilgan shaxslar kasbiy layoqati darajasiga qarab muayyan tartibga solish, jixozlash mumkin. Birinchi rang darajasiga kiritish uchun kasb sub'ekti kasbiy mahoratning maksimal ko'rsatkichini namoyish qilishi lozim. Kamroq muvaffaqiyatga erishsa, u navbatdagi rangga o'tkaziladi.

Mazkur jarayonni osonlashtirish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

- 1) guruhning alifboviy ro'yxatini tuzish;
- 2) maksimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni aloxidalash;
- 3) minimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni guruhlash va boshqalar.

Tartibga solish (ranjirovka qilish) juft (kush) qiyoslash (taqqoslash) metodi yordami bilan amalga oshiriladi. Buning negizida ikki sub'ektning xislatlari, imkoniyatlari o'zaro solishtirilib, umumiy va farqli tomonlari aniqlanadi.

Bundan oldingi saxifalarda metodlarning nuqsoni yuzasidan muloxaza yuritilgan edi. Ulardan foydalanishda kamchiliklar

miqdorini kamaytirish uchun muayyan qoidalarga rioya qilish lozim:

1) baholanishga mo'ljallangan shaxsning xususiyatlari yetarli darajada aniq va bir hil ma'noli qilib aniqlanishi shart;

2) agarda bir guruh sinaluvchilarni bir necha xususiyatlar, fazilatlar bo'yicha baholash zaruriyati vujudga kelsa, u taqdirda yaxlit guruhning xar qaysi xislat bo'yicha baholash tavsiya qilinadi;

3) gala - samara moxiyatini ekspert tomonidan tushuntirish va uning bartaraf qilish zaruriyatini ta'kidlash tavsiya qilinadi;

4) bir nechta mustaqil ekspertlar baholashini umumlashtirishda o'lchovning aniqlik darajasi (ishonchliligi) ortadi;

5) maxsus tayyorlangan va o'qigan ekspertlar ishonchliroq baholashga qodirdirlar;

6) turli vaziyatlar va xolatlarni uzoq muddat kuzatishda baholanishning aniqligi yuqori bo'ladi.

O'lchashda xatoga qabul qilingan omillarning farqlanishiga qarab testlar ishonchliligini baholashga nisbatan uch hil yondashuv xukm suradi:

I. Test - retest ishonchliligi. Test bo'yicha ayni bir hil odamlarni takroriy o'rganishning natijalari korrelyatsiyasi ishonchlilik koeffitsientiga teng. O'lchashdagi nuqsonlar sinaluvchilar xolatlarining tafovuti, takroriy sinovning sharoitlari va tashkiliy daqiqalari, javoblarni esda olib qolish, matn bilan ishlash ko'nikmalarini egallash jarayonlari bilan tavsiflanadi.

II. Testning parallel shakllarining ishonchliligi. Testning parallel shakllarining korelyatsiyasi ishonchlilik koeffitsientiga teng. O'lchashdagi nuqsonlar yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari, testning parallel shakllarini ijro etish bilan aloqador operatsiyalar va xarakterlar xususiyatlaridagi farqlar bilan tavsiflanadi.

III. Ishonchlilik testlarining gomogeniligi sifatida qo'llanilishi mumkin. Mazkur xolatda metodikaning qismlari o'rtasidagi interkorrelyatsiyasini xisoblash vositasi bilan ishonchlilik baholanadi, ularning xar qaysisi aloxida test sifatida qaraladi. Olingan korrelyatsion ma'lumotlar yaxlit testning ishonchlilik darajasini xisoblashda aniq formulaga asoslanib foydalaniladi.

Ishonchlilikdan farqli ularoq, validlik testlarini baholash bilan ularning u yoki bu faoliyatdagi xususiyatlari va roli to'g'risidagi tasavvurlar o'rtasidagi muvofiqlik o'lchovidir. Validlik kriteriaviy,

konseptualli va ma'noviy turlarga ajratiladi hamda ular xos talqini bilan o'zaro tafovutga egadir.

Kriteriaviy validlik testning korrelyatsiya ko'rsatkichi, aloqalar ko'lami, uning tashqi mezonlari bilan o'lchanadi. Tashqi mezon testga bog'liq bo'lmagan ma'lum faoliyatning o'lchami xisoblanadi. Kriteriaviy validlik test baholari bilan qay yo'sinda faoliyatli xususiyati aloqaga kirishganligini ko'rsatadi. Kriteriaviy validlik ko'pincha korrelyatsiya koeffitsienti bilan baholanadi, vaxolanki boshqa metodlardan foydalansa bo'ladi.

Konseptualli validlik test ko'rsatkichi bilan o'lchanayotgan xususiyat mohiyati to'g'risidagi nazariy tasavvurlar muvofiqligi o'lchovi bo'lib xisoblanadi. Konseptualli validlik biron bir statistik ko'rsatkich bilan o'lchanishi mumkin emas chunki u test to'g'risidagi nazariy va emperik ma'lumotlar umumlashmasini taxlil qilish yo'li o'rnatiladi. Konseptualli validlik metodikasi test bo'yicha tekshirish natijalari bilan nazariy bashorat ma'lumotlari muvofiqligida to'zilgan bo'lishi kerak. Bunga V.D. Nebilistin tomonidan taklif qilingan metodika nerv sistemasi xususiyatini baholashga xizmat qilishi yorqin misoldir.

Ma'naviy validlik o'rganilayotgan individual xislatlar xususiyatiga testning tarkibi va mazmunining muvofiqligi eksperimental taxlil qilish yo'li bilan o'rnatiladi. Validlikning mazkur turi kriteriaviy o'lchash bilan jips aloqaga ega, chunki bajolanishga qaratilgan xarakterlar va operatsiyalarning qat'iy xususiyatlari umumiy xislatlari aloqasidan tashqari olib qaraladi.

Mehnat metodi. Kimyo kasb ixtisosining psixologik mohiyatini o'rganish uchun tekshiruvchining o'zi ham bu faoliyatga kirishib uni o'zlashtiradi. Bunda u o'zining ishlab chiqarishdagi faoliyatini har kuni tegishli qayd etib, o'z ishini tahlil qiladi. Mehnat metodi umumiy fan pedagoglari, muhandis pedagoglar va kimyo texnologiyasi yonalishi vakillariga o'rganilayotgan mehnat faoliyatlarini shaxsan ko'rib bilish hamda aqlli kichikroq shaxsiy tajribaga ega bo'lish uchun ayniqsa zarur. Ishtirokli kuzatish - agar oldingi metod faoliyatni o'rganishga mo'ljallangan bo'lsa, bu endi shuni ijro etuvchi shaxsni o'rganishga mo'ljallanadi. Uni g'oyat mahorat bilan qo'llaganda, kishi o'zi o'rganish ob'ekti bo'lib, xizmat qilayotganini sezmaydi, binobarin u o'rganayotgan kishiga mehnat jamoasining bir a'zosi deb qaraydi. Bu ularning tabiiy bo'lishiga

hamda, ko'proq ob'ektiv ma'lumot to'plashga imkon beradi. Mehnat operatsiyalarini ob'ektiv qayd etish butun mehnat faoliyati psixik holatlar alohida harakatlar va tadbirlar yig'indisidan hosil bo'ladi. Tekshirishning zamonaviy texnik vositalari barcha mehnat jarayonlarini tekshiruvchining shaxsiy kuzatuvlari bilangina emas, balki o'rganilayotgan hodisalarni ob'ektiv qayd etib borish bilan o'rganish imkoniyatini beradi. Ishchi holatini yoki yuz tasvirini suratga olish qayd etishning ana shunday namunasi. Mazkur yoki boshqa ob'ektni masalan, ishga kuzatayotgan kontrol asboblardan ko'rsatganlarini, mimika - pantomimikani, kinoga olish psixologik hodisani qayd etish eng yaxshi metodik yondashuvdir. Kinoga olish odatdagicha, tezlatish va aksincha sekin, impulsli bo'lishi mumkin, bu mehnat operatsiyasini batafsil tahlil qilish va mehnat jarayonida qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Oddiy kolyugraf yoki nozik sotsiolografda pnevmatik yoki axborotlar elektr datchiklar yordamida stanok uzellaridan ayrim harakatlarini, ishchilar harakatini va reaksiyasini qayd etish mumkin. Magnitafon yozuvi nutq, mashinalarning soz va nosozligidan shovqinni, tovushlar signali ratsiyasi va boshqalarni ob'ektiv qayd etish imkonini beradi. Ilg'or kasb hunar-texnika bilim yurtida paydo bo'la boshlagan stanok laboratoriyada bunday ob'ektiv qayd etishlar mehnat jarayonlarini samaralirok o'rgatish uchun hilma - hil mehnat operatsiyalarini o'rgatish imkonini beradi. Usta o'z faoliyati mahsulidan yaratgan buyumlar ma'lum tayyorlangan mahsulot uning ko'polligini ham, ishga sovuqqonlik bilan qarashni ham, ehtiyotsizligi, ishidagi xato va barqarorlikni ham ko'rsatadi. Tayyorlangan buyumga qarab kishining qobiliyati funksiyasizligi va mazkur ishga mutlaqo layoqatsizligi bo'lishi mumkin. Agar buyumlarning soni va sifati ish kunining ayrim qismlariga ko'ra tahlil qilinsa, ishga kirishishi cho'zilib ketganini, eng serunum davrni va yaxshi mehnat rejimi haqida xulosaga kelishi mumkin. Xato harakatlar tahlilining samaradorligi "Buzilmaydigan qonuniyat ko'rinmasligi mumkin, ammo qonunning buzilishi uchun namoyon bo'lishiga yordam beradi"- deb ta'riflagan qonun bilan belgilanadi. Misol: normal holda ko'rinmaydigan narsa potologiyada yaxshiroq namoyon bo'ladi. Xato harakatlar - bu o'ziga xos" faoliyat patologiyasidir". Mehnatdagi xatolar ularning xarakteri barqarorligi va takrorlanishi uddalay olmaydigan harakatlarni bajarish

qobiliyatining, bor-yo'qligini, bu harakatlarni to'g'ri bajarish qobiliyatining yo'qligini, e'tibor bo'lmaslikni, sovuqqonlik yoki ehtiyotsizlikni, o'z-o'zini bo'sh nazorat qilganligini, tez toliqish yoki psixologik holat va hokazolarni ko'rsatadi. O'quvchilar xatolarining tekshirilishini hisobga olish malaka, ko'nikma va mahoratning shakllanish jarayonini, bu asosda esa, mashqlar samaradorligini baholash imkonini beradi. Xato harakatlarning sabalarini aniqlash va bartaraf etish kasb hunar texnika ta'limi metodikasini, mehnat sharoiti va rejimini takomillashtirish, shu bilan birga mehnat faoliyatining unumdorligi va sifatini oshirish imkonini yaratadi. Bu metod shuning uchun ham zarurki, mustahkam malakaga ega bo'lgan tajribali ishchi faoliyat jarayonida normal ish sharoitida bu avtomatlashtirilgan harakat qanday amalga oshirilayotgan harakat sezmaydi, shuning uchun ham ularni tahlil qilish tushuntirish mumkin emas, chetdan kuzatayotgan kishi esa, o'rganilayotgan harakatning psixologik sturkturasini topish imkoniyatiga hamisha ham ega bo'lavermaydi. Malakalar avtomat harakatini buzish, ishlayotgan va ular harakatini kuzatayotgan kishiga sezilmagan narsalarni ochadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1) B.V. Kulaginning fikricha kasbiy psixodiagnostika deganda nima tushuniladi?
- 2) Individuallikning moyiyatini tushunishda nimaga e'tibor berish lozim?
- 3) Kasbiy faoliyatning taxlili maqsadga yo'naltirilgan va tashkiliy jarayon xisoblanadi. U necha bosqichdan tashkil topgan?
- 4) Kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar (axborotlar) qaysi manbalardan olinishi mumkin?
- 5) Kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar sifatida shaxsning maqsadga erishuvini tavsiflovchi xar hil ko'rsatkichlardan foydalanish mumkinmi? Misollar bilan isbotlab bering.
- 6) Kasbiy faoliyat muvaffaqiyati mezonlari qatoriga nimalar kiritiladi?
- 7) Jaxon psixologiyasida keng qo'llanilib kelayotgan metodlardan biri - bu kritik insidentdir. Bu haqida nima deya olasiz?

8) Metodlardan foydalanishda kamchiliklar miqdorini kamaytirish uchun qaysi qoidalarga rioya qilish lozim?

9) Qabul qilingan omillarning farqlanishiga qarab testlar ishonchligini baholashga nisbatan necha hil yondashuv xukm suradi?

10) Konseptualli validlik testi deganda nimani tushunasiz?

Testlar

1. B.V. Kulaginning fikricha kasbiy psixodiagnostika deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) odamning individual xususiyatlarini tadqiq etish va baholash maqsadida kasbga saralash, kasb tanlashga yo'naltirish, nomzodlarni (da'vogarlarni) ixtisoslikka oqilona taqsimlash, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy faoliyatni optimallashtirishning amaliy masalalari tizimini yechish tushuniladi;

b) odamning individual xususiyatlarini tadqiq etish va baholash maqsadida kasbga saralash, kasb tanlashga yo'naltirish, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy faoliyatni optimallashtirishning amaliy masalalari tizimini yechish tushuniladi;

c) odamning individual xususiyatlarini tadqiq etish, nomzodlarni (da'vogarlarni) ixtisoslikka oqilona taqsimlash, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy faoliyatni optimallashtirishning amaliy masalalari tizimini yechish tushuniladi;

d) odamning individual xususiyatlarini tadqiq etish va baholash maqsadida kasbga saralash, kasb tanlashga yo'naltirish, nomzodlarni (da'vogarlarni) ixtisoslikka oqilona taqsimlash, kasbiy faoliyatni optimallashtirishning amaliy masalalari tizimini yechish tushuniladi.

2. Kasbga layoqatlilikni tashxis (prognoz) qilish nimalarga asoslanadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) insonning shaxsiy xislatlarini xisobga olishga asoslanadi;

b) insonning kasbiy xislatlarini xisobga olishga asoslanadi;

c) insonning individual xislatlarini xisobga olishga asoslanadi;

d) insonning jismoniy xislatlarini xisobga olishga asoslanadi.

3. Qiyosiy taxlil orqali shaxsning qaysi xususiyatlari aniqlanadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a)shaxsning kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining mustaqil mezon darajalari aniqlanadi;

b) shaxsning xususiyatlari ko'rsatkichlari muvaffaqiyatining mustaqil mezon darajalari aniqlanadi;

c)shaxsning xususiyatlari ko'rsatkichlari bilan kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining mustaqil mezon darajalari aniqlanadi;

d) shaxsning xususiyatlari ko'rsatkichlari bilan kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining faoliyat mezon darajalari aniqlanadi.

4. Professional psixodiagnostika (kasbiy psixologik) muammolarini hal qilishda nimalarga e'tibor berish lozim?

a)yo`nalish moxiyatiga va uning tuzilishiga e'tibor qilish zarur;

b) ish moxiyatiga va uning tuzilishiga e'tibor qilish zarur;

c)mexnat moxiyatiga va uning tuzilishiga e'tibor qilish zarur;

d) professiografiya moxiyatiga va uning tuzilishiga e'tibor qilish zarur.

5.Faoliyat samaradorligini tashxis qilish va baholash uchun nimalarga imkon beriladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a)testlarni saralash, asoslash, uning muvaffaqiyati o'lchovi mezonini aniqlashga imkon beradi;

b) testlarni saralash, uning muvaffaqiyati o'lchovi mezonini aniqlashga imkon beradi;

c)testlarni asoslash, uning muvaffaqiyati o'lchovi mezonini aniqlashga imkon beradi;

d) testlarni saralash, asoslash, o'lchovi mezonini aniqlashga imkon beradi.

6.Kasbiy faoliyatning taxlili nechta bosqichdan tashkil topgan bo'ladi?

a)ikki bosqichdan;

b) uch bosqichdan;

c)to'rt bosqichdan;

d) besh bosqichdan.

7.Kasbiy faoliyatning taxlili qaysi bosqichlardan tashkil topgan bo'ladi?

a)olingan ma'lumot va axborotlarni qayta ishlab chiqish hamda umumlashtirish, ularning negizida professiogramma tuzish, amaliy va nazariy masalalarni yechish uchun professiogrammadan foydalanish, kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar

tanlash, uni baholash (tashxis qilish) uchun testlar saralash, kasblarni tasniflash;

b) kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar to'plash, ularning negizida professiogramma tuzish, amaliy va nazariy masalalarni yechish uchun professiogrammadan foydalanish, kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar tanlash, uni baholash (tashxis qilish) uchun testlar saralash, kasblarni tasniflash;

c) kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar to'plash, olingan ma'lumot va axborotlarni qayta ishlab chiqish hamda umumlashtirish, ularning negizida professiogramma tuzish, amaliy va nazariy masalalarni yechish uchun professiogrammadan foydalanish, kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar tanlash, uni baholash (tashxis qilish) uchun testlar saralash, kasblarni tasniflash;

d) kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar to'plash, olingan ma'lumot va axborotlarni qayta ishlab chiqish hamda umumlashtirish, amaliy va nazariy masalalarni yechish uchun professiogrammadan foydalanish, kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar tanlash, uni baholash (tashxis qilish) uchun testlar saralash, kasblarni tasniflash.

8. Kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar (axborotlar) qaysi manbalardan olinishi mumkin? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasbiy faoliyat to'g'risida ma'lumotlar to'plashning asosiy metodlaridan, suxbat - intervyu, mutaxassislar bilan standart yoki nostandart tarzda intervyu uyushtirish, kasbiy faoliyatning u yoki bu qirralari (jabxalari)ni qayd qiluvchi kundaliklar, kasb - hunar to'g'risidagi ma'lumotlar (axborotlar)ni umumlashtirish va xar hil shakllarda mutaxassislar xukmiga xavola qilish;

b) muayyan mutaxassislarning kasbiy faoliyatini kuzatish, suxbat - intervyu, mutaxassislar bilan standart yoki nostandart tarzda intervyu uyushtirish, kasbiy faoliyatning u yoki bu qirralari (jabxalari)ni qayd qiluvchi kundaliklar, kasb - hunar to'g'risidagi ma'lumotlar (axborotlar)ni umumlashtirish va xar hil shakllarda mutaxassislar xukmiga xavola qilish;

c) muayyan mutaxassislarning kasbiy faoliyatini kuzatish, kasbiy faoliyat to'g'risida ma'lumotlar to'plashning asosiy metodlaridan, suxbat - intervyu, kasbiy faoliyatning u yoki bu

qirralari (jabxalari)ni qayd qiluvchi kundaliklar, kasb - hunar to'g'risidagi ma'lumotlar (axborotlar)ni umumlashtirish va xar hil shakllarda mutaxassislar xukmiga xavola qilish;

d) muayyan mutaxassislarning kasbiy faoliyatini kuzatish, kasbiy faoliyat to'g'risida ma'lumotlar to'plashning asosiy metodlaridan, suxbat - intervyu, mutaxassislar bilan standart yoki nostandart tarzda intervyu uyushtirish, kasbiy faoliyatning u yoki bu qirralari (jabxalari)ni qayd qiluvchi kundaliklar, kasb - hunar to'g'risidagi ma'lumotlar (axborotlar)ni umumlashtirish va xar hil shakllarda mutaxassislar xukmiga xavola qilish.

9. Kasbiy faoliyat shaxsning munosabat va motivlaridan iborat bo'lib, qanday boshqarishni qamrab oladi?

a) xarakatlar va operatsiyalarni nazorat qilish hamda boshqarishni qamrab oladi;

b) operatsiyalarni nazorat qilish hamda boshqarishni qamrab oladi;

c) xarakatlarni nazorat qilish hamda boshqarishni qamrab oladi;

d) xarakatlar va operatsiyalarni nazorat qilishni qamrab oladi;

10. Kasbiy faoliyat moxiyatini tavsiflashda nimalarga e'tibor berish lozim? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) motivatsion va regulativ jabxalarini xisobga olish, shaxsga oid, operatsional, irodaviy jixatlar bilan bog'liq tomonlarini tadqiqot predmetiga e'tibor berish lozim;

b) motivatsion va regulativ jabxalarini xisobga olish, shaxsga oid, emotsional, kognitiv va operatsional, irodaviy jixatlar bilan bog'liq tomonlarini tadqiqot predmetiga e'tibor berish lozim;

c) motivatsion va regulativ jabxalarini xisobga olish, shaxsga oid, irodaviy jixatlar bilan bog'liq tomonlarini tadqiqot predmetiga e'tibor berish lozim;

d) motivatsion va regulativ jabxalarini xisobga olish, shaxsga oid, emotsional, irodaviy jixatlar bilan bog'liq tomonlarini tadqiqot predmetiga e'tibor berish lozim.

11. Kasbiy faoliyat muvaffaqiyati mezonlari qatoriga nimalar kiritiladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) sifat, ishlab chiqarish salmog'i, kasbiy tayyorgarlikni aniqlovchi testlar, intizomga taalluqli choralar mukofotlash, xizmat lavozimida ko'tarilish, safarga yuborish, kadrlar ko'nimsizligi,

noxush xolatlar va shikastlar, faoliyat samaradorligini eksperimental tekshirish va o'zini o'zi baholash kabilar;

b) sifat, ishlab chiqarish salmog'i, kasbiy tayyorgarlikni aniqlovchi testlar, xizmat lavozimida ko'tarilish, safarga yuborish, namuna tariqasida stendda joylashtirish, kadrlar ko'nimsizligi, noxush xolatlar va shikastlar, faoliyat samaradorligini eksperimental tekshirish va o'zini o'zi baholash kabilar;

c) sifat, ishlab chiqarish salmog'i, kasbiy tayyorgarlikni aniqlovchi testlar, intizomga taalluqli choralar mukofotlash, xizmat lavozimida ko'tarilish, safarga yuborish, namuna tariqasida stendda joylashtirish, kadrlar ko'nimsizligi, noxush xolatlar va shikastlar, faoliyat samaradorligini eksperimental tekshirish va o'zini o'zi baholash kabilar;

d) sifat, ishlab chiqarish salmog'i, kasbiy tayyorgarlikni aniqlovchi testlar, intizomga taalluqli choralar mukofotlash, safarga yuborish, namuna tariqasida stendda joylashtirish, kadrlar ko'nimsizligi, noxush xolatlar va shikastlar, faoliyat samaradorligini eksperimental tekshirish va o'zini o'zi baholash kabilar.

12. Mezonlarning relevantligi (adekvatligi, validiligi) deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) sifat ko'rsatkichi sifatida muxim ahamiyat kasb etishi tushuniladi;

b) e'tiqod ko'rsatkichi sifatida muxim ahamiyat kasb etishi tushuniladi;

c) mehnat ko'rsatkichi sifatida muxim ahamiyat kasb etishi tushuniladi;

d) samaradorlik ko'rsatkichi sifatida muxim ahamiyat kasb etishi tushuniladi.

13. Navbatdagi rangga o'tkazish jarayonini osonlashtirish uchun nimalar tavsiya qilinadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) guruhning alifboviy ro'yxatini tuzish, maksimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni aloxidalash, minimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni guruhlash va boshqalar;

b) guruhning alifboviy ro'yxatini tuzish, minimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni guruhlash va boshqalar;

c) maksimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni aloxidalash, minimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni guruhlash va boshqalar;

d) guruhning alifboviy ro'yxatini tuzish, maksimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni aloxidalash va boshqalar.

14. Metodlardan foydalanishda kamchiliklar miqdorini kamaytirish uchun qanday qoidalarga rioya qilish lozim? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) baholanishga mo'ljallangan shaxsning xususiyatlari yetarli darajada aniq va bir hil ma'noli qilib aniqlanishi shart, yaxlit guruhning xar qaysi xislat bo'yicha baholash tavsiya qilinadi, gala - samara moxiyatini ekspert tomonidan tushuntirish va uning bartaraf qilish zaruriyatini ta'kidlash tavsiya qilinadi, bir nechta mustaqil ekspertlar baholashini umumlashtirishda o'lchovning aniqlik darajasi (ishonchliligi) ortadi, maxsus tayyorlangan va o'qigan ekspertlar ishonchliroq baholashga qodirdirlar, turli vaziyatlar va xolatlarni uzoq muddat kuzatishda baholanishning aniqligi yuqori bo'ladi;

b) baholanishga mo'ljallangan shaxsning xususiyatlari yetarli darajada aniq va bir hil ma'noli qilib aniqlanishi shart, bir guruh sinaluvchilarni bir necha xususiyatlar, fazilatlar bo'yicha baholash zaruriyati vujudga kelsa, u taqdirda yaxlit guruhning xar qaysi xislat bo'yicha baholash tavsiya qilinadi, gala - samara moxiyatini ekspert tomonidan tushuntirish va uning bartaraf qilish zaruriyatini ta'kidlash tavsiya qilinadi, bir nechta mustaqil ekspertlar baholashini umumlashtirishda o'lchovning aniqlik darajasi (ishonchliligi) ortadi, maxsus tayyorlangan va o'qigan ekspertlar ishonchliroq baholashga qodirdirlar, turli vaziyatlar va xolatlarni uzoq muddat kuzatishda baholanishning aniqligi yuqori bo'ladi;

c) baholanishga mo'ljallangan shaxsning xususiyatlari yetarli darajada aniq va bir hil ma'noli qilib aniqlanishi shart, bir guruh sinaluvchilarni bir necha xususiyatlar, fazilatlar bo'yicha baholash zaruriyati vujudga kelsa, u taqdirda yaxlit guruhning xar qaysi xislat bo'yicha baholash tavsiya qilinadi, uning bartaraf qilish zaruriyatini ta'kidlash tavsiya qilinadi, bir nechta mustaqil ekspertlar baholashini umumlashtirishda o'lchovning aniqlik darajasi (ishonchliligi) ortadi, maxsus tayyorlangan va o'qigan ekspertlar

ishonchliroq baholashga qodirdirlar, turli vaziyatlar va xolatlarni uzoq muddat kuzatishda baholanishning aniqligi yuqori bo'ladi;

d) baholanishga mo'ljallangan shaxsning xususiyatlari yetarli darajada aniq va bir hil ma'noli qilib aniqlanishi shart, bir guruh sinalluvchilarni bir necha xususiyatlar, fazilatlar bo'yicha baholash zaruriyati vujudga kelsa, u taqdirda yaxlit guruhning xar qaysi xislat bo'yicha baholash tavsiya qilinadi, gala - samara moxiyatini ekspert tomonidan tushuntirish va uning bartaraf qilish zaruriyatini ta'kidlash tavsiya qilinadi, bir nechta mustaqil ekspertlar baholashini umumlashtirishda o'lchovning aniqlik darajasi (ishonchliligi) ortadi, turli vaziyatlar va xolatlarni uzoq muddat kuzatishda baholanishning aniqligi yuqori bo'ladi.

15. O'lchashda xatoga qabul qilingan omillarning farqlanishiga qarab testlar ishonchliligini baholashga nisbatan nechta yondashuv xukm suradi?

- a) bir hil yondashuv xukm suradi;
- b) ikki hil yondashuv xukm suradi;
- c) uch hil yondashuv xukm suradi;
- d) to'rt hil yondashuv xukm suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psycho.all.ru
7. www.psychology.net.ru

2.2. Kasbiy psixodiagnostika. Professiogramma (professiografiya) tarixi: kelib chiqish sabablari, imkoniyatlari, takomillashishi.



Tayanch soʻz va iboralar: Professiografiya, texnologik xususiyatlar, kasblarni tavsiflash, kompleks tahlil qilish, mehnat ekspertizasi, masalalarni bajarish, psixologik metodlar, retrospektiv mehnat ekspertizasi, mehnat unumdorligini oshirish, psixopotologiya, toliqish va oʻta toliqish, salbiy taʼsirni kamaytirish, psixologik xislatlar.

Professiografiya - bu kasb tomonidan insonga qoʻyiladigan talablar nuqtai nazaridan kasblar va ularni tabaqalashtiradigan ixtisoslar tavsifidir. Muayyan ixtisos - kasb yoki ular guruhi tomonidan insonga qoʻyiladigan talablar sistemasini tavsiflaydi, asoslaydi va professiografiyaning natijasini hal qiladi.

Professiogramma yoshlarga oʻzlarining kelgusida kimyoviy texnologiyalar yoʻnalishi kasbini toʻgʻri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi.

Professiogrammani kasbga xos ravishda oʻqitishni tashkil qilishda taʼlimning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va koʻnikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyat va shaxsiy xislatlariga bogʻliq ekanligini albatta koʻrsatish zarurdir.

Mana shu professiogrammaga asosan boʻlajak mutaxassis - kimyogarning sifat jihatidan oʻz, kasbga naqadar tayyorligi haqida bir fikrga kelishimiz mumkin.

Professiogrammaning bir qismini psixologik professiogramma, boshqa qismini esa, zarur kasbiy qobiliyatlar roʻyxati tarzida inson psixologiyasiga qoʻyiladigan talablarning qisqacha maʼlumotidan iborat boʻlgan psixogramma tashkil qiladi. Professiografiya kasblar klassifikatsiyasini ham oʻz ichiga oladi. Ammo, uning kompleksligi va sintetikligini ushbu klasifikatsiya gʻoyat hilma - hil mezonlarni belgilaydi. Chunki kasbni uning texnologik xususiyatlariga koʻra klassifikatsiyalashning oʻzi bir ish, gigienaga koʻra klassifikatsiyalashning boshqa (oʻzi bir) boshqa bir ish va hokazo. Professiografiyaning amaliy ahamiyati va uning kompleksligi shunda yaqqol ochiladi. Har qanday kasbni oʻrganish va tavsiflash hamisha maʼlum maqsad bilan olib boriladi va ana shu maqsadga

bo'ysindiriladi. Professiografiyaning maqsadi turlicha bo'lishi, professiogrammalar quyidagi maqsadlar uchun tuzilishi mumkin:

- ❖ zarur kadrlar tayyorlashni ta'minlovchi o'quv programmasini asoslash;

- ❖ mehnatning gigiena sharoitini hisobga olishi va yaxshilash;

- ❖ kasbga yo'naltirish, kasb bo'yicha konsultatsiya, kasb uchun odam tanlashni asoslash.

Tarixiy professiografiya yo'qolib ketgan kasblarni tavsiflaydi, biroq, professiografiyaning eng progressiv sohasi bu bizga o'tmishning stixiyali o'tib, kirib kelayotgan yangi kasbni konstruksiyalashga bag'ishlangan bo'lishidir. Mehnatni har tomonlama o'rganadigan barcha fanlar professiografiya oldiga turlicha vazifalar qo'yadi. Shuning uchun ham kasbni tahlil va tavsiflash uzviy ammo bir-biriga aynan o'xshash jarayon emas. Tekshirishning vazifasi materialni batafsil o'rganib olish, uni kengaytirishdan turli formalarni analiz qilib chiqish, bu formalar ichki bog'lanishini kuzatib borishdan iborat" - degan so'zlarini eslamasdan bo'lmaydi. Bunda shuni ham unutmaslik kerakki, professiografiya mazkur konkret mehnat psixologiyasi bo'yicha har qanday ishning shart - sharoiti shu bilan barcha ishni iloji boricha har tomonlama o'rganish bo'yicha yakuni bo'lib ham xizmat qiladi. Har qanday kasb xususiyatini kompleks tahlil qilishda quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- ❖ kasb va uning ixtisoslariga ishlab chiqarish xarakteristika;

- ❖ kasbning iqtisodiy ahamiyati;

- ❖ kasbning statsiologik xarakteristikasi;

- ❖ ijtimoiy psixologik xarakteristika uning ishlar orasidagi obro'si, kompleks jamoaning xususiyatlari, shaxslararo munosabatlarning vertikal va gorizontal bo'yicha o'ziga xosliklari;

- ❖ pedagogik xarakteristika: kasbiy mahoratni belgilaydigan kasbiy mehnat muvoffaqiyati uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikma xajmining ro'yxati, tayyorgarlik turi va muddati, harakat marshrutlari, xarakteristika hamda pedagogik jarayonini yaxshilashga oid takliflar;

- ❖ mehnat sharoitining ishchiga xarakteristika ("kasbiy zarar" va sog'lomlashtirish tadbirlari);

❖ mazkur kasbda ishchiga tibbiyot nuqtai nazaridan zid bo'lgan sabablar ro'yxati (ayo'llar va o'smirlar mehnati alohida ajratiladi);

❖ faqat zarur (asosiy) va lozim ko'rilgan (qo'shimcha) qobiliyatlar ro'yxati emas, balki psixologik to'g'ri kelmaslik ro'yxati, alfavit ro'yxati sifatidagi psixogramma ham, qo'shilgan psixologik to'g'ri kelmaslik ro'yxati sifatidagi psixogramma ham qo'shilgan.

Kasb hunarni o'rganish qanday maqsadda o'tkazilmasin uning barcha aspektlari turli hil maqsad uchun, garchi har hil meyorda bo'lsa ham, hisobga olinishi kerak. Professiogramma qator fanlarga tayanib, o'zining har bir sohasida tegishli fan tushunchalari sistemasidan foydalanishi kerak.

Mehnat ekspertizasi - bu mutaxassislar tomonidan insonlarni konkret kasbga yaroqligini aniqlashdir. Mehnatning u yoki bu turiga yaroqlilik quyidagilar bilan belgilanadi: kishining yoshi, sog'lig'i, tayyorlik darajasi, zarur bilim, malaka va ko'nikmaga egaligi, keraqli kasblar layoqatlar yig'indisi sifatidagi talant va mazkur kasb bo'yicha ishlash istagi. Biroq u ijtimoiy hayotiga ham, kishining jinsiga ham bog'liq. Shuning uchun mehnat ekspertizasi har hil bo'ladi. Ekspertiza uchun har bir mutaxassislar va tashkilotlar, vrachlar, psixologlar, pedagoglar, muhandislar va boshqa mutaxassislar, qabul komissiyasi, kadrlar bo'limi, ishchi kuchi to'plovchilar, harbiy komissariyat, vrach mehnat ekspertizasi komissiyasi. Mehnat ekspertizasi uning tashkiliy formasidan qat'iy nazar quyidagi umumiy masalalarni bajaradi:

❖ mazkur kishi muayyan ishni boshlay oladimi;

❖ u o'zi egallagan vazifa lavozimida ishlab ketadimi;

❖ mazkur kishining qaysi ishida foydalanish yaxshiroq bo'ladi;

❖ agar baxtsiz hodisa yuz bersa, u ishchi xususiyatida qay darajada bog'liq bo'ladi, hamda uni ishga qo'yganda xato qilinmaganmi.

Bu masalalar mehnat ekspertizasida mazkur kasb vazifalari hamda ularni hal qilish metodlarini belgilaydi. Mehnat faoliyatidan barcha turlarda mehnat ekspertizasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

❖ yoshi, sog'lig'i, ma'lumoti psixologik yoki qandaydir boshqa sabablarga ko'ra noqobil bo'lgan kishi ishga kirishishining oldini olish;

❖ mazkur kasbga layoqatli, ixtisos bo'yicha ish vazifasini o'z sog'lig'i va tegishli mehnat unumdorligiga zarar yetkazmay bajara oladigan kishilarni tanlash;

❖ bajarayotgan mehnat turiga negadir layoqatsiz bo'lib qolgan shaxsni o'z vaqtida ishdan chetlashtirish, dam berish, davolash yoki boshqa qo'li yetadigan ishga o'tkazish;

❖ u yoki bu kishi mehnatning qaysi turiga layoqatli ekanini aniqlash va unga kasbiy konsultatsiya asosida u yoki bu mehnat to'rini tavsiya qilish.

Mehnat ekspertizasining bu asosiy vazifalari har biri unga tegishli bo'lgan metod bilan hal qilinadi. Ba'zi hollarda faqat hujjati ma'lumotlar o'rganiladi. Boshqa hollarda o'qishga kirgan yoki ishlab chiqarishda ishlayotgan kishi bilan suxbat o'tkaziladi, uchinchi holda mutaxassis va ekspert komissiyasi tomonidan davolash va psixologik metod tadqiqotlar amalga oshiriladi. O'z vazifasini kishi sog'lig'ini baholash orqali bajaradigan vrach mehnat ekspertizasi g'oyat aniq tashkil etilganligidan dalolat beradi. Biroq vrach mehnat ekspertizasi u yoki bu formada vujudga kelgan birinchi kundanoq hamma vaqt psixologik ekspertiza bilan bog'liq, chunki har qanday mehnat kishining faqat jismoniy emas, balki psixologik qobiliyatini ham talab qiladiki, bu talablar ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish sharoitida yanada ortib bormoqda. Yoki psixologik mehnat ekspertizasi metodikasi va tashkiliy formalari hali unga qo'yilgan talablarni qanoatlantirmaydi. Mehnat ekspertizasining ob'ekti - inson (shaxsni psixologik mehnat ekspertizasini o'tkazish uchun) va mehnatning o'zaro munosabatlaridir. Mehnat ekspertizasi, jumladan psixologik ekspertiza ham prognostik, ham retrospektiv bo'lishi mumkin. Prannostik psixologik mehnat ekspertizasi psixodiagnostika sohasining prinsipi asosida tekshiriluvchining undan keyingi faoliyati xususiyatlarini oldindan ko'ra olish masalalarini hal qiladi. U o'rta maktabdayoq o'smirlarni kasbga yo'naltirishdan boshlanadi, so'ngra esa, ular kasb hunar-texnika bilim yurtiga kirganlarida hamda u yerdagi o'qish jarayoni davom etib, ishlab chiqarishda yakunlanadi. O'smirlarning o'quv va ishlab

chiqarishda mehnatdagi yutuq va kamchiliklarini oldindan ko'ra bilish, ya'ni psixo pragnostika bilan shug'ullanish g'oyat muhim va favqulotda murakkab vazifadir. O'zlashtirayotgan kasbni o'smirlarning shaxsiy fazilatlariga talablarini unda o'qish va mehnatga bo'lgan zarur qobiliyatlarining mavjudligini, o'qish va mehnatning mazkur turiga qanday munosabatda bo'layotganini bilish kerak. O'smirlarga ta'lim va tarbiya berayotgan kishilar bu barcha ma'lumotlarni psixodiagnostika uchun bilishlari va ana shunday bilim asosida o'smirlarni o'quv va mehnat faoliyati muvoffaqiyatli bo'lishini oldindan aytishlari mumkin. Ayni pedagoglar ekspert komissiyasi bilan birgalikda prognostik - psixologik ekspertiza vazifalarini ham qilishlari kerak. Retrospektiv mehnat ekspertizasi tekshirilayotgan shaxsni o'tgan o'quv yoki mehnat faoliyatini baholaydi, hamda uning faoliyat sifati pasayishining har hil etaplari (brak, jarohat, avariya)ga olib kelgan xato harakatlar shaxs xususiyatlari bilan aloqasini ko'rsatadi. Bu ishni nafaqat pedagog ham, shuningdek, ekspert vrachlar va psixolog ham baholaydi. Retrospektiv mehnat ekspertizasi uchun o'rganilayotgan harakat sifatiga talabni, psixik xususiyat hamda tekshiriluvchining tahlil qilayotgan xatosi va hodisalar sodir bo'lgan paytdagi holatini bilish juda muhim. O'quvchi yoki ishchi qobiliyatini baholash, uning keyingi faoliyatini aniqlash hamda buning keyingi o'qitish u yoki bu kasb bo'yicha ishlab chiqarish ishini maqsadga muvofiqligini hal qilishi, unda retrospektiv mehnat ekspertizasi muhim ahamiyatga ega.

Mehnat unumdorligini oshirish maqsadida mehnat jarayonini o'zgartirishning 2 ta asosiy yo'li bor:

- ❖ mehnatni intensivlash;
- ❖ mehnatni ratsionalizatsiyalash.

Mehnatni intensivligiga ishdan bo'sh qolishi va bekorga vaqt sarflash, ortiqcha harakatlarga barham berish, uning harakat sur'atini tezlashish, dam olish daqiqalarini kamaytirish, jismoniy nagruzkani tekshirish va hokazo yo'l bilan erishiladi. Agar mehnatni intensivlash ratsionalizatsiyalash bilan qo'shilsalar hamda oqilona doirada amalga oshirilsa, uning natijasi ijobiy bo'ladi. Haddan tashqari noratsional intensiv mehnat sifatining pasayishi hamda ishchining tashqi qolishga olib koladi. Mehnatni intensivlash, mehnatni to'g'ri rejimda o'zaytirish bilan birga olib borish kerak.

Mehnat rejimi bu ish va dam olish ham kun davomida ham vaqt qisqa bo'lagida taqsimlanishdir. Mikrodaqiqani hisobga olish va tashkil etish mikrorejimga kiradi. Mehnat rejimi hamma vaqt dam olish rejimini ham o'z ichiga oladi. Mehnatdagi mikrodaqiq dam olishning bir formasidir. Shu bilan birga cho'zilib ketgan daqiqa faoliyatga xalaqit beradigan tanafus va bekor qolish bo'ladi. Mehnat rejimi muammosi ko'p davomida ish vaqti davomiyligiga ko'ra bir-biriga qanday nisbatda bo'lishi mumkinligini aniqlashdan iborat. Toki mazkur kunning ishdan charchash, keyingi kunga eng kam miqdorda o'tsin. Mehnat faoliyati jarayonida vujudga keladigan charchash yoki kasbiy toliqish-mehnat psixologiyasining muhim muammosidir. Psixogigiena, psixologiya, gigiena va psixistriya fanlari uchrashgan joyda turuvchi fan bo'lib, maqsadi charchashni pasaytirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va asoslash hamda muhitning salbiy ta'sirini keltirib chiqaradigan psixopotologiyaning oldini olishdan iborat. Psixopotologiya - psixikaning kasallanishi. U psixologiyaning patopsixologiya deb ataluvchi sohasi va tibbiyot fani sifatidagi psixiatriyani o'rganadi. Charchash faoliyat natijasida mehnat qobiliyati vaqtinchalik pasaytirishning qonuniy jarayonidir. Charchash faoliyatga normal reaksiyadir. Ko'pincha charchashni toliqishning rejasini hisoblab, ularni aralastirib yuboradilar. Biroq charchash - psixik hodisa, toliqish keltirib chiqaradigan kechinma, o'z tabiatiga ko'ra og'riq, ochlik, chanqash kechinmalarga yaqin turadi. Faoliyatning ijobiy va salbiy emmotsional fonida charchash boshlanayotgan toliqish haqida aniq natural ogohlantiruvchidir. Nisbiy toliqish muammosida mehnat psixologiyasi uchun eng o'ziga xos vazifa ishga layoqatli toliqish ta'sirida o'zgarishga o'rganishdir. Ishga layoqatlilik tushunchasi pedagogik tushuncha: faoliyatning aniq to'rini xatosiz bajarish uchun belgilaydi. Mehnatga yaroqlilik ijtimoiy tushuncha bo'lib, mazkur inson to'g'risidagi bir necha ma'lumotlarga qarab, mehnat ekspertizasi tomonidan baholanadi. Iroda kuchi, hayajon bajarayotganligiga qiziqish boshlanayotgan fiziologik ko'rsatkichlar ob'ektiv isbotlangan toliqishni niqoblash, uning o'rnini bosish mumkin: birinchi holda ishga layoqat pasaymaydi, ikkinchisida pasayadi, lekin charchoq sezilmaydi. Ishga qiziqish, tashabbus ko'rsatishga topshiriqni bajarishning yalpi usullarini izlashga da'vat etadi. Bunday ishga layoqatlilik ba'zan

pasaytiriladi, balki ancha ortadi. Bunday charchoq bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Aksincha, ishga qiziqish bo'lmasa, astenik emotsiya ifodalangan charchoqning paydo bo'lishiga hamda ishga layoqatsizlikni, toliqishni xarakterlaydigan fiziologik siljish boshlanishidan oldin pasayishiga yordam beradi. Toliqish bilan dam olish o'rtasidagi nomuvofiqlik oqibatida toliqishning ortishi insonni sifat holatiga o'ta toliqishga olib keladi. Mehnat psixologiyasida kerak tadbirlar ishlab chiqish uchun toliqish o'ta toliqish boshlanishining asosiy qo'shimcha va yordamchi omillarni farqlash muhimdir. Toliqish va o'ta toliqishning asosiy sababi - mehnat faoliyatining o'zidir. Biroq ishlab chiqarishning paydo bo'lishi toliqish o'z-o'ziga toliqishni keltirib chiqaradigan qo'shimcha omillar tufayli ancha murakkablashishi mumkin. Ishga borishdagi noqulay motivatsiya, transport muammosi, ishning yomon tashkil qilinganligi va boshqa kamchiliklar, kichik bo'lsada qo'shimcha ish ko'lami, sport bilan xaddan tashqari ko'p shug'ullanish o'z-o'zicha toliqishni keltirib chiqarmaydigan, biroq uning paydo bo'lishiga ko'maklasha borib, uni ildamlashishiga, yordamchi ishlarni hisobga olish lozim. Bunga xronik kasalliklar hamda jismoniy, rivojlanmaganlik, ovqatlanish rejimini buzish, chekish va alkogol, muhitning noqulayligi va hokazolar kiradi. Pedagogik va psixologik tadbirlari boshlanayotgan toliqish va o'ta toliqishning asosiy omilini yengillashtirishga qo'shimcha va yordamchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lmog'i lozim. Toliqish va o'ta toliqishning 3 hil yo'li bo'ladi:

- 1) jismoniy (o'tin yorish, yer ishlari va hokazolar);
- 2) aqliy (pedagogik yoki o'quv mehnati va hokazo);
- 3) emotsional (xavfli sharoitlarda ishlash).

Bular ko'pincha mos bo'ladi. O'ta toliqish turli darajada bo'lishi mumkin: Agar ular kundan kun ish qilib bormaganda edi, dam olish kunlari, ta'til ham zarur bo'lmas edi. Yengil toliqish navbatdagi ta'til oldidan bo'lishi to'la qonuniydir. Faqat psixologiya qoidalari buzilgan hollardagina vujudga keladi. O'ta og'ir toliqish bu kasallik. Toliqishning kerak alomatlari nihoyatda rang-barang va barqarordir. Sektorli doira toliqish ta'siri ostida turli hil analizatorlarning sezgirligi pasayadi, harakat sohasida sensormotorli muvofiqlashtirilishi yomonlashadi. Ortiqcha harakatlar paydo bo'ladi, oddiy va murakkab sezgilik tezligi

pasayadi. Aqliy faoliyat va diqqat intensivligi ham susayadi. Xotiradan tushib qolish va eslashning qiyinlashuvi keng paydo bo'ladi, diqqatni taqsimlash va boshqa tomonga qaratish qiyinlashadi. Toliqishning juda xarakterli alomati kunduzi uyquchanlik va kechki uyquning buzilishidir. Bir tomondan, ishni maromlashtirish shubhasiz ijobiy omil. Biroq, ikkinchi tomondan maromlashtirish bilan bog'liq bo'lgan bir hil maromda bo'lishi, bir hillik holatiga - diqqatning pasayishi va uyqu bosishiga olib keladi.

Bir hillik ish layoqatiga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- ❖ o'ta oddiy va bir operatsiyalar mazmuniga ko'ra murakkabroq va hilma - hil bo'lgan operatsiyalar bilan birlashtirish;
- ❖ har bir ishchi tomondan bajariladigan operatsiyalarni vaqti bilan almashtirib turish;
- ❖ ish ritmini vaqti bilan o'zgartirib turish;
- ❖ chetdan qo'zg'aluvchi (xususan musiqa, ashula) kiritish.

Faol dam olishga faqat jismoniy harakatlar emas, balki mehnat harakatlari almashinishini oqilona tartibga solish va mehnat jarayonidagi faoliyat xarakterni o'zgartirish ham kiradi.

Mehnat sifati deyilganda ular unumi xavfsizligi nuqsonsizligi hamda ishchini qanoatlantirish birligi tushuniladi. Keyingi mehnatning oldingi omillari hamda uning psixologik sharoiti bilan belgilanadi. Mehnatning to'la xavfsizligiga xato va brak mahsulot ishlab chiqarish, ishlab chiqarish jarohati, avariya va haloqatlarning olidini olish bilan erishiladi. Olidini olish ishlari qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, mehnat shunchalik bexatar bo'ladi. Biroq xavf puxta o'rganib chiqilgandagina xavflar oldini olish chorolari samara beradi. Ishlab chiqarishda yoxud transportda avariya, jarohatlanish yuz bersa, muhandis va vrachdan iborat komissiya uni tekshiradi va umumiy masalalarni hal qiladi:

- ❖ kim avariya qildi yoki jarohatlandi;
- ❖ avariya qanday sharoitda va qanday sabablarga ko'ra yuz berdi;
- ❖ avariya yoki jarohatlanishning oldini olish uchun nima qilinishi lozim edi;
- ❖ shunga o'xshagan hodisalar takrorlanmasligi uchun nima qilish kerak.

Xavfsizlik xizmati asosida jarohatlanishning oldin olish tadbirlari yotadi. Shuning uchun ham mehnat sifati va xavfsizligi uchun ko'rash avariya vaziyatiga olib kelmaydigan shart-sharoitlarni o'rganish va barham berishdan boshlanadi. Qiyinchilik, hatto harakatlar avariya mehnat psixologiyasi uchun bir zanjirning zvenolaridir. Avariya vaziyati - bu mehnat faoliyati sharoitining murakkablashuvi bo'lib, avariya xavfi ishni belgilangan reja bo'yicha bajarishga yo'l bermaydi.

Avariya vaziyati baxtsiz hodisalarga imkoniyat yaratadi, ammo uni muqarrar qilib qo'ymaydi. Baxtsiz hodisa - insonda vujudga kelgan avariya vaziyatidagi noto'g'ri harakatining natijasi bo'lib, mehnat jarayonidagi avariya vaziyati, ishchi harakatiga bog'liq mexanizmning nosozligi yoki sinishi oqibatida vujudga kelishi, ishchining xatti-harakatlari sababli ham sodir bo'lishi mumkin. Uskunalar sinmay hamda ish joyida odamga zarar yetmay yuz bergan brak avariya sanalmaydi, ammo u shaxsiy omillar bilan bog'liq bo'lsa, psixik jihatdan bu ham avariya. Shaxsiy omil bu - biron bir narsaga, mazkur holatda avariya sabab bo'luvchi shaxsiy xislat yoki noto'g'ri harakatdir. Avariya sababini aniqlash u bilan bog'liq bo'lgan shaxs yoki shaxslarni har tomonlama o'rganishni talab qiladi. Bunda voqea zanjiri hamda ishchi harakatidan sabab oqibati boshdan oxirigacha ko'rib chiqilgan bo'lishi kerak konkret avariya sabablarini tushunish mazkur korxonadagi boshqa avariya sababini tushunishi osonlashtiribgina qo'ymay, balki ulardan oldini olishni ham belgilaydi. Bu savollarga javob berishning 3 metodi mavjud:

1) analitik metod konkret avariya chuqur o'rganishga tayanadi;

2) statistik- yanada puxtarok o'rganishni talab qiladigan shunga o'xshash avariya takrorlanishini aniqlash imkonini beradi;

3) tajriba metodi - psixologik strukturasi ko'ra avariya o'xshash vaziyatni tabiiy yoki laboratoriya sharoitida modellashtirish yo'li bilan o'rganish metodidir.

Mehnat faoliyatining konkret turidagi avariya sabablarini umumiy klassifikatsiyalashda, ular quyidagi 3 guruhdan iborat bo'ladi.

Birinchidan, brak va avariya sababi tasodifiy bo'lib, mazkur va boshqa shaxsda takrorlanish tedensiyasiga ega emas. Bunday hollarda ularga nisbatan ishlab chiqarish psixologik analizidan kelib chiqadigan hech qanday maxsus tadbir qilinmaydi.

Ikkinchidan - brak va avariyaning sababi mazkur yoki boshqa shaxsda shunga o'xshash hodisa takrorlanish xavfi borligini bu xavfni tegishlicha pedagogik davolashlar konstruktiv yoki tashkiliy tadbirlar yo'li bilan bartaraf etishning aniq imkoniyatlarini ko'rsatadi. Bunday hollarda tadbirlar so'zsiz, aniq bajarilishi lozim.

Uchinchidan brak va avariyaning sababi bunday hodisa mazkur shaxs yoki psixologik xususiyatiga unga o'xshash boshqa shaxsda takrorlanish xavfini tasdiklash mumkin, ammo bu xavfni bartaraf qilishning aniq mikoniyati aniqlanmaydi. Bunday shaxslar ishdan chetlashtirilishi kerak. Sodir bo'lgan avariya, brak yoxud unga olib kelgan shart-sharoitlarda shaxsiy omilning roli qo'yilgan xatti - harakatlarning e'tirofi orqali aniqlanadi. Xato harakat - bu faoliyatning maqsadga yo'naltirilgan tarzini buzadigan hamda harakatdagi shaxs ularni ko'ngilsiz oqibatlarga olib keladigan elementdir, boshqacha aytganda bu insonning beixtiyor harakati bo'lib, uni maqsadga erishishiga olib kelmaydi. Har bir noto'g'ri harakatda bitta yoki bir nechta sabab bo'ladi. Mazkur xato harakatning paydo bo'lishi boshlangan sabalardan biri asosiy qolganlari ko'makchi bo'lib koladi. Asosiy sabab - bu shunday sababki, u yo'qotilsa mazkur xato harakat sodir bo'lmaydi. Vaqtiga ko'ra u xato harakat oldin yuz berishi mumkin. Bir mehnat jarayonida sodir bo'lgan bir qancha xato harakatlar o'z sababiga va umumiy sabablarga ega bo'lishi mumkin. Odatda turg'un, umumiy sabab bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Xato harakatlarning ishlab chiqarish jarayoni yoki qiyin operatsiyasining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lgan sabablar ham bor. Bunga quyidagilar kiradi:

- ❖ yomon tayyorlanganlik yoki o'quvchida zarur bilim va malakalarning kamligi;
- ❖ mavjud mehnat faoliyati talablariga ularning individualligi, ya'ni kasbiy qobiliyatlar boyligi darajasi;
- ❖ uning g'oyaviy siyosiy tarbiyalanganlik darajasining pastligi bilan izohlanadigan intizomsizligi yoki noshudligi toliqish natijasida mehnat layoqatining vaqtincha pasayishi;

❖ mehnat sharoitning salbiy ta'siri.

Xato xarakterlarni keltririb chiqaradigan sabablarni ularning asta -sekin murakkablashib boradigan turlarni belgilaydi. Ular o'quvchi qobiliyati va mehnat faoliyatini muvoffaqiyatli egallashga yordam berishi ham mumkin. Shu bilan birga ular o'z navbatida mehnat sifatini ta'minlaydigan o'qitishi metodikasi samaradorligining indiqatori hisoblanadi.

Agar kasb hunar texnika ta'limi bir butun jarayonda o'qitishning oxirgi natijasi kasbiy mahoratni tarkib toptirish bo'lsa, tarbiyaning oxirgi natijasi - quruvchi sifatidagi ishchi shaxsini tarkib toptirishdan iborat. Hozirgi zamon ishchisining siyosiy sifatlari mana shunday ifodalab berilgan. Ijtimoiy ishlab chiqarishning malakali ishchisi shaxsiga xos bo'lgan ishchan psixologik xislatlar quyidagilardan iboratdir:

❖ kishilar ehtiyojlarini va shu jumladan o'zining ham shaxsiy ehtiyojlarini qondiruvchi, shuning bilan birga ishlab chiqarish unumdorligini va uning sifat natijalarini orttirishga qaratilgan moddiy boyliklarni hosil qilishga intilish;

❖ o'zi ishlayotgan muassasa va xalq xo'jaligi sohasidagi jamoa ishning muvoffaqiyatidan manfaatdorlik;

❖ texnologik vazifalarni tez va to'g'ri hal qilishga nisbatan qobiliyat aqliy va jismoniy ishlab chiqarish vazifalarini yengillik bilan ortiqcha zo'r bermasdan va buzilishlarga yo'l qo'ymay bajarishga chidash;

❖ jamiyat uchun foydali moddiy boyliklarni hosil qilishda tobora katta yutuqlarga erishish maqsadida o'zining kasbga oid bilimlarini, malakalarini, o'quvlarini va ishlab chiqarishga oid mahoratini doim takomillashtirishga intilish.

Bularning hammasi malakali ishchilarning faqat eng umumiy xislatlaridir. Bulardan tashqari har bir kasb bo'yicha maxsus faqat shu kasbga xos bo'lgan shaxsiy sifatlarni tarkib topadi. Masalan: harakatlarning aniqligi va tezligi ephchilik, chaqqonlik, hozirjavoblik va o'zini tuta bilish. Bular mana shu sifatlarning albatta namoyon bo'lishini talab qiladigan faoliyat turlarida tarkib topadi. Biroq, shaxs xislatlarining tarkib topishi avtomatik ravishda yuzaga keladi. Ishchi xalq xo'jaligining qandaydir biron bir sohasida butun hayoti davomida ishlashi mumkin, lekin bajarayotgan ishi uchun zarur bo'lgan u yoki bu psixik xususiyati

rivojlanmasligi ham mumkin. Hamma narsa asosan u ishlayotgan muhitga, uning mehnatga bo'lgan munosabatiga, uning ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilgan va yo'naltirgan kishilarga va albatta mehnatning o'ziga bog'liqdir. Ma'lumki har qanday mehnat ham shaxsni tarkib toptiravermaydi, balki mehnat ijtimoiy foydasi shaxsga ko'rinib turgandagina va asosan mehnatning shunday turi ilojini tarkib toptiradiki, bunday mehnat jarayonida odam boshqa kishilar bilan bevosita yoki bilvosita munosabatga kirishadi hamda o'zini jamoaning a'zosi sifatida anglaydi. Qisqaroq qilib aytadigan bo'lsak, shaxs mehnat va munosabat jarayonida tarkib topadi. Mehnat tarbiyasi bolalalikdan boshlanadi, dastavval o'z-o'ziga xizmat qilish, undan so'ng yasama o'yinchoqlarning qurishi. Keyin ota-onalarga xo'jalik ishlarida yordam berish. Mehnat tarbiyasi maktabda mashg'ulotlarning ma'lum qoidalariga rioya qilishi, o'quv topshiriqlarni bajarishi. Mehnat darslarida undan so'ng, kasb hunar texnika bilim yurtlarida va bevosita sanoatda elementlar ishlab chiqarish ishlarini amalga oshirish talab qilinadi. Yosh yigit qizlar shaxs sifatida sanoatga qanday tarzda kelishlari, savdo xodimi sifatida do'kon peshtaxtasiga, mexanizator sifatida dalaga kelishlari, mehnatga nisbatan o'zi bilan birga ishlaydigan kishilarga nisbatan o'z-o'ziga nisbatan qanday munosabatda bo'lishlari, o'zining professional va fuqarolik sifatlarini qaysi tomonga va qanchalik muvoffaqiyat bilan rivojlantirishlari bilim yurtining pedagoglariga bog'liqdir. Shuning uchun pedagoglar o'zlariga tegishli bilim yurtini bitiruchilarning faqat maxsus bilimlari va o'quvlari - mehnatkashi va fuqaro sifatida tarbiyalanganliklariga ham javobgardirlar. Mehnat tarbiyasining hamma davrlarida (oilada, maktabda, o'quv yurtida, sanoatda) mehnatkash shaxsi xislatlarining va uning mehnatga bo'lgan qobiliyatini muvoffaqiyatli tarkib toptirishning asosiy psixologik shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

- ❖ ishlab chiqarish faoliyatiga undovchi mehnat muhiti; mehnat harakatlariga tarbiyalovchi ta'lim;
- ❖ mehnatga psixologik jihatdan tayyorlash;
- ❖ o'qish va mehnat vazifalarini hal qilish uchun shaxs sifatlarini psixologik jihatdan safarbar qilish;
- ❖ samarali mehnat.

Mehnat muhiti muvoffaqiyatli mehnat tarbiyasining zaruriy shartidir. Mehnat muhitiga quyidagilar kiradi:

❖ tarbiyalanuvchini (bolani, o'smirni yoki katta yoshli odamni) birgalikda ishlaydigan kishilar guruhiga yoki jamoa bo'lishi konkret mehnat majburiyatlarini aniqlash ishini zaruriy moddiy vositalar bilan ta'minlash;

❖ mehnatga jalb qiladigan tashqi sharoitni hosil qilish.

Tarbiyalanuvchini mehnat guruhigi qo'shishni hatto oilada ham hamma vaqt amalga oshirib bo'lmaydi. Ba'zan bola o'zining tug'ilgan yurtida "begonadek" yashaydi, faqat majbur qilgandagina o'z-o'ziga xizmat qilish bilan shug'ullanadi. Bunda u qandaydir xo'jalik ishlaridan bosh tortib biron mehnatga o'rganmay batartiblik va ozodalik odatlarini ortirmaydi. Maktabdagi sinflarda kasb hunar texnika bilim yurtlaridagi o'quv guruhlarida ishlab chiqarish zvenolari va brigadalarida ayrim "begonalar" uchrab turadi. Ular faqat tashqi tomomndan kimningdir, majbur qilishi orqali o'z majburiyatlarini bajaradilar. Bunda hech qanday mehnat tarbiyasi haqida so'z bo'lishi mumkin emas, "begonalarda" faqat xudbinlik va tekinxurlik tarkib topadi. Bunday hodisa oilada bola o'z holiga tashlab qo'yilganda g'amxo'rliklik qilinganda, bola oilada mehnat guruhining teng huquqli a'zosi sifatida kattalar bilan birgalikda qilinadigan birona ishga jalb qilinmaganda oilada doimiy mehnat majburiyatlariga ega bo'lmaganda va mehnat majburiyatlarini bajarish yuzasidan hech qanday javobgarlikni his etmaganda yoki bo'lmasa, mehnat majburiyatlariga ega bo'la turib, ularni bajarganda hech qanday qanoatlanish hissini sezmaganda va bunday faqat yo'lgiz yoqimsizlik sezganda yuzaga keladi. O'quv va ishlab chiqarish guruhlaridagi ayrim shaxslarning mehnatdan mana shunday begonalanishi xuddi oila sharoitidagidek, asosan bir hil sabablar asosida yuzaga keladi. O'quvchi yoki ishchi ta'lim yoki ishlab chiqarish guruhiga formal tarzda kiritib qo'yiladi. Ammo u guruhda organiq qism sifatida kiritilmaydi va o'zini o'quv guruhning teng huquqli a'zosi sifatida his qilmaydi. Guruhga yangi qo'shilgan o'quvchilarning umumiy ish uchun hech qanday qadr-qimmatini va foydasini ko'rmaydi. Ana shunday holatlarda mehnatdan begonalanish hodisasi yuz beradi. Shuning uchun guruh bunday o'quvchi yoki yosh ishchiga g'araz bilan foydasiz odam sifatida qaraydi. Bu psixologik jihatdan ishlamaslikning yuzaga kelishidagi asosiy sababidir. Mana shunday sharoitda "begonalashgan" odamlarda birgalikda ishlashdan qanoatlanishning

bo'lishi mumkin emas. Bunday holat "begonalashgan" o'quvchi yoki yosh ishchiga xursandchilikka qaraganda ko'proq dilsiyoxlik keltiradi, yoqimsizlik esa, mehnatga nisbatan nafrat uyg'otadi va u mehnat me'dasiga tekkan mavxum odamga aylanadi. Guruh bilan munosabatda bo'lishda uning bilan birgalikda mehnat qilishda unga begonalarcha va g'araz bilan qarash "baxtsiz" shaxsning salbiy xislatlarini va mehnatdan qochishni rivojlantirish mumkin. Mehnatkash shaxsning faqat ijobiy xislari muvoffakiyali ravishda tarkib topishi mumkin bo'lgan mehnat muhitiga o'quvchi deganda guruh bilan ushbu o'quvchi uchun umumiy manfaatlarni topishdek, ma'no tushuniladi. Agarda bunday umumiy manfaatlar yo'q bo'lsa, guruh a'zolari tomomnidan ko'tarinki ruh bilan qabul qilinadigan vazifalar qo'yish orqali guruhdan bunday umumiy manfaatdorlikni yuzaga keltirish kerak, hech bir istenosiz guruh har bir a'zolarining qadr-qimmatini ijobiy sifatlarini va yutuqlarini ta'kidlab ko'rsatish orqali guruhning umumiy ishi uchun har bir a'zosining ham foydali ekanini guruhga ko'rsatish lozim. O'quv va ishlab chiqarish ishlari bo'yicha guruhda o'zaro yordamlashishni tashkil qilish va guruhning umumiy vazifalarini bajarishda yutuqlarni ta'minlash lozim. Yutuqlar guruhda namoyon bo'ladigan ozgina garazguylilikning oldini olib, bir-biriga nisbatan xayrixoxlik munosabatlarini hosil qilishi kerak. Mana shularning yordamida mehnat munosabatining muvaffaqiyatli bo'lishiga yaxshi ta'sir kiluvchi, guruhda psixologik iqlim hosil qiladi. Mehnat tarbiyasining muvoffaqiyati shuningdek mehnatning tashqi muhitni tashkil qiluvchi tevarak atrofdagi sharoit hamda, moddiy jihatdan ta'minlangan bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Chiroyli qilib bezatilgan va toza keraqli texnika vositalari bilan jihozlangan, oqilona tartibga keltirilgan xonaga ishlash yoqimlidir. Bunday sharoitda tartib saqlash, tozalik va betartiblik, shuningdek tirishqoqlik hamda mehnat madaniyati haqida o'quvchilarni ogohlantirmasa ham bo'ladi. Bunday tashqi sharoit va mehnatning moddiy ta'minoti o'quvchilarning o'zlari tomomnidan tashkil qilingan bo'lsa, bunday intilish iroda kuchliroq bo'ladi. Mana shu sababdan madaniy sharoitni tashkil qilish va ish joylarini kerakli texnika vositalari bilan oqilona jihozlash pedagoglarning birinchi navbatdagi vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Mehnatning tashqi muhiti tarbiyalovchi mehnat ta'limi uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratib

beradi. Tarbiyalovchi o'zlashtirilgan bilimlarning shaxsiy xususiyatlariga aylanishi jarayonidan iboratdir. Bunda bilimlar ishonch e'tiqodga aylanadi. Bilimlarning ko'lami bilimdonlikka ko'tariladi. Mehnatga o'rgatmasdan turib, jamiyat uchun qimmatli shaxsni tarbiyalash mumkin emas. Ammo istalgan ta'lim ham tarbiya bera olmaydi. Hamma davrlarda juda ko'p kishilarni yoshlik chog'laridan boshlab mehnatga o'rgatganlar, ammo hamma vaqt ham jamiyat uchun foydali shaxslarni ta'lim bilan tarbiyalab voyaga yetkazgan emaslar. Hattoki ijtimoiy foydali ishga o'rgatish ixtiyorsiz holda foydasiz, ba'zan esa, jamiyat uchun zararli shaxsni voyaga yetkazishi mumkin. Bunday shaxsda maxsus bilimlar kasbiy malaka va barcha ijobiy jihatlarning bo'lishi bilan birga boshqa odamlar uchun mehnat qilishga intilishi birga ishlayotgan odamlarga yordamlashish xohishi, jamoa bilan birga bo'lishi, mehnat unumdorligini oshirishda yuksak darajalarga erishish istagi bo'lmasligi mumkin. Psixologiyaning maqsadini mensimaydigan ta'limda ya'ni shaxsning tarkib topishi haqida g'amxo'rlik qilinmay ta'lim berilganda o'quvchilarla ijobiy shaxsiy sifatlar o'rniga, masalan: shuxratparastlik, ta'magirlik, poraxo'rlik, intizomsizlik, yalqovlik va ishga nisbatan e'tiborsizlik kabi xislatlar rivojlanishi mumkin. Tarbiyalanuvchilarga nisbatan beparvolik, beg'amlik, sovuqqonlik yoki pedagogik jihatdan tajribasizlik natijasida qilingan barcha salbiy ishlar o'quvchilarning kundalik ta'lim yoki ishlab chiqarish ishlarida ko'p martalab ularning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Pedagoglar tomonidan psixologik bilimlar asosida va uning tarbiyalanganligiga tayangan holda o'quv guruhida amalga oshiriladigan tashkiliy, o'quv va tarbiyaviy ishlar mana shulardan iboratdir. O'quvchilarning mehnatlari ularning har biri uchun hamma jihatdan unumdor bo'lishini ta'minlash borasida pedagoglar barcha zarur choralarni kurishlari kerak. Faqat ana shunday muhim sharoit bo'lgandagina pedagoglar keraqli kasbiy sifatlarga ega bo'lgan halol mehnatkashlarni, munosib fuqarolarni tarbiyalashlari mumkin.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1) Professiografiya deganda nimani tushunamiz? Misollar bilan izohlab bering.
- 2) Professiogrammalar qaysi maqsadlar uchun tuzilishi mumkin?
- 3) Tarixiy professiografiya qaysi kasblarni tavsiflaydi?
- 4) Har qanday kasb xususiyatini kompleks tahlil qilishda nimalarga e'tibor berish lozim?
- 5) Mehnat ekspertizasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- 6) Retrospektiv mehnat ekspertizasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- 7) Mehnat unumdorligini oshirish maqsadida mehnat jarayonini o'zgartirishning asosiy yo'llari nimalardan iborat?
- 8) Psixopotologiya deganda nimani tushunamiz?
- 9) Toliqish bilan dam olish o'rtasidagi nomuvofiqlik nimada? Misol keltiring.
- 10) Bir hillik ish layoqatiga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun qaysi tadbirlarni amalga oshirish lozim?

Testlar

1. Professiografiya deganda nimani tushunamiz?

a) bu kasb tomonidan insonga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan kasblar va ularni tabaqalashtiradigan ixtisoslar tavsifidir;

b) bu yo`nalish tomonidan insonga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan kasblar va ularni tabaqalashtiradigan ixtisoslar tavsifidir;

c) bu ixtisos tomonidan insonga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan kasblar va ularni tabaqalashtiradigan ixtisoslar tavsifidir;

d) bu soha tomonidan insonga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan kasblar va ularni tabaqalashtiradigan ixtisoslar tavsifidir.

2. Muayyan ixtisosning asosiy maqsadi nimalardan iborat? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasb yoki ular guruhi tomonidan insonga qo'yiladigan talablar sistemasini asoslaydi va professiografiyaning natijasini hal qiladi;

b) kasb yoki ular guruhi tomonidan insonga qo'yiladigan talablar sisitemasini tavsiflaydi, asoslaydi va profesiografiyaning natijasini hal qiladi;

c) kasb yoki ular guruhi tomonidan insonga qo'yiladigan talablar sisitemasini tavsiflaydi va profesiografiyaning natijasini hal qiladi;

d) kasb yoki ular guruhi tomonidan insonga qo'yiladigan talablar sisitemasini tavsiflaydi, asoslaydi va soha natijasini hal qiladi.

3. Profesiogrammalar qanday maqsadlar uchun tuzilishi mumkin? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) zarur kadrlar tayyorlashni ta'minlovchi o'quv programmasini asoslash, kasbga yo'naltirish, kasb bo'yicha konsultatsiya, kasb uchun odam tanlashni asoslash;

b) zarur kadrlar tayyorlashni ta'minlovchi o'quv programmasini asoslash, mehnatning gigiena sharoitini hisobga olishi va yaxshilash, kasb bo'yicha konsultatsiya, kasb uchun odam tanlashni asoslash;

c) zarur kadrlar tayyorlashni ta'minlovchi o'quv programmasini asoslash, mehnatning gigiena sharoitini hisobga olishi va yaxshilash, kasbga yo'naltirish, kasb bo'yicha konsultatsiya, kasb uchun odam tanlashni asoslash;

d) zarur kadrlar tayyorlashni ta'minlovchi o'quv programmasini asoslash, mehnatning gigiena sharoitini hisobga olishi va yaxshilash, kasbga yo'naltirish, kasb uchun odam tanlashni asoslash.

4. Har qanday kasb xususiyatini kompleks tahlil qilishda nimalarni tavsiya qilish mumkin? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasb va uning ixtisoslariga ishlab chiqarish xarakteristika, kasbning iqtisodiy ahamiyati, kompleks jamoaning xususiyatlari, shaxslararo munosabatlarning vertikal va gorizontal bo'yicha o'ziga xosliklari, pedagogik xarakteristika, mehnat sharoitining ishchiga xarakteristika, mazkur kasbda ishchiga tibbiyot nuqtai nazaridan zid bo'lgan sabablar ro'yxati, alfavit ro'yxati sifatidagi psixogramma ham, qo'shilgan psixologik to'g'ri kelmaslik ro'yxati sifatidagi psixogramma ham qo'shilgan;

b) kasb va uning ixtisoslariga ishlab chiqarish xarakteristika, kasbning iqtisodiy ahamiyati, ijtimoiy psixologik xarakteristika uning ishlar orasidagi obro'si, shaxslararo munosabatlarning vertikal va gorizontal bo'yicha o'ziga xosliklari, pedagogik xarakteristika, mehnat sharoitining ishchiga xarakteristika, mazkur kasbda ishchiga tibbiyot nuqtai nazaridan zid bo'lgan sabablar ro'yxati, alfavit ro'yxati sifatidagi psixogramma ham, qo'shilgan psixologik to'g'ri kelmaslik ro'yxati sifatidagi psixogramma ham qo'shilgan;

c) kasb va uning ixtisoslariga ishlab chiqarish xarakteristika, kasbning iqtisodiy ahamiyati, ijtimoiy psixologik xarakteristika uning ishlar orasidagi obro'si, kompleks jamoaning xususiyatlari, shaxslararo munosabatlarning vertikal va gorizontal bo'yicha o'ziga xosliklari, pedagogik xarakteristika, mazkur kasbda ishchiga tibbiyot nuqtai nazaridan zid bo'lgan sabablar ro'yxati, alfavit ro'yxati sifatidagi psixogramma ham, qo'shilgan psixologik to'g'ri kelmaslik ro'yxati sifatidagi psixogramma ham qo'shilgan;

d) kasb va uning ixtisoslariga ishlab chiqarish xarakteristika, kasbning iqtisodiy ahamiyati, ijtimoiy psixologik xarakteristika uning ishlar orasidagi obro'si, kompleks jamoaning xususiyatlari, shaxslararo munosabatlarning vertikal va gorizontal bo'yicha o'ziga xosliklari, pedagogik xarakteristika, mehnat sharoitining ishchiga xarakteristika, mazkur kasbda ishchiga tibbiyot nuqtai nazaridan zid bo'lgan sabablar ro'yxati, alfavit ro'yxati sifatidagi psixogramma ham, qo'shilgan psixologik to'g'ri kelmaslik ro'yxati sifatidagi psixogramma ham qo'shilgan.

5. Mehnat ekspertizasi deganda nimani tushunamiz?

a) bu mutaxassislar tomonidan insonlarni konkret kasbga yaroqligini aniqlashdir;

b) bu mutaxassislar tomonidan insonlarni konkret mehnatga yaroqligini aniqlashdir;

c) bu mutaxassislar tomonidan insonlarni konkret ixtisosga yaroqligini aniqlashdir;

d) bu mutaxassislar tomonidan insonlarni konkret yo'nalishga yaroqligini aniqlashdir.

6. Mehnat ekspertizasi qaysi umumiy masalalarni bajaradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) mazkur kishi muayyan ishni boshlay oladimi, o'zi egallagan vazifa lavozimida ishlab ketadimi, baxtsiz hodisa yuz bersa, u ishchi xususiyatida qay darajada bog'liq bo'ladi, hamda uni ishga qo'yganda xato qilinmaganmi;

b) mazkur kishi muayyan ishni boshlay oladimi, o'zi egallagan vazifa lavozimida ishlab ketadimi, mazkur kishining qaysi ishida foydalanish yaxshiroq bo'ladi, baxtsiz hodisa yuz bersa, u ishchi xususiyatida qay darajada bog'liq bo'ladi, hamda uni ishga qo'yganda xato qilinmaganmi;

c) mazkur kishi muayyan ishni boshlay oladimi, mazkur kishining qaysi ishida foydalanish yaxshiroq bo'ladi, baxtsiz hodisa yuz bersa, u ishchi xususiyatida qay darajada bog'liq bo'ladi, hamda uni ishga qo'yganda xato qilinmaganmi;

d) mazkur kishi muayyan ishni boshlay oladimi, o'zi egallagan vazifa lavozimida ishlab ketadimi, mazkur kishining qaysi ishida foydalanish yaxshiroq bo'ladi, baxtsiz hodisa yuz bersa hamda uni ishga qo'yganda xato qilinmaganmi.

7. Mehnat ekspertizasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) yoshi, sog'lig'i, ma'lumoti psixologik yoki qandaydir boshqa sabablarga ko'ra noqobil bo'lgan kishi ishga kirishishining oldini olish, mazkur kasbga layoqatli, bajarayotgan mehnat turiga negadir layoqatsiz bo'lib qolgan shaxsni o'z vaqtida ishdan chetlashtirish, dam berish, davolash yoki boshqa qo'li yetadigan ishga o'tkazish, u yoki bu kishi mehnatning qaysi turiga layoqatli ekanini aniqlash va unga kasbiy konsultatsiya asosida u yoki bu mehnat to'rini tavsiya qilish;

b) yoshi, sog'lig'i, ma'lumoti psixologik yoki qandaydir boshqa sabablarga ko'ra noqobil bo'lgan kishi ishga kirishishining oldini olish, mazkur kasbga layoqatli, ixtisos bo'yicha ish vazifasini o'z sog'lig'i va tegishli mehnat unumdorligiga zarar yetkazmay bajara oladigan kishilarni tanlash, bajarayotgan mehnat turiga negadir layoqatsiz bo'lib qolgan shaxsni o'z vaqtida ishdan chetlashtirish, dam berish, davolash yoki boshqa qo'li yetadigan ishga o'tkazish, u yoki bu

kishi mehnatning qaysi turiga layoqatli ekanini aniqlash va unga kasbiy konsultatsiya asosida u yoki bu mehnat to`rini tavsiya qilish;

c) yoshi, sog`lig`i, ma`lumoti psixologik yoki qandaydir boshqa sabablarga ko`ra noqobil bo`lgan kishi ishga kirishishining oldini olish, mazkur kasbga layoqatli, ixtisos bo`yicha ish vazifasini o`z sog`lig`i va tegishli mehnat unumdorligiga zarar yetkazmay bajara oladigan kishilarni tanlash, bajarayotgan mehnat turiga negadir layoqatsiz bo`lib qolgan shaxsni o`z vaqtida ishdan chetlashtirish, dam berish, davolash yoki boshqa qo`li yetadigan ishga o`tkazish, unga kasbiy konsultatsiya asosida u yoki bu mehnat to`rini tavsiya qilish;

d) yoshi, sog`lig`i, mazkur kasbga layoqatli, ixtisos bo`yicha ish vazifasini o`z sog`lig`i va tegishli mehnat unumdorligiga zarar yetkazmay bajara oladigan kishilarni tanlash, bajarayotgan mehnat turiga negadir layoqatsiz bo`lib qolgan shaxsni o`z vaqtida ishdan chetlashtirish, dam berish, davolash yoki boshqa qo`li yetadigan ishga o`tkazish, u yoki bu kishi mehnatning qaysi turiga layoqatli ekanini aniqlash va unga kasbiy konsultatsiya asosida u yoki bu mehnat to`rini tavsiya qilish.

8. Mehnat unumdorligini oshirish maqsadida mehnat jarayonini o`zgartirishning nechta asosiy yo`li bor?

- a) 1 ta;
- b) 3 ta;
- c) 2 ta;
- d) 4 ta.

9. Mehnat unumdorligini oshirish maqsadida mehnat jarayonini o`zgartirishning qaysi asosiy yo`llari bor?

- a) mehnatni e`zozlash, mehnatni ratsionalizatsiyalash;
- b) mehnatni intensivlash, mehnatni rivojlantirish;
- c) mehnatni rivojlantirish, mehnatni ratsionalizatsiyalash;
- d) mehnatni intensivlash, mehnatni ratsionalizatsiyalash.

10. Psixopotologiya deganda nimani tushunamiz?

- a) psixikaning kasallanishi;
- b) psixikaning rivojlanishi;
- c) psixikaning paydo bo`lishi;

d) psixikaning to'htab qolishi.

11. Toliqish va o'ta toliqishning necha hil yo'li bo'ladi?

To'liq va aniq javobni belgilang.

a) 2 hil;

b) 3 hil;

c) 4 hil;

d) 5 hil.

12. Toliqish va o'ta toliqishning qaysi yo'llari mavjud?

a) axloqiy, aqliy, emotsional;

b) mexnat, aqliy, emotsional;

c) jismoniy, aqliy, emotsional;

d) jismoniy, axloqiy, emotsional.

13. Bir hillik ish layoqatiga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun qaysi tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi?

a) o'ta oddiy va bir operatsiyalar mazmuniga ko'ra murakkabroq va hilma - hil bo'lgan operatsiyalar bilan birlashtirish, ish ritmini vaqti bilan o'zgartirib turish, chetdan qo'zg'aluvchi kiritish;

b) o'ta oddiy va bir operatsiyalar mazmuniga ko'ra murakkabroq, har bir ishchi tomonidan bajariladigan operatsiyalarni vaqti bilan almashtirib turish, ish ritmini vaqti bilan o'zgartirib turish, chetdan qo'zg'aluvchi kiritish;

c) o'ta oddiy va bir operatsiyalar mazmuniga ko'ra murakkabroq va hilma - hil bo'lgan operatsiyalar bilan birlashtirish, har bir ishchi tomonidan bajariladigan operatsiyalarni vaqti bilan almashtirib turish, chetdan qo'zg'aluvchi kiritish;

d) o'ta oddiy va bir operatsiyalar mazmuniga ko'ra murakkabroq va hilma - hil bo'lgan operatsiyalar bilan birlashtirish, har bir ishchi tomonidan bajariladigan operatsiyalarni vaqti bilan almashtirib turish, ish ritmini vaqti bilan o'zgartirib turish, chetdan qo'zg'aluvchi kiritish.

14. Baxtsiz hodisa deganda nimani tushunamiz? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) insonda vujudga kelgan avariya vaziyatidagi noto'g'ri harakatining natijasi bo'lib, mehnat jarayonidagi avariya vaziyat, ishchi harakatiga bog'liq mexanizmning nosozligi

yoki sinishi oqibatida vujudga kelishi, ishchining xatti-harakatlari sababli ham sodir bo'lishi;

b) insonda vujudga kelgan avariya vaziyatidagi noto'g'ri harakatining natijasi bo'lib, ishchi harakatiga bog'liq mexanizmning nosozligi yoki sinishi oqibatida vujudga kelishi, ishchining xatti-harakatlari sababli ham sodir bo'lishi;

c) insonda vujudga kelgan avariya vaziyatidagi noto'g'ri harakatining natijasi bo'lib, mehnat jarayonidagi avariya vaziyati, ishchining xatti-harakatlari sababli ham sodir bo'lishi;

d) insonda vujudga kelgan avariya vaziyatidagi noto'g'ri harakatining natijasi bo'lib, ishchi harakatiga bog'liq mexanizmning nosozligi yoki sinishi oqibatida vujudga kelishi, ishchining xatti-harakatlari sababli ham sodir bo'lishi.

15. Mehnat faoliyatining konkret turidagi avariya va psixik sabablarini umumiy klassifikatsiyalash nechta 3 guruhdan iborat bo'ladi?

a) 2 guruhdan;

b) 3 guruhdan;

c) 4 guruhdan;

d) 5 guruhdan.

16. Xato harakatlarning ishlab chiqarish jarayoni yoki qiyin operatsiyasining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lgan sabablari ham bor nechta 3 guruhdan iborat bo'ladi?

a) 5 guruhdan;

b) 4 guruhdan;

c) 3 guruhdan;

d) 2 guruhdan.

17. Shahsning mehnatga bo'lgan qobiliyatini muvoffaqiyatli tarkib toptirishning asosiy psixologik shart-sharoitlari nimalardan iborat? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) mehnat harakatlariga tarbiyalovchi ta'lim, mehnatga psixologik jihatdan tayyorlash, o'qish va mehnat vazifalarini hal qilish uchun shaxs sifatlarini psixologik jihatdan safarbar qilish, samarali mehnat;

b) ishlab chiqarish faoliyatiga undovchi mehnat muhiti, mehnatga psixologik jihatdan tayyorlash, o'qish va mehnat

vazifalarini hal qilish uchun shaxs sifatlarini psixologik jihatdan safarbar qilish, samarali mehnat;

c) ishlab chiqarish faoliyatiga undovchi mehnat muhiti, mehnat harakatlariga tarbiyalovchi ta'lim, o'qish va mehnat vazifalarini hal qilish uchun shaxs sifatlarini psixologik jihatdan safarbar qilish, samarali mehnat;

d) ishlab chiqarish faoliyatiga undovchi mehnat muhiti; mehnat harakatlariga tarbiyalovchi ta'lim, mehnatga psixologik jihatdan tayyorlash, o'qish va mehnat vazifalarini hal qilish uchun shaxs sifatlarini psixologik jihatdan safarbar qilish, samarali mehnat.

18. Mehnat muhitiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) tarbiyalanuvchini birgalikda ishlaydigan kishilar guruhiga yoki jamoa bo'lishi konkret mehnat majburiyatlarini aniqlash ishini zaruriy moddiy vositalar bilan ta'minlash, mehnatga jalb qiladigan tashqi sharoitni hosil qilish;

b) jamoa bo'lishi konkret mehnat majburiyatlarini aniqlash ishini zaruriy moddiy vositalar bilan ta'minlash, mehnatga jalb qiladigan tashqi sharoitni hosil qilish;

c) tarbiyalanuvchini birgalikda ishlaydigan kishilar guruhiga yoki jamoa bo'lishi konkret mehnat majburiyatlarini aniqlash ishini zaruriy moddiy vositalar bilan ta'minlash, mehnatga jalb qiladigan ichki sharoitni hosil qilish;

d) tarbiyalanuvchini birgalikda ishlaydigan kishilar guruhiga yoki jamoa bo'lib ishini zaruriy moddiy vositalar bilan ta'minlash, mehnatga jalb qiladigan tashqi sharoitni hosil qilish.

19. Shaxsning tarkib topishi haqida g'amxo'rlik qilinmay ta'lim berilganda o'quvchilarla qanday xislatlar rivojlanishi mumkin? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) shuxratparastlik, ta'magirlik, intizomsizlik, yalqovlik va ishga nisbatan e'tiborsizlik kabi xislatlar rivojlanishi mumkin;

b) shuxratparastlik, ta'magirlik, poraxo'rlik, intizomsizlik, yalqovlik va ishga nisbatan e'tiborsizlik kabi xislatlar rivojlanishi mumkin;

c) shuxratparastlik, poraxo'rlik, intizomsizlik, yalqovlik va ishga nisbatan e'tiborsizlik kabi xislatlar rivojlanishi mumkin;

d) shuxratparastlik, ta'magirlik, poraxo'rlik, yalqovlik va ishga nisbatan e'tiborsizlik kabi xislatlar rivojlanishi mumkin,

20. Pedagoglarning birinchi navbatdagi vazifalaridan biriga nimalar kiradi?

a) ish joylarini kerakli texnika vositalari bilan oqilona jihozlash;

b) madaniy sharoitni tashkil qilish va ish bilan ta'minlashlash;

c) madaniy sharoitni tashkil qilish va ish joylarini kerakli texnika vositalari bilan oqilona jihozlash;

d) o'qish sharoitni tashkil qilish va ish joylarini kerakli texnika vositalari bilan oqilona jihozlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voriz nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psvchologv.ru

MODUL III. PROFESSIOGRAFIYANING MOHIYATI, UNING YUZAGA KELISH TARIXI.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: Kasbiy faoliyat psixologiyada professiografiyaning mohiyati va uning asosiy tamoyillari, professiografik tadqiqotlarni o'tkazish, professiografiyaning to'zilishi, psixogramma tushunchasi, turli kasblarning shaxs oldiga qo'yadigan talablari, fanining kasb sohasidagi (faoliyatdagi) ahamiyati, sohaning kasb egasiga psixologik talablari va kasbiy faoliyatda psixologik bilimlarning ahamiyatiga oid ko'nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- **ta'limiy maqsad:** talabalarga mashg'ulotlarni tashkil eitshga oid ratsional ta'lim metodlarini, interfaol usullarini tanlash, talabalar faolligini rag'batlantirish, o'quv topshiriqlari, mustaqil ishlarni ta'limga optimal tatbiq etish kasbiy faol psixologiyasi fani va

uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o'zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda fanning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** talabalarining kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashi va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish, mashg'ulot uchun ajratilgan vaqtdan ratsional foydalanish, mashg'ulotda ongli intizomni tashkil etish.

3.1. Professiografiyaning mohiyati va uning acocий tamoyillari, Professiografik tadqiqotlarni o'tkazish.



Tayanch so'z va iboralar: Kasb - kor, kasb tanlashga yo'naltirish, motivlarning namoyon bo'lishi, asab tizimining xususiyati, yaqqol tasavvuriga ega bo'lmaslik, o'quv faoliyati mazmuni, salbiy (negativ) motivatsiya, shaxsning mazkur xolatlari.

Professiografiya deganda kasblar va ularning bir-biridan farqlanuvchi ixtisosliklar tomonidan inson oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi.

Kasb - kor (hunar) oldiga qo'yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, umumiy hamda xususiy jabxalarni o'zida aks ettiradi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi;
- 2) kasb - korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyati uchun ahamiyati;
- 3) kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi;
- 4) kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi: yoshlarda uning ijtimoiy mavkei (nufuzi), jamoaning o'ziga xos xususiyatlari, vertikal va gorizontalar bo'yicha shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari.
- 5) kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko'nikmalar ko'lamining pedagogik tavsifi (maxsus mezonlar orqali kasbiy mahorat aniqlanadi);
- 6) pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir - choralarining umumiy tavsifi;
- 7) mehnat sharoitining gigienik tavsifnomasi;

8) kasb bo'yicha mehnat qilishga tibbiy jixatdan ta'qiqlanuvchi omillar izchilligi;

9) kasbga psixologik nomutanosiblik, yoki kasbiy yaroqsizlik;

10) o'zini o'zi faollashtirish va identifikatsiyalash.

Kasbning inson oldiga qo'yadigan talablari majmuasi psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy texnikaviy va pedagogik jabxalarni qamrab oladi. Kasb va ixtisos asoslarini egallovchi yoshlar shu fanlarning barcha talablariga moslashishi orqali mutaxassislik layoqatini rivojlantira boradi.

Kasb tanlashga yo'naltirish davlat tadbir - choralari tizimidan iborat bo'lib, inson tomonidan tanlanadi, o'z xayot yo'lining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi, u turmushda o'z o'rnini aniqlaydi va quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1) maktabda kasbiy ma'lumotlar berish;

2) kasb - hunar maorifi bilan shug'ullanish;

3) radio, televidenie, kino, matbuotda tashviqot qilish;

4) kasb yuzasidan maslaxatlar;

5) kasbga saralash (qobiliyatiga binoan);

6) kasbga moslashish (adaptatsiyalash).

Mazkur soxada psixologik izlanishlar olib borgan K.K.Platonov muayyan sxema ishlab chiqqan bo'lib, u "Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagi" deb nomlanib, o'zining ixchamligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Xuddi shu bois kasb tanlashga yo'llashda, reorientatsiyalashda undan unumli foydalanish mumkin.

Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagining muxim bir tomoni - bu xar hil kasb hunar egasiga nisbatan qo'yiladigan talablar yuzasidan muayyan bilimning mavjudligidir. Uning ikkinchi bir xususiyatli tomoni shuki, u yoki bu mutaxassislikka nisbatan jamiyat (viloyat, shaxar, tuman)ning mehnat imkoniyatiga extiyoji bo'yicha bilimlar mujassamlashganligidir. Yana bir o'ziga xos tomoni shundan iboratki, kasbga yo'naltiriluvchining qunti, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari bo'yicha bilimlar umumlashtirilgan bo'lib, kasb tanlashga oid barcha jixatlar majmua xoliga keltirilgandir.

Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagi shaxsning qiziqishi, mayili xoxishi, o'zini o'zi baholashi, nufuzi kabilarga oid materiallarni o'zida mujassamlashtiradi.

Ye.A. Klimov qarashlariga binoan profессиogramma bu:

1) sensor kanallarni yuklamalash, ustuvor signallarning turlari, faoliyat jarayonidagi axborotlar ko'lami va umumiy xususiyati (ko'rish eshitish va boshqalar);

2) axborotlarni saqlash va qayta ishlash bilan bog'liq aqliy faoliyatning xususiyati;

3) xotira, tafakkur va nutqning qatnashuvi ayrim xarakteratlarning tavsifi;

4) ishda, mehnat faoliyatida nerv - psixologik zo'riqish, tanglikning mavjudligi;

5) diqqatni boshqarish zarurati;

6) ishda muvaffaqiyatga eltuvchi shaxs sifatleri, fazilatleri;

7) mehnat faoliyati tuzilishini tavsiflovchi integral psixofiziologik ko'rsatkichlar.

Bizningcha yuqoridagi muloxazalardan tashqari profессиogramma oldiga quyidagi talablarni qo'yish maqsadga muvofiq:

1) ishning qanday nomlanishi va uning nimalardan tuzilishi (ishning nomi, mutaxassislik, kasb - hunar, lavozim, ishchi o'rni imkoniyati, mehnatning turdosh xususiyatlari va uning muxim tavsiflarining bayozi);

2) ishning maqsadi, samaradorligi xususida ma'lumotlar;

3) mehnat quroli sifatida nimalar qo'llanilishi.

4) mehnat predmetining tarkiblari va ularning o'ziga xos jabxalari;

5) mehnat faoliyati qaysi usullar yordami bilan bajarilishi;

6) nimalarning negizida ish (mehnat, faoliyat) amalga oshirilishi;

7) mehnat maxsullarini baholash mezonlari;

8) ishning qanday ixtisoslik talab qilishi xususiyatlari;

9) ish qanday vositalar yordami bilan bajarilish imkoniyati va uning motivirovkasi;

10) ishni bajarilishining sharti va sharoitlari;

11) mehnatni (faoliyatni) tashkil qilish shakllari;

12) mehnatning kooperatsiyasi (Kim?, Nima?, Kim bilan hamkorlikda?);

13) mehnatning jadalligi (intensivligi) to'g'risida ma'lumotlar;

14) mehnat faoliyatida ma'suliyatning va xavf-xatarning qaysi daqiqalari (xolatleri) uchrashi;

15) mehnat uning sub'ektiga qanday foyda, naf keltirishi (ish haqi, mukofot, ma'naviy ozuqa, imtiyoz, ijtimoiy moyillik, altruizm xislati, maqto'v jamoatchilik bahosi va boshqalar);

16) ish yoki faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra qanday talablarga va cheklanishlarga ega ekanligi.

Kasb tanlashning umumiy masalalari. Kasb-hunar to'g'risida xar hil munosabatlar xosil bo'lishining asosiy sabablaridan biri - bu maktab o'quvchilarida kasb tanlash jarayonida turli hil motivlarning namoyon bo'lishidir. Motivlar o'rtasidagi ko'rash ularning u yoki bu qarorga kelishlariga sabab bo'ladi. Bizningcha, voqelikka ongli munosabatda bo'lish, ob'ektiv va qat'iy qarorni keltirib chiqaradi.

V.A. Krutetskiy o'spirinlarda uchrashi mumkin bo'lgan motivlardan quyidagilarni aloxida ta'kidlab o'tadi:

1) biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi;

2) vatanga foyda keltirish istagi (o'zlarining individual - psixologik xususiyatlari va qobiliyatlarini xisobga olgan holda);

3) shaxsiy qobiliyatini rukach qilib ko'rsatish;

4) oilaviy an'analarga rioya qilishi (vorislik);

5) do'stlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi;

6) ish joyining va o'quv yurtining uyga yaqinligi;

7) moddiy ta'minlanganlik;

8) o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishning osonligi singari motivlardir.

Bundan tashqari, yoshlarda boshqa turdagi motivlar ham mavjud bo'ladi. Ular qatoriga shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, unga intilishi, qunti, kasb to'g'risidagi ma'lumoti, uning sixat - salomatligi, asab tizimining xususiyati va temperamentining xosiyatlari kabi motivlarni sanab o'tish mumkin. Biroq motivlarning boshqa hillari ham uchraydi. Lekin xolatning o'zgarishiga qarab ulardan unisi yoki bunisi bosh maqsadga aylanib turadi.

Mazkur xolatni tadqiq etgan yirik psixolog Ye.A. Klimov o'spirinlar kasb tanlashda:

birinchidan, biror kasbning "nufuzli ekanligiga" baxs borishdagi dogmalarga asoslanish;

ikkinchidan, kasbga uzoq va noaniq tasavvurga binoan baho berish;

uchinchidan, biror kasb egasi bo'lmish kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lishni tegishli kasbga ko'chirish;

to'rtinchidan, kasbning oddiy kundalik tomonini nazar - piasand qilmasdan, uning tashqi tomoniga, sirtiga maxliyo bo'lish;

beshinchidan, o'rtoqlarining ta'siri ostida "kompaniya uchun" kasb tanlash kabi xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi.

O'spirinlar kasb tanlash to'g'risida yaqqol tasavvuriga ega bo'lmaganliklari boisdan ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb undan qanday shaxs fazilatlarining talab qilishini tushunib yetmaydilar. Ular o'z layoqatlarini oqilona baholashga qurbi yetmaganligi uchun u yoki bu kasbni egallaganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishigina, sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimining muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar. Shuning uchun yuqorida bayon qilib o'tilgan xatolarga yo'l qo'yadilar. Biroq xozirgi davrda bunday ko'ngilsiz xolatlarining oldini olish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun pedagogik-psixologik va ijtimoiy xususiyatlarning umumiy tomonlariga aloxida e'tibor berish maqsadga muvofiq.

O'qish motivlari muammosini tadqiqot qilgan jaxon psixologlari ularni ikki kategoriyaga yoki guruhga ajratib tekshirishni lozim topadilar. Birinchi kategoriyaga taalluqli motivlar o'quv faoliyatining mazmuni, moxiyati hamda uning jarayonlari, sharoitlari bilan bevosita uyg'unlashganidir. Ikkinchi kategoriyaga kiruvchi motivlar tizimi o'quvchilarning atrof - muxit bilan keng ko'lamdagi o'zaro munosabatlariga ularning begona, o'zga kishilar bilan muomalaga kirishish extiyojiga, ijtimoiy turmush voqeeligiga nisbatan shaxsiy qarashiga bog'liqdir.

O'quv faoliyati mazmuni bilan uzviy bog'liq motivlar tizimini shartli ravishda ikki guruhga ajratib, ularni ijobiy (musbat, pozitiv) va salbiy (manfiy, negativ) deb nomlash mumkin. Bunday atamalarni qo'llashdan asosiy maqsad maxalliy an'ana, ijtimoiy tajriba (stereotipizatsiya darajasidagi ta'sirchan kuchli tashqi omil) ekstremal xolat ta'sirida keskin ruxiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir. Odatda salbiy (negativ) motivatsiya shunday vaziyatda vujudga kelishi mumkinki, qachonki o'quvchi bilimlarni o'zlashtirmaslik oqibati qanday ko'ngilsiz xatolarga olib kelishini anglab yetsa (jazolanish, ota -

onalar tanbexi, sinfdoshlar e'tirozi, yomon baho olish, jamoa a'zolari orasida obro'sizlanish va boshqalar) va ana shunga muvofiq say'i - xarakatlarni amalga oshirsa. Salbiy motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchi kamroq mo'sibatli (mushkul axvol) yo'lni tanlab, ta'lim jarayonida qatnashishda davom etadi. Bunday o'qish motivatsiyasiga aloqador o'quvchilar yuqori ko'rsatkichlarga, muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar, chunki ishtiyoqsiz darsga qatnashish tuyg'usi, bilim va o'quv predmetiga nisbatan qiziqishning mavjud emasligi bunga ma'naviy to'siq bo'lib xizmat qiladi. Buning natijasida o'zlashtirmovchi, bo'sh o'zlashtiruvchi, sust o'quvchilarning safi taboro kengayib boradi, bu narsa kundalik odatga aylana borsa, u stereotip darajasiga o'sib o'tishi mumkin. Mustaqil va muvaffaqiyatli o'qish esa, shaxsdan faol, qat'iy, ijodiy izlanishlarni takozo qiladi va shunga o'xshash talablarni o'zlashtiruvchi oldiga qo'yadi. Shaxsning mazkur xolatlarga tayyor emasligi, undagi imkoniyatlarning cheklanganligi sababli o'zlashtirmovchilar qatorini to'ldirishga, bir sinfda yoki kursda ikki yil o'qishga olib keladi, usha qiyinchiliklar bilan o'z sinfi, kursini tamomlaydi. Bunday toifadagi o'quvchilar yoki talabalar o'quv faoliyati motivatsiyasini qayta ko'rish evaziga ijobiy natijalarga erishish mumkin.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1) Kasb - kor (hunar) oldiga qo'yiladigan talablar haqida nima deya olasiz?
- 2) Kasb tanlashga yo'naltirishda nimalarga e'tibor berish lozim?
- 3) Ye.A.Klimov qarashlariga binoan professiogramma nimadan iborat?
- 4) Professiogramma oldiga qanday talablarni qo'yish maqsadga muvofiqdir?
- 5) V.A. Krutetskiy o'spirinlarda uchrashi mumkin bo'lgan qanday motivlarni aloxida ta'kidlab o'tadi.
- 6) Yirik psixolog Ye.A. Klimov o'spirinlar kasb tanlashida qanday xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi?
- 7) O'qish motivlari muammosini tadqiqot qilgan jaxon psixologlari haqida nimala deya olasiz?

Testlar

1. Professiografiya deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasblar va ularning bir-biridan farqlanuvchi ixtisosliklar tomonidan jamiyat oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi;

b) kasblar va ularning bir-biridan farqlanuvchi ixtisosliklar tomonidan inson oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi;

c) kasblar va ularning bir-biridan farqlanuvchi ixtisosliklar tomonidan yo'nalish oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi;

d) kasblar va ularning bir-biridan farqlanuvchi ixtisosliklar tomonidan mutahassislik oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi.

2. Kasb - kor (hunar) oldiga qo'yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularning umumiy hamda xususiy jabxalari nimalardan iborat? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi, kasb - korning mamlakat iqtisodiyati uchun ahamiyati, kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi, kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi, pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir - choralarining umumiy tavsifi, mehnat sharoitining gigienik tavsifnomasi, kasb bo'yicha mehnat qilishga tibbiy jixatdan ta'qiqlanuvchi omillar izchilligi, kasbga psixologik nomutanosiblik, yoki kasbiy yaroqsizlik, o'zini o'zi faollashtirish va identifikatsiyalash;

b) kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi, kasb - korning mamlakat iqtisodiyati uchun ahamiyati, kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi, kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko'nikmalar ko'laminig pedagogik tavsifi, pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, kasb bo'yicha mehnat qilishga tibbiy jixatdan ta'qiqlanuvchi omillar izchilligi, kasbga psixologik nomutanosiblik,

yoki kasbiy yaroqsizlik, o'zini o'zi faollashtirish va identifikatsiyalash;

c) kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi, kasb - korning mamlakat iqtisodiyati uchun ahamiyati, kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi, kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko'nikmalar ko'lamining pedagogik tavsifi, pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir - choralarining umumiy tavsifi, mehnat sharoitining gigienik tavsifnomasi, kasb bo'yicha mehnat qilishga tibbiy jixatdan ta'qiqlanuvchi omillar izchilligi, kasbga psixologik nomutanosiblik, yoki kasbiy yaroqsizlik, o'zini o'zi faollashtirish va identifikatsiyalash;

d) kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi, kasb - korning mamlakat iqtisodiyati uchun ahamiyati, kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi, kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko'nikmalar ko'lamining pedagogik tavsifi, pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir - choralarining umumiy tavsifi, mehnat sharoitining gigienik tavsifnomasi, kasbga psixologik nomutanosiblik, yoki kasbiy yaroqsizlik, o'zini o'zi faollashtirish va identifikatsiyalash.

3. Kasb tanlashga yo'naltirish qaysi shakllarda amalga oshiriladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) maktabda kasbiy ma'lumotlar berish, kasb - hunar maorifi bilan shug'ullanish, radio, televidenie, kino, matbuotda tashviqot qilish, kasbga moslashish;

b) maktabda kasbiy ma'lumotlar berish, kasb - hunar maorifi bilan shug'ullanish, radio, kasb yuzasidan maslaxatlar, kasbga saralash, kasbga moslashish;

c) maktabda kasbiy ma'lumotlar berish radio, televidenie, kino, matbuotda tashviqot qilish, kasb yuzasidan maslaxatlar, kasbga saralash, kasbga moslashish;

d) maktabda kasbiy ma'lumotlar berish, kasb - hunar maorifi bilan shug'ullanish, radio, televidenie, kino, matbuotda tashviqot qilish, kasb yuzasidan maslaxatlar, kasbga saralash, kasbga moslashish.

4. Ye.A. Klimov qarashlariga binoan professiogramma bu - ? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) sensor kanallarni yuklamalash, ustuvor signallarning turlari, faoliyat jarayonidagi axborotlar ko'lami va umumiy xususiyati, axborotlarni saqlash va qayta ishlash bilan bog'liq aqliy faoliyatning xususiyati, xotira, tafakkur va nutqning qatnashuvi ayrim xarakterlarning tavsifi, ishda, mehnat faoliyatida nerv - psixologik zo'riqish, tanglikning mavjudligi, diqqatni boshqarish zarurati, ishda muvaffaqiyatga eltuvchi shaxs sifatleri, fazilatleri, mehnat faoliyati tuzilishini tavsiflovchi integral psixofiziologik ko'rsatkichlar;

b) sensor kanallarni yuklamalash, ustuvor signallarning turlari, axborotlarni saqlash va qayta ishlash bilan bog'liq aqliy faoliyatning xususiyati, xotira, tafakkur va nutqning qatnashuvi ayrim xarakterlarning tavsifi, ishda, mehnat faoliyatida nerv - psixologik zo'riqish, tanglikning mavjudligi, diqqatni boshqarish zarurati, ishda muvaffaqiyatga eltuvchi shaxs sifatleri, fazilatleri, mehnat faoliyati tuzilishini tavsiflovchi integral psixofiziologik ko'rsatkichlar;

c) sensor kanallarni yuklamalash, ustuvor signallarning turlari, faoliyat jarayonidagi axborotlar ko'lami va umumiy xususiyati, xotira, tafakkur va nutqning qatnashuvi ayrim xarakterlarning tavsifi, ishda, mehnat faoliyatida nerv - psixologik zo'riqish, tanglikning mavjudligi, diqqatni boshqarish zarurati, ishda muvaffaqiyatga eltuvchi shaxs sifatleri, fazilatleri, mehnat faoliyati tuzilishini tavsiflovchi integral psixofiziologik ko'rsatkichlar;

d) sensor kanallarni yuklamalash, ustuvor signallarning turlari, faoliyat jarayonidagi axborotlar ko'lami va umumiy xususiyati, axborotlarni saqlash va qayta ishlash bilan bog'liq aqliy faoliyatning xususiyati, mehnat faoliyatida nerv - psixologik zo'riqish, tanglikning mavjudligi, diqqatni boshqarish zarurati, ishda muvaffaqiyatga eltuvchi shaxs sifatleri, fazilatleri, mehnat faoliyati tuzilishini tavsiflovchi integral psixofiziologik ko'rsatkichlar.

5. V.A. Krutetskiy o'spirinlarda uchrashi mumkin bo'lgan motivlardan quyidagilarni aloxida ta'kidlab o'tadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi, vatanga foyda keltirish istagi, shaxsiy qobiliyatini rukach qilib ko'rsatish, oilaviy an'analarga rioya qilishi, ish joyining va o'quv yurtining uyga

yaqinligi, moddiy ta'minlanganlik, o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishning osonligi singari motivlardir;

b) biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi, vatanga foyda keltirish istagi, shaxsiy qobiliyatini rukach qilib ko'rsatish, oilaviy an'analarga rioya qilishi, do'stlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi, ish joyining va o'quv yurtining uyga yaqinligi, moddiy ta'minlanganlik, o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishning osonligi singari motivlardir;

c) biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi, oilaviy an'analarga rioya qilishi, do'stlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi, ish joyining va o'quv yurtining uyga yaqinligi, moddiy ta'minlanganlik, o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishning osonligi singari motivlardir;

d) biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi, vatanga foyda keltirish istagi, shaxsiy qobiliyatini rukach qilib ko'rsatish, oilaviy an'analarga rioya qilishi, do'stlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi, o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishning osonligi singari motivlardir.

6. Yirik psixolog Ye.A. Klimov o'spirinlar kasb tanlashda qaysi xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) biror kasbning "nufuzli ekanligiga" baxs borishdagi dogmalarga asoslanish, biror kasb egasi bo'lmish kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lishni tegishli kasbga ko'chirish, kasbning oddiy kundalik tomonini nazar - pisand qilmasdan, uning tashqi tomoniga, sirtiga maxliyo bo'lish, o'rtoqlarining ta'siri ostida "kompaniya uchun" kasb tanlash kabi xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi;

b) biror kasbning "nufuzli ekanligiga" baxs borishdagi dogmalarga asoslanish, kasbga uzoq va noaniq tasavvurga binoan baho berish, kasbning oddiy kundalik tomonini nazar - pisand qilmasdan, uning tashqi tomoniga, sirtiga maxliyo bo'lish, o'rtoqlarining ta'siri ostida "kompaniya uchun" kasb tanlash kabi xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi;

c) biror kasbning "nufuzli ekanligiga" baxs borishdagi dogmalarga asoslanish, kasbga uzoq va noaniq tasavvurga binoan baho berish, biror kasb egasi bo'lmish kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lishni tegishli kasbga ko'chirish, kasbning

oddiy kundalik tomonini nazar - pisand qilmasdan, uning tashqi tomoniga, sirtiga maxliyo bo'lish, o'rtloqlarining ta'siri ostida "kompaniya uchun" kasb tanlash kabi xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi;

d) biror kasbning "nufuzli ekanligiga" baxs borishdagi dogmalarga asoslanish, kasbga uzoq va noaniq tasavvurga binoan baho berish, biror kasb egasi bo'lmish kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lishni tegishli kasbga ko'chirish, sirtiga maxliyo bo'lish, o'rtloqlarining ta'siri ostida "kompaniya uchun" kasb tanlash kabi xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi.

7. Yirik psixolog Ye.A. Klimov o'spirinlar kasb tanlashda nechta xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi?

- a) 4ta;
- b) 5ta;
- c) 6ta;
- d) 7ta.

8. Nima uchun ba'zi o'spirinlar o'z layoqatlarini oqilona baholashga qurbi yetmaydi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) chunki ular u yoki bu kasbni egallaganda aniqlikda harakat qilishi, sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimining muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar;

b) chunki ular u yoki bu kasbni egallaganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishi, asab tizimining muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar;

c) chunki ular u yoki bu kasbni egallaganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishi, sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimining muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar;

d) chunki ular u yoki bu kasbni egallaganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishi, asab tizimining muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar.

9. O'qish motivlari muammosini tadqiqot qilgan jaxon psixologlari passif o'spirinlarni nechta kategoriyaga yoki guruhga ajratib tekshirishni lozim topadilar? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) beshta guruhga;
- b) to'rtta guruhga;
- c) uchta guruhga;
- d) ikkita guruhga.

10. O'quv faoliyati mazmuni bilan uzviy bog'liq motivlar tizimini shartli ravishda nechta guruhga bo'lish mumkin?

- a) beshta guruhga;
- b) to'rtta guruhga;
- c) uchta guruhga;
- d) ikkita guruhga.

11. O'quv faoliyati mazmuni bilan uzviy bog'liq motivlar tizimini shartli ravishda qanaday nomlash mumkin?

- a) ijobiy va salbiy deb nomlash mumkin;
- b) yahshi va salbiy deb nomlash mumkin;
- c) yomon va salbiy deb nomlash mumkin;
- d) ijobiy va yahshi deb nomlash mumkin.

12. Atamalarni qo'llashdan asosiy maqsad nimada? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) ijtimoiy tajriba, ekstremal xolat ta'sirida keskin ruxiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir;

b) maxalliy an'ana, ijtimoiy tajriba, ekstremal xolat ta'sirida keskin ruxiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir;

c) maxalliy an'ana, ekstremal xolat ta'sirida keskin ruxiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir;

d) ijtimoiy tajriba ekstremal xolat ta'sirida keskin ruxiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychologv.ru
6. www.psycho.all.ru
7. www.psychologv.net.ru

3.2. Professiografiyaning tuzilishi. Psixogramma tushunchasi. Turli kasblarning shaxs oldiga qo'yadigan talablari.



Tayanch so'z va iboralar: Munosabatlar muhiti, o'qishga nisbatan ijobiy munosabat, saboq oluvchilar munosabati, xulq - atvordagi o'zgarishlar, qiziqishni o'stirish tarafdori bo'lish, xulq - avtor motivlari, o'quv faoliyatining moyiyati, ijtimoiy motivlar, muomalaga kirishish, xususiyatlarning namoyon bo'lishi.

O'quvchilar va talabalarda o'qishga nisbatan salbiy motivatsiya birdaniga vujudga kelmaydi, balki uni keltirib chiqaruvchi bir necha xususiyatli omillar ta'sir etishi extimol.

O'qishga nisbatan saboq oluvchilar munosabatini aniqlashga xarakat qilgan o'qituvchi qanday o'zgarishlar yuz berayotganligini qayd qilish uchun ayrim mezonlarni ta'kidlay boshlaydi:

- a) xayolparishonlik vujudga keladi;
- b) vijdondan yo'ndoshish yo'qoladi;
- c) boshqalardan ko'chirib olishni odat qiladi;
- d) yo'lg'on so'zlash va bahona qidirishga o'rganadi;
- e) darslarni qoldiradigan bo'lib qoladi;
- f) mustaqil topshiriqlarni bajarmay qo'yadi va boshqalar.

O'qituvchi yoki o'qituvchilar jamoasi yuqorida taxmin qilingan o'quvchilardagi salbiy o'zgarishiga nisbatan an'anaviy tartib - intizom metodlarini tadbiq qiladi:

- a) kundaliklarga ogohlantirish yozish;
- b) ota-onalarga bu to'g'risida ma'lumot berish;
- c) sinf raxbari, maktab raxbariyatiga xabar berish;
- d) darsdan keyin olib qolib qattiq uyaltirish;
- e) bilim dargoxidan xaydash masalasini qo'yish va xokazo.

Bunday aniq voqelik xar qanday maktab, kollej, akademik litsey, oliy ta'lim tizimida yuz berib turadi. Bizningcha, jazo choralarni ko'rishga shoshilishdan ko'ra, mazkur "Muammoni keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar?", "Nega shunday xodisa yuz berdi?" degan savollarga javob qidirish odilona yondoshishdir.

"Jumladan, o'quvchilar va talabalar xulq - atvordagi o'zgarishlarning qanday motivlari mavjud?", "O'qishga nisbatan o'zgaruvchan munosabatni yuzaga keltiruvchi sabablar nimalardan

iborat?", "Sinf (auditoriya)da va undan tashqari u yoki bu xatti - xarakatlarni amalga oshirishga undovchi omil qaysi?" va boshqalar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan munosabat va xulq - atvor motivlarini chuqur va mukammal o'rganmasdan turib, pedagogik ta'sir o'tkazish chora va tadbirlarini qo'llash mumkin emas, chunki motivni turtki sifatida namoyon qiluvchi ichki va tashqi ta'sirini aniqlamasdan, unga ilmiy yondashib bo'lmaydi.

Xozirgi zamon psixologiya fani bilimlarni egallashga nisbatan ichki extiyojga katta ahamiyat beradi va bu bilan shaxs xulq - atvorini birmuncha boshqarish imkoniyati mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Shuning bilan birga o'quvchi (talaba)da barqaror bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish muammosiga aloxida e'tibor qilinadi. Darhaqiqat, barqaror bilishga bo'lgan qiziqishlar qo'zg'atuvchi turtki (kuch) sifatida o'quv motivlarini vujudga keltiradi, muvaffaqiyatli ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchi yoki talabada bilimlarning muayyan soxasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishning tug'ilishi ko'p jixatdan shaxsni qay tariqa shakllanish imkoniyatini belgilaydi.

Ana shu boisdan o'qituvchi o'z o'quv faniga nisbatan o'quvchi va talabalarda qiziqishni o'stirish tarafdori bo'lishi shart, chunki xuddi shuning negizida o'quv material va o'quv dasturini yuksak darajada o'zlashtirish muammosi yotadi. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, bilishga qiziqish motiv doirasida o'sadi, o'zaro ta'sir etadi, ular bilan uzviy bog'lanib ketadi.

Ma'lumki, o'quvchi (talaba) bilim dargoxida ilm olishdan tashqari tengdoshlari jamoasi ichiga kirib boradi va qatnashadi, shu boisdan unda o'z o'rtoqlari, o'qituvchilarga nisbatan muayyan munosabat shakli vujudga keladi. Uning o'quv faoliyatiga undovchi motivlari bilan bir qatorda boshqacha xususiyatli xulq - avtor motivlari ham mavjuddir, jumladan ijtimoiy motiv jamoa bilan bo'lish istagini anglatib, uning hayotida ishtiroq etish xoxishini o'zida aks ettiradi.

O'quvchi va talabalar o'quv faoliyatining ijtimoiy motivlari ularning boshqa odamlar bilan muomalaga kirish extiyoji bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni baholash, quvvatlash, tengdoshlar jamoasida muayyan joy egallash singari talablarda o'z aksini topadi. Mazkur motivlar o'quv faoliyatining moxiyati bilan bog'liq bo'lmay,

balki unga yondosh yordamchi faktorlarni bildiradi. Ammo ushbu motivlar o'quvchi va talaba o'qishiga jiddiy turtki vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy motivlarni taxlil qilishda davom etsak, ular bevosita jamoa burchi, qarindoshlar va yaqin kishilar oldiga burch, o'qishni umuminsoniy madaniyat, qadriyat, ma'naviyatni egallash tasavvuri bilan bog'liq vosita, ushbu vosita odamlar foydali shaxs tarikasida namoyon bo'lish, o'z imkoniyatini ro'yobga chiqarish, ezgu niyatini ushatishga intilish funksiyasini bajarish mumkin. Turtki, undovchi usul vazifasini bajaruvchi ko'zg'atuvchi yosh xususiyatlari davriga qarab u yoki bu darajada aks etadi, ammo ular xar doim ham anglashilgan shaklga ega emas, shuning uchun ifodalanish darajasi nursizdir. O'smirlik va o'spirinlik davrlarida ijtimoiy motivlar anglashilgan, ahamiyat kasb etuvchi bosqichga o'sib o'tadi. Bunday motivatsiyani xar tomonlama qo'llab quvvatlash, rag'batlantirish bilan birga va bir davrning o'zida bilishga qiziqishga aloqador boshqa o'quv faoliyati motivlarini shakllantirish lozim.

Ijtimoiy motivlar o'quvchi va talabalarning tor ma'nodagi shaxsiy intilishlari bilan ham aloqador bo'lishi mumkin, jumladan, ularda o'qishga nisbatan qiziqish yuk bo'lsa - da lekin barcha topshiriqlarni yuksak darajada bajaradi, chunki o'qituvchi ularning "a'lo" baholashi, sinf yoki kurs pyozqadami qilib tayinlashi, xech qanday shubxa bilan qaramasligi, extimol o'quv jarayoni bunday xususiyatlari odamlarga shaxsiy muvaffaqiyat yoki yutuqqa erishishning, nufuz (obro' - e'tibor) ning, yalov - bardorlikning birdan - bir yo'li deb tasavvur qilinadi. Bunday yo'lni tanlash vijdonga hilof xatti-xarakatlarga olib boradi, shaxsni shakllanish jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Shu boisdan ijtimoiy deb qabul qilingan motivlar jamoa extiyo'jini qamrab oladi, goxo ular shaxsiyatparastlik, tor saviyali shaxs xususiyatini mujassamlashtiradi.

Ularning hayotida o'z tengdoshlari va do'stlari bilan muomalaga kirishish, do'stlikka sodiqlik, bergan va'dasi (so'zi) ni uddasidan chiqish, hamkor bo'lish extiyoji muxim o'rin egallaydi. O'qituvchi mashg'lotlarda o'quv faoliyatining zarur motivatsiyasini shakllantirsa, ularning mavjud ehtiyojlariga tayanib ish tutsa, o'quvchida bilishga qiziqish barqarorlashadi.

Shuning uchun qiziqish, motiv, motivatsiya shaxsning xatti-xarakati ichki regulyatsiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojni

qondirish, xoxish - istak, ezgu niyat, orzu tilakni amaliyotda ro'yobga chiqarishning bosh omili bo'lib xisoblanadi. Motiv va motivatsiya faqat bilimlarni o'zlashtirish, o'quv ko'nikmalari va malakalarini egallash bilan cheklanib qolmasin, balki shaxsning xulq-atvori, ya'ni shaxsga oid xususiyatlarining namoyon bo'lishini ham izohlashga xizmat qiladi. Bu hususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni klassifikatsiyalash va lo'nda qilib ifodalash;

2) o'qituvchining kasb maorifi yuzasidan tashviqot ishlari olib borish, o'qituvchilar bilan kasbga doir individual konsultatsiyalar - maslahatlar uyushtirish, o'spirin va uning ota-onasi bilan kasbga yo'naltirish metodikasini birgalikda ko'zdan kechirish;

3) o'spirinlarni kasbning asosiy guruhlarini bilan yaqindan tanishtirish, ularning fazilatlarini hamda kasb o'rganishning yo'llari bilan tanishtirishni tashkil qilish;

4) mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mexr - muxabbat uyg'otish;

5) psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotda tadbiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish;

6) tuman va shaxarlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jixozlash;

7) kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jixatdan tayyorlash kabilar.

O'quvchilarni professiogramma bilan tanishtirishda bosh maqsad quyidagi tarkibiy gismlarni o'z ichiga qamrab oladi:

a) asosiy mehnat qurollari - kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr - xayo'li - xuddi shu qurollarga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

b) asosiy mehnat operatsiyalari: mehnat quroli bilan qanday faoliyatni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini aniqlash va qaysi soxalarda ishlatish mumkin ekanligini bilish, ishlab chiqarish jarayonidagi operatsiyalarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish, operatsiyalarning yangi variantlarini qidirish va kashf qilish uchun xarakat qilish;

c) asosiy qurollar va vositalar: qo'l aslaxalaridan - slesar, xirurg, skripkachi, g'ijjakchi, kamon chaluvchi kabi kasb egalari foydalanadi;

d) mehnat sharoitlari: kasb tanlovchini o`rab turgan tabiiy muxim va sharoitlar, kishilar va x.k.

Yuqoridagi muloxazalardan kelib chiqqan xolda, o'spirinlarning qiziqishi, mayli, extiyoji, iqtidori, qobiliyati, ko'nikmasi va malakasini xisobga olgan xolda kasb tanlashga to'g'ri yo'llantirish mamlakat taraqqiyoti uchun puxta zamin xozirlaydi. Bu xaqda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ibratli fikrlar bildirilgan.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1) O'qishga nisbatan saboq oluvchilar munosabatini aniqlashga xarakat qilgan o'qituvchi qanday o'zgarishlar yuz berayotganligini qayd qilish mumkin?

2) O'quvchilar va talabalar xulq - atvordagi o'zgarishlarning qanday motivlari mavjud?

3) O'qishga nisbatan o'zgaruvchan munosabatni yuzaga keltiruvchi sabablar nimalardan iborat?

4) Auditoriyada va undan tashqari u yoki bu xatti - xarakatlarni amalga oshirishga undovchi omil qaysi?

5) O'qituvchi o`z o`quv faniga nisbatan talabalarda qiziqishni o`stirish tarafdori bo`lishi shartmi? Misollar bilan isbotlang.

6) Talabalar o`quv faoliyatining ijtimoiy motivlari ularning boshqa odamlar bilan muomalaga kirish extiyoji bilan uzviy bog`liqmi? Misollar bilan isbotlang.

7) Ijtimoiy motivlar talabalarning tor ma`nodagi shaxsiy intilishlari bilan ham aloqadormi? Misollar bilan isbotlang.

8) Shaxsga oid xususiyatlar qanday namoyon bo`ladi?

9) O'quvchilarni professiogramma bilan tanishtirishda bosh maqsad qanday tarkibiy gismlarni o`z ichiga oladi?

Testlar

1. O'qishga nisbatan saboq oluvchilar munosabatini aniqlashga xarakat qilgan o'qituvchi qanday o'zgarishlar yuz berayotganligini qayd qilish uchun qaysi mezonlarni ta'kidlay boshlaydi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) xayolparishonlik vujudga keladi, vijdondan yo'ndoshish yo'qoladi, boshqalardan ko'chirib olishni odat qiladi, yo'lg'on so'zlash va bahona qidirishga o'rganadi, darslarni qoldiradigan bo'lib qoladi, mustaqil topshiriqlarni bajarmay qo'yadi va boshqalar;

b) xayolparishonlik vujudga keladi, boshqalardan ko'chirib olishni odat qiladi, yo'lg'on so'zlash va bahona qidirishga o'rganadi, darslarni qoldiradigan bo'lib qoladi, mustaqil topshiriqlarni bajarmay qo'yadi va boshqalar;

c) xayolparishonlik vujudga keladi, vijdondan yo'ndoshish yo'qoladi, yo'lg'on so'zlash va bahona qidirishga o'rganadi, darslarni qoldiradigan bo'lib qoladi, mustaqil topshiriqlarni bajarmay qo'yadi va boshqalar;

d) xayolparishonlik vujudga keladi, vijdondan yo'ndoshish yo'qoladi, boshqalardan ko'chirib olishni odat qiladi, darslarni qoldiradigan bo'lib qoladi, mustaqil topshiriqlarni bajarmay qo'yadi va boshqalar.

2. O'qituvchi yoki o'qituvchilar jamoasi o'quvchilardagi salbiy o'zgarishiga nisbatan qaysi an'anaviy tartib - intizom metodlarini tadbiiq qiladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kundaliklarga ogohlantirish yozish, sinf raxbari, maktab raxbariyatiga xabar berish, darsdan keyin olib qolib qattiq uyaltirish, bilim dargoxidan xaydash masalasini qo'yish va xokazo;

b) kundaliklarga ogohlantirish yozish, ota-onalarga bu to'g'risida ma'lumot berish, sinf raxbari, maktab raxbariyatiga xabar berish, darsdan keyin olib qolib qattiq uyaltirish, bilim dargoxidan xaydash masalasini qo'yish va xokazo;

c) kundaliklarga ogohlantirish yozish, ota-onalarga bu to'g'risida ma'lumot berish, darsdan keyin olib qolib qattiq uyaltirish, bilim dargoxidan xaydash masalasini qo'yish va xokazo;

d) kundaliklarga ogohlantirish yozish, ota-onalarga bu to'g'risida ma'lumot berish, sinf raxbari, maktab raxbariyatiga xabar berish, bilim dargoxidan xaydash masalasini qo'yish va xokazo.

3. Xozirgi zamon psixologiya fani bilimlarni egallashga nisbatan nimaga katta ahamiyat beradi?

a) tashqi extiyojga;

b) bo'lajak extiyojga;

c) ichki extiyojga;

d) navbatrdagi extiyojga.

4. Barqaror bilishga bo'lgan qiziqishlar nimaga xizmat qiladi?

a) asosiy turtki sifatida o'quv motivlarini vujudga keltiradi, muvaffaqiyatli ta'minlashga xizmat qiladi;

b) qo'zg'atuvchi turtki sifatida o'quv motivlarini so'ndiradi, muvaffaqiyatli ta'minlashga xizmat qiladi;

c) qo'zg'atuvchi turtki sifatida tarbiya motivlarini vujudga keltiradi, muvaffaqiyatli ta'minlashga xizmat qiladi;

d) qo'zg'atuvchi turtki sifatida o'quv motivlarini vujudga keltiradi, muvaffaqiyatli ta'minlashga xizmat qiladi.

5. O'quvchi yoki talabada bilimlarning muayyan soxasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishning tug'ilishi ko'p jixatdan nimani belgilaydi?

a) shaxsni qay tariqa shakllanish imkoniyatini belgilaydi;

b) shaxsni qay tariqa rivojlanish imkoniyatini belgilaydi;

c) shaxsni qay tariqa o'sish imkoniyatini belgilaydi;

d) shaxsni qay tariqa taraqqiy etish imkoniyatini belgilaydi.

6. O'quvchi (talaba) bilim dargoxida ilm olishdan tashqari qanday ishlar olib boradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) tengdoshlari jamoasi ichiga kirib boradi, shu boisdan unda o'z o'rtoqlari, o'qituvchilarga nisbatan muayyan munosabat shakli vujudga keladi.

b) tengdoshlari jamoasi ichiga kirib boradi va qatnashadi, shu boisdan unda o'z o'rtoqlari, o'qituvchilarga nisbatan muayyan munosabat shakli vujudga keladi.

c) tengdoshlari jamoasi ichiga kirib boradi va qatnashadi, o'qituvchilarga nisbatan muayyan munosabat shakli vujudga keladi.

d) tengdoshlari jamoasi ichiga kirib boradi va qatnashadi, shu boisdan unda o'z o'rtoqlariga nisbatan muayyan munosabat shakli vujudga keladi.

7. O'quvchi va talabalar o'quv faoliyatining ijtimoiy motivlari qaysi talablarda o'z aksini topadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) ularni quvvatlash, tengdoshlar jamoasida muayyan joy egallash singari talablarda o'z aksini topadi;

b) ularni baholash, jamoada muayyan joy egallash singari talablarda o'z aksini topadi;

c) ularni baholash, quvvatlash, tengdoshlar jamoasida muayyan joy egallash singari talablarda o'z aksini topadi;

d) ularni baholash, tengdoshlar jamoasida muayyan joy egallash singari talablarda o'z aksini topadi.

8. Shaxsga oid xususiyatlarning namoyon bo'lishi nimalardan iborat? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni klassifikatsiyalash va lo'nda qilib ifodalash, o'qituvchilar bilan kasbga doir individual konsultatsiyalar - maslahatlar uyushtirish, o'spirin va uning ota-onasi bilan kasbga yo'naltirish metodikasini birgalikda ko'zdan kechirish, o'spirinlarni kasbning asosiy guruhleri bilan yaqindan tanishtirish, ularning fazilatleri hamda kasb o'rganishning yo'llari bilan tanishtirishni tashkil qilish, mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mexr - muxabbat uyg'otish, psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotda tadbiiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish, tuman va shaxarlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jixozlash, kasb tanlashni tashviiqot qilish yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jixatdan tayyorlash kabilar;

b) kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni klassifikatsiyalash va lo'nda qilib ifodalash, o'qituvchining kasb maorifi yuzasidan tashviiqot ishlari olib borish, o'qituvchilar bilan kasbga doir individual konsultatsiyalar - maslahatlar uyushtirish, o'spirinlarni kasbning asosiy guruhleri bilan yaqindan tanishtirish, ularning fazilatleri hamda kasb o'rganishning yo'llari bilan tanishtirishni tashkil qilish, mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mexr - muxabbat uyg'otish, psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotda tadbiiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish, tuman va shaxarlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jixozlash, kasb tanlashni tashviiqot qilish yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jixatdan tayyorlash kabilar;

c) kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni klassifikatsiyalash va lo'nda qilib ifodalash, o'qituvchining kasb maorifi yuzasidan tashviiqot ishlari olib borish, o'qituvchilar bilan kasbga doir individual konsultatsiyalar - maslahatlar uyushtirish, o'spirin va uning ota-onasi bilan kasbga yo'naltirish metodikasini birgalikda ko'zdan kechirish, ularning fazilatleri hamda kasb o'rganishning yo'llari bilan tanishtirishni tashkil qilish, mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mexr - muxabbat uyg'otish, psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotda tadbiiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish, tuman va

shaxarlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jixozlash, kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jixatdan tayyorlash kabilar;

d) kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni klassifikatsiyalash va lo'nda qilib ifodalash, o'qituvchining kasb maorifi yuzasidan tashviqot ishlari olib borish, o'qituvchilar bilan kasbga doir individual konsultatsiyalar - maslahatlar uyushtirish, o'spirin va uning ota-onasi bilan kasbga yo'naltirish metodikasini birgalikda ko'zdan kechirish, o'spirinlarni kasbning asosiy guruhlari bilan yaqindan tanishtirish, ularning fazilatleri hamda kasb o'rganishning yo'llari bilan tanishtirishni tashkil qilish, mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mexr - muxabbat uyg'otish, psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotda tadbiiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish, tuman va shaxarlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jixozlash, kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jixatdan tayyorlash kabilar.

9. O'quvchilarni profессиogramma bilan tanishtirishda bosh maqsad qaysi tarkibiy gismlarni o'z ichiga qamrab oladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) asosiy mehnat qurollari - kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr - xayo'li - xuddi shu qurollarga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi kerak, asosiy mehnat operatsiyalari, ishlab chiqarish jarayonidagi operatsiyalarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish, operatsiyalarning yangi variantlarini qidirish va kashf qilish uchun xarakat qilish, asosiy qurollar va vositalardan kasb egalari foydalanishi, mehnat sharoitleri;

b) asosiy mehnat qurollari - kasb tanlovchining diqqati, asosiy mehnat operatsiyalari, ishlab chiqarish jarayonidagi operatsiyalarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish, operatsiyalarning yangi variantlarini qidirish va kashf qilish uchun xarakat qilish, asosiy qurollar va vositalardan kasb egalari foydalanishi, mehnat sharoitleri;

c) asosiy mehnat qurollari - kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr - xayo'li - xuddi shu qurollarga qaratilgan, asosiy mehnat operatsiyalari, ishlab chiqarish jarayonidagi operatsiyalarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish, operatsiyalarning yangi variantlarini qidirish va kashf qilish uchun xarakat qilish, asosiy qurollar va vositalardan kasb egalari foydalanishi, mehnat sharoitleri;

d) asosiy mehnat qurollari - kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr - xayo'li - xuddi shu qurollarga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi kerak, asosiy mehnat operatsiyalari, ishlab chiqarish jarayonidagi operatsiyalarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish, kashf qilish uchun xarakat qilish, asosiy qurollar va vositalardan kasb egalari foydalanishi, mehnat sharoitlari.

10. Mamlakat taraqqiyoti uchun puxta zamin xozirlashda o'spirinlarning qaysi hususiyatlariga e'tabor berish lozim? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) o'spirinlarning mayli, extiyoji, iqtidori, qobiliyati, ko'nikmasi va malakasini xisobga olgan xolda kasb tanlashga to'g'ri yo'llantirish;

b) o'spirinlarning qiziqishi, mayli, extiyoji, iqtidori, qobiliyati, ko'nikmasi va malakasini xisobga olgan xolda kasb tanlashga to'g'ri yo'llantirish;

c) o'spirinlarning qiziqishi, mayli, iqtidori, qobiliyati, ko'nikmasi va malakasini xisobga olgan xolda kasb tanlashga to'g'ri yo'llantirish;

d) o'spirinlarning qiziqishi, mayli, extiyoji, qobiliyati, ko'nikmasi va malakasini xisobga olgan xolda kasb tanlashga to'g'ri yo'llantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psvchologv.ru
6. www.psvcho.all.ru
7. www.psvchologv.net.ru

MODUL IV. ILK O'SPirinLIK YOSHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

MODULNING UMUMIY MAQSADI: Talabalarga ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari, ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish, ilk o'spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlariga oid ko'nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- **ta'limiy maqsad:** talabalarga kasbiy faol psixologiyasi fani va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, mashg'ulotlarning optimal mazmuni, o'rganiladigan bilimlar ko'lami, shakllantiriladigan ko'nikma va malakalarni oldindan aniqlab qo'yish fanga oid tushunchalarni o'zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda fanning o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, talabalarda o'qishga oid motivlarni uyg'otish, bilish, o'qish, o'rganishga havas ishtiyoq qiziqishni shakllantirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashi va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish, modul uchun ajratilgan vaqtdan ratsional foydalanish.

4.1. Ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari.

Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish. Ilk o'spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari.



Tayanch so'z va iboralar: Ilk o'spirinlik yoshi davri, mehnat bilan ta'lim faoliyatining birligi, kasb-hunar egallash, ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, harakatga keltiruvchi kuchlar, o'spirindagi o'zini anglash, o'z xususiyatlariga ortiqcha baho berish, pedagogik-psixologik nazokatga rioya qilish, o'zini o'zi tarbiyalash.

Ilk o'spirinlik yoshi davriga 15-18 yoshlardagi, IX-XI sinf o'quvchilari kiradi. Bu davrda o'quvchi jismonan baquvvat, o'qishni tugatgach, mustaqil mehnat qila oladigan, oliy maktabda o'zini sinab ko'radigan imkoniyatga ega bo'ladi, ma'naviy jihatdan yetuklikka

erishadi. O'spirin 16 yoshida mamlakat fuqarosi va 18 yoshida esa, saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi. Bularning barchasi o'spiringa fuqaro sifatida ijtimoiy jihatdan voyaga yetishi, hayotda o'z o'rnini topishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi va yetuk shaxs sifatida ma'naviy o'sishi uchun jamiki, shart-sharoitlarni yaratadi.

Ilk o'spirinning shaxsi ijtimoiy hayotda, maktab jamoasida, tengqurlari bilan munosabatlarda, egallagan mutlaqo yangicha mavqei ta'sirida, o'qish va turmush sharoitidagi o'zgarishlar ta'sirida tarkib topa boshlaydi.

Mazkur davrning yana bir xususiyati - mehnat bilan ta'lim faoliyatining bir hil ahamiyat kasb etishidan iboratdir. Mavjud shart-sharoitlar ta'siri ostida o'spirinning aqliy va axloqiy jihatdan o'sishida o'ziga xos o'zgarishlar, yangi xislat va fazilatlar namoyon bo'ladi. Yuqori sinf o'quvchilari ijtimoiy hayotdagi dolzarb vazifalarni hal qilishda faol ishtirok eta boshlaydilar. Ijtimoiy hayotda faol qatnashish, ta'lim xarakterining o'zgarishi yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e'tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy his-tuyg'uning vujudga kelishiga, bilimni o'zlashtirishga ijodiy yondashish kuchayishiga olib keladi.

Hayotda o'z o'rnini topishga intilish kasb-hunar egallash, ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuch-g'ayrat, shijoat, qahramonlik ko'rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo'lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi.

Ayniqsa, turmush va o'qish faoliyatlarning yangicha shart-sharoitlari sinf jamoasidagi o'zgacha vaziyat, o'spirinlarning maktabda egallagan yuqori mavqei, jamoatchilik ishlarida tajriba orttirishlari ular oldiga yuksak talab hamda mas'uliyatli vazifalar qo'yadi. Bu davrda yuqori sinf o'quvchilari maktab muhitida tashkilotchilik, rahbarlik, tarbiyachilik, tashviqotchilik vazifalarini o'tay boshlaydilar.

Ilk o'spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta'lim jarayoni qo'yadigan talabalar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o'rtasidagi ziddiyatdan iboratdir. Turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar o'spirinning axloqiy, aqliy, nafosat jihatdan tez o'sishi orqali bartaraf qilinadi.

Ilk o'spirinlik yoshidagi o'zgarishlar maktab, oila, shaxslararo munosabatlardagi mavqeni yanada mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Lekin, yetakchi omil yuqori sinf o'quvchisi faoliyatining xususiyati, mohiyati va mazmunidagi tub burilishdir.

O'spirinlarda, avvalo, o'zini anglashdagi siljish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu hol shunchaki o'sishni bildirmaydi, balki o'z shaxsiyatining ma'naviy-psixologik fazilatlarini, faol ijtimoiy turmush tarzining maqsad va vazifalarini anglashni, oqilona baholashni aks ettiradi. O'spirinda o'zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyati hamda imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. O'z xulq-atvorini jilovlash, his-tuyg'ulari hamda ichki kechinmalarini tushunish ishtiyoqi vujudga kela boshlaydi.

O'spirindagi o'zini anglash turmush, o'qish, mehnat va sport faoliyatlari taqozosi bilan namoyon bo'ladi. Maktabdagi odatlanilmagan vaziyatning shaxslararo munosabat va muloqot ko'lamining kengayishi o'zining aqliy, axloqiy, irodaviy his-tuyg'ularining xususiyatlarini oqilona baholash, qo'yilayotgan talablarga javob tariqasida yondashish o'zini anglashini jadallashtiradi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning o'zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular avval, o'zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Agar o'smirda atrofdagi kishilarning oqilona baholashlari orqali aniq baholash yuzaga kelsa, o'spirinda bu holat boshqacharoq tarzda kechadi, unda o'z shaxsiy fazilatini, xulq-atvorini, aqliy va jismoniy mehnat faoliyatini tahlil qilish, qiyosiy baholash mayli kuchayadi. O'spirin o'smirda qaraganda o'z ma'naviyati va ruhiyatining xususiyatlarini to'laroq tasavvur eta olsa ham, ularni oqilona baholashda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Natijada u o'z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, manmanlik; takabburlik, kibrlanish illatiga duchor bo'ladi, sinf va pedagoglar jamoalarining a'zolariga g'ayritabiiy munosabatda bo'la boshlaydi. Shuningdek ayrim o'spirinlar o'z hatti-harakatlari, aqliy imkoniyatlari va qiziqishlariga past baho beradilar va o'zlarini kamtarona tutishga intiladilar.

Yuqori sinf o'quvchisining o'smirlik yoshi davridagi boladan boshqacha yana bir xususiyati - murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissi, o'z qadr-qimmatini e'zozlash, sezish va fahmlashga moyillikdir. Masalan, o'spirin yigit va qiz sezgirlik deganda nozik, nafis holatlarning farqiga borish, zaruratni tez anglash, xolisona yordam uyushtirishini, shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi. O'spirin o'zining ezgu niyatini baholashga jamoada o'z o'rnini belgilash nuqtai nazardan yondashadi, chunonchi «O'zim tanlagan mutaxassislikka yaroqlimanmi?» «Jonajon respublikamga, ota-onamga munosib farzand bo'la olamanmi?» «Jamiyatning taraqqiyotiga o'z ulushimni qo'sha olamanmi?» degan savollarga javob qidiradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quvchida o'zining fazilati to'g'risida yaqqol tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi unga juda ustalik, bilimdonlik, ziyraqlik bilan yordam berishi lozim. U o'zining do'stona, iliq munosabati bilan sinf jamoasi a'zolari e'tiborida ishonch, obro' qozonishi uchun har bir mulohazasida pedagogik-psixologik nazokatga rioya qilsa, yigit va qizlarda ham o'z kuchiga, imkoniyatiga, qobiliyatiga, fahm-farosatiga ishonch hissini paydo qiladi. Ularda ustozga chuqur hurmat, minnatdorchilik tuyg'ulari uyg'onadi.

O'spirin o'quvchida o'zini anglash negizida o'zini o'zi tarbiyalash istagi tug'iladi va bu ishning vositalarini topish, ularni kundalik turmushga tatbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin, o'zlarining o'zini o'zi tarbiyalashi psixologiyasidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy xislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni kattalarga xos ko'p qirrali umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishiga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'spirinlik davrida o'quvchilar o'zlarida eng qimmatli fazilatlarni, o'quv va malakalarni ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam tarkib toptirishga ehtiyoj sezadilar. Ma'lumki, yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy-psixologik qiyofaga ega bo'lish uchun oqilona o'lcham, mezon vazifalarini bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar.

O'spirinlarda ideallar bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishi va aks etishi mumkin. Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari timsolida o'zlarida yuksak fazilatlarni

(sifatlarni) gavdalantirishni orzu qiladilar. Biroq yigitlar bilan qizlar o'rtasida ideal obrazini tanlashda katta farq bo'ladi. Masalan, qizlar ko'pincha mehnatkash ayo'lning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar qahramonining xususiyatlari mujassamlangan qiyofalarni ideal darajasiga ko'taradilar. Ammo, ayrim o'quvchilar tarixiy shaxslarning masalan, baquvvat yo'lt'o'sar, quv josus va boshqalarning salbiy sifatlariga taqlid qilishga ham moyil bo'ladilar.

O'spirin o'quvchilarning o'zini o'zi tarbiyalashi maktabdagi jamoatchilik tashkilotlarining, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta'siri doirasida amalga oshishi shart. Zeroki, o'zini o'zi takomillashtirish jamoada munosib o'rin egallash, ijtimoiy burchni anglash va foydali mehnatga qiziqishga xizmat qilishi kerak.

Kuzatishlar va hayot tajribalarining ko'rsatishicha, ba'zi hollarda o'spirinlar o'zlarini qo'rqmas, jasur qilib ko'rsatishga, noo'rin hatti-harakatlarga moyil bo'ladilar, qaltis yo'llar bilan o'z irodalarini tarbiyalashga intiladilar, goho hayotlarini xavf ostida qoldirishgacha borib yetadilar. Shuning uchun ularga sun'iy usullar va vositalar yordamida qiyinchiliklarni bartaraf qilish mumkin emasligini tushuntirish kerak.

Shuningdek, ularni oqilona, maqsadga muvofiq samarali usullardan foydalanish yo'llari bilan tanishtirish, haqiqiy chiniqish malakalari bilan qurollantirish yaxshi natija beradi.

Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy xislatlarga, axloq normalarining mohiyatiga jiddiy munosabatda bo'ladilar. Ular axloqiy turkumlar, birliklarning mazmunini chuqur anglay boshlaydilar, har qaysi axloqiy tushunchaning nozikligi va ko'p ma'noligini bilishga harakat qiladilar. Masalan, burch, vijdon, g'urur, qadr-qimmat, faxrlanish, mas'uliyat, or-nomus kabi tushunchalarni chuqur tahlil qila oladilar. Lekin ularning hammalari bu axloqiy tushunchalarni yaxshi anglaydilar, deb bo'lmaydi. Shunga ko'ra to'g'ri axloqiy qarashlar, tasavvurlar tarkib topishi uchun adolatli turmush tarzining o'zi yetarli, deyish mumkin emas. Va pedagog xotirjamlikka yo'l qo'ymasligi, sog'lom muhit yaratish, barqaror shaxsni tarkib toptirish uchun doimo izlanishi zarur. Shuningdek, maktabda, bilim yurtida tarbiya ishlari izchil olib borilmasa, yigit va qizlarda chinakam, barqaror e'tiqodlar shakllanmaydi. O'spirinlarda axloqiy tushunchalarni oqilona shakllantirish lozim, ularga nojo'ya-

xulq-atvor, chet "el filmlarining mazmuni ma'naviyatga va ruhiyatga salbiy ta'sir etishini tushuntirish zarur. Ijtimoiy hayotda uchraydigan yaramas yurish-turishlarga, illatlarga zarba berish, ularning ta'siridan yigit va qizlarni asrash pedagoglar jamoasining muhim vazifasi hisoblanadi.

O'spirinlarda balog'atga yetish tuyg'usi takomillashib borib, o'zining o'rnini belgilaydi va ma'naviy dunyosini ifodalash tuyg'usiga aylanadi. Bu hol uning o'zini alohida shaxs ekanligini, o'ziga xos xislatini tan olinishiga intilishida aks etadi. Bunga esa moddalarga mayl qo'yish, murakkab tasviriy san'atga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga qiziqishni namoyish qilish yaqqol dalildir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'spirin qizlar katta yoshdagi kishilarning ta'siriga osonroq beriladilar, o'spirin yigitlar esa, kattalardan ko'ra tengdoshlari ta'siriga ko'proq beriladilar. Shuning uchun yuqori sinf o'quvchisi shaxsining tarkib topishiga maktab muhiti, xususan, sinf jamoasi, rasmiy va norasmiy tengqur boshliqlar kuchli ta'sir etadi. Sinf jamoasi umumiy maqsadni belgilashga, jamoa a'zolari o'rtasida iliq munosabatlar o'rnatishga, shaxsiy va jamoatchilik munosabatlar rivojlanishiga imkoniyatlar yaratadi. Sinf va maktab jamoalari ta'sirida matonatlilik, jasurlik, sabrtoqatlilik, kamtarlik, intizomlilik, halollik, hamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi va xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rqqoqlik, g'ayrlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi ahillik, birlik, yagona maqsadga intilish, iliq psixologik iqlim mavjud salbiy hatti-harakatlarni yo'qotish uchun xizmat qiladi

Yuqori sinf o'quvchilari shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning yuksak talablar qo'yishi natijasida o'spirinlarda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik, tanqidiylik singari fazilatlar barqarorlashadi, Mazkur tashkilotlar o'spirinlardagi g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik, jamoachilik, insonparvarlik, o'zaro yordam, hamkorlik tuyg'ularini mukammal bosqichga ko'taradi. Ana shularni kuzatib tadqiq etgan psixolog L. I. Umanskiy tashkilotchilik qobiliyati o'zaro uzviy bog'liq quyidagi qismlardan iboratligini ta'kidlaydi: 1) tashkilotchilik tuyg'usi (psixologik topqirlik, kashfiyotchilik, odob, nazokat, amaliy aql-idrokda o'z ifodasini topadi); 2) tengdoshlariga emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish

imkoniyati (muammolar yechimiga jalb qilish, ularning kuch-g'ayratini biriktirish); 3) tashkilotchilik faoliyatiga moyillik (emotsional his-tuyg'u, ijobiy munosabat, faollik ko'rsatish, qat'iy qiziqish va hokazolar).

L. I. Umanskiyning fikricha o'spirin namunali tashkilotchi bo'lishi uchun unda quyidagi xislatlar bo'lishi kerak: a) axloqiy xislatlar-jamoatchilik, samimiylilik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik; b) irodaviy xislatlar: matonat, qat'iyat, mustaqillik tashabbuskorlik, batartiblik, intizomlilik; c) emotsional xislatlar-xushchaqchaqlik, tetiklik, hazilkashlik va yangilikni his etish, o'z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar.

O'spirinlarning yana bir muhim xislati ularda yuksak darajadagi do'stlik, o'rtoqlik, ulfatchilik, muhabbatning vujudga kelishidir. Shu his-tuyg'ular yigit va qizlarning ma'naviyati va psixologiyasida qanday tus olishiga qarab, tarbiyaviy chora va tadbirlarni amalga oshirish yaxshi natija beradi. Sinfidagi hamkorlik faoliyatida o'zaro yordam hamjihatlilik, intilish va manfaatlar birligiga asoslangan o'rtoqlik munosabatlari yuzaga keladi. O'rtoqlik munosabatlarining yuksak ko'rinishi - do'stlik hissida namoyon bo'ladi. Do'stlik hissi o'rtog'iga mehribonlikda u bilan uchrashish va suhbatlashish, o'z fikr va hissiyotlari bilan o'rtoqlashishda ko'rinadi. Haqiqiy do'stlik hissi o'zaro talabchanlik bilan bog'liq bo'lib, xatolarni birgalikda tuzatishda ifodasini topadi.

O'spirinlar o'quvchilarda tabiat, san'at, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy hayot go'zalliklarini payqash, idrok qilish, sevish, ulardan ta'sirlanish, ma'naviy ozuqa olish xislatlari paydo bo'ladi. Ularning psixologiyasida mayin sado, yoqimli nido, qalbni to'lqinlantiruvchi musiqa, nozik his-tuyg'u ezgulik hislari, mayllari kuchayadi. Ayniqsa, estetik hislar ularning ma'naviyatidagi qo'pol, noxush, xunuk va yoqimsiz qiliqlarning yo'qolishiga yordam beradi. Lekin bundan o'spirinlar jo'shqin, keskin, shavq zavqli damlardan butunlay voz kechadilar, degan ma'no kelib chiqmaydi. Shunga qaramay, o'spirin yigit va qizlar orasida estetik tuyg'usi to'la shakllanmagan, noto'g'ri tasavvurga ega bo'lgan shaxslar ham uchraydi. Ularda estetik his-tuyg'u o'ziga xos qarashlar va nuqtai nazarining o'sishida ilm-fan va texnikaning rivoji, tafakkurning takomillashuvi, taqlidchanlik muhim rol o'ynaydi. Buning uchun muayyan reja asosida turli mo'zaylar ko'rgazma va konsert zallariga, kino, teatr, radio va

telestudiyaga sayohatlar uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqori sinf o'quvchilarining o'quv mashg'uloti o'z xususiyati va mazmuni bilan boshqa yosh davridagi o'quvchilarning ta'lim jarayonidan tubdan farq qiladi. Uquv rejasi va dasto'rining murakkablashuvi, yangi fanlar va fakultativ kurslarning kiritilishi o'zlashtirishni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shu sababli ularning o'qishga munosabati ham o'zgaradi, ularda fanlarga turlicha munosabatlar shakllana boshlaydi.

O'spirin o'quvchilarning fanlarga munosabatlari asosan har qaysi fanning inson dunyoqarashidagi roliga bilish faoliyatidagi va ijtimoiy ahamiyatiga amaliy xususiyatiga o'zlashtirish imkoniyatiga va uni o'qitish metodikasiga bog'liq bo'ladi.

Katta maktab yoshida bilishga qiziqish amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Masalan, bu qiziqish ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnikaga, tabiatga, osmon jismlariga, jamiyatshunoslikka, huquqiy muammolarga, sport va hokazolarga yo'nalgan bo'ladi. Yuqori sinf o'quvchilarining to'g'araqlarda faol qatnashishi qobiliyat va aqliy imkoniyatlariga qarab amalga oshadi.

O'spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik, takomillashib boradi, mantiqiy xotira, eslab qolishning yo'l va vositalari esa ta'lim jarayonida yetakchi rol o'ynay boshlaydi. O'spirinlar topshiriqlarni bajarishda, ularning ma'nosi hamda mohiyatini to'la anglab ish to'tadilar, eslab qolish, esda qolish, esga tushirish jarayonlarning samarali usullaridan unumli foydalanadilar. Bu jarayonlar muvaffaqiyatli amalga oshishini ta'minlovchi diqqatning sifati va miqdori o'zgaradi, Diqqatni ko'chirish va taqsimlash sezilarli rivojlanadi, boshqalarning nuqtai nazariga e'tibor berish, ularning nutqini tinglash, yozib olish, mulohaza yuritish mahorati oshadi va aqliy qobiliyat takomillashadi.

O'spirinlarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyatlarga ega bo'lib boradi. Lekin ularning fikr yuritishida birmuncha ob'ektiv va sub'ektiv kamchiliklar uchraydi.

O'spirin barcha faoliyat bosqichida mustaqil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilikdir. O'spirinlarga adabiy qahramon qiyofasini ifodalash, asar mohiyati, mazmuni va g'oyasi yuzasidan mustaqil holda hukm va xulosa chiqarish topshirilganda ular, birinchidan, asarni o'qishgan, biroq hech qanday xulosa chiqarishmagan, ikkinchidan, mavzuga ijodiy

yondashmasdan o'qituvchining har bir so'zini esda saqlab qolib, hech o'zgarishsiz qaytadan aytib berishga harakat qilishgan, uchinchidan, o'zlari maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatlarida eshitganlari, o'qiganlari bilan o'qituvchining axboroti, ma'lumoti xabarni umumlashtirib javob berishgan, to'rtinchidan, o'z fikrlarini bayon etishga qiynalganlarida asardan ko'chirmalar keltirishgan.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarda nazariy tafakkurni shakllantirishda to'garak va fakultativ mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'spirin o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda, o'qituvchilar, sinf rahbarlarining siymolari muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar o'spirinlarda o'rganilayotgan narsa va hodisalarning ob'ektivligi, haqqoniyligi, to'g'riligiga ishonch hosil qilishlari, ulardan qanoatlantirishlari va ularni isbotlashga o'rgatib borishlari zarur. Ikkinchidan, fan o'qituvchilari ularni narsa va hodisalar to'g'risida original fikr yuritishga yo'llashlari kerak. Uchinchidan, o'quvchilarning mashg'ulotlarda qo'llanaverib, ma'naviy eskirgan bir qolipdagi so'zlardan, iboralardan foydalanishlariga yo'l qo'ymasliklari kerak. To'rtinchidan, fan o'qituvchilari o'spirin yigit va qizlarga bilimlarini amaliyotga tatbiq qilishni o'rgatishlari shart, buning uchun ularda amaliy malakalarni shakllantirishga harakat qilishlari lozim.

Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan ajralgan holda rivojlanishi mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun tafakkur rivojlanishi bilan birga o'quvchining nutq faoliyati ham o'sadi. Bu esa o'quvchida o'z fikrini to'g'ri, aniq ifodalash malakasini tarkib toptiradi, nutqining to'zilishini takomillashtiradi va lug'at boyligini yanada oshiradi. O'spirin adabiy asarlarni o'qish va tushunish orqali mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritish va munozaraga o'rgana boradi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Ma'lumki shaxsning ana shu fazilatlarini o'smir fikrlashi, mustaqil o'ylashi, to'g'ri hukm va xulosa chiqarishi, qat'iy qarorga kelishining natijasidir.

Yigit va qizlarning adabiy asarni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarini bildirishi, muammoli tomonlari yuzasidan bahslashuvi va hokazolarda insoniy xislatlarning muayyan darajada ishtirok etishi aql tanqidiyligining aynan o'zginasidir. Turmushda uchraydigan noo'rin tanqidiylik esa o'spirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. O'qituvchining ayni shu paytdagi asosiy vazifasi -

o'quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylik darajasiga ko'tarishdan, ularga voqelikka odilona, oqilona tanqidiy nuqtai nazardan qarashni o'rgatishdan iboratdir.

Katta maktab yoshidagi o'quvchi aqlining tanqidiyligida og'machilikka moyillik kuchli bo'ladi. Og'machilikning eng asosiy sabablaridan biri - voqelikning mohiyatini ilmiy jihatdan to'g'ri tushunmaslikdir. Shuningdek, o'spirinning «o'z pozitsiyasi»da bo'sh kelmasligi, narsa va hodisalarning asl mohiyatini anglab turib, jo'rttaga «o'jarlik» qilishi ham ana shu og'machilikning bir ko'rinishidir.

Ularda moddiy dunyo to'g'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Aqlning yoki tafakkurning tanqidiyligini tarbiyalashda o'qituvchi o'quvchining o'ziga xos tipologik xususiyatiga, aqliy kamolot darajasiga, bilimlari saviyasiga, mulohaza doirasining kengligiga, nutq qobiliyatiga, shaxsiy nuqtai nazariga, o'qishga nisbatan munosabatiga, qiziqishining xususiyat va darajasiga, aqliy faoliyat operasiyalarini qanchalik bilishiga, mavjud o'qish ko'nikmasi va malakalariga alohida e'tibor berishi lozim.

Aql tanqidiyligining rivojlanishi yuqori sinf o'quvchilarini moddiy dunyoni, atrof muhitni o'rganishga, o'quv materiallarni puxta o'zlashtirishga, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, faollikka da'vat etadi va bundan tashqari, voqelikni isbotlash va asoslash ko'nikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. O'rganilayotgan hodisa to'g'risida hukm va xulosa chiqarish tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O'spirin tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi tashkil qiladi. Tafakkurning **mazmundorligi** deganda, o'spirin ongida tevarak-atrofdagi voqelik bo'yicha mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar qanchalik joy olganligi nazarda to'atiladi. Tafakkurning **chuqurligi** deganda, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatleri, o'zaro bog'lanishi va munosabatlari o'spirinning fikrlashida to'liq aks etishi tushuniladi. Tafakkurning **kengligi** esa, o'zining mazmundorligi va chuqurligi bilan bog'liq bo'ladi. Yuqori sinf o'quvchisi narsa va hodisalarning eng muhim alomat va xususiyatlarini mujassamlantirsa, o'tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi mulohazalarini bildira olsa, buni

keng tafakkur deyiladi. Tafakkurning **mustaqilligi** deganda, o'spirin tashabbuskorlik bilan o'z oldiga yangi vazifalar qo'ya bilishi va ularni hech kimning yordamisiz oqilona usullar bilan bajara olishi tushuniladi. Aqlning **tashabbuskorligi** deganda, o'spirinning o'z oldiga yangi g'oya, muammo va vazifalar qo'yishini, ularni amalga oshirishda samarador vositalarni ham o'zi topishga intilishini anglaymiz. Aqlning pishiqligi vazifalarni bajarishda yangi usullarni tez izlab topish va qo'llay olishda, eskirgan vositalardan qutulishda namoyon bo'ladi. Agar o'quvchi muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli yangi fikrlarni aytgan bo'lsa, nazariy va amaliy vazifalarni hal qilishda yordam bersa, buni samarador tafakkur deyiladi. Tafakkurning tezligi savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. O'spirin tafakkurining tezligi qator omillarga: birinchidan, fikrlash uchun zarur materialning xotirada mustahkam saqlanganligiga, uni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishning tezligiga, turli his-tuyg'ularning mavjudligiga o'quvchining diqqati va qiziqishiga; ikkinchidan, o'spirinning bilim saviyasiga, qobiliyatiga, egallagan ko'nikma va malakalarga bog'liqdir.

O'spirin qobiliyati, layoqati va iste'dodi ta'lim jarayonida mehnat faoliyatida rivojlanadi. Uning qanchalik iste'dodli ekanini aniqlash uchun ziyraqligi, jiddiy sinovga shayligi, mehnatga moyilligi, intilish, psixik tayyorligi, mantiqiy fikrlashining tezligi, izchilligi, samaradorligiga e'tibor berish kerak. Qobiliyatning o'sishi bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning sifatiga bog'liq bo'lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo'shilib ketadi.

Ilk o'spirinlikda o'tiladigan darslar, laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar, referat konspekt yozish kabi ta'limiy faoliyat turlari yuqori sinf o'quvchilari o'zlashtirishi zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi. Bu ishlar kundan-kunga ko'proq ahamiyat kasb etishi natijasida tafakkur tobora faol, mustaqil, ijodiy tus olib boradi. Bularning barchasi ilmiy-nazariy tafakkurning shakllanishiga, tevarak-atrofdagi voqelikning; umumiy qonuniyatlarini bilish qobiliyati o'sishiga, aqliy imkoniyatlar vujudga kelishiga, tabiat va jamiyat rivojlanishining qonunlarini anglab olishga muhim shart-sharoitlar yaratadi.

O'spirinlar biror hodisani asoslagan, isbotlagan paytlarida uning muhim xususiyatlariga, birlamchi jihatlariga sinchkovlik bilan

qaray boshlaydilar. Darsliklardan o'qigan va o'qituvchilardan eshitgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarga ishonish va ulardan qanoat hosil qilish uchun faol harakat qiladilar, biroq ularda o'smirlar singari obro' ketidan ergashish juda kam sodir bo'ladi. Ular har bir darsda tanishilgan materiallarning mohiyatiga, inson uchun zarurligiga ishonch hosil qilishga to'xtovsiz intiladilar. Ba'zan ta'lim jarayonida o'spirin tomonidan biror narsaga e'tiroz bildirsa yoki shubhalansa, uni nohaq ravishda qoralaydi. Tafakkurni oqilona yo'llar bilan o'stirish uchun favqulodda holatlarda o'quvchining mazkur xususiyatini yomonlamay, balki uni rag'batlantirish to'g'riroq bo'ladi.

O'spirinlik yoshida yuqori sinf o'quvchilari aqliy faoliyatning omillari va usullari bilan yetarli darajada qurollangan bo'ldilar.

Shunday qilib ta'lim jarayonida turli fanlarni o'qitish tufayli keng ko'lamli bilimlar sistemasi o'zlashtirilishi orqali yuqori sinf o'quvchilarida tafakkurning faolligi, mustaqilligi, mazmundorligi, mahsuldorligi ortadi. Ularda dialektik-materialistik refleksiv nazariy tafakkur tarkib topadi. Shu sababli voqelikning ichki bog'lanishlari, munosabatlari jamiyat rivojlanishining qonunlarini bilish va *anglab* olish ko'nikmasi yuqori pog'onaga ko'tariladi.

Agar o'smirlar tafakkuri yaqqol-obrazli tafakkurning mavhum tafakkurga aylanishi bilan xarakterlansa, katta maktab yoshidagi o'quvchilarda dialektik-materialistik tafakkur qobiliyati rivojlana boshlaydi va bu tafakkur tabiat hamda jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Mazkur qonunlarning vujudga kelishi, o'zgarib borishi, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi, shuningdek, o'zaro uzviy bog'liqligiga doir murakkab bilimlar o'spirinlarning yosh xususiyatiga aynan mosdir.

Endigina o'sib kelayotgan o'spirin o'quvchilar kasbga qanday yondashadilar? Bu muammo ko'pchilikni qiziqtiradi. Kuzatishlardan va turmush tajribasidan ma'lumki, odatda ilk o'spirinlik yoshidagi o'g'il-qizlar hayotda mustaqil qadam tashlash to'g'risida aniq, asosli fikr bildirishga qiynaladilar. Shu sababli kasb tanlash davrida oqilona va to'g'ri yo'l tutishni bilmay dovdirab qoladilar yoki tavakkaliga ish ko'radilar. O'zlarining imkoniyatlarini hisobga olib harakat qilishga ojiz bo'ladilar.

Natijada noxush kechinmalar, umidsizliklar, ijtimoiy sustlik holatlari vujudga keladi. Yuqori sinf o'quvchilarining ba'zilari kasb

tanlashda yaqqol ko'zga tashlanib turgan namunalarga taqlid qiladilar. Bunda o'z atroflaridagi yaqin kishilarni nazarda tutadilar, ularning yo'lidan borishni mo'ljallaydilar.

O'quvchilar maktabda fanlarning asoslaridan bilim oladilar, har qaysi o'spirin fizika yoki matematika bilan tanishadilar. Biroq ularning hammasi kelajakda fizik yoki matematik kasbini egallashni xohlayvermaydi. Maktabda yer kurrasi o'rganiladi, barcha planetalarning xususiyati bilan tanishiladi, uzoq qit'alar dunyo xalqlari tarixi va san'ati bo'yicha bilimlar beriladi. Ammo barcha o'quvchilar sayyoh bo'lishni istamaydi. Fan asoslari o'quvchilarga keng ko'lamda ma'lumot va axborotlar berishga moslashtirilgan bo'lib, o'spirinlar olingan bilimlarning kelajak, shaxsiy turmush, bilimdon shaxs bo'lish uchun amaliy ahamiyatini anglab olishi kerak.

Katta yoshdagi maktab o'quvchilarida biror o'quv faniga ishtiyoq natijasida ularda har hil kasblarga qiziqish vujudga keladi. Tanlangan kasbni o'zlashtirish bilan bog'liq fanga qiziqish ham orttiradi. Natijada to'garak, mashg'ulotlariga va fakultativ kurslarga ko'chish imkoniyati vujudga keladi. Bunday imkoniyatdan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yuqori sinf o'quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlari, iste'dodlari asosida tanlagan kasblariga to'g'ri yo'naltirish o'spirinlar uchun katta hayotiy masaladir. Kasb tanlash jarayonida o'spirinlarga o'qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilik o'z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari kerak. Ko'p hollarda o'spirinlar kattalarning maslahat va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir qarorga kelishlari mumkin, chunki ular o'z xohishlarini har tomonlama asoslab bera oladilar.

V.A. Krutetskiyning ma'lumotlariga qaraganda, pedagogika instituti talabalarining yarmi o'qituvchilik kasbini yoqtirib o'qishga kirgan. Ularning qolgan qismi esa institutga tasodifan kirib qolgan. Biroq bu oliy o'quv yurtiga o'z xohishi bilan kirgan talabalar orasida ham har hil mulohazalar mavjud. Pedagog kasbini yoqtirib o'qishga kirgan talabalarning chorak qismi faqat olgan bilimlarini boshqalarga o'rgatish maqsadini bildirgan bo'lsalar, yana shuncha o'spirinlar institutda o'qitilayotgan biror fanni sevganlari uchun o'qishga kirganini aytgan. Talabalarning beshdan bir qismi bolalarni chin ko'ngildan yaxshi ko'rgani uchun o'qituvchilik kasbini tanlagan.

O'rta maktabni bitirgunicha hamma o'quvchilar kasbini qat'iy tanlaydi, deyish mumkin emas. Ularning aksariyati o'zi kelajakda kim bo'lishini tasavvur ham qila olmaydi va kelajak rejasini ham to'zmaydi. Ilk o'spirinlarning ko'pchiligi o'rta maktabni tugatgandan so'ng, oliy o'quv yurtida ham o'qish to'g'risida gapiradilar, bu haqda orzu qiladilar. Lekin unga kira olmagan, ya'ni o'zining asosiy maqsadiga erisha olmagan yoshlar tushkunlikka tushadilar. Butun orzu-umidlarim barbod bo'ldi, deb o'ylaydilar, ba'zilari kelgusi yilda o'qishga kirishga umid bog'laydilar. Kasb-hunarga har hil munosabatlar hosil bo'lishining asosiy sababi maktabda o'qish davrida kasb tanlash bo'yicha turli hil niyatlar paydo bo'lishidir.

V. A. Krutetskiy o'spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni alohida ifodalaydi: a) biror o'quv faniga qiziqish; b) vatanga foyda keltirish istagi (o'ziga xos psixologik xususiyat va qobiliyatni hisobga olmagan holda); shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish; c) oilaviy an'analarga rioya etish (vorislik); d) do'stlari va o'rtoqlariga ergashish; e) ish joyi yoki o'quv yurtining uyiga yaqinligi; g) moddiy ta'minlanish; j) o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi.

Shuningdek, boshqa turdagi motivlar, masalan, shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, maqsadi, unga intilishi, kasb to'g'risidagi ma'lumoti, o'zining sihat-salomatligi, asab sistemasining va temperamentining xususiyati va hokazolar ham bo'lishi mumkin.

O'spirinlarda kasblar haqida yaqqol tasavvur bo'lmasligi sababli, ular ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb qanday shaxsiy fazilatlarini talab qilishini tushunib yetmaydilar. O'z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar. Biroq hozir mazkur ko'ngilsiz holatlarning oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun quyidagi pedagogik-psixologik omillarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir: 1) kasblarni o'rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lo'nda qilib ifodalash; 2) o'qituvchining kasblar bo'yicha tashviqot ishlari olib borishi, o'quvchilarga kasblar yuzasidan maslahatlar berishi o'spirin va uning ota-onasi bilan birga kasbga yo'naltirish tadbirlarini ko'rib chiqishi; 3) o'spirinlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish; 4)

mehnat ta'limi darslarida yuqori sinf o'quvchilarini kasbga tayyorlash va qiziqish uyg'otish; 5) psixodiagnostik va kasb tanlash usullarining amaliyotga tatbiq qilishga moslashtirilgan turlarni ishlab chiqish; 6) joylarda zamon talabiga mos kasb tanlash xonalarini tashkil etish; 7) kasb tanlash targ'iboti yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositalariga jalb qilish va psixologik jihatdan tayyorlash.

Tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yo'naltirishning usul va usuliyatlari ishlab chiqilgan. Kasblarni xususiyatlariga qarab tasniflash va ularni ma'lum tartibga solib ifodalab berishga erishilgan. Bu borada Ye. A. Klimovning sxemasi alohida ahamiyatga ega. U quyidagi kasb turlarini tavsiya qiladi:

1)polizchi, chorvador, asalarichi, zootexnik, agronom, o'rmonchi - bionika mutaxassisligi «inson - tabiat»;

2)chilangar, tokar, montyor, konstruktor, radiotexnik, muhandis - texnika mutaxassisligi «inson - texnika»;

3)ofisiant, sotuvchi, hamshira, o'qituvchi, tarbiyachi, tashkilotchi-sosionomika mutaxassisligi «inson-inson»;

4)bo'yoqchi, nusxa ko'chiruvchi, musiqachi, badiiy bezovchi yoki pardozlovchi, bastakor, yozuvchi, rassom-ergonomika mutaxassisligi - «inson - badiiy obraz».

Oddiyroq ifodalansa, kasblarni tabiatga xizmat qilishga, texnikaga xizmat qilishga, insonga xizmat qilishga va badiiy obrazlar ustida ishlashga doir kasblarga ajratish mumkin. Lekin mazkur kasblar tasnifida ularning ko'pchiligi ifodalanmagan. Ana shu guruhlariga o'nlab yondosh kasb - hunarlarni kiritish mumkin.

Kasb tanlashga yo'llash va kasblarni targ'ib qilish usullaridan biri - ko'rsatmali vositalar, ya'ni fotostendlardan, kitoblar ko'rgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulidan, naqqoshlik va texnika to'garagi ishlaridan foydalanishdir. Bundan tashqari mo'zeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali ham ayrim kasblarga qiziqish uyg'otish mumkin.

Yuqorida aytilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, kasb-hunar to'g'risida axborotlar, maslahatlar berishning o'zi ongli ravishda kasb tanlash uchun yetarli emas. Shunga ko'ra o'spirin o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish ularga o'zlarini muayyan faoliyatda sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Lekin kasbga yo'naltirishning boshqa yo'l va

vositalarini ham qidirish va qo'llash kerak.

Mehnat psixologiyasining mutaxassislari kasbga yo'naltirishning boshqacha usullarini: barcha fanlarni o'qitishning politexnik jihatini chuqurlashtirishni; tabiiy-matematik fanlarda atrofda ishlab chiqarishdan ob'ekt sifatida foydalanishni; ijtimoiy turkumdagi fanlarni o'qitishda o'lkashunoslik materiallarini qo'llab o'quvchilarning kasbga qiziqishni oshirish, mehnatga ishtiyoq uyg'otishni: darslarda kasblar haqida axborotlar berib borishni; mehnat sohalari bilan o'quvchilarning mustaqil tanishishi uchun sharoit yaratishni tavsiya etmoqdalar.

Qishloq maktablarida kasb tanlash bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar ham mavjud. Chunonchi yozda yuqori sinf o'quvchilarini ishlab chiqarishga bemaolol jalb etish mumkin. Bunda jismoniy mehnatga o'spirinlarni qiziqtirish, mehnat nashidasidan bahramand etish, ularda mamnuniyat hissini tarkib toptirish, ularda rejali mehnat qilish ko'nikmasini vujudga keltirish, javobgarlik va mas'uliyat hissini tarkib toptirish lozim. O'spirinlarni mehnatga tayyorlanishga rag'batlantirishni malaka darajasini berish bilan yakunlash ma'qul. Ishlab chiqarish mavsumida o'quvchilar brigadalarini tuzishda ularning yoki xususiyatlari, qiziqishlari va aqliy kamolotini hisobga olish zarur. Brigadalarda ishlash mehnat va kasbga psixologik tayyorgarlik bosqichi bo'ladi. O'quvchilar o'zining qaysi kasb-hunarga yaroqliligi yoki yaroqsizligini amaliy ishlarda sinab ko'radilar va o'zlariga ishonch hosil qiladilar.

Kasb tanlashda o'spirin yigit-qizlarda qator maqsadlar vujudga kelishi mumkin. Dastlabki maqsad - bosh maqsad deb ataladi va u umumxalq mehnatiga o'z ulushini qo'sha olamanmi, qanday inson bo'lib yetishaman, hayot va faoliyat ideallari nimalar bo'lishi lozim, degan fikrlardan iborat bo'ladi. Yaqin va yaqqol maqsad - dastlabki faoliyat sohasi, mutaxassislikni qanday va qaerda egallash, o'qishni tugatgach, dastlabki mehnat faoliyat qaysi lavozimdan boshlanishi, mehnat mahoratini oshirish istiqbollari haqidagi mulohazalardan tashkil topadi. Psixologik nuqtai nazardan maqsadga erishishning tashqi va ichki shart-sharoitlari mavjud. Tashqi sharoitlarga maqsad yo'lidagi har hil qiyinchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar mazkur muassasa yoki tashkilotning imkoniyatlari, muayyan sub'ektga-yosh kasb egasiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan qarshiligi va hokazolar kiradi. Maqsadga erishishning ichki shart-sharoitlariga

shaxsning imkoniyatlari, sihat-salomatligi, aqliy qobiliyati, tirishqoqligi, irodaviy sifatlari (chidamliligi, sabr-toqati, tanlagan kasbi bo'yicha ishlashi uchun zarur fazilatlar va hokazolar kiradi.

Psixologiya fanida maqsadga erishish faoliyatining qo'shimcha, yordamchi turlari ham amalda uchrab turadi. Ular asosiy maqsad vositalari ish bermay qolganda qo'llanadi. O'spirinlar tajribasida shunday hollar ro'y beradiki, asosiy maqsadni amalga oshirishda, yengish qiyin to'siqlarga duch kelinadi, ana shundagina yordamchi vositalardan foydalaniladi. Bunday holatni tasavvur etish uchun o'spirinlar tajribasidan quyidagi ko'chirmani keltiramiz: «Konkurs bo'yicha yaqin oradagi hunar-texnika bilim yurtiga kira olmayman, shuning uchun xuddi shu mutaxassislik bo'yicha boshqa bilim yurtiga kirish uchun harakat qilaman...» Kasb tanlovchi o'spirinning mulohazasidan ko'rinib turibdiki, u bir emas, balki bir nechta qo'shimcha maqsaddan foydalanishga intilyapti. Shunga o'xshash maqsadga erishishning qo'shimcha, yordamchi yo'l va vositalari uchrashi mumkin. Qo'yilgan maqsadni ro'yobga chiqarish uchun intilish kasb tanlash jarayonida o'spirinlar shaxsiyatida jur'atlikni vujudga keltiradi. Bu fazilat o'spirin shaxsining ajoyib yutug'idir.

Yuqori sinf o'quvchilarining professiogramma bilan tanishishida asosiy maqsad quyidagi tarkibiy qismlarni, jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi a) asosiy mehnat qurollari - kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr-xayo'li-xuddi shu qurollariga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi kerak; b) asosiy mehnat operasialari: mehnat quroli bilan qanday faoliyatni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini aniqlash va qaysi sohalarida ishlatish mumkinligini bilish; ishlab chiqarish jarayonidagi operasialarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish; operasialarning yangi variantlarini qidirib topish uchun harakat qilish; c) asosiy qurollar va vositalar; qo'l asboblardan - chilangar xirurg, g'ijjakchi, kamon chaluvchi kabi kasb egalari foydalanadi; d) mehnat sharoitlari: kasb tanlovchini qurshagan tabiiy muhit va sharoitlar, kishilar va hokazolar.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, o'spirinlarni o'z qiziqishlari, mayl, ehtiyoj, iqtidor, qobiliyat, ko'nikma va malakalarini hisobga olgan holda kasb tanlashga yo'naltirish jamiyatning rivoji uchun puxta zamin hozirlaydi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1) Ilk o'spirinlik yoshi davri deganda nimani tushunamiz? Misollar keltiring.

2) Mazkur davrning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

3) Ilk o'spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi asosiy kuchlar haqida nima deya olasiz?

4) Nima uchun o'spirinlarda, avvalo, o'zini anglashdagi siljish yaqqol ko'zga tashlanadi? Misollar keltiring.

5) O'spirin o'quvchilarning o'zini o'zi tarbiyalashi maktabdagi jamoatchilik tashkilotlarining, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta'siri doirasi qanday?

6) O'spirinlarda balog'atga yetish tuyg'usi takomillashib borib, o'zining o'rnini belgilaydi va ma'naviy dunyosini ifodalash tuyg'usiga aylanadi. Bu holatga izoh bering.

7) L. I. Umanskiy o'spirinlarning tashkilotchilik qobiliyatini o'zaro uzviy bog'liq qismlardan iboratligini qanday ta'kidlaydi?

8) O'spirin o'quvchilarning fanlarga munosabatlari asosan har qaysi fanning inson dunyoqarashidagi rolga bilish faoliyatidagi va ijtimoiy ahamiyatiga amaliy xususiyatiga o'zlashtirish imkoniyatiga va uni o'qitish metodikasiga bog'liq bo'ladi. Siz bu fikrga qanday qaraysiz? O'z fikringizni bayon eting.

9) Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan ajralgan holda rivojlanishi mumkinmi?

10) O'spirin tafakkurining sifatini nima tashkil qiladi?

Testlar

1. Ilk o'spirinlik yoshi davriga qaysi yoshdagilar kiradi?

- a) 15-18 yoshlardagi o'quvchilar;
- b) 14-15 yoshlardagi o'quvchilar;
- c) 13-15 yoshlardagi o'quvchilar;
- d) 14-16 yoshlardagi o'quvchilar.

2.O'spirin necha yoshida mamlakat fuqarosi va necha yoshida saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi?

- a) o'spirin 15 yoshida mamlakat fuqarosi va 17 yoshida saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi;
- b) o'spirin 16 yoshida mamlakat fuqarosi va 18 yoshida saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi;
- c) o'spirin 17 yoshida mamlakat fuqarosi va 19 yoshida saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi;
- d) o'spirin 15 yoshida mamlakat fuqarosi va 17 yoshida saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi.

3. Hayotda o'z o'rnini topishga intilish nimani keltirib chiqaradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) kasb-hunar egallash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi;
- b) kasb-hunar egallash, ixtisoslikni tanlash, kelajakka jiddiy munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi;
- c) kasb-hunar egallash, ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi;
- d) ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi.

4. Bu davr nima bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) shijoat, qahramonlik ko'rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo'lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi;
- b) kuch-g'ayrat, qahramonlik ko'rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo'lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi;
- c) kuch-g'ayrat, shijoat, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo'lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi;
- d) kuch-g'ayrat, shijoat, qahramonlik ko'rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo'lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi.

5. O'zini anglashdagi siljish nimani aks ettiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) ma'naviy-psixologik fazilatlarini, faol ijtimoiy turmush tarzining maqsad va vazifalarini anglashni, oqilona baholashni aks ettiradi;

b) ma'naviy-psixologik fazilatlarini, vazifalarini anglashni, oqilona baholashni aks ettiradi;

c) faol ijtimoiy turmush tarzining maqsad va vazifalarini anglashni, oqilona baholashni aks ettiradi;

d) ma'naviy-psixologik fazilatlarini, faol ijtimoiy turmush tarzining maqsad, oqilona baholashni aks ettiradi.

6. O'spirindagi o'zini anglash nimaning taqozosi bilan namoyon bo'ladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) turmush, mehnat va sport faoliyatlari taqozosi bilan namoyon bo'ladi;

b) turmush, o'qish, mehnat va sport faoliyatlari taqozosi bilan namoyon bo'ladi;

c) turmush, o'qish, sport faoliyatlari taqozosi bilan namoyon bo'ladi;

d) turmush, mehnat va sport faoliyatlari taqozosi bilan namoyon bo'ladi.

7. O'spirinlik davrida o'quvchilar o'zlarida qanday ehtiyoj sezadilar? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) o'quv va malakalarni rejali, tartibli, izchil va muntazam tarkib toptirishga ehtiyoj sezadilar;

b) o'quv va malakalarni ongli, tartibli, izchil va muntazam tarkib toptirishga ehtiyoj sezadilar;

c) o'quv va malakalarni ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam tarkib toptirishga ehtiyoj sezadilar;

d) o'quv va malakalarni ongli, rejali, izchil va muntazam tarkib toptirishga ehtiyoj sezadilar.

8. O'zini o'zi takomillashtirish deganda nimani e'tiborga olish lozim?

a) jamoada munosib o'rin egallash, ijtimoiy burchni anglashga xizmat qilishi kerak;

b) jamoada munosib o'rin egallash, foydali mehnatga qiziqishga xizmat qilishi kerak;

c) ijtimoiy burchni anglash va foydali mehnatga qiziqishga xizmat qilishi kerak;

d) jamoada munosib o'rin egallash, ijtimoiy burchni anglash va foydali mehnatga qiziqishga xizmat qilishi kerak.

9. Sinf va maktab jamoalari ta'sirida o'spirinlarda qanday fazilatlar takomillashadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) matonatlilik, jasurlik, sabrtoqatlilik, kamtarlik, intizomlilik, halollik, hamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi;

b) matonatlilik, sabrtoqatlilik, kamtarlik, intizomlilik, halollik, hamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi;

c) matonatlilik, jasurlik, kamtarlik, intizomlilik, halollik, hamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi;

d) matonatlilik, jasurlik, sabrtoqatlilik, intizomlilik, halollik, hamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi.

10. Sinf va maktab jamoalari ta'sirida o'spirinlarda qaysi illatlar barham topishi tezlashadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) xudbinlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rqoqlik, g'ayrlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi;

b) xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, dangasalik, qo'rqoqlik, g'ayrlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi;

c) xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, qo'rqoqlik, g'ayrlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi;

d) xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rqoqlik, g'ayrlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

11. Rus psixologi L. I. Umanskiy tashkilotchilik qobiliyatini o'zaro uzviy bog'liq qaysi qismlardan iboratligini ta'kidlaydi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) tashkilotchilik tuyg'usi, tengdoshlariga emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati, tashkilotchilik faoliyatiga moyillik;

b) tengdoshlariga emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati, tashkilotchilik faoliyatiga moyillik;

c) tashkilotchilik tuyg'usi, tashkilotchilik faoliyatiga moyillik;

d) tashkilotchilik tuyg'usi, tengdoshlariga emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati.

12. L. I. Umanskiyning fikricha o'spirin namunali tashkilotchi bo'lishi uchun qanday xislatlarga ega bo'lishi kerak? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) axloqiy xislatlar-jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik, matonat, batartiblik, intizomlilik, emotsional xislatlar-xushchaqchaqlik, tetiklik, hazilkashlik va yangilikni his etish, o'z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar;

b) axloqiy xislatlar-jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik, matonat, qat'iyat, mustaqillik tashabbuskorlik, batartiblik, intizomlilik, emotsional xislatlar-xushchaqchaqlik, tetiklik, hazilkashlik va yangilikni his etish, o'z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar;

c) axloqiy xislatlar-jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik, matonat, qat'iyat, mustaqillik tashabbuskorlik, batartiblik, tetiklik, hazilkashlik va yangilikni his etish, o'z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar;

d) axloqiy xislatlar-jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik, matonat, qat'iyat, mustaqillik tashabbuskorlik, batartiblik, intizomlilik, emotsional xislatlar-xushchaqchaqlik, o'z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psvchology.ru
6. www.psycho.all.ru
7. www.psychology.net.ru

MODUL V. TALABALAR PSIXOLOGIYASI VA O'QUV FAOLIYATI.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: Talabalarning psixologik xususiyatlari. Talabalar tafakkurining xususiyatlari, talaba shaxsining ijtimoiy - psixologik xususiyatlarini tekshirish, oliy ta'limdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo'llari, darsni psixologik tahlil qilishga oid ko'nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- **ta'limiy maqsad:** talabalarga ma'lumot berish, rivojlantirish, ta'limiy maqsadini aniq belgilash, uning modul tizimidagi o'rnini qat'iy aniqlash, uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o'zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda fanning o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, nazariy bilimlar asosida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** modulni o'tishda ongli intizomni tashkil etish, talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashi va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

5.1. Talabalarning psixologik xususiyatlari. Talabalar tafakkurining xususiyatlari. Talaba shaxsining ijtimoiy - psixologik xususiyatlarini tekshirish



Tayanch so'z va iboralar: Sezgi organlariga ta'sir etish, turli - tuman kasblar, bilimlar tizimi bilan qurollantirish, fikr yuritish qobiliyati, real yoki noreal xodisalar, yangilik yaratish yo'llari, tasavvur etish qobiliyati, faol bilish jarayoni, korreksiya qilish.

O'spirinlarning bilish jarayonlari va temperament xususiyatlarini xisobga olgan xolda kasbga yo'llash maqsadga muvofiq.

Sezgirilar deganda moddiy dunyodagi narsalarning ayrim xossalari va xodisalar insonning sezgi organlariga ta'sir etib, muayyan tanlovdan (seleksiyadan) o'tgandan keyin uning aks ettirilishi tushuniladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, sezgi

insonlarning tashqi ta'sirini qabul qilish qobiliyati va shunday ta'sirdan xis-tuyg'u, bilish jarayonining sodda va boshlang'ich shakli, bosqichi xisoblanadi. Sezgilar uch guruhga bo'lib o'rganiladi: a) ko'rish, xis bilish, tam sezish, tuyush - eksteroretseptiv sezgilar; b) organik sezgilar, ya'ni ikki organlarning faoliyati to'g'risida xabar berib turuvchi - interoretseptiv sezgilar; c) kinestetik (xarakat), muvozanat, tebranish (vibratsiya) - proprioretseptiv sezgilar.

Sezgilik deganda, sezish qobiliyatining yuksak darajada rivojlanganligi tushuniladi. Kasbda shaxsning sezgirligi muxim rol o'ynaydi. Xavo musaffo paytda ko'zimiz 25 kilometr masofadagi shamning yorug'ini ilg'aydi. Buyumning og'irligiga atigi 3 - 4 gramm qo'shilishi bilan sezgi organlarimiz og'irlik o'zgarganligini seza oladi. Sezgi organlarining farq sezish chegarasi yorug'lik uchun - ko'zg'alish (ta'sir)ning yuzdan bir, tovush uchun - o'ndan bir, bosim uchun uchdan bir birligiga teng. Insonning ko'zi yarim millionga yaqin rang - tusni ajrata oladi. Bundan chiq`adigan asosiy xulosa shundan iboratki, farqni sezish chegarasining past yoki yuqori bo'lishi ko'pchilik kasb-hunarlar uchun muxim ahamiyatga ega.

Sezgi organlarining avto muxitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanlik qobiliyati nixoyatda kuchli. Masalan, ko'zning yorug'lik nurlariga nisbatan sezgirlik darajasi 200000 (ikki yuz ming) baravar orttirishi, binobarin, ko'z qorachig'i 17 baravar kattalishishi mumkin. Odatda xar qaysi shaxsning sezish qobiliyati xar hil darajada rivojlangan bo'ladi.

Sezgirlik shaxsning muxim xususiyatlaridan biri bo'lib, ma'lum faoliyat turi bilan shug`ullanishda sezgirligi oshadi. Buning uchun inson muntazam ravishda mashq qilishi va mashq jarayonida sezgirlikka nisbatan talabni oshira borishi, ishda sustlikka yo'l qo'ymaslik zarur. O'spirinlarning ruxiy tetikligini, jismoniy faolligini oshirish, mehnatga, kasb-hunarga qiziqtirish sezgirligi, ziyraqligini oshirish garovidir.

Ayni paytda sezgi organlariga ta'sir etayotgan ob'ektni mavjudol, narsa va xodisalarning inson ongidagi in'ekosi idrok deb ataladi. Verbal va novebral xususiyatlari bilan boshqa bilish jarayonlaridan farqlanadi. Idrok voqelikni aks ettirishning sezgiga nisbatan shakli bo'lib, xodisalar, narsalar va sub'ektlarning yaxlit obrazini yaratadi.

Talabalarning o'qishi, mehnat faoliyati, muomala jarayoni, kasb tanlashi uchun fazo va vaqtni idrok qilishning katta ahamiyati bor. Xar qanday kasb - hunar, ixtisos va mutaxassislik uchun ish sur'ati, vaqt, ish qurollari, vositalarining fazoda qanday joylashganligini aniq bilish talab qilinadi. Shaxsni kasbga yo'llashda uning olamni idrok qilish imkoniyatidan iborat fazilati va kuzatuvchanligi aloxida rol o'ynaydi. Ba'zi birovlar moddiy narsalarga nisbatan kuzatuvchan bo'lsa, boshqalar psixologik jixatdan kuzatuvchandir. Talabani atrof muxitdagi narsa va xodisalar haqida chuqur fikr yurita bilishi uning idroklilik darajasiga bog'liq bo'lib, bu fazilat kasb tanlashda juda asqotadi.

Biror kimsa, narsa yoki xodisa haqidagi taassurotni esda saqlab, eslab qolish va keyinchalik esga tushirish, reproduktiv va produktiv xolatni aks ettirish qobiliyati xotira deb ataladi. Xotiraning hayot, faoliyat, muomala va xulq-atvor jarayonlarini aks ettirish qobiliyati muxim xislatidir.

Xarakat xotirasi (xarakatni eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash, tanish, eslash, takrorlash), emotsional xotira (his-tuyg'ular bilan aloqador emotsional kechinmalarning voqelik bilan uyg'unligi), tasavvur xotirasi (buyumlarning ko'rinishi, shakli, qiyofasini eslab qolish va esga tushirish), so'z - mantiq xotirasi (so'zlar va nutq bilan uzviy bog'liq bo'lgan fikrlarni eslab qolish hamda esga tushirish) va boshqalar farq qilinadi.

Bundan tashqari, xotira faoliyatining maqsadga qarab - ixtiyoriy va ixtiyorsiz eslab qolish va esga saqlash muddatiga qarab - qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ va boshqa xotira degan turlarga ham ajratiladi. Xotira, o'z navbatida ko'rgazmali, obrazli, so'z - mantiq, abstrakt, xarakatli va oraliq tiplarga ajratilib o'rganiladi.

Yoshlarni kasbga yo'llashda ularning xotirasidagi shaxsiy farqlarni xisobga olish maqsadga muvofiq. O'quv materiallarining turli - tumanligi xotirani o'tkirlashtirish, rivojlantirish uchun qulaylik yaratadi, chunki kasb - hunarning hilma - hilligi xotiraning o'tkirligini talab qiladi.

Xotiraning hamma turlari, o'ziga xos jixatlari kasb - hunar, ixtisos, mutaxassislik tanlashda, turli - tuman kasblar to'g'risidagi ma'lumot, axborotlarni o'zlashtirish eslab qolish va keyinchalik esga tushirishda juda muxim rol o'ynaydi. Biror ixtisosni egallash uchun

xotiraning yuqorida ta'riflab berilgan turlaridan birontasi albatta kerak bo'lib qoladi. Bu esa, o'z navbatida ishning samarali bajarilishini ta'minlaydi.

Aqliy mehnat bilan shugullanuvchilarning xotirasi, ayniqsa, o'tkir bo'lishi lozim.

Tafakkur voqelikning miyada bevosita zuxur etilgan mavxum va umumlashtirilgan in'ekosi bo'lib, talabani olam haqidagi bilimining asosiy manbai bo'lgan sezgilari, idroki va tasavvurlari hamda amaliy faoliyati bilan bog'liqdir. Tafakkur talabani bilimlar tizimi bilan qurollantiradi, qudratli tabiat kuchlarini o'ziga buysundirishi uchun imkon tug'diradi. Barcha bilimlar fikr yuritish yo'li bilan o'zlashtiriladi. Bilimlarni anglash natijasidatalaba talabada tushunchalar muloxaza va xulosalar kelib chiqadi. Talaba fikrlash, muloxaza yuritish, ijodiy izlanish natijasida muammolar va muammoli vaziyatlarni xal qiladi, yangilik yaratadi, ijod (kreatsiya) qiladi.

Aqliy qobiliyat talabaga xos yuksak fazilat bo'lib, muayyan operatsiyalar, xatti-xarakatlar yordami bilan ro'yobga chiqadi. Talaba mehnat faoliyatining barcha soxalarida o'zining aqliy qobiliyatidan samarali foydalanmogi zarur.

Talabalarning fikr yuritish qobiliyatini aniqlovchi muxim mezonlardan biri muammoli vaziyatdir. Ta'lim jarayonida talabalarni muammoli vaziyatni, topshiriqni yechishga o'rgatish ularning bu aqliy qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Buning uchun talabalarga muammoli, jumboqli topshiriqni yechish bosqichlarini ta'riflab berish joiz. Bunda qo'yilgan muammoning moxiyati tushuntiriladi, uni yechish usullari, vositalari qidiriladi, tanlangan usul hamda vositalardan foydalanib, muammo yechiladi, uning to'g'ri yechilganligi tekshiriladi va xokazo.

Ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun bir element ortiqcha berilgan yoki biror sharti yetishmaydigan, yo bo'lmasa o'zaro mantiqdan bog'lanmagan topshiriq hamda masalalardan muammo sifatida foydalanilsa juda qimmatli natijada olinadi. Qo'yilgan muammoning kasb-hunarga aloqador bo'lgani ma'qul. Muammoli masalani xal qilishda tafakkurning mustaqilligi, ixchamligi, tezligi, mantiqiyligi, izchilligi, o'tkirligi, teranligi, maxsuldorligi juda muxim ahamiyatga ega.

Xullas, tafakkurning hozirgacha foydalanilmayotgan imkoniyatlarini zudlik bilan kasb tanlash samarasini oshirish ishiga xizmat qilishiga ishonchimiz komil.

Xayo'lot (fantaziya) ob'ektiv voqelikning inson ongidagi o'ziga xos in'ikosi, real yoki noreal xodisalar haqidagi uy, fikr, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir. Birona, xatto eng chalkash, faraziy tasavvur ham talaba aqlining faqat sub'ektiv maxsuli xisoblanmaydi, oqibat, natijada bu tasavvurda ob'ektiv aks ettirilgan bo'ladi. Shunga ko'ra talaba faoliyatining xar qanday turi uchun, shu jumladan, olimning gipoteza yaratishi, voqelikni bashorat qilishi, xodisalarning sabablarini taxmin etishi uchun xayo'lot juda zarurdir. O'quvchi yoki talabaning faraziy tasavvuri yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa, ta'lim jarayonida ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi.

Yangilik yaratishga intilgan xar qanday ijodiy farazsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yangilik yaratish yo'llari faraz qilish jarayonida vujudga keladi. Inson orzu, ezgu niyat qilmasdan, xayol surmasdan, o'ylamasdan yashay olmaydi. Ijodiy izlanish talabaning psixologik tavsifi uchun katta ahamiyatga ega. Talabaning xayo'l surish, faraz qilish, tasavvur etish qobiliyatiga qarab uning ma'naviy dunyosi to'g'risida muayyan darajada aniq fikrga kelish mumkin. Talaba faraziy obrazlar, timsollar, tasvirlar tufayli tobora sezgir, mexribon, xushmuomala, saxiy bo'ladi.

Shunday qilib, faol bilish jarayoni talaba faoliyatining hamma turlarida bir tekis ishtiroq etadi va aks ettirishni mukammal bo'lish imkoniyatini va qonuniyatlariga tayanib ish tutgan talaba kamroq xato qiladi. Bu omillar uning xatolarga nisbatan ongli munosabatda bo'lishiga, yo'l qo'ygan kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatishga (korreksiya qilishga) imkon yaratadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1) Sezgirlar deganda nima tushuniladi?
- 2) Sezgi organlarining avtor muxitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanlik qobiliyati qanday?
- 3) Talabani kasbga yo'llashda uning olamni idrok qilish imkoniyatidan iborat fazilati va kuzatuvchanligi aloxida rol o'ynaydi. Siz nima deysiz? O'z fikringizni bayon eting.
- 4) Xarakat xotirasi deganda nimani tushunamiz? O'z

fikringizni bildiring.

5) Xotiraning hamma turlariga izoh bering.

6) Tafakkur voqelikning miyada bevosita zuxur etilgan mavxum va umumlashtirilgan in'ekosidir. Siz nimadeysiz? O'z fikringizni bildiring.

7) Ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun nima qilish kerak?

Testlar

1. Sezgilar deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) moddiy dunyodagi narsalarning ayrim xossalari va xodisalar insonning sezgi organlariga ta'sir etib, muayyan tanlovdan (seleksiyadan) o'tgandan keyin uning aks ettirilishi tushuniladi;

b) moddiy dunyodagi narsalarning ayrim xossalari va muayyan tanlovdan (seleksiyadan) o'tgandan keyin uning aks ettirilishi tushuniladi;

c) moddiy dunyodagi narsalarning ayrim xodisalari insonning sezgi organlariga ta'sir etib, muayyan tanlovdan (seleksiyadan) o'tgandan keyin uning aks ettirilishi tushuniladi;

d) moddiy dunyodagi narsalarning ayrim xossalari va xodisalar insonning sezgi organlariga ta'sir etib, uning aks ettirilishi tushuniladi.

2. Sezgilar nechta guruhga bo'lib o'rganiladi?

a) ikki guruhga bo'lib o'rganiladi;

b) uch guruhga bo'lib o'rganiladi;

c) to'rt guruhga bo'lib o'rganiladi.

d) to'rt guruhga bo'lib o'rganiladi.

3. Sezgilar qaysi guruhga bo'lib o'rganiladi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) interoretseptiv sezgilar, proprioretseptiv sezgilar;

b) eksteroretseptiv sezgilar, proprioretseptiv sezgilar;

c) eksteroretseptiv sezgilar, interoretseptiv sezgilar, proprioretseptiv sezgilar;

d) eksteroretseptiv sezgilar, interoretseptiv sezgilar.

4. Eksteroretseptiv sezgilar deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) xis bilish, tam sezish, tuyush;

b) ko'rish, tam sezish, tuyush;

- c) ko`rish, xis bilish, tam sezish;
- d) ko`rish, xis bilish, tam sezish, tuyush.

5. Interoretseptiv sezgilar deganda nima tushuniladi?

To`liq va aniq javobni tanlang.

- a) organik sezgilar, ya`ni ikki organlarning faoliyati to`g`risida xabar berib turuvchi;
- b) noorganik sezgilar, ya`ni ikki organlarning faoliyati to`g`risida xabar berib turuvchi;
- c) biorganik sezgilar, ya`ni ikki organlarning faoliyati to`g`risida xabar berib turuvchi;
- d) anorganik sezgilar, ya`ni ikki organlarning faoliyati to`g`risida xabar berib turuvchi.

6. Proprioretseptiv sezgilar deganda nima tushuniladi?

To`liq va aniq javobni tanlang.

- a) muvozanat, tebranish (vibratsiya);
- b) kinestetik (xarakat), muvozanat, tebranish (vibratsiya);
- c) kinestetik (xarakat), tebranish (vibratsiya);
- d) kinestetik (xarakat), muvozanat.

7. Sezgilik deganda nima tushuniladi? To`liq va aniq javobni tanlang.

- a) sezish qobiliyatining past darajada rivojlanganligi tushuniladi;
- b) sezish qobiliyatining yarim darajada rivojlanganligi tushuniladi;
- c) sezish qobiliyatining yuksak darajada rivojlanganligi tushuniladi;
- d) sezish qobiliyatining bir oz darajada rivojlanganligi tushuniladi.

8. Xotira deb nimaga aytiladi? To`liq va aniq javobni tanlang.

- a) biror kimsa, narsa yoki xodisa haqidagi taassurotni esda saqlab, eslab qolish, reproduktiv va produktiv xolatni aks ettirish qobiliyati;
- b) biror kimsa, narsa yoki xodisa haqidagi taassurotni esda saqlab, eslab qolish va keyinchalik esga tushirish, eproduktiv va produktiv xolatni aks ettirish qobiliyati;

c) biror kimsa, narsa yoki xodisa haqidagi taassurotni esda saqlab, eslab qolish reproduktiv va produktiv xolatni aks ettirish qobiliyati;

d) biror kimsa, narsa yoki xodisa haqidagi taassurotni esda saqlab, eslab qolish va keyinchalik esga tushirish, reproduktiv va produktiv xolatni aks ettirish qobiliyati.

9. Xarakter xotirasiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) xarakterni eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash, tanish, eslash, takrorlash;

b) xarakterni eslab qolish, esda saqlash, tanish, eslash, takrorlash;

c) xarakterni eslab qolish, esga tushirish, tanish, eslash, takrorlash;

d) xarakterni eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash, eslash, takrorlash.

10. Emotsional xotiraga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) his-tuyg'ular bilan aloqador bo'lmagan emotsional kechinmalarning voqelik bilan uyg'unligi;

b) his-tuyg'ular bilan aloqador emotsional kechinmalarning voqelik bilan uyg'unligi;

c) his-tuyg'ular bilan aloqador emotsional kechinmalarning voqelik bilan uyg'unligi bo'lmashligi;

d) his-tuyg'ular bilan aloqador emotsional kechinmalarning hayot bilan uyg'unligi.

11. Tasavvur xotirasiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) buyumlarning ko'rinishi, qiyofasini eslab qolish va esga tushirish;

b) buyumlarning ko'rinishi, shakli va esga tushirish;

c) buyumlarning ko'rinishi, shakli, qiyofasini eslab qolish va esga tushirish;

d) buyumlarning shakli, qiyofasini eslab qolish va esga tushirish.

12. So'z - mantiq xotirasiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) nutq bilan uzviy bog'liq bo'lgan fikrlarni eslab qolish hamda esga tushirish;

b) so'zlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan fikrlarni eslab qolish hamda esga tushirish;

c) so'zlar va nutq bilan uzviy bog'liq bo'lmagan fikrlarni eslab qolish hamda esga tushirish;

d) so'zlar va nutq bilan uzviy bog'liq bo'lgan fikrlarni eslab qolish hamda esga tushirish.

13. Xayo'lot (fantaziya) nimaning majmuasidir? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) ob'ektiv voqelikning inson ongidagi o'ziga xos in'ikosi, real yoki noreal xodisalar haqidagi uy, fikr, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir;

b) ob'ektiv voqelikning inson ongidagi o'ziga xos in'ikosi, fikr, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir;

c) ob'ektiv voqelikning inson ongidagi o'ziga xos real yoki noreal xodisalar haqidagi uy, fikr, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir;

d) ob'ektiv voqelikning inson ongidagi o'ziga xos in'ikosi, real yoki noreal xodisalar haqidagi uy, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voriz nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psycho.all.ru
7. www.psychology.net.ru

5.2. Oliy ta'limdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo'llari. Darsni psixologik tahlil qilish



Tayanch so'z va iboralar: Qiyinchiliklarning asosiy sabablari, oliy o'quv yurti talabalari, o'quv faoliyati, qoidalarga rioya qilish, O'spirinlar ruhiy dunyosining xususiyatlari, nazariy va amaliy bilimlar, o'quv faoliyatining teng huquqli sub'ekti, psixologik tadqiqotlar, qarama-qarshiliklarning bo'lishi, voqelik baho berish jarayoni, o'quv taraqqiyotidan ilgarilab ketish, darsni psixologik tahlil qilish, darsning psixologik maqsadi, dars uslubi.

Oliy ta'limdagi qiyinchiliklarning asosiy sabablari talabalar o'quv faoliyatining to'g'ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat bo'lib, bular aqliy zo'riqishning negizi hisoblanadi. Talabalarda vujudga kelgan aqliy zo'riqish tasodifiy psixologik hodisa emas, uning zaminida shaxsiy o'quv faoliyatini oqilona boshqarish, o'quvining zaifligi yotadi. SHunga ko'ra oliy o'quv yurti talabalari ko'pincha o'quv materiallarini o'zlashtirishda bu faoliyatni tasodifiy boshqarishga harakat qiladilar. Bunda muayyan materiallar mantiqiy harakat bilan eslab qolinsa, qolganlari mutlaqo diqqatdan uzoqlashtiriladi.

Natijada ular ma'ruzaning bir qismini tinglaydilar, uning mohiyatini bazo'r angelaydilar, uni konspektlashtirishga ulgurmaydilar. O'quv yili mobaynida ana shu holning davom etishi imtihon sessiyalarini talaba uchun qattiq sinovga aylantiradi. Shunga ko'ra oliy o'quv yurtining asosiy vazifalaridan biri talabani o'quv materiallarining asosiy manbalari bilan ishlashga o'rgatishdan, uning mustaqil bilish faoliyatini tashkil qilishdan, uni o'zini boshqarish usullari bilan tanishtirishdan iboratdir. Ma'lumki, oliy maktabda mustaqillik va mustaqil o'quv faoliyatini uyushtirish talab qilinadi.

Oliy ma'lumot olish talabaning maqsadga muvofiq, muntazam, rejali, izchil o'quv faoliyatini ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshirishini taqozo etadi.

Oliy maktab psixologiyasi fanida talabalarning o'quv faoliyati auditoriya va auditoriyadan tashqari qismlarga ajratiladi. SHu bilan birga talabalar oldida o'quv faoliyatining tarkibiy qismlari bilan bogliq muayyan qoidalarga rioya qilib hal etiladigan masalalar

kiradi:

1) Qanday yo'l bilan auditoriyada to'g'ri o'qish va o'qitish mumkin?

2) Qay yo'sinda auditoriyadan tashqari vaqtlarda mustaqil faoliyatning umumlashgan usullaridan foydalansa bo'ladi?

3) Ma'ruzada talabanning aqliy faoliyati uchun optimal shart sharoitlar qanday yaratiladi?

4) Amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasini qanday aniqlash va ifodalash mumkin?

5) Talabanning imtixon va sinovlarga tayyorgarlik saviyasini aniqlash imkoniyati bormi va hokazo.

Oliy maktab ta'limining o'ziga xos xususiyatlar talabalarga. Talabalik yillarining eng muhim xususiyatlaridan biri-saboq oluvchilarda ijtimoiy yetuklikni te'zkorlikda, jadal sur'atlar bilan namoyon bo'lish jarayonidir. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi, uning ijtimoiy kamolotga o'qishuvi alohida faollik namoyish etuvchi o'ziga xos faoliyat ko'rsatuvchi individdan, muayyan aqliy qobiliyatni rivojlantirishga, ijtimoiy turmushdagi rollarni (oila qurish, farzand tarbiyalash, mehnat qilish), mas'uliyatli yumushlarni bajarishga ruhiy jihatdan tayyorgarlik qilishni talab etadi. Mazkur jarayonning aniq ko'rsatkichlar sifatida o'rta ma'lumotlilik, jamoat topshirig'i, mehnat qilish, ijtimoiy tartib va qoidalar, huquqiy qonuniyatlar oldida javobgarlik hissi, mutaxassislik tuyg'usi, otalik yoki onalik burchining ularda tug'ilishi, ijtimoiy guruhlariga rahbarlik qilish mas'uliyati, sport bilan shug'ullanish istagi, turli xil to'garak faoliyatlarida qatnashish mayllari muhim rol uynaydi.

Talabalik davri shaxsning ijtimoiy va ixtisosiy jihatdan o'z - o'zini anglash, shakllanish jarayoni bilan rivojlanishning boshqa bosqichidagi odamlarning xususiyatlaridan keskin farq qiladi. Mazkur yosh davrida yigitlar va qizlar o'ziga xos ruhiy inqiroz va hissiy tanglik holatlarini o'z boshlaridan kechiradilar, chunonchi ular katta yoshdagi yetuk kishilarning har xil ko'rinishdagi rollarini bajarishni tezroq o'zlarida sinab ko'rishga intiladilar. Ijtimoiy turmush va borliq, ularni qurshab turgan mikromuhitdagi aniq holatlar, hodisalar, an'analar, rasm-rusumlar, yashash tarzi kabilarda *ifodalanuvchi* qadriyatlar (ma'naviyat)ga moslasha boshlaydilar. Voyaga yetgan odamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsni taraqqiy etish xususiyatlari bilan uzviy bog'liq

bo'lgan ichki ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda, bir tomondan, o'spirin talabalar (yigitlar yoki qizlar) mustaqil mehnat faoliyatida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritib, katta yoshdagi odamlarga o'xshash statusga ega bo'ladilar, ikkinchi tomondan, ularda turmush tajribasining yetishmasligi tufayli bir qator umuminsoniy fazilatlar va hayotiy malakalarni egallash muammosi ko'ndalang bo'lib turadi. O'spirinlar ruhiy dunyosining xususiyatlariga ko'ra, ushbu davrga kelib, ularda jismoniy, jinsiy, aqliy, axloqiy, nafosat va g'oyaviy-siyosiy jihatdan muayyan bosqichga ko'tarilishi, ya'ni yetuklikka, kamolotning birinchi bosqichiga o'qish imkoniyati ko'zga tashlanadi. Shunga qaramasdan, talabalarning oldida mutaxassislikni egallash bilan uzviy bogliq bo'lgan bir qancha vazifalar turadi. Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ilmiy-texnika taraqqiyoti, bir tomondan, axborotlar, xabarlar, ma'lumotlar mo'l-ko'lligini vujudga keltirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu muammoga boshqacha yondashilsa, talabalarda mutaxassislikka oid bilimlarga nisbatan barqaror qiziqish va o'quv motivining kamayishini vujudga keltiradi. Chunki, aksarayat zamonaviy texnika vositalari kamroq jismonan ko'p quvvat sarflashni takozo qilganligi munosabati bilan ixtisos egalarining ruhiy dunyosida qat'iylik, ijodiy izlanish, irodaviy zo'r e'tiros, ruhlanish o'rnini loqaydlik, sustkashlik, faoliyatsizlak egallashi boshlanadi.

Ta'kiddab o'tilgan muammolardan kelib chiquvchi oliy maktab oldidagi bosh maqsad-o'quv dasturlarida nazarda tutilgan nazariy va amaliy bilimlar majmuasini o'zlashtirish ko'rsatkichiga o'qishgina emas, balki, talabalarda ularni mustaqil ravishda egallash uchun omilkor, oqilona, umumlashgan o'quv usullari, tafakkur operatsiyalari va mantiqiy vositalarni shakllantirishdan iboratdir. Talabalarni mustaqil bilim olishga, o'quv faoliyatini o'zi boshqarishga, taaluqli g'oyalarni ilgari surish orqali ularni yangicha fikrlash, narsa) hodisalarga nisbatan ongli munosabat va puxta uslubiy tizim bilan qurollantirish oliy maktabning eng dolzarb vazifalaridan biridir, boshqacha qilib aytganda, qadimiy, mumtoz monologik (o'qituvchining auditoriya hokimligidan) ma'ruzadan asta-sekin dialogik ma'ruza (talaba o'quv faolayatining sub'ektiga aylanishida o'z ifodasini topuvchi o'qituvchi bilan xamkorligi) ishga o'tish demakdir. O'qituvchining bir tomonlama kommunikativ fikr

uzatish munosabatidan talabalar bilan hamkorlik (teng huquqlilik sheriklik asosida) faoliyatiga o'tishni ta'minlashdan iboratdir. Ta'limning mazkur metodi jarayonida yangi bilimlar o'qituvchi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri tinglovchilar diqqatiga havola qilmasdan, balki ularni o'zlashtirishda o'quv faoliyatining teng huquqli sub'ekti (shaxsga sub'ekt tariqlasda yondashish) sifatida talabalar ham bevosita va faol ishtirok qiladilar. Ta'limning ushbu shakli mana bunday tarzda namoyon bo'lishi mumkin: o'qituvchi-talaba-talabalarning o'zaro hamkorligi, auditoriyada o'quv muammosini yechishda, bilimlarni o'zlashtirishda hamkorlik faoliyatining sub'ektlari (o'qituvchi bilan talabalar) bir tekis qatnashishlari lozim.

Talabalik davrining yana bir muhim xususiyati shuki, agarda talabalar o'z erki, mustaqilligini paymol qilinganligini se'zib qolsalar, goho ular ba'zi o'rinsiz, nomaqbul qarorga kelganliklari tanqid etilsa, u holda bo'lg'usi mutaxassislar o'ta shijoat, e'tiros, ruhiy ko'tarinkilikda ularni qabul qiladilar. O'z pozitsiyalarini himoya qilishda, statusda belgilangan talab etishda ijtimoiy faolliklarni, jiplashganlarini namoyish qiladilar.

Inson taraqqiyotining bu bosqichida talabalarda mustaqil qaror qabul qilish yuzasidan javobgarlik tuyg'usi, o'z - o'zini nazorat qilish, o'z - o'zini baholash, o'zini qo'lga olish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z o'zini takomillashtirish, o'z xulqi va faoliyatini o'zi idora qilishi, refleksi egallash kabi shaxsning muhim fazilatlarini vujudga kela boshlaydi. Ushbu xislatlar, sifatlar kamolot me'zoni vazifasini bajarish imkoniyatiga ega. Talabalikning birinchi kunidan boshlab, ular ob'ektiv yoki sub'ektiv tarzda, barqaror shart-sharoit, zarur omil tariqasida tashqi qo'zg'atuvchilar, ichki turtkilar, harakatga keltiruvchi kuchlar ta'siriga uchraydi. Natijada ikiyoqlama ta'sirlanish (shakl va mazmunining inson uchun yuksak ahamiyatliligi) talabalarga ba'zi bir ijtimoiy voqelik, holat, hodisa va turmush tajribasini oldindan aks ettirish imkoniyatini yaratadi.

Talabalik yillarining muhim xususiyatlaridan yana bittasi shundan iboratki, bunda o'qish faoliyatida anglashilmagan va anglashilgan motivlarning miqdori keskin ravishda ko'payadi. Axloqiy jihatdan rivojlanish sust sur'atlar bilan borsada, lekin talabalarning tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik, qunt, qadr-qimmatlilik kabi fazilatlarini so'zlarli darajada takomillashib boradi.

Talabalarda ijtimoiy voqelikka, hodisa va holatlarga, axloqiy normalarga qiziqish, ularni anglashga intilish his-tuyg'ulari kuchayadi, ularning amaliy ifodasi te'z-te'z ko'zga tashlana boshlaydi.

Turmush tajribasini ortib borishi natijasida talabalarda o'z - o'zini anglash xislati yuzaga keladi, ularda o'zligini anglashni o'lchash va baholash me'zonlari paydo bo'ladi, rasmiy va norasmiy holatlarga nisbatan munosabati, uning barqarorligini bildiradi. Bu ijobiy, umuminsoniy xususiyatga ega bo'lgan shaxsiy fazilat kamolot ko'rsatkichining vazifasini bajaradi, individ hayotining mazmunini anglash, oqilona turmush rejalarini tuzish, bo'lajak katta hayot yo'lini oldindan aks ettirish, bashorat qilish jarayonida o'z ifodasini topadi. Bu davrga kelib, talabalar notanish mikromuhit sharoitlariga ko'nikib boradilar, o'zlarining huquq va majburiyatlarini egallay boshlaydilar, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatda yangi vositalar va usullarni qo'llaydilar, ularning oldida turgan ijtimoiy rollarni amaliyotda tezrok sinashga intiladilar.

Psixologik tadqiqotlarga binoan, talabalarda xohish va intilish o'z taraqqiyotiga ko'ra shaxsning irodasi va xarakter xislatlaridan ancha ilgarilab ketadi. Ammo ularda turmush tajribasining etishmasligi sababli nazariya bilan amaliyotni, haqiqatan tahmini, xayolot bilan voqelikni, orzu qilishi, istiqloлга ishonch bilan qat'iylikni o'zaro aralashib ketish sari yetaklaydi. SHuning uchun oliy ta'lim jarayonida yigit va qizlarning nuqson hamda kamchiliklarini hisobga olgan holda munosabatda bo'lish o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Talabalarda ideal (yuksak, barkamol) «Men»ini real (aniq, voqe) «Men» bilan taqqoslash orqali o'z - o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo'la boradi. Ideal «Men» hanuzgacha muayan me'zon (o'lcham, ko'rsatkich) asosida yetarli darajada ilmiy jihatdan tekshirib ko'rilmagan, shuning uchun «Men»ning ko'rinishlari goho tasodifiy, gayritabiiy his etilishi muqarrar binobarin, real «Men» ham shaxsning aqliy bahosidan ancha yiroqdir. «Men» ning real, ideal ko'rinishlaridan tashqari uning hozirgi «Men», o'tmishdagi «Men», dinamik «Men» degan turlari xam mavjud. O'tmishdagi «Men» bosib o'tilgan hayot yo'liga baho berishda o'z ifodasini topadi, O'qishilgan yutuq va yo'l qo'yilgan nuqsonlar sarhisob qilinadi. Hozirgi «Men» xuddi shu daqiqalar va soniyalardagi shaxsning xulq-atvori,

fikrlashi, borliqqa va insonga nisbatan munosabati bilan o'lchanadi. Dinamik «Men» o'zini o'zi takomillashtirish, o'zining ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun o'z-o'ziga dalda bo'lishda, uzluksiz ravishda o'z-o'zini rivojlantirishga qaror qilganligida namoyon bo'ladi.

Talabalar shaxsiyatining takomillashuvida ob'ektiv, lekin hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmagan qarama-qarshiliklarning bo'lishi ularda o'z-o'ziga nisbatan ichki ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, natijada o'qishga va o'quv predmetlariga nisbatan salbiy munosabat tug'iladi. Jumladan, o'quv yilining boshida talabalarda ko'tarinki kayfiyat, yuksak e'tiros, ijodiy ruhlanish, o'qishga nisbatan zavq-shavq tuyg'usi kuzatilsa, oliy ta'limning shart sharoitlari va uning tizimi, undagi kun tartibi, qat'iy belgilangan qonun va qoidalari bilan yaqindan tanishish orqali ularning ruhiy dunyosida faollikning pasayishi, hissiy kechinmalarning zaiflashuvi ko'zga tashlanadi. Talabalarning ba'zan o'z kuchi va imkoniyatiga ishonchsizligi (ruhiy parokandalik), ya'ni istiqlol rejasiga umidsizlik yutuqqa O'qishishdan hadiksirash kabi salbiy his-tuyg'ular namoyon bo'la boshlaydi. Lekin ulardagi unday ruhiy muvozanat o'zgarishlari vaqtli xususiyatlarga ega bo'lib, beqaror tarzda u holatdan boshqa) holatga te'z-te'z harakat sifatida o'tib turish, uzluksiz ravishda o'zaro o'rin almashish yuz beraveradi.

Talabalik davri xulq atvorga aniq voqelik baho berish jarayonida muayyan imkoniyatga haddan tashqari yuqori talab qo'yish va qat'yatchilik xususiyati bilan talab o'qituvchilar boshqa voyaga yetgan odamlardan ajralib turadi, ana shuning uchun ham barkamol yigitlar va bokira qizlar qat'iyatparvar ekanliklarini hamisha amaliy jihatdan namoyish eta olmaydilar.

Talabalarning moddiy jihatdan ota-onalarga oliy o'quv yurti ma'muriyatiga bog'liqligi ijtimoiy qarama qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Ularning turli ko'rinishdagi, o'ziga xos mohiyatga ega bo'lgan istagi bilan mavjud imkoniyati (aqliy, iqtisodiy) o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi, bunda ustunlikka ega bo'lgan moddiy intilish motivi qo'shimcha daromad olish ehtiyojini qondirishga xizmat qilganligiga qaramay, u ish faoliyatiga zarar keltirish orqali amalga oshiriladi. Bunday nomutanosiblikni bartaraf etish uchun o'qituvchi talabalar shaxsiyati va ahamiyatini hurmat qilgan holda muomalaga kirishmogi darkor. Toki shaxslararo hurmat, o'zaro

yordam va bir-birni tushunish psixologik muhit yaxshilanishiga xizmat qilsin.

Oliy ta'limda qizlar bilan yigitlar o'rtasida aqliy rivojlanishdagi tafovutlar I va II bosqichlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Qizlarning jismoniy jihatdan erta voyaga yetishi, ruhiy jihatdan yigitlardan ilgarilab ketishini ta'minlaydi. Yigitlarning jismoniy o'sishida tana a'zolari o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida xotirlash va fikrlashi qiyinlashadi. SHuning uchun ular ma'lum davr orqada qoladilar. Keyinchalik yigitlar bilan qizlarning o'rtasidagi farqlar II bosqichining oxirlariga kelib yo'g'qola boradi. Ularning o'rtasidagi tafovutlar shaxslararo, jinslararo munosabatga ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Agarda o'rta maktab ta'limi tizimida o'quv taraqqiyotidan ilgarilab ketish holati kuzatilsa, oliy o'quv yurtida talabalarning axloqiy va azaliy rivojlanishi o'qitish jarayonidan ilgarilab ketishi voqe bo'ladi. Chunki mustaqil izlanish, bilimlarni puxta egallash kabi aqliy faoliyat turlari ulardan birlamchi manbalar yuzasidan izchil ma'lumotlar olishni, ularni muayyan darajada tartibga keltirishni taqozo qiladi. Mustaqil faoliyat ijodiy fikrlashga, muammolar yechimini topishga, an'anaviy qarashlardan uzoqlashishga, kasbiy ko'nikmalarni chuqur egallashga keng imkoniyatlar yaratadi. Talabalarni mustaqil faoliyatni tashkil qilishga va uni boshqarishga o'rgatish-oliy maktab ta'limi samaradorligini oshirishga kafolat beradi.

Darsni psixologik tahlil qilish. Darsni psixologik tahlil qilishning asosiy maqsadi o'qitishda psixik moment (ruhiy lahzalar)ni qo'llashdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar, uning sababini aniqlash, tasodifiy yutuqdan, shuningdek, o'qituvchi tomonidan ko'zlangan hamda tayyorlangan muvaffaqiyat garovini ajrata bilishdir.

Darsni psixologik tahlil qilayotib, o'qituvchi quyidagi lahzalarga diqqatni qaratishi lozim.

1. Darsning psixologik maqsadi:

1. Mazkur predmet *bo'yicha* darsning maqsadga yo'nalganligi: o'qituvchi psixologik muammoni hal qilishda istiqloq rejasiga ega ekanligi; talabalar tomonidan bilimlarni, o'quvlar malakalarni egallashi, bilishga qiziqishlarning shakllantirish, faol, mustaqil ijodiy tafakkurni rivojlantirish, ularni aqliy faoliyat usullari bilan

qurollantirish, yuksak axloqiy his-tuygular e'tiqod, dunyoqarash, nafosatni tarkib toptirish kabilar.

2. Darsda qo'llaniladigan psixologik-pedagogik ta'sirning ayrim vositalari, metodlari, usullari ta'limning yaxlit uslubiga qo'yilgan psixologik maqsadga qay darajada javob bera olishligi.

II. Dars uslubi.

1. Darsning tuzilishi va mazmuni qay yo'sinda rivojlantiruvchi ta'lim printsiplariga javob bera olishi: a) talabalar tafakkuri va xotirasiga tushadigan bilimlar ko'lamining o'zaro nisbati; b) talabalarda tiklovchi va ijodiy faoliyatning o'zaro nisbati; c) tayyor (o'qituvchi ma'ruzasidan, o'quv qo'llanma va darslikdan egallangan) va mustaqil izlanishlar natijasida olingan bilimlarni o'zlashtirishning o'zaro nisbati; d) muammoli ishning qaysi tarkibiy qismini o'qituvchi tomonidan, qaysilari esa, talabalar tomonidan (kim muammo qo'yadi, kim uni hosil qiladi, kim uni yechadi) bajariladi e) talabalarni faoliyatga kirishga undash va yo'naltirish, goho majbur qilishning o'zaro nisbati (amalga oshirilgan ish yuzasidan ijobiy his-tuyg'u qizg'atuvchi sharh, qiziqishni jadallashtiruvchi ustanovka (ko'rsatma), qiyinchiliklarni yengish uchun irodaviy o'qish, irodaviy akti idora qilish va shu kabilar).

2. O'qituvchining o'z-o'zini boshqarish (uyushtirish) hususiyati:

a) o'qituvchining darsga tayyorgarlik darajasi (materil mazmunining egallaganligi darsning psixologik maqsadini anglash, uni amalga oshirishga nisbatan ichki tayyorgarlik);

b) ta'limda o'qituvchining ishchanlik kayfiyati (faoliyatni amalga oshirishga shayligini, hafsalaliligi, tirishqoq qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga intilunchanligi, pedagogik topqirligi va hokazo);

c) o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) — nazokatlikning (takt) ko'rinish odoblari, odobliylilik yoki nazokatdan chetlashish lahzalari;

d) auditoriya yoki guruhdagi psixologik muhit (o'qituvchi qanday qilib talabalarining o'zaro samimiy, quvnoq, hamdardlikka moyil muloqot holatini (muomala) hamda ishchanlikning muayyan darajasini ushlab olish qobiliyati).

III. O'quvchilarning (talabalarining) faoliyatini tashkil etish:

1) o'qituvchi tafakkur bilan xayolning sermaxsul ishlashi uchun

qanday shart-sharoitlar yaratishi:

a) o'qituvchi qay yo'sinda o'rganilayotgan materiallarni talabalar tomonidan idrok qilishda tanlovchanlik, tushunganlik va yaxlitlik darajasiga o'qishganligi;

b) qanday dasturlar, qaysi shakldagi ko'rsatmalar foydalanilganligi (talabalarni undash, ularga ta'sir o'tkazish, ularni ishontirish va boshqalar);

c) o'qituvchi qanday qilib talabalar diqqatining barqarorligiga va uni muayyan ob'ektga to'rejaishiga o'qishganligi;

g) yangi bilimlarni egallash uchun, oldin o'zlashtirilgan bilimlarni talabalar xotirasida faollashtirish maqsadida qanday, ish formalari qo'llanilganligini (yakka holda so'rash, guruh bilan suhbatlashish, o'tgan mavzularni takrorlash bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish, muammoli vaziyatlarni yaratish va hokazo).

2. Yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida talabalarning xayolat (mnemik) va fikr yuritish (tafakkur) faoliyatini tashkil qilish va uyushtirish:

a) talabalarning bilimlari qanday darajada shakllanganligi (misol-hissiy tasavvurlar, tushunchalar, kashfiyot obrazlari umumlashmasi, simvolikalar, xossalar, formulalar chiqarish darajasida ekanligi va boshqalar);

b) o'qituvchi qaysi usul va uslub yordamida talabalar tafakkurining faolligiga hamda ustaligiga o'qishganligi (savollar sistemasi, muammoli vaziyatni yaratish, ortiqcha masalalar yechish, standart va nostandart topshiriqlar tavsiya qilish, ta'limda qidiruv - tadqiqot ishlarini tashkil qilish);

c) o'qituvchi talabalarda tushunishning qanday darajasiga (tasviriy, izohli, umumlashtiruvchi, baholash, muammoli vaziyat) o'qishganligi, shuning bilan birga qanday qilib ularda e'tiqod, va ideallar shakllanishiga rahbarlik qilganligi;

d) ta'limda ijodiy ishlarining qaysi turlari qo'llanilganligi va o'qituvchilar talabalar ijodiy xayoli hamda ijodiy tafakkurga etakchilik qilganligi.

IV. Ish (faoliyat) natijalarini mustahkamlash:

- 1) bilimlarni yangi sharoitga ko'chirishga o'rgatish;
- 2) malakalarni mashq qilish orqali shakllantirish;
- 3) interferentsiyadan talabalarni ogohlantirish va oldin o'zlashtirilgan malakalarni qaytadan jonlantirish;

4) talabalarda aqliy faoliyat usullarini tarkib toptirish.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Oliy ta'limdagi qiyinchiliklarning asosiy sabablari nimada? Misollar bilan sabablarni keltiring.

2. Talabalar oldida o'quv faoliyatining tarkibiy qismlari bilan bogliq muayyan qoidalarga rioya qilib xal etiladigan masalalar nimalar kiradi?

3. Talabalik davri shaxsning ijtimoiy va ixtisosiy jihatdan o'z - o'zini anglash, shakllanishi jarayoni bilan rivojlanishning boshqa bosqichidagi odamlarning xususiyatlaridan keskin farq qiladi deyдилar. O'z fikringizni bayon eting.

4. Talabalarni mustaqil bilim olishga, o'quv faoliyatini o'zi boshqarishga undaydigan asosiy sabablarni ko'rsating.

5. Talabalik davrining muhim xususiyati nimalardan iborat?

6. Turmush tajribasini ortib borishi natijasida talabalarda o'z - o'zini anglash xislati yuzaga keladi. Bu qanday xislat? Izohlab bering.

7. Talabalarning moddiy jihatdan ota-onalarga oliy o'quv yurti ma'muriyatiga bog'liqligi ijtimoiy qarama qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Bu qarama qarshiliklar nimalardan iborat?

8. Darsni psixologik tahlil qilishning asosiy maqsadi nimada? Misollar bilan izohlab bering.

9. Darsning tuzilishi va mazmuni qay yo'sinda rivojlantiruvchi ta'lim printsiplariga javob bera olishi lozim?

10. Talabalarning faoliyatini tashkil etishda nimalarga e'tibor berish lozim?

Testlar

1. Oliy ta'limdagi qiyinchiliklarning asosiy sabablari nimada? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) talabalar aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat;

b) talabalar o'quv faoliyatning to'g'ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat;

c) talabalar o'quv faoliyatning to'g'ri usullarini bilmasligi,

imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat;

d) talabalar o'quv faoliyatning to'g'ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuchlarini bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat.

2. Talabalar oldida o'quv faoliyatining tarkibiy qismlari bilan bogliq qaysi masalalar hal etiladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) qay yo'sinda auditoriyadan tashqari vaqtlarda mustaqil faoliyatning umumlashgan usullaridan foydalansa bo'ladi, ma'ruzada talabaning aqliy faoliyati uchun optimal shart sharoitlar qanday yaratiladi, amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasini qanday aniqlash va ifodalash mumkin, talabaning imtixon va sinovlarga tayyorgarlik saviyasini aniqlash imkoniyati bormi va hokazo;

b) qanday yo'l bilan auditoriyada to'g'ri o'qish va o'qitish mumkin, qay yo'sinda auditoriyadan tashqari vaqtlarda mustaqil faoliyatning umumlashgan usullaridan foydalansa bo'ladi, amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasini qanday aniqlash va ifodalash mumkin, talabaning imtixon va sinovlarga tayyorgarlik saviyasini aniqlash imkoniyati bormi va hokazo;

c) qanday yo'l bilan auditoriyada to'g'ri o'qish va o'qitish mumkin, qay yo'sinda auditoriyadan tashqari vaqtlarda mustaqil faoliyatning umumlashgan usullaridan foydalansa bo'ladi, ma'ruzada talabaning aqliy faoliyati uchun optimal shart sharoitlar qanday yaratiladi, amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasini qanday aniqlash va ifodalash mumkin, talabaning imtixon va sinovlarga tayyorgarlik saviyasini aniqlash imkoniyati bormi va hokazo;

d) qanday yo'l bilan auditoriyada to'g'ri o'qish va o'qitish mumkin, qay yo'sinda auditoriyadan tashqari vaqtlarda mustaqil faoliyatning umumlashgan usullaridan foydalansa bo'ladi, ma'ruzada talabaning aqliy faoliyati uchun optimal shart sharoitlar qanday yaratiladi, talabaning imtixon va sinovlarga tayyorgarlik saviyasini aniqlash imkoniyati bormi va hokazo;

3. Oliy maktab ta'limining o'ziga xos xususiyatlari qanday imkoniyatlarni beradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) shaxsiy turmush o'rnini egallash va takomillashtirish, ijtimoiy hayotda hukm surib kelayotgan boshqa guruhlar bilan (xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishish

imkoniyatini beradi;

b) takomillashtirish, ijtimoiy hayotda hukm surib kelayotgan boshqa guruhlar bilan (xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishish, muomala qilish ko'lamini kengaytirish imkoniyatini beradi;

c) shaxsiy turmush o'rnini egallash ijtimoiy hayotda hukm surib kelayotgan boshqa guruhlar bilan (xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishish, muomala qilish ko'lamini kengaytirish imkoniyatini beradi;

d) shaxsiy turmush o'rnini egallash va takomillashtirish, ijtimoiy hayotda hukm surib kelayotgan boshqa guruhlar bilan (xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishish, muomala qilish ko'lamini kengaytirish imkoniyatini beradi.

4. Mazkur jarayonning aniq ko'rsatkichlar sifatida nimalar muhim rol uynaydi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) o'rta ma'lumotlilik, jamoat topshirig'i, mehnat qilish, ijtimoiy tartib va qoidalar, huquqiy qonuniyatlar oldida javobgarlik hissi, mutaxassislik tuyg'usi, otalik yoki onalik burchining ularda tug'ilishi, ijtimoiy guruhlariga rahbarlik qilish mas'uliyati, sport bilan shug'ullanish istagi, turli xil to'garak faoliyatlarida qatnashish mayllari muhim rol uynaydi;

b) o'rta ma'lumotlilik, mehnat qilish, ijtimoiy tartib va qoidalar, huquqiy qonuniyatlar oldida javobgarlik hissi, mutaxassislik tuyg'usi, otalik yoki onalik burchining ularda tug'ilishi, ijtimoiy guruhlariga rahbarlik qilish mas'uliyati, sport bilan shug'ullanish istagi, turli xil to'garak faoliyatlarida qatnashish mayllari muhim rol uynaydi;

c) o'rta ma'lumotlilik, jamoat topshirig'i, ijtimoiy tartib va qoidalar, huquqiy qonuniyatlar oldida javobgarlik hissi, mutaxassislik tuyg'usi, otalik yoki onalik burchining ularda tug'ilishi, ijtimoiy guruhlariga rahbarlik qilish mas'uliyati, sport bilan shug'ullanish istagi, turli xil to'garak faoliyatlarida qatnashish mayllari muhim rol uynaydi;

d) o'rta ma'lumotlilik, jamoat topshirig'i, mehnat qilish, huquqiy qonuniyatlar oldida javobgarlik hissi, mutaxassislik tuyg'usi, otalik yoki onalik burchining ularda tug'ilishi, ijtimoiy guruhlariga rahbarlik qilish mas'uliyati, sport bilan shug'ullanish istagi, turli xil to'garak faoliyatlarida qatnashish mayllari muhim rol

uynaydi.

5. Mazkur yosh davrida yigitlar va qizlar o'z boshlaridan kechiradilar? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) o'ziga xos o'sish va hissiy tanglik holatlarini o'z boshlaridan kechiradilar;

b) o'ziga xos ruhiy inqiroz va hissiy tanglik holatlarini o'z boshlaridan kechiradilar;

c) o'ziga xos ruhiy inqiroz va o'zgarish holatlarini o'z boshlaridan kechiradilar;

d) o'ziga xos ruhiy inqiroz va rivojlanish holatlarini o'z boshlaridan kechiradilar.

6. O'spirinlarda, ruhiy dunyosining xususiyatlariga ko'ra, qanday imkoniyatlar ko'zga tashlanadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) ularda jismoniy, jinsiy, nafosat va g'oyaviy-siyosiy jihatdan muayyan bosqichga ko'tarilishi, ya'ni yetuklikka, kamolotning birinchi bosqichiga o'qish imkoniyati ko'zga tashlanadi;

b) ularda aqliy, axloqiy, nafosat va g'oyaviy-siyosiy jihatdan muayyan bosqichga ko'tarilishi, ya'ni yetuklikka, kamolotning birinchi bosqichiga o'qish imkoniyati ko'zga tashlanadi;

c) ularda jismoniy, jinsiy, aqliy, axloqiy, nafosat va g'oyaviy-siyosiy jihatdan muayyan bosqichga ko'tarilishi, ya'ni yetuklikka, kamolotning birinchi bosqichiga o'qish imkoniyati ko'zga tashlanadi;

d) ularda jismoniy, jinsiy, aqliy va g'oyaviy-siyosiy jihatdan muayyan bosqichga ko'tarilishi, ya'ni yetuklikka, kamolotning birinchi bosqichiga o'qish imkoniyati ko'zga tashlanadi.

7. Oliy maktab oldidagi bosh maqsad nimani shakllantirishdan iborat? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) o'quv dasturlarida nazarda tutilgan nazariy va amaliy bilimlar majmuasini o'zlashtirish, talabalarda oqilona, umumlashgan o'quv usullari, tafakkur operatsiyalari va mantiqiy vositalarni shakllantirishdan iboratdir;

b) o'quv dasturlarida nazarda tutilgan nazariy bilimlar majmuasini o'zlashtirish, talabalarda ularni mustaqil ravishda egallash uchun omilkor, oqilona, umumlashgan o'quv usullari, mantiqiy vositalarni shakllantirishdan iboratdir;

c) amaliy bilimlar majmuasini o'zlashtirish, talabalarda ularni

mustaqil ravishda egallash uchun omilkor, oqilona, umumlashgan o'quv usullari, tafakkur operatsiyalari va mantiqiy vositalarni shakllantirishdan iboratdir;

d) o'quv dasturlarida nazarda tutilgan nazariy va amaliy bilimlar majmuasini o'zlashtirish, talabalarda ularni mustaqil ravishda egallash uchun omilkor, oqilona, umumlashgan o'quv usullari, tafakkur operatsiyalari va mantiqiy vositalarni shakllantirishdan iboratdir.

8. Inson taraqqiyotining bu bosqichida talabalarda mustaqil qaror qabul qilish yuzasidan qaysi fazilatlari vujudga kela boshlaydi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) javobgarlik tuyg'usi, o'z - o'zini nazorat qilish, o'z - o'zini baholash, o'zini qo'lga olish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z o'zini takomillashtirish, o'z xulqi va faoliyatini o'zi idora qilishi, refleksini egallash kabi shaxsning muhim fazilatlari vujudga kela boshlaydi;

b) javobgarlik tuyg'usi, o'z - o'zini baholash, o'zini qo'lga olish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z o'zini takomillashtirish, o'z xulqi va faoliyatini o'zi idora qilishi, refleksini egallash kabi shaxsning muhim fazilatlari vujudga kela boshlaydi;

c) javobgarlik tuyg'usi, o'z - o'zini nazorat qilish, o'zini qo'lga olish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z o'zini takomillashtirish, o'z xulqi va faoliyatini o'zi idora qilishi, refleksini egallash kabi shaxsning muhim fazilatlari vujudga kela boshlaydi;

d) javobgarlik tuyg'usi, o'z - o'zini nazorat qilish, o'z - o'zini baholash, o'zini qo'lga olish, o'z o'zini takomillashtirish, o'z xulqi va faoliyatini o'zi idora qilishi, refleksini egallash kabi shaxsning muhim fazilatlari vujudga kela boshlaydi.

9. Darsni psixologik tahlil qilishning asosiy maqsadi nimalardan iborat? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) o'qitishda psixik moment (ruhiy lahzalar)ni qo'llashdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar, uning sababini aniqlash, shuningdek, o'qituvchi tomonidan ko'zlangan hamda tayyorlangan muvaffaqiyat garovini ajrata bilishdir;

b) o'qitishda psixik moment (ruhiy lahzalar)ni qo'llashdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar, uning sababini aniqlash, tasodifiy yutuqdan, shuningdek, o'qituvchi tomonidan ko'zlangan hamda tayyorlangan muvaffaqiyat garovini ajrata bilishdir;

c) o'qitishda psixik moment (ruhiy lahzalar)ni qo'llashdagi

muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar, tasodifiy yutuqdan, shuningdek, o'qituvchi tomonidan ko'zlangan hamda tayyorlangan muvaffaqiyat garovini ajrata bilishdir;

d) o'qitishda psixik moment (ruhiy lahzalar)ni qo'llashdagi muvaffaqiyatsizliklar, uning sababini aniqlash, tasodifiy yutuqdan, shuningdek, o'qituvchi tomonidan ko'zlangan hamda tayyorlangan muvaffaqiyat garovini ajrata bilishdir.

10. Ish (faoliyat) natijalarini mustahkamlash nimalardan iborat? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) bilimlarni yangi sharoitga ko'chirishga o'rgatish, malakalarni mashq qilish orqali shakllantirish, interferentsiyadan talabalarni ogohlantirish, talabalarda aqliy faoliyat usullarini tarkib toptirish;

b) bilimlarni yangi sharoitga ko'chirishga o'rgatish, malakalarni mashq qilish orqali shakllantirish, oldin o'zlashtirilgan malakalarni qaytadan jonlantirish, talabalarda aqliy faoliyat usullarini tarkib toptirish;

c) bilimlarni yangi sharoitga ko'chirishga o'rgatish, malakalarni mashq qilish orqali shakllantirish, interferentsiyadan talabalarni ogohlantirish va oldin o'zlashtirilgan malakalarni qaytadan jonlantirish, talabalarda aqliy faoliyat usullarini tarkib toptirish;

d) bilimlarni yangi sharoitga ko'chirishga o'rgatish, interferentsiyadan talabalarni ogohlantirish va oldin o'zlashtirilgan malakalarni qaytadan jonlantirish, talabalarda aqliy faoliyat usullarini tarkib toptirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psvcho.all.ru
7. www.psvchology.net.ru

MODUL VI. RIVOJLANTIRUVCHI O'QITISH.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: O'qitish psixologiyasi, o'rgatish modellari va tajribani o'zlashtirish mexanizmlarining tavsifi, turli o'qitish modellarining rivojlantirish imkoniyatlari, o'qitish texnologiyalarining psixologik tavsifi, sohaning kasb egasiga psixologik talablari va kasbiy faoliyatda psixologik bilimlarning ahamiyati, psixologiya fani haqida tushuncha, psixologiyaning fan sifatida rivojlanish bosqichlari, psixik hodisalarning asosiy shakllari, psixologiya fanining tarmoqlari, psixologiya fanining metodlariga oid ko'nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- **ta'limiy maqsad:** modulning optimal mazmuni, o'rganiladigan bilimlar ko'lami, shakllantiriladigan ko'nikma va malakalarni oldindan aniqlab qo'yish, talabalarga kasbiy faol psixologiyasi fani va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o'zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda fanning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** modul uchun ajratilgan vaqtdan ratsional foydalanish, talabalarining kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashi va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

6.1. O'qitish psixologiyasi. O'rgatish modellari va tajribani o'zlashtirish mexanizmlarining tavsifi.



Tayanch so'z va iboralar: O'qish motivlari, o'quv faoliyati mazmuni, salbiy motivatsiya, o'qishga nisbatan salbiy motivatsiya, ichki extiyoj, shakllanish imkoniyatini belgilash, undovchi motivlar, ko'zg'atuvchi yosh xususiyatlari, muomalaga kirishish, motivatsiya doirasining kengligi.

O'qish motivlari muammosini tadqiqot qilgan jaxon psixologlari ularni ikki kategoriyaga, yoki guruhga ajratib, tekshirishni lozim topadilar. Birinchi kategoriyaga taalluqli motivlar o'quv faoliyatining mazmuni, moxiyati hamda uning jarayonlari, sharoitlari bilan bevosita uyg'unlashgandir. Ikkinchi kategoriyaga

kiruvchi motivlar tizimi o'quvchilarning atrof - muxit bilan keng ko'lamdagi o'zaro munosabatlariga ularning begona, o'zga kishilar bilan muomalaga kirishish, extiyojiga, ijtimoiy turmush voqeliligiga nisbatan shaxsiy qarashiga bog'liqdir.

O'quv faoliyatining mazmuni bilan uzviy bog'liq motivlar tizimini shartli ravishda ikki guruhga ajratib, ularni ijobiy (musbat, pozitiv) va salbiy (manfiy, negativ) deb nomlash mumkin. Bunday atamalarni qo'llashdan asosiy maqsad maxalliy an'ana, ijtimoiy tajriba (stereotipizatsiya darajasidagi ta'sirchan kuchli tashqi omil), ekstremal xolat ta'sirida keskin ruxiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir. Odatda salbiy (negativ) motivatsiya shunday vaziyatda vujudga kelishi mumkinki, qachonki o'quvchi bilimlarni o'zlashtirmaslik oqibatida qanday ko'ngilsiz xolatlarga olib kelishini anglab yetsa (jazolanish, ota - onalar tanbexi, sinfdoshlar e'tirozi, yomon baho olish, jamoa a'zolari orasida obro'sizlanish va boshqalar) va ana shunga muvofiq sa'yi - xarakatlarni amalga oshirsa. Salbiy motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchi kamroq musibatli (mushkul axvol) yo'lni tanlab, ta'lim jarayonida qatnashishda davom etadi. Bunday o'qish motivatsiyasiga aloqador o'quvchilar yuqori ko'rsatkichlarga, muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar, chunki ishtiyocsiz darsga qatnashish tuyg'usi, bilim va o'quv predmetiga nisbatan qiziqishning mavjud emasligi bunga ma'noviy to'siq bo'lib xizmat qiladi. Buning natijasida o'zlashtirmovchi, bo'sh o'zlashtiruvchi, sust o'quvchilarning safi taboro kengayib boradi, bu narsa kundalik odatga aylana borsa, u stereotip darajasiga o'sib o'tishi mumkin. Mustaqil va muvaffaqiyatli o'qish esa, shaxsdan faol, qat'iy, ijodiy izlanishlarni takozo qiladi va shunga o'xshash talablarni o'zlashtiruvchi oldiga qo'yadi. Shaxsning mazkur xolatlarga tayyor emasligi, undagi imkoniyatlarning cheklanganligi sababli o'zlashtirmovchilar qatorini to'ldirishga, bir sinfdan yoki kursda ikki yil o'qishga olib keladi, usha qiyinchiliklar bilan o'z sinfi, kursini tamomlaydi. Bunday toifadagi o'quvchilar yoki talabalar o'quv faoliyati motivatsiyasini qayta ko'rish evaziga ijobiy natijalarga erishish mumkin.

O'quvchilar va talabalarda o'qishga nisbatan salbiy motivatsiya birdaniga vujudga kelmaydi, balki uni keltirib chiqaruvchi bir necha xususiyatli omillar ta'sir etishi extimol.

Xozirgi zamon psixologiya fani bilimlarni egallashga nisbatan ichki extiyojga katta ahamiyat beradi va bu bilan shaxs xulq - atvorini birmuncha boshqarish imkoniyati mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Shuning bilan birga o'quvchi (talaba) da barqaror bilishga qiziqishni shakllantirish muammosiga aloxida e'tibor qilinadi. Darhaqiqat barqaror bilishga qiziqishlar ko'zg'atuvchi turtki (kuch) sifatida o'quv motivlarini vujudga keltiradi, muvaffaqiyatli ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchi yoki talabada bilimlarning muayyan soxasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishning tug'ilishi ko'p jixatdan shaxsni qay tariqa shakllanish imkoniyatini belgilaydi.

Ana shu boisdan o'qituvchi o'z o'quv faniga nisbatan o'quvchi va talabalarda qiziqishni o'stirish tarafdori bo'lishi shart, chunki xuddi shuning negizida o'quv materiali va o'quv dasturini yuksak darajada o'zlashtirish muammosi yotadi. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, bilishga qiziqish motiv doirasida o'sadi, o'zaro ta'sir etadi, ular bilan uzviy bog'lanib ketadi.

Ma'lumki, o'quvchi (talaba) bilim dargoxida ilm olishdan tashqari tengdoshlari jamoasi ichiga kirib boradi va qatnashadi, shu boisdan unda o'z o'rtoqlari, o'qituvchilariga nisbatan muayyan munosabat shakli vujudga keladi. Uning o'quv faoliyatiga undovchi motivlari bilan bir qatorda boshqacha xususiyatli xulq - avtor motivlari ham mavjuddir, jumladan ijtimoiy motiv jamoa bilan bo'lish istagini anglatib, uning hayotida ishtiroq etish xoxishini o'zida aks ettiradi.

O'quvchi va talabalar o'quv faoliyatining ijtimoiy motivlari ularning boshqa odamlar bilan muomalaga kirishi ehtiyoji bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni baholash, quvvatlash, tengdoshlar jamoasida muayyan joy egallash singari talablarda o'z aksini topadi. Mazkur motivlar o'quv faoliyatining mohiyati bilan bog'liq bo'lmay, balki unga yondosh yordamchi faktorlarni bildiradi. Ammo ushbu motivlar o'quvchi va talaba o'qishiga jiddiy turtki vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy motivlarni taxlil qilishda davom etsak, ular bevosita jamoa burchi, qarindoshlar va yaqin kishilar oldidagi burch, o'qishni umuminsoniy madaniyat, qadriyat, ma'naviyatni egallash tasavvuri bilan bog'liq vosita, ushbu vosita odamlar foydali shaxs tariqasida namoyon bo'lish, o'z imkoniyatini ro'yobga chiqarish, ezgu niyatini ushalishiga intilish funksiyasini bajarish mumkin. Turtki, undovchi

usul vazifasini bajaruvchi ko'zg'atuvchi yosh xususiyatlari davriga qarab u yoki bu darajada aks etadi, ammo ular xar doim ham anglashilgan shaklga ega emas, shuning uchun ifodalanish darajasi nursizdir. O'smirlik va o'spirinlik davrlarida ijtimoiy motivlar anglashinilgan, ahamiyat kasb etuvchi bosqichga o'sib o'tadi. Bunday motivatsiyani xar tomonlama qo'llab quvvatlash, rag'batlantirish bilan birga va bir davrning o'zida bilishga qiziqishiga aloqador boshqa o'quv faoliyati motivlarini shakllantirish lozim.

Ijtimoiy motivlar o'quvchi va talabalarning tor ma'nodagi shaxsiy intilishlari bilan ham aloqador bo'lishi mumkin, jumladan, ularda o'qishga nisbatan qiziqish yuk bo'lsa - da, lekin barcha topshiriqlarni yuksak darajada bajaradi, chunki o'qituvchi ularning "a'lo" baholashi, sinf yoki kurs peshqadami qilib tayinlashi, xech qanday shubxa bilan qaramasligi, extimol o'quv jarayonidagi bunday xususiyatlar odamlarga shaxsiy muvaffaqiyat yoki yutuqqa erishishning, nufuz (obro' - e'tibor) ning, yalov - bardorlikning birdan - bir yo'li deb tasavvur qilinadi. Bunday yo'lni tanlash vijdonga hilof xatti-xarakatlarga olib boradi, shaxsni shakllanish jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Shu boisdan ijtimoiy deb qabul qilingan motivlar jamoa ehtiyojini qamrab oladi, goxo ular shaxsiyatparastlik, tor saviyali shaxs xususiyatini mujassamlashtiradi.

Ularning hayotida o'z tengdoshlari va do'stlari bilan muomalaga kirishish, do'stlikka sodiqlik, bergan va'dasi (so'zi) ni uddasidan chiqish, hamkor bo'lish ehtiyoji muxim o'rin egallaydi. O'qituvchi mashg'lotlarda o'quv faoliyatining zarur motivatsiyasini shakllantirsa, ularning mavjud ehtiyojlariga tayanib ish tutsa, o'quvchida bilishga qiziqish barqarorlashadi.

Shuning uchun qiziqish motiv, motivatsiya shaxsning xatti-xarakati ichki regulyatsiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojni qondirish, xoxish - istak, ezgu niyat, orzu tilakni amaliyotda ro'yobga chiqarishning bosh omili bo'lib xisoblanadi. Motiv va motivatsiya faqat bilimlarni o'zlashtirish, o'quv ko'nikmalari va malakalarini egallash bilan cheklanib qolmasdan, balki shaxsning xulq-atvori, ya'ni shaxsga oid xususiyatlarining namoyon bo'lishini ham izohlashga xizmat qiladi.

Hunar - texnika bilim yurti o'quvchilarining o'quv faoliyati
motivlari:

- 1) o'z ishining ustasi, yaxshi mutaxassis bo'lishga intilish;
- 2) o'qishga qiziqish;
- 3) mehnatga muxabbat;
- 4) jamiyatga foyda keltirish uchun intilish;
- 5) o'rtoqlari orasida xurmat - e'tiborga erishish xoxishi;
- 6) bilim yurtini tamomlagandan keyin durustroq maosh uchun xarakter;
- 7) yomon mehnat qilganda jazo olishdan qutilish uchun xarakter;
- 8) jamoa oldidagi javobgarlik.

Yuqoridagi keltirilgan o'quv motivlarini aniqlashga mo'ljallangan metodika sakkizta motivlardan tuzilgan bo'lib, hunar - texnika bilim yurti o'quvchilarining o'qish motivlarini tadqiq qilishga qaratilgandir. Ushbu metodikani maxalliy sharoitga moslashtirish natijasida motiv va motivatsiyalarning etnopsixologik jabxalari va xususiyatlarini o'rganish imkoniyatini vujudga keltiradi. Bundan tashqari, motivlar va motivatsiyalarning turli faoliyat doirasida yuzaga kelish omillarini hamda manbalarini aniqlashga qulay shart - sharoit yaratadi. Mazkur metodikani bir nechta vazifani bajarish niyatida qo'llab ko'rish, uning foydalanilmagan imkoniyatlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar beradi.

Motivlarning hilma-hil bo'lganligi, motivatsiya doirasining kengligi sababli ularning har ikkalasi ham hayot va faoliyatning juda ko'p qirralarida ishtiroq etadi, shuning bilan birga mazkur faoliyatning maxsuldorligi, samaradorligi, barqarorligi, uzluksizligini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda mehnat faoliyatiga oid motivlarning etnopsixologik xususiyatlarini topishga yordam beradi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1) O'qish motivlari muammosini tadqiqot qilgan jaxon psixologlari ularni ikki kategoriyaga yoki guruhga ajratib tekshirishni lozim topadilar. Bu qanday kategoriyalar?
- 2) O'quvchilar va talabalarda o'qishga nisbatan salbiy motivatsiya birdaniga vujudga keladimi?

3) O'qishga nisbatan saboq oluvchilar munosabatini aniqlashga xarakat qilgan o'qituvchi qanday o'zgarishlar yuz berayotganligini qayd qilishi mumkin?

4) Talabalar xulq - atvoridagi o'zgarishlarning qanday motivlari mavjud?

5) O'quv faoliyatining ijtimoiy motivlari ularning boshqa odamlar bilan muomalaga kirish extiyoji bilan uzviy bog'liq. Siz nima deb o'ylaysiz? O'z fikringizni to'liq bayon eting.

Testlar

1.O'qish motivlari muammosini tadqiqot qilgan jaxon psixologlari ularni nechta kategoriyaga, yoki guruhga ajratadilar?

- a) ikki kategoriyaga, yoki guruhga ajratadilar;
- b) uch kategoriyaga, yoki guruhga ajratadilar;
- c) to'rt kategoriyaga, yoki guruhga ajratadilar;
- d) besh kategoriyaga, yoki guruhga ajratadilar.

2.O'qish motivlari muammosini tadqiqot qilgan jaxon psixologlari ularni qaysi kategoriyaga, yoki guruhga ajratadilar? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) o'quv faoliyatining mazmuni, moxiyati hamda o'quvchilarning atrof - muxit bilan keng ko'lamdagi o'zaro munosabatlariga ularning begona, o'zga kishilar bilan muomalaga kirishish, extiyojiga, ijtimoiy turmush voqeliligiga nisbatan shaxsiy qarashiga bog'liqligi;

b) o'quv faoliyatining mazmuni, moxiyati hamda uning jarayonlari, sharoitlari bilan bevosita uyg'unlashganligi, o'quvchilarning atrof - muxit bilan keng ko'lamdagi o'zaro munosabatlariga ularning begona, o'zga kishilar bilan muomalaga kirishish, extiyojiga, ijtimoiy turmush voqeliligiga nisbatan shaxsiy qarashiga bog'liqligi;

c) o'quv faoliyatining mazmuni, moxiyati hamda uning jarayonlari, sharoitlari bilan bevosita uyg'unlashganligi, o'zga kishilar bilan muomalaga kirishish, extiyojiga, ijtimoiy turmush voqeliligiga nisbatan shaxsiy qarashiga bog'liqligi;

d) o'quv faoliyatining mazmuni, moxiyati hamda uning jarayonlari, sharoitlari bilan bevosita uyg'unlashganligi,

o'quvchilarning atrof - muxit bilan keng ko'lamdagi o'zaro munosabatlariga ularning begona, extiyojiga, ijtimoiy turmush voqeliligiga nisbatan shaxsiy qarashiga bog'liqligi.

3. O'quv faoliyatining mazmuni bilan uzviy bog'liq motivlar tizimini shartli ravishda nechta guruhga ajratish mumkin? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) besh guruhga ajratish mumkin;
- b) uch guruhga ajratish mumkin;
- c) ikki guruhga ajratish mumkin;
- d) to'rt guruhga ajratish mumkin.

4. O'quv faoliyatining mazmuni bilan uzviy bog'liq motivlar tizimini shartli ravishda qaysi guruhlariga ajratish mumkin? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) agressiv va salbiy;
- b) regressiv va salbiy;
- c) salbiy va pozitiv;
- d) ijobiy va salbiy.

5. "Ijobiy va salbiy" atamalarini qo'llashdan asosiy maqsad nimada? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) maxalliy an'ana, ijtimoiy tajriba, ekstremal xolat ta'sirida keskin ruxiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir;

b) maxalliy an'ana, ekstremal xolat ta'sirida keskin ruxiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir;

c) ijtimoiy tajriba, ekstremal xolat ta'sirida keskin ruxiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir;

d) maxalliy an'ana, ijtimoiy tajriba ta'sirida keskin ruxiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir;

6. Bilishga qiziqish qay darajada o'sadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) o'zaro ta'sir etadi, ular bilan uzviy bog'lanib ketadi;
- b) motiv doirasida o'sadi, o'zaro ta'sir etadi, ular bilan uzviy bog'lanib ketadi;
- c) motiv doirasida o'sadi, ular bilan uzviy bog'lanib ketadi;
- d) motiv doirasida o'sadi, o'zaro ta'sir etadi, ular bilan uzviy

bog'lanib ketmaydi.

7.Nima uchun o'qituvchi o'z o'quv faniga nisbatan talabalarda qiziqishni o'stirish tarafdori bo'lishi shart. To'liq va aniq javobni belgilang.

a) chunki xuddi shuning negizida o'quv materialini yuksak darajada o'zlashtirish muammosi yotadi;

b) chunki xuddi shuning negizida o'quv dasturini yuksak darajada o'zlashtirish muammosi yotadi;

c) chunki xuddi shuning negizida o'quv materiali va o'quv dasturini yuksak darajada o'zlashtirish muammosi yotadi;

d) chunki xuddi shuning negizida o'lashtirish muammosi yotadi.

8.Ijtimoiy motivlarning rivojlanishi nimalarga bog'liq? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) jamoa burchi, qarindoshlar va yaqin kishilar oldidagi burch, qadriyat, ma'naviyatni egallash tasavvuri bilan bog'liq;

b) jamoa burchi, o'qishni umuminsoniy madaniyat, qadriyat, ma'naviyatni egallash tasavvuri bilan bog'liq;

c) qarindoshlar va yaqin kishilar oldidagi burch, o'qishni umuminsoniy madaniyat, qadriyat, ma'naviyatni egallash tasavvuri bilan bog'liq;

d) jamoa burchi, qarindoshlar va yaqin kishilar oldidagi burch, o'qishni umuminsoniy madaniyat, qadriyat, ma'naviyatni egallash tasavvuri bilan bog'liq.

9.Hunar - texnika bilim yurti o'quvchilarining o'quv faoliyati motivlariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) o'z ishining ustasi, yaxshi mutaxassis bo'lishga intilish, o'qishga qiziqish, mehnatga muxabbat, jamiyatga foyda keltirish uchun intilish, o'rtoqlari orasida xurmat - e'tiborga erishish xoxishi, bilim yurtini tamomlagandan keyin durustroq maosh uchun xarakat, yomon mehnat qilganda jazo olishdan qutilish uchun xarakat, jamoa oldidagi javobgarlik;

b) o'z ishining ustasi, yaxshi mutaxassis bo'lishga intilish, o'qishga qiziqish, mehnatga muxabbat, o'rtoqlari orasida xurmat - e'tiborga erishish xoxishi, bilim yurtini tamomlagandan keyin durustroq maosh uchun xarakat, yomon mehnat qilganda jazo olishdan qutilish uchun xarakat, jamoa oldidagi javobgarlik;

c) o'z ishining ustasi, yaxshi mutaxassis bo'lishga intilish, o'qishga qiziqish, mehnatga muxabbat, jamiyatga foyda keltirish uchun intilish, bilim yurtini tamomlagandan keyin durustroq maosh uchun xarakter, yomon mehnat qilganda jazo olishdan qutilish uchun xarakter, jamoa oldidagi javobgarlik;

d) o'z ishining ustasi, yaxshi mutaxassis bo'lishga intilish, o'qishga qiziqish, mehnatga muxabbat, jamiyatga foyda keltirish uchun intilish, o'rtoqlari orasida xurmat - e'tiborga erishish xoxishi, yomon mehnat qilganda jazo olishdan qutilish uchun xarakter, jamoa oldidagi javobgarlik.

10. O'quv motivlarini aniqlashga mo'ljallangan metodika nechta motivlardan tuzilgan? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) to'qqizta motivlardan tuzilgan;
- b) sakkizta motivlardan tuzilgan;
- c) yettita motivlardan tuzilgan;
- d) oltita motivlardan tuzilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyat", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psycho.all.ru

6.2. O'qitishning turli modellarini rivojlantirish imkoniyatlari. O'qitish texnologiyalarining psixologik tavsifi.



Tayanch so'z va iboralar: O'ziga yarasha qiziqishlar, real o'quv imkoniyatlar, differensiallashgan ta'lim, talabalarning shaxsiy xususiyatlar, o'quv materiallarining xarakteri, talabalarning imkoniyatlarini o'rganish, uzluksiz ta'limni tashkil etish, yangi ta'lim tizimi, axborotning an'anaviy usullari, takomillashuvning asosiy yo'nalishlari, ta'lim samaradorligini oshirish, pedagogik texnologiya aspektlari, o'quv jarayonining qirralari, pedagogik texnologiya tarkibi.

Har bir talaba o'ziga yarasha qiziqishlari va shu bilan bir qatorda miqdori mavjud. Har bir talabaning o'ziga xos bo'lgan yutuqlari va shu bilan bir qatorda kamchiliklari ham bor. Agar pedagoglar o'quv jarayonida ana shu individual xususiyatlarni hisobga olmasalar har qancha unumli metodlardan foydalanmasinlar, o'quv jarayonida yaxshi natijalarga erisha olmaydilar. Chunki, ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabaning umumiy rivojini ta'minlash. Lekin, talabaning haqiqiy rivoji faqat uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Talabalarning real o'quv imkoniyatlarini, ularning rivojlanish jihatlarini o'rganish hozirgi vaqtda shunchaki xohish emas, balki majburiy talabdir. Busiz o'quv jarayonini muqobillashtirish, uni boyitish aqlga sig'maydi. Albatta, shaxsiy xususiyatlar juda xilma-xil va ularni o'rganish ma'lum vaqt talab etadi. Kuzatish jarayonida talabaning kuchli va o'jiz tomonlarini, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, hayoliga mos bo'lgan xususiyatlarini bilib olish mumkin. Talaba shaxsining muammolari va qiyinchiliklarini tahlil qilish hamda shu muammolarning sabablarini aniqlash keyingi pedagogik chora-tadbirlarni rejalashtirishda juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'zlashtirishi bir oz pastroq bo'lgan talabalar bilan yakka holda ishlash jarayonida pedagog o'zi uchun talabaning yangi qirralarini kashf etishga harakat qiladi. Keyingi davrlarda "differensiallashgan ta'lim" degan tushunchani keng tarqalishining asosiy sababi ham shaxsiy xususiyatlari, qobiliyati, qiziqishlari, iqtidori kabilarni hisobga olgan holda talabalarni guruhlariga ajratishni va shu guruhlar uchun alohida dasturlar ishlab chiqishga qaratilgan.

Guruhlar uchun tuzilgan dasturlar, qo'llaniladigan metodlar talabalarining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi. Didaktikada bu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda va bu ta'limning samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Ma'lum guruh uchun belgilangan o'quv materiallarining xarakteri, mazmuni va hajmi shu sinf talabalarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. O'rganilayotgan bilimlar, xosil qilinayotgan malaka va ko'nikmalar talabalarni xaddan ziyod toliqtirib qo'ymasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda, o'quv jarayoni talabalarining sog'ligi, psixik holatiga salbiy ta'sir etishini oldini olishi lozim. Buning uchun har bir yosh xususiyatlarini chuqurroq o'rganib, imkoniyatlar darajasini belgilab olish kerak. Ta'limning mazmuni shaxslarning kuch-quvvatiga mos bo'lishiga erishish lozim. Ta'limni haddan ziyod "yengillashtirish", "osonlashtirish" ham maqsadga muvofiq emas, chunki bunday ta'lim rivojlantiruvchi bo'la olmaydi. Demak har bir yosh davrida talabalarining imkoniyatlarini o'rganish va imkoniyatlarga mos ravishda ta'limni tashkil etish, o'rganiladigan bilimlar hajmini belgilashda talabalarining yosh xususiyatlarini hisobga olish juda muhim bo'lib, bu yo'nalishda ham tegishli ilmiy-tekshirish ishlari olib borilmoqda.

Hozir kunda O'zbekistonda ta'lim tizimini yangilash, mukammallashtirish borasida bir talay ishlar olib borilmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, o'quv tarbiya jarayonining hamma bosqichlarini mukammallashtirish, har tomonlama yetuk barkamol avlodni yetishtirish uchun shart-sharoit yaratish masalalari ko'rib chiqilgan. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari (prinsiplari) belgilangan. Bular ta'limning ustivorligi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'nalganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilardir. Ko'rib turganimizdek uzluksiz ta'limni rivojlantirish tamoyillari didaktik tamoyillar bilan hamoxang bo'lib, ana shu didaktik tamoyillarni yanada mukammallashuviga turtki bo'lib xizmat qilmokda.

Demak, bugungi kun talabalarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogika va uning ajralmas qismi hisoblanmish didaktika

o'quv jarayoni qonuniyatlarini yanada chuqurroq o'rganishi hamda ta'lim samaradorligini oshirish ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini keng miqyosda olib borishi maqsadga muvofiq.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarimoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o'rnatilmoqda.

Ta'lim tarkibi yangi protsessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy yechimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Axborotning an'anaviy usullari-og'zaki va yozma nutq telefon va global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda.

Pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib talaba bilan pedagogning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Pedagogik ta'lim texnologiyalarining psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1) yodlashdan, eslab qolish funksiyasiga o'tish, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tish;

2) bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish;

3) o'rtacha talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning differensiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;

4) talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishiga o'tish.

Ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishi ishlatilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllari (qo'shimcha va alternativ) ning aprotatsiyasi, hozirgi zamon sharoitida o'tmishning

pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi. Bunday sharoitda pedagog, boshqaruvchi keng ko'lamlı zamonaviy innovatsion texnologiyalar, g'oyalari, o'quv muassasasiları yo'nalishlarida ma'lum bo'lgan narsalarnı qayta ochishga vaqtini sarflash kerak emas.

Bugungi kunda savodli mutaxassis bo'lish uchun ta'lim texnologiyalarning hammasini o'rganish lozim.

Hozirgi vaqtda pedagogik lug'atda pedagogika tushunchasi mustahkam o'rnashgan. Lekin uni tushunish va ishlatishda turli xil o'qilishi mumkin.

Texnologiya-bu bir ishda, mahorat va san'at, qo'llaniladigan usullar yig'indisidan iborat.

Pedagogik texnologiya-ta'lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalarning majmuidir.

Pedagogik texnologiya aspektlari.

Pedagogik texnologiya tushunchasi 3 aspektda namoyon bo'lishi mumkin:

1.Ilmıy aspekt-pedagogik texnologiya pedagogik fanning qismi sifatida ta'lim uslublari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqadi va o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi.

2.Protsessual-tavsifiy aspekt - ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib, uslub va vositalar majmuidir.

3.Protsessual-amaliy aspekt - pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalarga amal qilish.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya fan sifatida amal qilib, ta'limning yanada ratsional yo'llarini tadqiq etadi.

Bu esa, ta'limda qo'llaniladigan usullar, tamoyillar va regulativlar tizimi sifatida hamda ta'limning real jarayoni sifatida bajaradi.

Pedagogik texnologiya paydo bo'lgunga qadar ta'lim tizimi doirasida ta'lim jarayonini yetarli samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga kafolatiga erishishda o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik

yondashuv, eng avvalo, yuzalikda emas, balki rejalashtirilgan natijasini olish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarini tashhisli tekshirish, ta'limni alohida o'rgatuvchi qismlarga bo'lib tashlash o'quv jarayonining qirralarini bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga birlashtirish imkonini beradi. U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi.

- * ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- * tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- * pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash;
- * bajariladigan o'quv ishlarning majmuasi;
- * natijani baholash.


Bundan ko'rinadiki, o'quv jarayoni «modulli» ko'rinishga kelib, turli mazmun bilan to'ldirilgan, umumiy tizimga mos holda ishlab chiqariladigan bloklar qismlardan iborat.

O'quv jarayoni pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirishda pedagogdan yuksak malaka talab etadi, materiallar tayyor bo'lgach, pedagog asosan tashkiliy va konsultativ vazifalarni bajaradi. Umumiy ko'rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

fanning identifikatsiyalashgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish;

- o'quv maqsadli shajarasi;
- o'quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullari;
- erishilgan o'quv maqsadlarini baholash.

Bu tarkibiy qismlarning har biri ma'lum yo'nalishdagi pedagogik operatsiyalar tizimini tashkil etadi. (Sxemaga qarang)



Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muxim talablardan biri ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni xosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma xamda malakalar darajasini baxolash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat xamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz

Bahsning samarali bo'lishi, eng avvalo, bahslashuvchilarning bir-birlariga nisbatan fazoviy joylashuvlariga bog'liq. Tinglovchi va muzokarada qatnashuvchilarning fazoviy joylashuvlari va ularning psixologik mavqelarining mohiyati muhim bo'lganligi bois biz ushbu xolatlarni keltiramiz:

- Sinf sharoiti. Bu - an'anaviy dars o'tkazish shakli bo'lib, tinglovchilar bir-birlarining yuzlarini ko'rish imkoniyati cheklangan va doska oldidagi o'qituvchiga va u bayon etayotgan mazmunga nisbatan tinglovchilarning mavqelari, mas'uliyati turlicha. Bu sharoitda bahs o'tkazish mumkin emas. Chunki, sinfdan oxirgi qatorda o'tirgan bola bilan birinchi qatorda o'tirganning darsga munosabati keskin farq qiladi. Tinglovchining psixologik mavqei - **«Men» - o'yindan tashqarida»**.

- **«Men» - o'yinda»** deb ataluvchi holat: tinglovchilar doira shaklidagi stol atrofida joylashadilar va o'rtaga tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr almashish, hattoki, ayrim ijtimoiy rollarga ham kirish imkoniyatiga ega bo'ladi, hatto boshlovchi ham «qatorda» o'tiradi. «Ishchanlik o'yinlar» va boshqa rolli o'yinlar ana shunday sharoitda o'tkazilishi mumkin.

- **«Men»- munozarada»** deb ataluvchi bu holat ayni bahs - munozaralar o'tkazish uchun qulay, chunki unda shaxs o'z fikrini dadil aytish uchun imkoniyatni his qiladi. Odatda bunday bahslar to'rtburchak stol atrofida uyushtiriladi.

• **«Men» - hamkorlikdaman»** degan bu holat kattaroq guruhlar tarkibida tashkil etiladi. Munozara a'zolari to'rt-besh kishidan iborat bo'lib, alohida stollar atrofida o'tirib, har bir guruh o'z qarorini chiqaradi. «Munozara klublari» faoliyati shu tarzda tashkil etiladi.

Bu keltirilgan har bir xolat baxs qatnashuvchilarida o'ziga xos ruhiy tayyorgarlik va mas'uliyat xissini keltirib chiqaradi.

Demak, dars mobaynida o'qituvchi mavzuning xarakteri va u shakllantirish lozim bo'lgan bilim, malaka va fazilatlariga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi va shundan keyingina mashg'ulotni boshlashi kerak. Ko'rinib turibdiki, an'anaviy sinfda tashkil etiladigan mashg'ulotlarning samaradorligi deyarli yo'q, chunki ular oldingi qatorlarda o'tirgan tinglovchilarning faolligigagina yo'naltirilgan, qolganlar «o'yindan tashqari» holatda, bu narsa ularning dars mazmuniga munosabatlarida bevosita aks etadi.

Kichik, tor doiralardagi kompakt guruhlarda uyushtirilgan munozaralarning **erkin mavzuli, yo'naltirilgan va aniq ssenariyli disput** turlari mavjud bo'lib, bu tanlangan mavzuga va munozara guruhlarining muloqot tajribasiga bog'liqdir («disput» so'zining lug'aviy ma'nosi - «fikrlayapman», «tortishayapman», degan ma'noni bildiradi). Kichik guruhda olib boriladigan munozaralarda asosiy narsa - guruh a'zolarining tanlangan mavzu xususiyatiga qarab, har birining o'z fikr mulohazalarini oxirigacha bayon etish imkoniyatlarining borligidir. Bunday guruhda boshlovchi ham qatorda o'tirib, mavzuning yechimini batamom hal bo'lmaguncha faol muloqotlarning ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Lekin asosiy rol guruhning a'zolariga yuklanganligini va bevosita ajralib chiqqan norasmiy lider asosiy bahs yurituvchi bo'lishi mumkinligini unutmashligi zarur. Bunday guruhlar turli sharoitda ko'pincha bahs ishtirokchilari uchun tabiiy sharoitlarda (masalan, sinfda, talabalar auditoriyalarida, ish xonalarida va b.k.) o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar baxlashuvchilar guruhi odatdagidan kattaroq hajmda (masalan, 30 kishigacha) bo'lsa, unda munozarani uyushtirishning o'ziga xos tomoni bor. Bu xolda bahs guruhi shartli ravishda uchga bo'linadi. Birinchi guruh - **«fikrlarni jamlovchilar» - generatorlar** guruhi deyiladi; ikkinchisi - **«tanqidchilar»** va uchinchi guruh - **«fikrlarni tezlatuvchilar» - katalizatorlar»** deb ataladi. Har bir

ajralgan guruhning o'ziga xos funksiyalari bor: «generatorlar» o'rtaga tashlagan muammo yoki bahs mavzusi bo'yicha o'zlaridagi barcha fikrlarni o'rtaga xolis tashlaydilar. Guruh a'zolaridan biri - lider - ularni jamlab, fikrlar ikkiga bo'lingan taqdirda ham ularni umumlashtirib bayon etadi. So'ngra o'yinga «tanqidchilar» kirishadi. Ularning vazifasi - eshitgan fikrlariga tanqidiy munosabat bildirish, ya'ni tanqidiy nuqtai nazardan ular ichidagi «mag'zini» va «puchak» fikrlarni saralash. Shundan keyin vaziyatga qarab, yana so'z «generatorlar»ga yoki «katalizatorlar»ga berilishi mumkin. Bildirilgan fikr va takliflarda mabodo hisobga olinmay qolgan jihatlar yoki noo'rin fikr bo'lsa, yoki mohiyatan shu mavzuga aloqador bo'lgan, lekin ikkala tomon hisobga olmagan biror jihat aniqlansa, tomonlar diqqatini aynan shunga qaratishi kerak. So'ngra «tezlatuvchilar» bahsni davom ettirishga ruhsat berib, agar uni yakun qilish taqozo qilinsa, ikkala guruhning o'yiniga xolis baho bergan xolda munozarani to'xtatishi mumkin. Ular ko'pincha ikkala guruh uchun xolis arbitrorlar - «hakamlar» rolini o'ynaydilar.

Maktabda bir sinf doirasida yoki talabalar guruhida axloqiy-ma'naviy mavzuda bahs uyushtirganda, yuqoridagi usulni qo'llash imkoniyati bo'lsa, suhbatdoshlarning *uchburchak shakldagi berk stol* atrofiga o'tirishlari mumkin. Demak, bahslashuvchilarning joylashishlari ham bu o'rinda ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Katta guruhlarda bahs yoki munozara uyushtirilganda, boshlovchining roli ayniqsa kattadir. Chunki u har bir guruhdagi tortishuvlar va fikr almashinuvlarning boshida turmog'i kerak bo'lsa, ular faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirib turmog'i lozim. Kichik guruhdagidan farqli ularoq, katta guruhlarda boshlovchi u yoki bu ichki guruhga yon bosmasligi, yoki ularni o'zining shaxsiy fikriga majburan ergashtirmasligi kerak. Aks xolda, u o'zining faoliyati bilan boshqalar tashabbusiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va bahsning yo'nalishini buzib qo'yishi mumkin. Shuning uchun katta guruhlar uyushtiriladigan munozaraning mavzusi oldindan tanlangan va unga boshlovchi ma'lum ma'noda tayyor bo'lishi shart.

Munozaralar yuritishning yana bir shakli borki, uning nomini rus tilida «Mozgovaya ataka», inglizchasiga «Brain storming» deb ataladi. Bizning tilimizda bu tushunchaning aniq analogik tarjimai yo'q, lekin uni «Miyaga xujum» yoki «Fikrlar to'qnashuvi», «Fikrlar

jangi maydoni» deb atash mumkin. Metodning psixologik mohiyati shundaki, oddiy munozarada bahslashuvchilar ko'proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar. Bunda esa, bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr qo'yilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa», lekin navbatma-navbat aytish imkoniyati beriladi. Bu narsa ko'proq muammo ancha notanish, savol murakkab, yoki noaniq bo'lgan sharoitlarda qo'l keladi. Ya'ni, bunda «erkin assotsiatsiyalar»ga imkon beriladi va oxir oqibat guruhning o'zi ma'lum ratsional «mag'izni» ajratib oladi.

Bu usulni birinchi marta amerikalik olim A.Osborn 30-yillardayoq taklif etgan va bu usul yordamida yirik loyihalarni rejalashtirish va oldindan uning natijalarini bashorat qilishda ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritgan edi. Lekin keyinchalik mutaxassislar uni faqat nostandart, o'ziga xos yechimi bo'lgan vazifalarni muhokama qilgandagina qo'llash mumkin, degan fikrni bildira boshladilar. Biroq to'g'ri tashkil etilgan breyshtormingning amaliy afzalliklari ko'p. Faqat bunda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1) jumlar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas;

2) har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan xolidir;

3) mantiqiy fikrlardan ko'ra, fantastik yoki qo'qqisdan, tasodifan miyada paydo bo'lgan fikr muhimroq;

4) fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi;

5) bildirilgan fikr yoki g'oyalari u yoki bu ishtirokchilik, deb ajratilmaydi, ya'ni ular - muallifsizdir;

6) fikr yoki yaxshi g'oyalarni tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi ta'kidlangan guruh katta bo'lgan sharoitda bahs uyushtirishda ham generator, ya'ni fikrlarni birlamchi jamlovchilarga ushbu usulda ishlashga imkon berish tajribada yaxshi natija beradi. Chunki o'tkazilgan tekshiruvlar va ko'plab sinov mashg'ulotlarining ko'rsatishicha, aynan shu guruhda breyshtorming usulining qo'llanilishi turli-tuman va qarama-qarshi fikrlarning bayon etilishiga sharoit yaratadi. Aks xolda muhim muammolar bo'yicha munozarani boshlash va unda fikrlar rang-barangligiga erishish juda qiyin bo'ladi. Bu usul ayniqsa, kattalar

auditoriyasida juda yaxshi samara beradi.

Bahsda ishtirok etish va undan manfaatdorlik hissi har bir ishtirokchida shakllanishi shart va bunda boshlovchi - o'qituvchining roli katta. Amaliy mashg'ulotlarning bahs-munozara shaklida o'tkazilishi bolalarga oldindan aytilishi va ularning tayyorgarlik ko'rishlari uchun savollar berilib qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Bahs ishtirokchilari hayajonlanmasliklari uchun mashg'ulot boshlanishidan avval ularning o'zlarini erkin tutishlari uchun ayrim **yengillashtiruvchi mashqlar**, boshqacha qilib aytganda, **psixogimnastik mashqlar** o'tkazish tavsiya etiladi. Masalan, ana shu maqsadda o'tkaziladigan psixogimnastik mashqlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) o'qituvchi guruhni aylana shaklida turishlarini so'raydi va a'zolari navbatma-navbat o'rtaga chiqib, guruh bilan xohlagan tarzda, lekin samimiy salomlashishni so'raydi. Keyin guruhdan kimning salomi ko'proq yoqqanini so'raydi;

2) guruh a'zolari o'qituvchi atrofida yarim aylana shaklida turishadi. Navbat bilan guruh a'zolari o'rtaga chiqib, xoxlagan a'zo bilan so'zsiz, lekin ochiq yuz bilan mimika vositasida salomlashish va biror fikrni bildirishi so'raladi;

3) hamma doira shaklida o'tiradi va o'qituvchi olib kelgan koptok navbat bilan muloqot katnashchilariga otiladi, faqat kimga otilsa, o'sha odamning kuchli, yaxshi bir sifati aytilib, so'ngra yana otiladi. O'qituvchi koptokning albatta har bir kishiga tegishini nazorat qiladi.

Bu kabi mashqlar munozara qatnashchilari o'rtasida o'zaro tanglikning bo'lmasligi va o'z fikrini bayon etayotganda o'qituvchidan tortinmasligi uchun o'ziga xos trening hisoblanadi.

O'qituvchi munozarani boshlar ekan, ishtirokchilar ongiga quyidagilarni yetkaza olishi kerak:

a) mashg'ulot har bir ishtirokchiga albatta foydali bo'ladi va ular bir-birlariga yordam berish uchun kelganlar;

b) munozara o'zaro muloqotning bir shakli bo'lib, har bir ishtirokchi bir-biriga ochiq va samimiy munosabatda bo'lsin;

c)munozara ishtirokchilarining o'zaro tajribalarini almashinishlari uchun qulay sharoitdir;

d)fikir bayon etishda kerak bo'lsa tavakkal qilaylik, lekin indamaslik shiorimiz bo'lmasin;

e) munozara paytida ko'p yozish shart emas;

f) agar biror narsa tushunarli bo'lmasa, uni so'rashdan tortinmang;

g) bilgan bilimlarimizni bir-birimizdan ayamaymiz, chunki boshqalar ham bundan manfaatdor bo'lsinlar, «yashiringan bilim - bilim emas» ligini unutmaylik!

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish imkoniyatlari, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishi qo'llanilmoqda. Zamonaviy texnologik mutaxassis bo'lish uchun ta'lim texnologiyalarining barchasini, shu jumladan pedagogik komponentlarini chuqur o'rganib, tahlil qilish lozim.

Pedagogik lug'atda pedagogik texnologiya tushunchasiga turli xil yo'llar bilan yondashilgan, shuning uchun bizning tushunchada pedagogik texnologiyalar har xil mualliflarning ta'riflarini umumlashtiruvchi sermazmun yig'imdir. Pedagogik texnologiya ko'proq sifatli natijaga erishishga qaratilgan. qo'llanadigan pedagogik texnologiya natijasi esa, birinchi navbatda, pedagogning mahoratiga, pedagogik klassifikatsiya turlaridan mohir foydalana olishiga, ilmiy-kasbiy tajribasiga, shaxsiy xususiyat hamda insoniy fazilatlariga bog'liq.

Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy psixologik shartlari, o'quv faoliyatini samarali bo'lishi uchun faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etish usullarini bilish muhim bo'lib, yangi pedagogik va didaktik texnologiyalarni joriy etishning o'z psixologik qonuniyatlari mavjud. Dars mobaynida munozara, breynshtorming va treninglarni o'tkazish, dars samarasini oshiradi. Har qanday muammoni yechish uchun qo'llash mumkin bo'lgan bahs turlari va asosan yozma bahsni o'tkazish qoidalari bor. "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"da o'qitishning yangi texnologiyalari va o'qituvchi-pedagog- psixologlarga qo'yilgan yangi talablar ham ta'lim sifatini oshirishga, ham o'qituvchining kasb mahoratini yuksak bo'lishiga xizmat qiladi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Talabaning haqiqiy rivoji faqat uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holdagina amalga oshirilishi mumkin, deyдилar. Siz nima deb o'ylaysiz? O'z fikringizni bayon eting.

2. Talaba shaxsining muammolari va qiyinchiliklarini tahlil qilish hamda shu muammolarning sabablarini aniqlash keyingi pedagogik chora-tadbirlarni rejalashtirishda juda katta ahamiyatga ega, deyдилar. Siz nima deb o'ylaysiz? O'z fikringizni bayon eting.

3. Hozir kunda O'zbekistonda ta'lim tizimini yangilash, mukammallashtirish borasida qanday ishlar olib borilmoqda? Misollar keltiring.

4. Bugungi kun talablarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda qanday ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir?

5. Pedagogik ta'lim texnologiyalarining psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari nimalar bilan ifodalanadi?

6. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

7. Ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga birlashtirish imkonini beradi. U asosan o'z ichiga nimalarni oladi?

8. Umumiy ko'rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga nimalar kiradi?

9. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muxim talablardan biri ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Sizning fikringiz qanday? O'z fikringizni bayon eting.

10. To'g'ri tashkil etilgan breyshtormingning amaliy afzalliklari ko'p. Faqat bunda qaysi qoidalarga rioya qilish kerak?

Testlar

1. Ta'limning asosiy vazifalaridan biri nima?

- a) talabani umumiy rivojini ta'minlash;
- b) talabani dam olishini ta'minlash;
- c) talabani ruhiy holatini ta'minlash;
- d) talabani aniq rivojini ta'minlash.

2. Kuzatish jarayonida talabani kuchli va ojiz tomonlarini aniqlashda qaysi xususiyatlarini bilib olish mumkin? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) qiziqishlari, tafakkuri, diqqati, hayoliga mos bo'lgan xususiyatlarini bilib olish mumkin;
- b) qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, hayoliga mos bo'lgan xususiyatlarini bilib olish mumkin;
- c) qiziqishlari, nutqi, xotirasi, diqqati, hayoliga mos bo'lgan xususiyatlarini bilib olish mumkin;
- d) qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasiga mos bo'lgan xususiyatlarini bilib olish mumkin.

3. Uzlüksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari belgilab bering. To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) ta'limning ustivorligi, ta'limning milliy yo'nalganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- b) ta'limning ustivorligi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- c) ta'limning ustivorligi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'nalganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- d) ta'limning ustivorligi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'nalganligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

4. Hozirgi paytda ta'lim tarkibi nimalar bilan bilan boyitilmoqda? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) yangi protsessual mahoratlar, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy yechimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda;
- b) axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy yechimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda;

c) yangi protsessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, bozor amaliyotining ijodiy yechimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda;

d) yangi protsessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy yechimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

5. Axborotning an'anaviy usullari nimalar bilan almashtirilmoqda? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) og'zaki va yozma nutq telefon va global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda;

b) og'zaki va yozma nutq global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda;

c) og'zaki va yozma nutq telefon va telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda;

d) og'zaki telefon va global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda.

6. Pedagogik ta'lim texnologiyalarining psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari nimalar bilan ifodalanadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) yodlashdan, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tish, bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish, o'rtacha talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning differensiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish, talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishiga o'tish;

b) yodlashdan, eslab qolish funksiyasiga o'tish, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tish, bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish, o'rtacha talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning differensiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish, talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishiga o'tish;

c) yodlashdan, eslab qolish funksiyasiga o'tish, bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish, o'rtacha talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning differensiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish,

talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishiga o'tish;

d) yodlashdan, eslab qolish funksiyasiga o'tish, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tish, o'rtacha talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning differensiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish, talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishiga o'tish.

7. Texnologiya deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) bu bir ishda, qo'llaniladigan usullar yig'indisidan iborat;

b) bu bir ishda, mahorat va san'at yig'indisidan iborat;

c) bu bir ishda, mahorat va san'at, qo'llaniladigan usullar yig'indisidan iborat;

d) mahorat va san'at, qo'llaniladigan usullar yig'indisidan iborat.

8. Pedagogik texnologiya deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) ta'lim shakli, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalarning majmuidir;

b) ta'lim uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalarning majmuidir;

c) ta'lim shakli, usuli, usulbarining maxsus yig'ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalarning majmuidir;

d) ta'lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalarning majmuidir.

9. Pedagogik texnologiya tushunchasi nechta aspektda namoyon bo'lishi mumkin?

a) 3 aspektda namoyon bo'lishi mumkin;

b) 4 aspektda namoyon bo'lishi mumkin;

c) 5 aspektda namoyon bo'lishi mumkin;

d) 6 aspektda namoyon bo'lishi mumkin.

10. Pedagogik texnologiya tushunchasi qaysi aspektlarda namoyon bo'lishi mumkin? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) protsessual-tavsifiy aspekt, protsessual-amaliy aspektda;

b) ilmiy aspekt, protsessual-tavsifiy aspekt, protsessual-amaliy aspektda;

c) ilmiy aspekt, protsessual-amaliy aspektda;

d) ilmiy aspekt, protsessual-tavsifiy aspektda.

11. Ilmiy aspekt deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) pedagogik texnologiya pedagogik fanning qismi sifatida ta'lim tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqadi va o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi;

b) pedagogik texnologiya pedagogik fanning qismi sifatida ta'lim uslublari va maqsadlarini ishlab chiqadi va o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi;

c) pedagogik texnologiya pedagogik fanning qismi sifatida ta'lim uslublari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqadi va o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi;

d) pedagogik texnologiya pedagogik fanning qismi sifatida ta'lim uslublari va tarkibini ishlab chiqadi va o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi.

12. Protsessual-tavsifiy aspekt deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, tarkib, uslub va vositalar majmuidir;

b) ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, uslub va vositalar majmuidir;

c) ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib va vositalar majmuidir;

d) ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib, uslub va vositalar majmuidir.

13. Protsessual-amaliy aspekt deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalarga amal qilish;

b) pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik instrumental vositalarga amal qilish;

c) pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy) vositalarga amal qilish;

d) pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshmasdan barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalarga amal qilish.

14. Ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga birlashtirish o'z ichiga nimalarni oladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish,

pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash, bajariladigan o'quv ishlarning majmuasi, natijani baholash;

b) ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi, tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish, pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash, bajariladigan o'quv ishlarning majmuasi, natijani baholash;

c) ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi, pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash, bajariladigan o'quv ishlarning majmuasi, natijani baholash;

d) ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi, tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish, bajariladigan o'quv ishlarning majmuasi, natijani baholash.

15. Umumiy ko'rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) fanning identifikatsiyalashgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish, o'quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga aylantirish, maqsadga erishish usullari, erishilgan o'quv maqsadlarini baholash;

b) fanning identifikatsiyalashgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish, o'quv maqsadli shajarasi, maqsadga erishish usullari, erishilgan o'quv maqsadlarini baholash;

c) fanning identifikatsiyalashgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish, o'quv maqsadli shajarasi, o'quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga aylantirish, maqsadga erishish usullari, erishilgan o'quv maqsadlarini baholash;

d) fanning identifikatsiyalashgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish, o'quv maqsadli shajarasi, o'quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga aylantirish, erishilgan o'quv maqsadlarini baholash.

16. Breyshtormingni to'g'ri tashkil etishda qaysi qoidalarga rioya qilish kerak? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) jumlar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas, mantiqiy fikrlardan ko'ra, fantastik yoki qo'qqisdan, tasodifan miyada paydo bo'lgan fikr muhimroq, fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi, bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu ishtirokchiliki, deb ajratilmaydi, ya'ni ular - muallifsizdir, fikr yoki yaxshi g'oyalarni tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi;

b) jumlar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas, har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas,

ya'ni fikrlar tanqiddan xolidir, fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi, bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu ishtirokchiliki, deb ajratilmaydi, ya'ni ular - muallifsizdir, fikr yoki yaxshi g'oyalarni tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi;

c) jumlar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas, har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan xolidir, mantiqiy fikrlardan ko'ra, fantastik yoki qo'qqisdan, tasodifan miyada paydo bo'lgan fikr muhimroq, fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi, fikr yoki yaxshi g'oyalarni tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi;

d) jumlar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas, har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan xolidir, mantiqiy fikrlardan ko'ra, fantastik yoki qo'qqisdan, tasodifan miyada paydo bo'lgan fikr muhimroq, fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi, bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu ishtirokchiliki, deb ajratilmaydi, ya'ni ular - muallifsizdir, fikr yoki yaxshi g'oyalarni tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voriz nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psycho.all.ru
7. www.psychology.net.ru

MODUL VII. TARBIYA PSIXOLOGIYASI.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: Xulq-atvor va odatni shakllantirish - shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida, shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlar, tarbiyasi "qiyin" bolalar psixologiyasi ga oid ko'nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- **ta'limiy maqsad:** talabalarga modul va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, modulga oid tushunchalarni o'zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda modulning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashi va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

7.1.Xulq-atvor va odatni shakllantirish - shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida.



Tayanch so'z va iboralar: Tarbiya psixologiyasi, qonunlarni yaxshi o'zlashtirgan mutaxassis, ijtimoiy omillar, psixik xususiyatlar, differentsiatsiya hodisasi, munosabatga hamda aloqaga kirishish, dinamik xususiyatlar, individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyoti, shaxsning xususiyatlari, qoyaviy e'tiqod, xalq urf-odatlar, an'analari va marosimlari, tarbiya jarayonining texnologiyasi.

"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarayapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Тарбия, тарбия ва фақат тарбия ҳисобидан", дея таъкидлади Президентимиз Ш.М.Мирзиёев.

Tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi, tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir.

Tarbiya - bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev "Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas" deb ta'kidlaganlar.

«Ta'lim to'grisida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bugungi kunda shaxs tarbiyasiga jiddiy e'tiborni qaratmoqda.

Tasavvur qiling: ilmi, katta ixtirolarga qurbi yetadigan, qonunlarni yaxshi o'zlashtirgan mutaxassis - ma'naviyatsiz, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lsa nima bo'lishi mumkin? U o'z manfaatini o'ylaydi, Vatan uchun u biror narsa qurbon qila olmaydi, chunki - u xudbin. Unda mehr-oqibat, fidoyilik, vatanparvarlik, milliy g'urur yo'q. U muhtojlarga yordam bermaydi, chunki unda tarbiya shakllanmagan.

Xulq-atvor va odatni shakllantirish - ma'lumki, odam ongining yuksak belgilaridan biri - uning o'zini anglashidir. Odamning o'zini anglashi o'z navbatida shaxsning muhim belgisi hisoblanadi. Odam o'z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va u olamga ta'sir etuvchi sub'ektdir. Odamning idrok etadigan, tasavvur qiladigan narsalari uning uchun ob'ektdir. Ana shu nuqtai-nazardan olganda, odamning o'zini anglashi sub'ektiv ravishda o'zini *men* deb his qilishida ifodalanadi.

Odam ijtimoiy zot bo'lganligidan unga o'zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o'zga kishilar bilan qiladigan har turli munosabatlarda odamning o'zini anglashi, uzini «men» deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi. Odam o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o'zining o'tmishi va kelajagini anglashi, o'z huquq va burchini anglashi va nihoyat o'zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi o'zini anglashiga kiradi.

Insonning tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqa qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Shunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktor ta'sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi, odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi, odamga uzoq muddat davomida tizimli beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nihoyat, uchinchisi odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir.

Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muxit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog'liqdir. Bu faktor nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siridir. Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlar beriladi. Masalan: tanasining tuzilishi, sochi va ko'zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma ravishda berilishi mumkin. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatleri nasliy yo'l bilan berilmaydi. Nihoyat, nodir hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematika qobiliyatlarda nasliy yo'l bilan berilishi mumkin. Bunday imkoniyatlarning amalga oshirilishi, ya'ni ro'yobga chiqishi uchun albatta, ma'lum sharoit bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda xalqimiz orasidan yetishib chiqqan iste'dodli olimlar, muhandis-ixtirochilar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblari, iste'dodli artistlar, rassomlar va boshqa kishilarimizga nasliy yo'l bilan berilgan barcha imkoniyatlarning ro'yobga chiqishi uchun har qanday sharoit maydonga kelganligining dalili bo'la oladi.

Bolalar maktab yoshiga yetgach, shaxs shakllanishining yangi mazmuni boshlanadi, Kichik maktab, o'smirlik va katta maktab

yoshi davrlarida shaxs shakllanishining yuqori bosqichi namoyon bo'ladi.

Inson shaxsini o'rganish masalasi bilan falsafa, psixologiya, pedagogika kabi fanlar shug'ullanadi. Hozirgi davrda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot ob'ektiga aylanib bormoqda. Shunga qaramasdan, bir tomondan, insonni o'rganishda differensiatsiya hodisasi yuz bermoqda, ikkinchi tomondan, inson taraqqiyotining sintetik tavsifi bo'yicha integratsiya holati ko'zga tashlanmoqda. Inson bir qator fanlarning tadqiqot ob'ektiga ekanligini to'liq tarzda tasavvur etishi uchun uni biosotsial va sotsiobiologik jihatdan o'rganish maqsadiga muvofiq ish yuritishi lozim. Ma'lumki, inson hayoti va faoliyatining operatsional (o'quv, operatsiya, harakat, malaka) mexanizmi uning ontogenezida funksional mexanizmga o'sib o'tadi, binobarin, unda komillik belgisi shakllanadi, natijada u kamolot cho'qqisining muayyan darajasiga erishadi.

Inson - jamiyat - tabiat - turmush munosabatlarini tekshirgan rus olimlari S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev, B.G.Anan'ev odamning ular bilan har xil turdagi va ko'rinishdagi strukturaviy, funksional, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta'kidlab o'tganlar.

Birinchi dav, inson u yoki bu aloqalar tizimiga binoan biologik mahsuli «*Homo Sapiens*» sifatida o'rganiladi.

Ikkinchi dan, tarixiy jarayonning ham ob'ekti, ham sub'ekti tariqasida shaxs tadqiq etiladi.

Uchinchi dan, individ muayyan ko'lamda o'zgaruvchan, taraqqiyotning genetik dasturiga asoslanuvchi alohida xususiyatli jonzot tarzida ilmiy jihatdan tekshiriladi. Insonni jamiyat ishlab chiqarishining yetakchi tarkibi, bilish, kommunikatsiya va boshqaruv sub'ekti, tarbiya predmeti sifatida tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega. Inson va uning borliq bilan ko'p qirrali munosabatga hamda aloqaga kirishishi quyidagi tarzda namoyon bo'lishi mumkin:

- *tabiatning biotik va abiotik omillari - inson;*
- *jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti - inson;*
- *inson - texnika;*
- *inson - madaniyat;*
- *inson va jamiyat;*

- yer va fazo.

XXI asrda ham odam individ, shaxs, sub'ekt, komil inson sifatida talqin qilinishda davom ettiriladi, lekin har bir tushuncha mohiyatida sifat o'zgarishlari yuz berishi mumkin.

Odamga individ sifatida tavsif berishda uning yosh davri, jinsiy va individual-tipologik xususiyatlariga asoslaniladi. Yosh davr sifatleri ontogenetik evolyutsiya bosqichlarida izchil ravishda namoyon bo'ladi va takomillashuv jarayonida o'z ifodasini topadi jinsiy dimorfizm xususiyati esa, ularga mos tushadi. Individning individual-tipologik xususiyatiga konstitutsion (tana tuzilishi, bioximik individuallik) holatlar, simmetriya va assimetriya juft retseptorlari, effektorlari funksiyasi kiradi. Bu xususiyatlar va xossalr birlamchi hisoblanib, hujayra va molekulyar tuzilishining barcha darajalarida ishtirok etadi.

Yosh, jinsiy va individual tipologik xususiyatlar sensor, mnemik, verbal va mantiq psixofiziologik funksiyalari dinamikasi hamda organik ehtiyojlar tuzilishini aniqlaydi. Individning bu xususiyatlarini ikkilamchi deb atab, ularning integratsiyasi temperamentida va tug'ma mayllarda ifodalanilishini ta'kidlab o'tish joiz. Yuqoridagi sifatlar rivojining muhim shakli ontogenetik evolyutsiyadan iborat bo'lib, ular filogenetik dasturga asoslanib hukm suradi. Yosh va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatleri ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi.

Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi, uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rni) orqali ifodalanadi. Status negizida doimiy o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funksiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo'nalganlik shaxsni faollashtiradi. Status, rol, qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning ta'rifi xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'latvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari

yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl - uning jamiyatdagi hayot yo'li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi.

Individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e'tibor berish zarur:

- inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari);

- insoning o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyutsiya;

- inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar.

Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki, faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallash interiorizatsiya va eksteriorizatsiya amalga oshadi.

Odamning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati protsessida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatining funksional tizimi protsesslari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, kishining sotsial tajribalarini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining idroki, tafakkuri, xayoli, hissiyotlari va irodasini bir so'z bilan aytganda, voqelikka bo'lgan ongli munosabatini hamda o'z harakatlari va xulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi.

Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti-harakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma'lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo'lgan hamda shartli ravishda to'rtta o'zaro mustahkam bog'langan funksional bosqichlarga birlashtiriladi:

Birinchisi - boshqaruv tizimi;

Ikkinchisi - stimullashtirish tizimi;

Uchinchisi - stabilizatsiyalash tizimi;

To'rtinchisi - indikatsiyalash tizimi.

Shaxsning ana shu sotsial ahamiyatga ega bo'lgan barcha sifatleri ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi shaxsning hulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilaydi.

Birinchi tizim hosil bo'lishida analizatorlar o'rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar katta rol o'ynaydi. Biroq, bu ilgari yuqorida ta'kidlab, o'tganimizdek ontogenez protsessida filogenetik analizatorlar o'rtasidagi aloqa vaqti aloqalar bilan organik jihatdan qo'shilib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida perseptiv tizimiga o'tib ketadigan yuksak darajada integratsiyalashgan ma'lum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko'rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot-faoliyati jarayonida o'zaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensorperseptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratadi. Insonning sensor-perseitiv jihatlari rivojlanib, doimo takomillashib boradi.

Ikkinchi tizim barqaror psixik holatlarni o'z ichiga oladi. Bu holatlar bolaning aniq maqsadni ko'zlovchi va foydali faoliyatining ongli sub'ekti sifatida bola boshlagan ilmlarining dastlabki yillaridayoq shakllana boshlaydi. Temperament, intellekt, bilim va munosabat ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.

Uchinchi tizim - shaxsni arbob sifatida stabilizatsiya tizimidir. Yo'naltirilganlik, qobiliyat, mustaqillik va xarakter uning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Yo'naltirilganlik - shaxsning integral va generalizatsiya qilingan xususiyatidir.

Integral - (lotin tilida - «butun», «tiklangan») – uzviy bogliqlik, butunlik, birlikdir.

Generalizatsiya (lotin tilida - «umumiy», «bosh») - shartli va shartsiz reflekslarning umumlashishi.

Yo'naltirilganlik bilim, munosabatlarning hamda shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatlarida ijtimoiy ahamiyat yetakchilik qilgan motivlarning bir butun ekanligida o'z ifodasini topadi. Bu xususiyat odamning dunyoqarashi, qiziqishlari va ma'naviy ehtiyojlarida namoyon bo'ladi,

Yo'naltirilganlik strukturasi qoyaviy e'tiqod katta rol o'ynaydi. G'oyaviy e'tiqod - bu bilimning, o'sha shaxsga xos bo'lgan intellektual, emotsional va iroda sifatlarining sintezi, qoyalar va xatti-harakatlar bir butunligining negizidir.

To'rtinchi tizim o'z ichiga shunday xususiyatlar, munosabatlar

va xatti-harakatlarni oladiki, ularda real shaxslarning ijtimoiy «o'y fikrlari va his-tuyg'ulari» aks ettiriladi. Ular bu shaxslarning siyosiy jihatdan ongli, ijtimoiy taraqqiyotning mas'ul arboblari sifatida xulq-atvorini belgilab beradi. Bunga gumanizm, kollektivizm, optimizm va mehnatsevarlik fazilatlarini kiradi.

Tarbiyali bo'lish - bu xulq-atvorini nazorat qilishdan iboratdir: bunday nazorat insonni yomon xatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi.

Agar, shaxs xulq-atvori va axloqiyligi haqida qaygursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo'ladi.

Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o'rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi: bola o'zini egotsentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag'batlantirilishi kerak? Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishidir. Agar ta'lim shaxsning ongini shakllantirishi bo'lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta'sir etishidir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga gamxo'rlik qiladigan ota-onasiga bog'lanib qoladilar. Ota-onaning oldida bo'lish, ular bilan muloqotda bo'lish bolalarga juda yoqadi, ularning yo'qligi bolaga yoqmaydi. Ota-onaning g'amxo'rligini bildiradigan so'zlar, xatti-harakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo'ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o'rganish jarayoni orqali sodir bo'lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari gamxurlik va e'tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa, qo'llab-quvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish va yomon xulq-atvor uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz ko'rib chiqqan xulq-atvor hamma bolalarga ham taalluqli emas.

Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an'ana va urfodatlarining roli katta.

Xalq urf-odatlarini, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlik-birodarlik his-tuyg'ularini rivojlantiradi. Bular o'z navbatda yoshlar uchun ibrat namunasini o'taydi.

Mustaqil jammiyatning baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish: jamiyat boyligini saqlash va ko'paytirish yo'lida har bir

kishining tinmay g'amxo'rlik qilishi, ijtimoiy burchini yaxshi anglash, jamiyat hayotida va shaxsiy hayotda halollik va rostguylik, axloqiy sofdillik, odamiylik va kamtarlik, milliy va irqiy adovatlariga aslo yo'l qo'ymaslik va shu kabilar tarbiya jarayonining muhim xislatlaridir.

Tarbiya jarayonida g'amxo'rlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g'amxo'r ota-onaga ko'proq taqlid qiladilar. G'amxo'r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qo'llab-qo'vvatlaganda, bola o'z xatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi.

Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda g'amxo'rlik bilan bir qatorda yaxshi ko'rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni - tushuntirishni, muxokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og'zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonining texnologiyasini quyidagicha sharhlash mumkin:

1) tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim, uning ehtiyojlari strukturasi aniqlash kerak;

2) ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak, ong ham, iroda ham motivlar ierarxiyasini shakllantira olmaydi, zotan, bir ehtiyojning o'rnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin;

3) shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi. Arastu aytganidek: « *Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa* ».

Konfutsiy: «*Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi*» degan edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida ham qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma'naviyat va go'zal axloq degani hamdir.

Bir ijtimoiy jamiyatning ikkinchisiga almashishi, shuningdek, milliy mustaqillik va uning ne'matlari respublikamiz fuqarolarida tub o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Milliy tuyg'u, qiyofa, xarakter, tabiiy kuy, raqs, ma'naviyat, qadriyat hamda ruhiyat ta'siri ostida o'zining tub mohiyatini aks ettira boshladi. O'tmishning boy merosi, uning an'analari milliy istiqlol tufayli o'z egalariga qaytarib berildi. Fuqarolarning ijtimoiy ongi asta sekin o'zgarib borishi natijasida etnopsixologik xususiyatlar tiklana boshladi, milliy, umumbashariylik xislatlari o'rtasida adolatlilik, teng huquqlilik aloqalari o'rnatilmoqda.

XXI asrda shaxs shakllanishida, uning tarbiyalanganlik darajasini ortishida dinning, xususan, «Hadis» ilmining ahamiyati kattadir. Shaxslararo munosabatda tenglik, g'amxo'rlik, samimiylik, o'zaro yordam, simpatiya, antipatiya, hamdardlik, sevgi-muhabbat singari milliy xususiyatlarni tarkib toptirishda hadislarining roli yanada ortmoqda.

O'zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik va istiqlol rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o'ziga xos xususiyatiga ega, chunki uning asosida xalq an'analari yotadi.

O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muxim rol o'ynaydi. Abdulla Avloniy aytganidek: «*Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo halokat; yo saodat - yo falokat masalasidir.*»

Yosh avlod tarbiyasida milliy ruhiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analalar yetakchi o'rin tutmog'i lozim (tarbiya -etnopsixologik va etnopedagogik munosabat). Bular orqali yoshlarda quyidagi fazilatlarni tarbiyalash lozim:

- a) yoshlarda vatanparvarlik his-tuygularini shakllantirish;
- b) xayrixohlik, odamlarga hurmat, mehr-shafqat;
- c) kattalarni hurmat qilish, e'zozlash;
- d) muloyimlik;
- e) ishbilarmonlik, mohirlik, ishchanlik, iqtisodiy tafakkur;
- f) kichik yoshdan mehnatsevarlik;
- g) jismoniy baquvvatlik;
- h) axloq-odoblilik;
- i) oilaparvarlik;

j) ayollarga hurmat;

k) o'zaro hamkorlikka intiluvchanlik.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug'ullanadilar. Tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarning hamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari

1. Tarbiya - bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir kursatish jarayonidir. Siz bu fikrga qo'shilasizmi? O'z fikringizni bayon eting.

2. Mehr-oqibat, fidoiylilik, vatanparvarlik, milliy g'urur deganda nimani tushunasiz? O'z fikringizni bayon eting.

3. Inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil sifatida qanday misol keltira olasiz?

4. Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muxit va tarbiyaning roli qanday? O'z fikringizni bayon eting.

5. Inson shaxsini o'rganish masalasi bilan qaysi fanlar shug'ullanadi? Misollar bilan isbotlang.

6. Inson - jamiyat - tabiat - turmush munosabatlarini tekshirgan rus olimlari haqida nima deya olasiz? O'z fikringizni bayon eting.

7. Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasiga nima kiradi? O'z fikringizni to'liq bayon eting.

8. Individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida qaysi holatlarga e'tibor berish zarur? O'z fikringizni bildiring.

9. Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti-harakatlari qaysi bosqichlarda birlashtiriladi?

10. Agar shaxs xulq-atvori va axloqiyligi haqida qaygursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo'ladi deyidilar. Siz nima deb o'ylaysiz? O'z fikringizni bildiring.

Testlar

1. Tarbiya psixologiyasi nimalarni o'rganadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining yurish-turishini o'rganadi;

b) maqsadsiz ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi;

c) maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi;

d) maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan jamiyat sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi.

2. Tarbiya deganda nimani tushunamiz? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) bu shaxsning ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir;

b) bu shaxsning ijtimoiy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir;

c) bu shaxsning ijtimoiy va ma'naviy faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir;

d) bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

3. Odamni o'zini o'zi anglashiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o'zining o'tmishi va kelajagini anglashi, o'z huquq va burchini anglashi va nihoyat o'zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi o'zini anglashiga kiradi;

b) o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, kelajagini anglashi, o'z huquq va burchini anglashi va nihoyat o'zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi o'zini anglashiga kiradi;

c) o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o'zining o'tmishini anglashi, o'z huquq va burchini anglashi va nihoyat o'zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi o'zini anglashiga kiradi;

d) o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o'zining o'tmishi

va kelajagini anglashi, o'zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi o'zini anglashiga kiradi.

4. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi nechta faktor ta'sirida tarkib topadi?

- a) ikkita faktor ta'sirida tarkib topadi;
- b) uchta faktor ta'sirida tarkib topadi;
- c) to'rtta faktor ta'sirida tarkib topadi;
- d) beshta faktor ta'sirida tarkib topadi.

5. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi qaysi faktorlar ta'sirida tarkib topadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) odamga uzoq muddat davomida tizimli beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siri, odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir;

b) odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri, odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir;

c) odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri, odamga uzoq muddat davomida tizimli beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siri, odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir;

d) odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri, odamga uzoq muddat davomida tizimli beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir.

6. Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida qaysi tashqi faktorlarga bog'liq? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) tarbiyaning roli, nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siri;

b) ijtimoiy muxit, nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siri;

c) ijtimoiy muxit, tarbiyaning roli, nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siri;

d) ijtimoiy muxit, tarbiyaning roli, nasliy yo'l bilan ayrim anatomik xususiyatlarning ta'siri.

7. Hozirgi davrda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot ob'ektiga aylanib borishida qanday holatlar ko'zga tashlanmoqda? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) insonni o'rganishda differentsiya hodisasi yuz bermoqda, inson taraqqiyotining sintetik tavsifi bo'yicha integratsiya holati ko'zga tashlanmoqda;

b) insonni o'rganishda o'zgarish hodisasi yuz bermoqda, inson

taraqqiyotining sintetik tavsifi bo'yicha integratsiya holati ko'zga tashlanmoqda;

c) insonni o'rganishda differentsiatsiya hodisasi yuz bermoqda, inson taraqqiyotining integratsiya holati ko'zga tashlanmoqda;

d) insonni o'rganishda differentsiatsiya hodisasi yuz bermoqda, inson taraqqiyotining sintetik tavsifi bo'yicha migratsiya holati ko'zga tashlanmoqda.

8. Inson - jamiyat - tabiat - turmush munosabatlarini tekshirgan rus olimlari nomini keltiring.

a) L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev, B.G.Anan'ev;

b) S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev, B.G.Anan'ev;

c) S.L.Rubinshteyn, A.N.Leont'ev, B.G.Anan'ev;

d) S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, B.G.Anan'ev.

9. Rus olimlari S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev, B.G.Anan'ev odamlarda qanday aloqalar tizimi mavjudligini ta'kidlab o'tganlar? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) har xil ko'rinishdagi strukturaviy, funksional, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta'kidlab o'tganlar;

b) har xil turdagi strukturaviy, funksional, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta'kidlab o'tganlar;

c) har xil turdagi va ko'rinishdagi strukturaviy, funksional, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta'kidlab o'tganlar;

d) har xil turdagi va ko'rinishdagi strukturaviy, funksional aloqalar tizimi mavjudligini ta'kidlab o'tganlar.

10. Inson va uning borliq bilan ko'p qirrali munosabatga hamda aloqaga kirishishi qanday tarzda namoyon bo'lishi mumkin? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) tabiatning biotik va abiotik omillari - inson, jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti - inson, inson - madaniyat, inson va jamiyat - yer va fazo;

b) tabiatning biotik va abiotik omillari - inson, jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti - inson, inson - texnika, inson va jamiyat - yer va fazo;

c) tabiatning biotik va abiotik omillari - inson, jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti - inson, inson - madaniyat, inson va jamiyat - yer va fazo;

d) tabiatning biotik va abiotik omillari - inson, jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti - inson, inson - texnika, inson - madaniyat, inson va jamiyat - yer va fazo.

11. Individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida qanday holatlarga e'tibor berish zarur? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar, insoning o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyutsiya, inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi;

b) inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar, insoning o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, evolyutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyutsiya, inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi;

c) inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar, insoning o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyutsiya, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi;

d) inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar, insoning o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyutsiya, inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi.

12. Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti-harakatlari qanday bosqichlarga birlashtiriladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) boshqaruv tizimi, stabilizatsiyalash tizimi, indikatsiyalash tizimi;

b) boshqaruv tizimi, stimullashtirish tizimi, stabilizatsiyalash tizimi, indikatsiyalash tizimi;

c) boshqaruv tizimi, stimullashtirish tizimi, indikatsiyalash tizimi;

d) boshqaruv tizimi, stimullashtirish tizimi, stabilizatsiyalash tizimi.

13. Integral degan so'zning ma'nosini ayting. To'liq va aniq javobni belgilang.

a) (lotin tilida - «butun», «tiklangan») - uzviy bogliqlik, butunlik, birlikdir.

b) lotin tilida - «butun», «tiklangan») - uzviy bogliqlik, birlikdir.

c) lotin tilida - «butun», «tiklangan») - uzviy bogliqlik, butunlikdir.

d) lotin tilida - «butun», «tiklangan») - uzviy butunlik, birlikdir.

14. Generalizatsiya degan soʻzning maʼnosini ayting. Toʻliq va aniq javobni belgilang.

a) (lotin tilida - «umumiy», «bosh») - shartli va shartsiz reflekslarning ketma-ketligi;

b) (lotin tilida - «umumiy», «bosh») - shartli va shartsiz reflekslarning umumlashishi;

c) (lotin tilida - «umumiy», «bosh») - shartli va shartsiz reflekslarning uygʻunlashuvi;

d) (lotin tilida - «umumiy», «bosh») - shartli va shartsiz reflekslarning birlashishi.

15. Tarbiya jarayonining texnologiyasini qanday sharhlash mumkin? Toʻliq va aniq javobni belgilang.

a) tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim, uning ehtiyojlari strukturasi aniqlash kerak, bir ehtiyojning oʻrnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin, shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi;

b) tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim, uning ehtiyojlari strukturasi aniqlash kerak, ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak, bir ehtiyojning oʻrnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin, shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi;

c) tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim, uning ehtiyojlari strukturasi aniqlash kerak, ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak, ong ham, iroda ham motivlar ierarxiyasini shakllantira olmaydi, bir ehtiyojning oʻrnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin, shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi;

d) tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak, ong ham, iroda ham motivlar ierarxiyasini shakllantira olmaydi, bir

ehtiyojning o'rnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin, shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan mulqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi.

16. Yosh avlod tarbiyasida milliy ruhiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar yetakchi o'rin tutmog'i lozim. Bular orqali yoshlarda qaysi fazilatlar tarbiyalash lozim? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) yoshlarda vatanparvarlik his-tuygularini shakllantirish, xayrixohlik, odamlarga hurmat, mehr-shafqat, kattalarni hurmat qilish, e'zozlash, muloyimlik, ishbilarmonlik, mohirlik, ishchanlik, iqtisodiy tafakkur, axloq-odoblilik, oilaparvarlik, ayollarga hurmat, o'zaro hamkorlikka intiluvchanlik;

b) yoshlarda vatanparvarlik his-tuygularini shakllantirish, xayrixohlik, odamlarga hurmat, mehr-shafqat, kattalarni hurmat qilish, e'zozlash, muloyimlik, ishbilarmonlik, mohirlik, ishchanlik, iqtisodiy tafakkur, kichik yoshdan mehnatsevarlik, o'zaro hamkorlikka intiluvchanlik;

c) yoshlarda vatanparvarlik his-tuygularini shakllantirish, xayrixohlik, odamlarga hurmat, mehr-shafqat, kattalarni hurmat qilish, e'zozlash, muloyimlik, ishbilarmonlik, jismoniy baquvvatlik, axloq-odoblilik, oilaparvarlik, ayollarga hurmat, o'zaro hamkorlikka intiluvchanlik;

d) yoshlarda vatanparvarlik his-tuygularini shakllantirish, xayrixohlik, odamlarga hurmat, mehr-shafqat, kattalarni hurmat qilish, e'zozlash, muloyimlik, ishbilarmonlik, mohirlik, ishchanlik, iqtisodiy tafakkur, kichik yoshdan mehnatsevarlik, jismoniy baquvvatlik, axloq-odoblilik, oilaparvarlik, ayollarga hurmat, o'zaro hamkorlikka intiluvchanlik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psycho.all.ru
7. www.psychology.net.ru

Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlar. Tarbiyasi "qiyin" bolalar psixologiyasi.



Tayanch so'z va iboralar: Shaxs dunyoqarashi, milliy va ma'naviy qadriyatlar, oila davlat himoyasida, mustaqillik ruhlari, ijtimoiy ustanovkalar, pedagogik va psixologik sabablar, shaxsning biologik o'sishi, tarbiyasi qiyinlarni o'rganish, alohida-alohida suhbat o'tkazish, o'smirlarning tipologik xususiyatlari.

«Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Kasbiy faoliyat psixologiyasida o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, «**Homo sapiens**» — «**aqlli zot**» tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darvin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Forobiy, A. Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun, avvalo, uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezon

ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o`rni bilan belgilanishi kerak.

Shaxs - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarining mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individdir. Shaxsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'ekt, ham sub'ekt bo'lishlikdir.

Shaxs taaluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob'ektni), so'ngra shu ta'sirlarning sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, ahloq olamidir. Bu muhit — kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysinmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'qiblanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi sub'ekt bo'lsa, *jamiyat-ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.*

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, ahloqiy va boshqalar. Bu ta'sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshq.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa, va unda yangidan-yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, u o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yoki o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muxandis bo'lib, elu-

yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlarining shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya, liberalizatsiya, ya'ni erkinlashtirish va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda-shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirtidan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi: bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba'zan bir-biriga zid hislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota-onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa-chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustidan muttasil ishlashni talab qiladi.

Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini malum manoda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilagi, uning ahloq - ijtimoiy

normalar doirasidagi maqbul harakati uning o`ziga ham bog`liqdir. Odamning o`z-o`zini anglashi, bilishi va o`z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o`ziga, o`z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya`ni, ijtimoiy xulq-shaxs tomonidan uni o`rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e`tibor berishdan tashqari, o`zining shaxsiy xarakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Ijtimoiylashuv eng avvalo, odamlar o`rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko`rsatilayotgan ta`sir oddiy, mexanik tarzda o`zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan sub`ektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta`sirlar odamlar tomonidan turlicha xarakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10 - 15 ta o`quvchidan iborat akademik litsey o`quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota-onalarining kutishlari, o`qituvchilarning berayotgan darslari va unda yetkazilayotgan ma`lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 o`quvchining har biri shu ta`sirlarni o`zicha, o`ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o`quv ko`rsatgichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o`sha biz yuqorida ta`kidlagan ijtimoiylashuv va individualizatsiya jarayonlarining o`zaro bog`liq va o`zaro qarama-qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi.

Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro`y beradigan shart-sharoitlarini *ijtimoiy institutlar* deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (bog`cha, maktab, maxsus ta`lim o`choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv o`choqlariga *maktab va boshqa ta`lim maskanlari* kiradi. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg`unlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta`lim oladigan, bola bilimlar tizimini o`zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan masqandir. Bu yerda biz ataylab tashkil etilgan, oxirgi yillarda joriy etilgan «Ma`naviyat darslari», «Etika va psixologiya»

kabi tarbiyalovchi fanlarni nazarda tutmayapmiz. Gap har bir darsning, umuman maktabdagi shart-sharoitlar, umumiy muhitning tarbiyalovchi roli haqida. Masalan, dars paytida o'qituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan ko'zlangan maqsad asosiyday. Lekin, aslida ana shu jarayondagi o'qituvchining o'zini qanday tutayotganligi, kiyim-boshi, mavzuga sub'ektiv munosabati va qolaversa, butun sinfdagi o'quvchilarga munosabati hamma narsani belgilovchi, ijtimoiy tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omildir. Shu nuqtai nazardan o'quvchilar didi, kutishlari va talablariga javob bergan o'qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks holda esa o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi. Huddi shunday har bir sinfdagi shakllangan muhit ham katta rol o'ynaydi. Ba'zi sinflarda o'zaro hamkorlik, o'rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan, guruhda ijobiy munozaralar va baxslar uchun qulay sharoit bor. Bu muhit tabiiy o'z a'zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobiy tomonga yo'naltirib turadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti - bu mehnat jamoalaridir. Bu muhitning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma'lum tajribaga ega bo'lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. Qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo'lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar xarakteriga ta'sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan, qanday o'zaro munosabatlar muhiti ta'sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri - o'sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o'zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo'lib, ko'pincha oylik-maosh masalasi ana shulardan keyin o'rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sog'lom ma'naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o'ynaydi.

Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar.
Milliy va ma'naviy qadriyatlarning roli. Dunyoqarash - shaxsning shaxsligini (individ emas), uning ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir. Shuning uchun ham uning shakllanishi va o'zgarishi masalasi muhim masalalardan bo'lib, hamma vaqt va davrlarda ham o'ta dolzarb bo'lib kelgan.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, jamiyatda tub islohotlar boshlandi. Ana shu islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri — ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a'zolari dunyoqarashini istiqlol ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosini ham ularda yangicha hurfiylik bilan yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu o'rinda psixologiya o'zgarishlar sharoitida e'tiqod, dunyoqarash va ideallar o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillar xususida quyidagilarni ajratadi:

1. Ma'naviyat va ma'rifat. Avvalo, ma'rifat xususida. Bu — odamning tabiat, jamiyat va insonlar to'g'risidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma'lumotlari majmui bo'lib, uning mazmuni bevosita shaxs dunyoqarashining mazmun — mohiyatini belgilaydi. Demak, yoshlarga qaratilgan va ular o'qib, o'rganishi uchun yo'naltirilgan barcha turdagi ma'lumotlar (kitoblar, ommaviy-axborot vositalari orqali, muloqot jarayonida), ular asosida shakllanadigan yangicha tasavvurlar yangicha dunyoqarash uchun zamindir. Mustaqillik yillarida eski, o'zini tarix oldida oqlamagan mafkuradan voz kechildi, yangi mustaqillik g'oyasi, uning asosiy tamoyillari, yoshlarni ma'rifatli qilish borasidagi vazifalar Davlatimiz rahbari SH.M. Mirziyoyev asarlarida muntazam, aniq bayon etilgan. SHuning bilan bir qatorda mamlakatimizda yangi «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» qabul qilindi. Ular yoshlarning eng ilg'or ilm-fan yutuqlaridan boxabar qilish, buyuk allomalar merosini chuqur va teran o'rganish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, yoshlarni ma'rifatli qilishning barcha shart-sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Bu say'i - harakatlar ma'naviyat borasidagi islohotlar, o'zbek madaniyati, san'ati, adabiyotini rivojlantirish ishlari, tariximizni tiklash borasida amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar tabiiy, yoshlarimizda yangicha dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi.

2. Oila. Yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i bo'lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e'tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir. Respublikamizda «Oila» yili deb elon qilinishi, «Oila» ilmiy-amaliy Markazi o'z faoliyatini boshlashi jamiyatda, yoshlar

tarbiyasi borasida oilaning roli va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan muhim tadbir bo'ldi va ularda yurtga, Vatanga, yaqinlarga sadoqat, muhabbat hislarini tarbiyalash orqali dunyoqarashlari mazmuniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

3. Mafkura. Har bir davrning o'z mafkurasi bo'ladi va u shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning ongiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Kommunistik mafkuradan batamom voz kechgan jamiyatimizda yangi mustaqillik mafkurasi shakllanmoqda. Zero, mafkura jamiyat a'zolarining tabiat, jamiyat va ijtimoiy jarayonlar xususidagi g'oyalari, bilimlari majmui bo'lib, har bir ijtimoiy guruh o'z e'tiqodiga mos mafkurani tanlaydi. Mustaqillikdan ruhlangan, uning moddiy va ma'naviy ne'matlaridan bahramand bo'layotgan o'zbekistonliklar o'tgan qisqa vaqt mobaynida uning qadriyatlarini, har bir shaxsga yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlari, ilm va bilim borasidagi shart-sharoitlarni anglab, o'zlari ongli ravishda ana shu tizimga sadoqat va uni sevish, ardoqlash va himoya qilishga tayyorlik falsafasini shakllantirmoqdalar. Yangi mafkura mustaqillik va milliy qadriyatlar g'oyasi ta'sirida shakllanmoqda va bu tabiiy, birinchi navbatda yoshlar dunyoqarashini o'zgartiruvchi muhim shartdir.

4. Ijtimoiy ustanovkalar. Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm -bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu-shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Rus olimi V. A. Yadov o'zining dispozitsion kontseptsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizim sifatida tasavvur qilgan:

a) elementar ustanovkalar (set)-oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'pincha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart-sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya;

b) ijtimoiy ustanovkalar (attitud)-ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsning ularga

nisbatan baho va munosabatlari tizimini o'zgartirish kerak;

c) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar-ular shaxsning umumiy yo'nalishini belgilaydi va ularni o'zgartirish e'tiqodlar va dunyoqarashlarni o'zgartirish demakdir;

d) qadriyatlar tizimi - ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr-qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahih hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o'z qadrini yo'qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning eng sodda va qulay yo'li - bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta'sirlarni qaytarishdir. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo'lganda, *ob'ektivlashadi*, ya'ni o'z kuchini va mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, u yerda biror g'oyani onga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o'z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so'zlar va iboralar, harakatlar bilan qaytaraveradi va shu yo'l bilan ko'pchilikning ma'qullashiga erishadi. Ayniqsa, saylov oldi tadbirlarida ana shu usul keng qo'llaniladi. Shulardan kelib chiqib, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o'zgartirishga erishish mumkin.

O'qituvchilar jamoasi har qancha o'rinshidan qat'iy nazar, ta'lim jarayonida tarbiyasi qiyin o'smirlar ham uchrab turadi. Hozirgi davrda bunday o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash usuli yaratilgan, fe'l atvordagi nuqsonlarning hatti-harakati nosog'lomligining oldini olish va tuzatish yo'llari ilmiy asosda ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tarbiyasi qiyin, injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. O'quvchilarda nojo'ya hatti-harakatlar paydo bo'lishining sabablari va turtkilar har hildir. Qonunni buzishi yoki qoidaga hilof ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy qonunbuzar va oddiy qoidabuzar (tartibbuzar) guruhlarga ajratiladi.

Shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va

temperamentdagi qusurlar tarbiyasi qiyinlarni keltirib chiqaradi. Shaxsning psixik o'sishidagi kamchiliklar, chunonchi, aql idrokning zaif rivojlangani, irodaning bo'shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o'smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik va hokazolar hatti-harakatni izdan chiqaradi. Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar: axloqiy hisslarning yetishmasligi, o'qituvchi, sinf jamoasi, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot, ishyoqmaslik, bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik va boshqalar ham salbiy qiliqlarni vujudga keltiradi. Shaxsning bilim, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhim bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar; maktab faoliyatidagi, o'qitishdagi nuqsonlar tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi. Maktabdan tashqari muhitning ta'siridagi nuqsonlar, chunonchi, oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, balog'atga yetmagan tengqurlarining ta'siri, madaniy-ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidaga kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o'smirlar ko'payishiga sabab bo'ladi.

Tarbiyasi qiyinlarni o'rganishda kinolavhalar, yuridik varaqa, ishontirish, rag'batlantirish, bo'ysundirish, qo'rqitish, «sun'iy qiyin holatni yaratish» singari usullardan foydalaniladi. Shulardan ayrimlarining mohiyatiga qisqacha to'xtalamiz.

Odatda novella, voqea, hikoya, sarguzasht, ocherk kabi adabiy asarlardan foydalanish o'smirlar hatti-harakatining sabablarini o'rganishda yaxshi samara beradi. O'qituvchi, sinf rahbari yoki ichki ishlar xodimlari tomonidan tarbiyasi qiyin o'smirlarga tegishli asardan parcha o'qib beriladi, so'ng ularda qanday qo'zg'alish yoki ta'sirlanish paydo bo'layotganligi kuzatiladi. Tajriba qoidasiga binoan, o'qilgan parchada o'smirlarning sarguzashti, ajoyibot va g'aroyibotlar o'z aksini topishi shart.

Agar usul o'zining ijobiy natijasini ko'rsata olmasa, boshqa vositalarni qo'yish maqsadga muvofiqdir. Navbatdagi bosqichda ulardan o'qilgan asar personaji yoki bosh qahramonining o'rnida bo'lganida qanday ish tutishi so'raladi. Shu yo'l bilan har bir o'smirni qanday hodisalar qiziqtirishi va unda qanday salbiy hatti-harakat yoki illat mavjudligi aniqlanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan

muloqotda har bir o'smirdan asarning bosh obrazi yoki personajiga munosabatini so'rashi lozim. Chunki shaxsiy mulohazalar zaminida o'smirning ruhiy dunyosidagi turli kechinmalar aks etadi. Shu tufayli ularning nojo'ya hatti-harakatlari nimalar bilan bog'liq ekanligi o'qituvchiga ayon bo'ladi.

Tajriba o'tkazishda matnni o'qilayotganda psixologik pauzaga, ravon ohangga, o'qish sur'ati va ritmiga alohida e'tibor berish lozim. Ana shu qoidalarga rioya qilinsagina matnning ta'siri ortadi, o'smirdagi muayyan kechinmalarning tashqi ifodasi tez ko'rinadi. O'smirlar xususiyatiga mos matnlarni tanlash, ularning hajmiga va mazmuniga e'tibor berish alohida ahamiyat kasb etadi. Tanlangan matnlar tarbiyasi qiyin o'smirlarning o'ziga xos va yosh xususiyatlariga, ichki imkoniyatlariga mutlaqo mos bo'lishi shart.

Qonunbuzarlikning sababini aniqlash usullaridan yana biri - syujetli fotosuratlar yoki rasmlar bilan tajriba o'tkazishdir. Buning ma'nosi va maqsadi o'smirlarning salbiy hatti-harakatlarini keltirib chiqaradigan qanday motivlar mavjudligini, shuningdek, ular qaysi ta'sirlarga osonroq berilishini aniqlashdir.

Tarbiyasi qiyin o'smirlardagi xususiyatlarni o'rganishning yana bir yo'li alohida-alohida suhbat o'tkazish orqali ularning ruhiy kechinmalari bilan tanishishdir. Suhbat kezida yaxshi va yomon xulq-atvor, hatti-harakatlar yuzasidan keng ma'lumotlar to'planadi. Mazkur jarayonda amalga oshiriladigan har hil hatti-harakatlarni baholash, ularni sharhlab berish lozim. Hatti-harakatni baholashda o'smirga qo'yilgan ayb yo tan olinadi, yoki mutlaqo u inkor etiladi. Biroq o'tkazilgan suhbatlar o'smirning psixik dunyosiga shunday nozik ta'sir qilishi kerakki, natijada unda vijdon azobi, o'ng'aysizlik tuyg'usi vujudga kelsin. O'smir shaxsiyatiga tegadigan muomala qilish man etiladi. Hamma vaqt suhbat davomida iliq psixologik iqlim, do'stona munosabat, qulay mikromuhit bo'lmog'i shart. Faqat shundagina mavjud imkoniyatlardan unumli va samarali foydalanish mumkin. O'smirlar bilan suhbat orqali ularning kelajak rejalari, orzu-umidlari, intilishlari, jismoniy va aqliy mehnatga yaroqliligi aniqlanadi.

O'smirlarning tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta shartli guruhga ajratish mumkin.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning **birinchi guruhi** orsizlar yoki subutsizlar deyiladi. Ular o'z xatolarini bilib turib qonun va

qoidalarni buzadilar, noma'qul ishlarni qiladilar. Ko'pincha ular o'zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar, maktabdagi ayrim kamchiliklarni tanqid qiladilar. Lekin yutuqlarni e'tirof qilishni xohlamaydilar. Shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga, ma'qullashni va o'z talablarini o'zgalar so'zsiz bajarishini juda yoqtiradilar. Bunday bolalar betga chopar, o'jar tabiatli, rahm-shafqatsiz, «zo'ravon» bo'ladilar. Mustaqil fikrga ega bo'lmagan tengdoshlarini o'z atroflariga to'playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror yuksak his-tuyg'uga ega emasliklari sababli «orqa qanoat»da turib qoidani bo'zadilar. Ularning hatti-harakatlari tasodifiy voqeelikka, ta'sir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog'liqdir. Ular tashviqotga tez beriladilar, barcha narsalarga ishonadilar, qaysi yo'lga kirib qolganliklarini anglab yetadilar, biroq «kompaniya» fikriga qarshi borishga botina olmay ko'ngilsiz ishlarga qo'l uradilar. Ko'pincha tartibbuzarlar qilmishlariga tavba qilib, sinf jamoasi a'zolarini ishontiradilar, lekin ma'lum fursat o'tgandan so'ng bergan va'dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo'lga kirib qoladilar. Ular shaxsiy talablari va ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday nojo'ya hatti-harakatdan qaytmaydilar, hamisha odamlarga yaxshilik qilishni orzulaydilar, biroq o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatdan yuqori qo'yadilar. O'zlarining xohishlarini taqiqlangan usullar bilan amalga oshiradilar, so'ng qilmishlariga afsus-nadomat chekadilar, ruhan eziladilar. Lekin mazkur kechinmalarni tez unutadilar, ularning shaxsiy ehtiyojlari har qanday yuksak hislardan, xohishlardan ustun turadi. Axloqqa hilof hatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo'ladi, xolos.

Injiq tabiatli o'smirlar **to'rtinchi guruhga** mansub bo'lib, ular sinf jamoasida o'z o'rinlarini topa olmaganidan qayg'uradilar. Bunday o'quvchilar ginaxon (arazchi) bo'ladilar, shuning uchun sinf jamoasida kamsitilayotgandek kechinmalar bilan yashaydilar. Bunday holatning vujudga kelishiga asosiy sabab shaxsiy imkoniyatlardan ko'ra intilish, mayl va obro' ketidan quvishning ustunligidir. Ular jamoa a'zolarining hurmatiga sazovor bo'lishni xohlaydilar. Ko'pincha tundlik bilan ish to'tadilar, biror narsaga

xayrixohliklari yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Tushkunlik qayfiyati, umidsizlik, o'z imkoniyati, aqliy quvvatiga ishonchsizlik ularga xos xususiyatlardir. Ular qonun va qoidalarni buzishga astoydil harakat qilmasalarda, ta'lim va tarbiya jarayonida qiyinchilik tug'diradilar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning hatti-harakatlarini ijobiy yo'nalishga burib yuborish uchun ularda mas'uliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularga kichik jamoani sport seksiyasini, tirik burchakni boshqarish vazifasini ishonib, topshirish natijasida salbiy fe'l-atvorlarini kamaytirish mumkin. Ularni o'zlari qiziqqan to'garaklarga jalb qilish orqali o'qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo'qotib boriladi.

Tarbiyasi qiyin o'smir o'quvchilarni qayta tarbiyalash uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak. Tarbiyasi qiyin o'smir o'quvchilarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasi quyidagilardan iborat:

I. Shaxsning biologik nuqsonlari:

- a) sezgi organlarining kamchiliklari;
- b) o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperament xususiyatlarining mavjudligi;
- c) psixopatologik o'zliklar.

II. Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklar:

- a) aqlning bo'sh o'sganligi;
- b) irodaning zaifligi;
- c) shaxsda hissiyotning kam rivojlangani;
- d) zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi;
- e) o'smirdagi intilish, bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi.

III. Shaxsining tarbiyasidagi nuqsonlar:

- a) axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar;
- b) o'smirning o'qituvchi, sinf jamoasi va oila a'zolari bilan muloqotidagi zaifliklar;
- c) mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar;
- d) bo'sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar.

IV. Shaxsning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari:

- a) bilimlar, maxsus ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi uzilishlar;
- b) ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operasiyalarining

yetishmasligi.

V. Maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar:

a) ta'lim jarayonida bilimlar va hatti-harakatlarni adolatsiz baholash, darslik va o'quv qo'llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda qoldirish va hokazolar;

b) maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar (o'qituvchining o'smirga xayrixoh emasligi, o'quvchining yakkalanishi, o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik qarovsizlik, o'z o'rnini topa olmaslik va boshqalar).

VI. Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar:

a) oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi;

b) oilaning buzilishi va oilaviy nizolar;

c) ota-ona yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi;

d) oila a'zolari o'rtasida sudlangan odamning uchrashi;

e) tengqurlarining salbiy ishlarga (haqorat qilishga, ichishga, chekishga, qo'li egrilikka) o'rgatishi va hokazo;

j) madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1) «Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Shu fikrga qo'shilsangiz. Misollar bilan o'z fikringizni bayon eting.

2) Sotsial yoki ijtimoiy muhit deganda nimani tushunasiz? O'z fikringizni bayon eting.

3) Shaxsga taalluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimiga nimalar kiradi? O'z fikringizni bayon eting.

4) Shaxs ijtimoiy xulqiga qaysi kuchlar ta'sir qiladi? O'z fikringizni misollar bilan bayon eting.

5) Iqtisodiy munosabatlar shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlarining shakllanishida qanday ta'sir ko'rsatadi?

6) Ijtimoiy ta'sirlar shaxs tomonidan qanday qabul qilinadi?

7) Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar haqida o'z fikringizni bildiring.

8) Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodiga ta'sir etuvchi milliy va ma'naviy qadriyatlarining roli haqida nima deya olasiz?

Testlar

1. Shaxs deganda nima tushuniladi?

- a) ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarining mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish odamdir;
- b) ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarining mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish insondir;
- c) ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarining mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individdir;
- d) ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarining mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish subyekdir.

2. Jamiyat deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) ijtimoiy ko'rinish va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir;
- b) ijtimoiy intizom va nizomning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir;
- c) ijtimoiy intizom va tartibning, hулqing mufassal ko'rinishidir;
- d) ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

3. Ijtimoiy institutlar deb nimaga aytamiz? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan shart-sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb aytamiz;
- b) ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan ishlarini ijtimoiy institutlar deb aytamiz;
- c) ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan hodisalarini ijtimoiy institutlar deb aytamiz;
- d) ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan voqe'alarini ijtimoiy institutlar deb aytamiz.

4. Dunyoqarash bu qanday motiv? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) shaxsning shaxsligini (indiv id emas), uning ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir;
- b) shaxsning shaxsligini (indiv id emas), uning ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir;
- c) shaxsning shaxsligini (indiv id emas), uning ma'naviyat idarajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir;
- d) shaxsning indiv idligi, uning ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir.

5. Rus olimi V. A. Yadov o'zining dispozitsion kontseptsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni nechta bosqich va nechta tizim sifatida tasavvur qilgan?

- a) to'rt bosqich va uch tizim sifatida tasavvur qilgan;
- b) uch bosqich va to'rt tizim sifatida tasavvur qilgan;
- c) to'rt bosqich va to'rt tizim sifatida tasavvur qilgan;
- d) ikki bosqich va to'rt tizim sifatida tasavvur qilgan.

6. O'smirlarning tipologik xususiyatlariga binoan nechta shartli guruhga ajratish mumkin?

- a) oltita guruhga;
- b) beshta guruhga;
- c) to'rtta guruhga;
- d) uchta guruhga.

7. Shaxsning biologik nuqsonlariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) sezgi organlarining kamchiliklari, temperament xususiyatlarining mavjudligi, psixopatologik o'jizliklar;
- b) sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati, psixopatologik o'jizliklar;
- c) o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperament xususiyatlarining mavjudligi, psixopatologik o'jizliklar;
- d) sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperament xususiyatlarining mavjudligi, psixopatologik o'jizliklar.

8. Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklarga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) aqlning bo'sh o'sganligi, irodaning zaifligi, shaxsda hissiyotning kam rivojlangani, zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi, o'smirdagi intilish, bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi;

b) aqlning bo'sh o'sganligi, irodaning zaifligi, zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi, o'smirdagi intilish, bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi;

c) aqlning bo'sh o'sganligi, irodaning zaifligi, shaxsda hissiyotning kam rivojlangani, o'smirdagi intilish, bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi;

d) aqlning bo'sh o'sganligi, irodaning zaifligi, shaxsda hissiyotning kam rivojlangani, zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi.

9. Shaxsining tarbiyasidagi nuqsonlariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar, o'smirning

o'qituvchi, sinf jamoasi va oila a'zolari bilan muloqotidagi zaifliklar, mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar, bo'sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar;

b) o'smirning o'qituvchi, sinf jamoasi va oila a'zolari bilan muloqotidagi zaifliklar, mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar, bo'sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar;

c) axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar, o'smirning o'qituvchi, sinf jamoasi va oila a'zolari bilan muloqotidagi zaifliklar, bo'sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar;

d) axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar, o'smirning o'qituvchi, sinf jamoasi va oila a'zolari bilan muloqotidagi zaifliklar, mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar.

10. Shaxsning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) maxsus ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi uzilishlar, ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarining yetishmasligi;

b) bilimlar, maxsus ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi uzilishlar, ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarining yetishmasligi;

c) bilimlar va malakalarni egallashdagi uzilishlar, ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarining yetishmasligi;

d) bilimlar, maxsus ko'nikmalarni egallashdagi uzilishlar, ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarining yetishmasligi.

11. Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlarga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaning buzilishi va oilaviy nizolar, ota-ona yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi, tengqurlarining salbiy ishlarga o'rgatishi va hokazo, madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari;

b) oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi, ota-ona yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi, oila a'zolari o'rtasida sudlangan odamning uchrashi, tengqurlarining salbiy ishlarga o'rgatishi va hokazo, madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari;

c) oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaning buzilishi va oilaviy nizolar, ota-ona yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi, oila a'zolari o'rtasida sudlangan odamning uchrashi, tengqurlarining salbiy ishlarga o'rgatishi va hokazo, madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va

jamoatchilikning kamchiliklari;

d) oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaning buzilishi va oilaviy nizolar, oila a'zolari o'rtasida sudlangan odamning uchrashi, tengqurlarining salbiy ishlarga o'rgatishi va hokazo, madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari.

12. Maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklarga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) ta'lim jarayonida bilimlar va hatti-harakatlarni adolatsiz baholash, sinfda qoldirish va hokazolar, maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar;

b) darslik va o'quv qo'llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda qoldirish va hokazolar, maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar;

c) ta'lim, jarayonida bilimlar va hatti-harakatlarni adolatsiz baholash, darslik va o'quv qo'llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar;

d) ta'lim, jarayonida bilimlar va hatti-harakatlarni adolatsiz baholash, darslik va o'quv qo'llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda qoldirish va hokazolar, maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psvcho.all.ru
7. www.psvchology.net.ru

MODUL VIII. PEDAGOG FAOLIYATINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: Tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash psixologiyasi, o'qituvchi va o'quvchi: ta'lim jarayonida muloqot va hamkorlik, pedagogning pedagogik faoliyatni egallashidagi psixologik muammolar, kasbiy pedagogik ong va o'z-o'zini anglashga oid ko'nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- **ta'limiy maqsad:** modulda har bir mashg'ulotning ma'lumot berish, rivojlantirish, ta'limiy maqsadini aniq belgilash, uning mashg'ulotlar tizimidagi o'rnini qat'iy aniqlash. talabalarga modul va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, modulga oid tushunchalarni o'zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda modulning o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashi va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

8.1. Tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash psixologiyasi. O'qituvchi va o'quvchi: ta'lim jarayonida muloqot va hamkorlik



Tayanch so'z va iboralar: Ijtimoiy munosabatlar

mahsuli, muloqotning turi va shakllari, insoniy munosabatlar, o'zaro til topishish, bir-birini tushunish, kasbiy faoliyat sohasi, shaxslararo munosabatlar, muloqotning kommunikativ tomoni, muloqotning interaktiv tomoni, muloqotning perseptiv tomoni,

Shaxs - ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi - uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita «yuzma-yuz» bo'lishi, yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan, biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi, sub'ekt-sub'ekt tipli (dialogik, sheriklik), yoki sub'ekt-ob'ektki

(monologik) bo'lishi mumkin.

Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayoniki, unda shaxslaro munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, hiskechinmalar, tashvishu - quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir - birlarini bir qarashda tushunadigan yoki «yarimta jumladan» ham fikr ayon bo'ladigan bo'lib qoladi, ayrim xollarda esa, ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni - bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin (ona - bola, qaynona - kelin va x-zo).

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari - o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, «jozibasii», betakrorligi shundaki, o'zaro bir hil til topishish yoki tomonlarning aynan bir hil o'ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo'lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta'sir bo'lgan bo'lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko'rishmay qolgan do'stingizni ko'rib qoldingiz. Siz undan xol-ahvol so'ratingiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma'qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo'lgan va siz ikkinchi marta o'sha odam bilan iloji boricha rasman salom - alikni bajo keltirib, o'tib ketavergan bo'lardingiz. Ya'ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning hilma-hilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi.

Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar.

XXI asrda yashar ekanmiz, odamning eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan habardor bo'lish va o'zgalarga

samarali ta'sir eta olishga bo'lgan intilishi yanada oshdi va buning qator sabablari bor.

Birinchidan, industrial jamiyatdan axborotlar jamiyatiga o'tib bormoqdamiz. Axborotlarning ko'pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma'lumotlarni saralash, u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo etdi. Axborot XXI asrda eng nodir kapitalga aylandi va bu o'z navbatida insonlarga zarur axborotlar o'zatilishi tezligi va tempini o'zgartiradi.

Ikkinchidan, turli kasbiy faoliyat sohasida ishlayotgan odamlar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi. Umuman, XXI asrning korporatsiyalar asri deb, bashorat qilayotgan iqtisodchilar ham bu korporatsiya insonlarning o'zaro til topishlariga qaratilgan malakalarning rivojlangan, mukammal bo'lishi haqida gapirmoqdalar. Undan tashqari, bu kabi korporativ aloqa ko'p xollarda bevosita yuzma-yuz emas, balki zamonaviy texnik vositalar - uyali aloqa, fakslar, elektron pochta, Internet kabilar yordamida aniq va lo'nda fikrlarni uzatishni nazarda tutadi. Bu ham o'ziga xos muloqot malakalarining ataylab shakllantirilishini taqozo etadi.

Uchinchidan, oxirgi paytlarda shunday kasb-hunarlar soni ortdiki, ular sotsionomik guruh kasblar deb atalib, ularda «odam-odam» dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi. Masalan, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli hil xizmatlar (servis), marketing va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday sharoitlarda odamlarning ataylab muloqot bilimdonligining oshirilishi mehnat mahsulini belgilaydi.

Shuning uchun ham muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish (sotsial psixologik trening) masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'rni va salohiyati keskin oshdi.

Shaxslararo munosabatlarni o'rganish psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki, inson shaxsining eng nufuzli va yetakchi faoliyatlaridan biri bo'lgan muloqot va u orqali o'zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylik, o'xshashlik, uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Ayniqsa, oila muhitida shaxslararo munosabatlarning, chunonchi, ota-ona va

farzand orasidagi munosabatlarning o'ziga xos tomonlari shaxsning hayoti, faoliyatining samarasi va mazmuniga bevosita ta'sir etadi. Shunday ekan, insonlar orasida amalga oshadigan shaxslararo munosabatlar, ularning turli psixologik xususiyatlarini o'rganish masalasi ijtimoiy psixologiya fanida muhim va dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Muomala shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida odamlar o'zaro psixik jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashinadilar, ta'sir o'tkazadilar, ta'sirlanadilar, idrok etadilar, tushunish va baxolash jarayonlarini kechiradilar. Shuning uchun muomala ijtimoiy psixologik hodisa, ijtimoiy kategoriya sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida bevosita ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, emotsional, kognitiv, motivatsion, regulyativ qirralarini aks ettiruvchi ob'ektiv va sub'ektiv ehtiyoj sifatida vujudga keladi, ijtimoiylashuvning asosiy omili, negizi vazifasini bajaradi.

Shaxslararo munosabatlarda muomalaning inson psixik dunyosiga ta'siri masalalarini psixolog olimlardan L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, B.G.Ananyev, A.V.Zaporozets, A.A.Bodalev, B.F.Lomov, A.A.Leontyev, M.I.Lisina tadqiqot ishlarini olib borganlar.

L.S.Vigotskiy bola shaxsi ruxiy dunyosi rivoji va taraqqiyotida muomalani tushuntirib deydi: "Bola shaxsiy faolligini namoyon bo'lishining asosiy yo'li kattalar bilan muomalasi hisoblanadi... Uning tashqi olamga munosabati hamisha boshqa odam orqali munosabat bildirishdir".

L.S.Vigotskiy fikricha, ontogenezda genetik jihatdan birlamchi o'zaro ta'sir baxs, dialogdir; ikkilamchi esa, individning ongi, ruxiy jarayonlarining individualligidir: "Biz madaniy rivojlanishning umumiy genetik qonunini mana shunday shaklda ifodalashimiz mumkin: bolaning madaniy o'sishida har qanday funksiya baholanishi uchun ikki marta, ikki hil rejada paydo bo'ladi, avval ijtimoiy, keyin psixologik, shuningdek, shaxslararo interpsixologik kategoriya sifatida so'ng bola ichki dunyosida intropsixologik kategoriya tariqasida".

L.S.Vigotskiy shuningdek shaxslararo munosabatlarda asosiy qurol va vosita muomala jarayoni ekanligini uqtiradi. Uning fikricha,

shaxslararo munosabatlarda dastavval muomala asosiy vosita, so'ngra esa, xulq atvor vositasi turadi. Chunki inson yakka qolgan paytda ham muomala funksiyasini o'zida saqlaydi.

L.S.Vigotskiy qarashlaridan yana shu jihat ko'rinadiki, muomala intereorizatsiya, ya'ni ichki nutq va ektereorizatsiya, ya'ni tashqi nutq, muomala shakllarida namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, muomala tufayli shaxs ijtimoiylashuvi yuzaga keladi.

Demak, L.S.Vigotskiyning muomala, shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid fikrlari nihoyat qimmatli, chunki unda biz shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni uchun muhim asos sifatida muomalani ko'ramiz va shaxs shakllanishida bu jarayonning qimmatli cheksiz ekanligini yanada anglaymiz.

V.M.Bexterevning boy merosida shaxslararo munosabatlar muammosi, xususan, muomala mavzusi ijtimoiy psixologik nazariya jixatidan o'rganilgandir. Uning qarashlarida insonlarning o'zaro ta'sir etishlari muhim muammo sifatida talqin etiladi. V.M.Bexterev ijtimoiy xayotda muomalaning rolini tavsiflab, uning funksiyalarini hamkorlik faoliyatini amalga oshirish mexanizmi sifatida ajratib talqin qiladi. Uning fikricha, shaxsning atrofdagilari bilan muomalasi qanchalik hilma hil va boy bo'lsa, shunchalik uning taraqqiyoti muvaffaqiyatli amalga oshadi.

V.M.Bexterev muomalaning ijtimoiy roli va funksiyasini taxlil etishda uning ko'rinishlari bo'lmish taqlid va ta'sirlanish ahamiyatiga to'xtaladi. Uning fikricha, taqlid bo'lmasa, shaxs ham yuzaga kelmas edi. Chunki, taqlid o'z materialini muomaladan olishini uqtiradi. Ta'sirlanish esa, ijtimoiy jarayonlar namoyon bo'lishining omili tariqasida qaraladi.

V.M.Bexterev muomalani shartli ravishda bevosita va bilvosita turlarga ham ajratadi. Bilvosita muomala tarkibiy qismlari sifatida xat, telefon, telegramma, erkalash, urishish va boshqalarni olsa, bevosita muomala turiga nutqni kiritadi. Shuni ta'kidlash joizki, muomalani eksperimental o'rganish ishini V.M.Bexterev tomonidan amalga oshirilgandir.

V.N.Myasihevning «Shaxsning munosabatlar psixo-logiyasi» konsepsiyasiga ko'ra, shaxs "dialogik" xususiyatli, muomalaning shaxsiy tajribasi va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabat maxsuli sifatida namoyon bo'ladi. Shu tufayli shaxsda qiziqish darajasi, emotsiya kuchi, xoxish, extiyoj, ijtimoiy yo'nalganlik kabi shaxsni

xarakatlantiruvchi ichki kuchi tarkib topadi va bu uning kechinmalari, xulqida, xarakatida ifodalanadi.

V.N.Myasihevning shaxslararo munosabatlar psixolo-giyasiga oid asarlarining taxlilidan ko'rinadiki, muomala jarayoni shaxsning xususiyatlari, xarakteri, mayili, qobiliyatiga ta'sir etishdagina rivojlanmasdan, balki muloqotda ishtirok etuvchilarning psixik jarayonlari bilan ham bog'liqligi namoyon bo'lar ekan. Shuning uchun V.N.Myasihev ishlarining alohida tomoni muomala, uning psixologik tuzilmasi bilan muloqot ishtirokchilari psixik jarayonlari orasidagi munosabat xususiyatlarini ochib berilishida yaqqol ko'rinadi.

Shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan uch hil vazifalar va murakkab jarayon to'zilmasini G.M.Andreeva "Ijtimoiy psixologiya" kitobida ushbu tuzilishini taklif etadi:

muloqotning kommunikativ tomoni, ya'ni o'zaro munosabat yoki muloqotga kirishuvchilarning o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi jarayoni sifatida;

muloqotning interaktiv tomoni, ya'ni muloqotga kirishuvchilarning xulq atvorlariga ta'sir jarayoni sifatida;

muloqotning perseptiv tomoni, ya'ni muloqotga kirishuvchilarning bir birlarini idrok etishlari va tushunchalari bilan bog'liq jarayon sifatida.

O'zaro munosabatlarda muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligini B.F. Parigin shunday yozadi: "Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar o'rtasida axborot almashinuvi jarayoni;
- c) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- d) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- e) bir biriga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- f) shaxslarning bir birini tushunishi jarayoni".

Demak, shaxslararo munosabatlar, ya'ni muloqot jarayoni odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar orasida eng murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan xarakterlanar ekan, ijtimoiy psixologiya fanida olib borilgan jahon psixologlarining juda ko'p tadqiqotlari shu fenomenni shaxs uchun ham zarur, ham oddiy, ham ta'sirchan deb qaraydi.

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek halkining eng nodir va buyuk xislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol-axvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'ida ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz. Bu kabi birlamchi kontakt usullari boshqa millat va halqlarda ham bor, ya'ni bu jihat milliy o'ziga xoslikka ega.

Uning ikkinchi muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lish faktlari shuni ko'rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday holat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya'ni odamni yo'lg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yo'lg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga

beriluvchanlik, hadiksirash, havotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yo'lg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan yerda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u, shu hayotsiz g'or ichidagi tanxo tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim...»

Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniksa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma-yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda usha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnoma asosida bir-birini yoqtirgan va bir-birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Insoniyatning muomala quroli til bo'lib, odamlar bir-birlari bilan bo'ladigan barcha munosabat va muloqotlarini so'zlashish yordamida amalga oshiradilar. Dono xalqimizda so'zlashish qoidasi, tilga ehtiyotkor bo'lish, har bir so'z, har bir jumlaning o'ylab gapirish, qisqasi - so'zlash odobi va muloqot madaniyati haqida juda ko'p ibratli hikmatlar bor. Ulardan birida keltirilishicha, odamning sharafi va iftixori uning madaniy so'zlashishida ko'rinadi. Kimdakin so'zlashish odobiga rioya qilmasa, unda insoniylik ham ko'rinmaydi. Gap o'rinli va ma'noli aytilgan bo'lsa, uni jim turib tinglamoq foydalidir.

Bu borada so'zlashishning sakkizta qoidasini keltirishni lozim

deb topdik:

- bemavrid gapirmaslik;
- lutf ila yumshoqlik bilan so'zlashish;
- ochiq chehra bilan gapirib, yuzda samimiylikni saqlay

olish;

- eshituvchiga malol kelmaydigan tarzda gapirish;
- faqat foydali gaplarni gapirish.
- o'ylab, andisha bilan so'zlash, o'ylamay aytilgan gap pushaymonlik keltirishini yodda tutish;
- kishilar gapirayotganda oraga gap qo'shmaslik, so'zini bo'lmaslik;
- ko'p gapirmaslik, zero, bu yaxshilik alomati emas.

Har bir odam kishilarga zarar keltiradigan so'zlardan o'zini saqlashi lozim. Zero, muqaddas Hadisi sharifda aytilganidek, "O'zingga ravo ko'rmagan yomon narsani birovgga ham ravo ko'rma". Buning uchun tilga ehtiyot bo'lish, kishi dilini og'ritadigan, ko'ngilni qoldiradigan, izzat nafsiga tegadigan, or-nomusi, sha'nini oyoq-osti qiladigan so'zni hech so'zlamaslik darkor. Hamma vaqt shirin so'z bo'lish, doimo yaxshi, ma'noli so'zlash kerak, chunki, tildan yetgan ozor nayza ozoridan yomon... .

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi va samaradorlikning muhim omillaridandir.

Odamlar bir - birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri - o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir.

Psixologik ta'sir - bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir. Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

1. *Verbal ta'sir* - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bunday asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki, nutq - bu

so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi - so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

2. Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib - pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Albatta bajaraman!», desa ishonamiz, albatta.

3. Noverbal ta'sirning ma'nosi «nutqsiz»dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim) qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, xidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o'rtog'ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, «Ko'rganimdan biram xursandman», desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir - birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganda, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishni o'ylar ekan. Aslida esa, o'sha so'zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o'ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o'zgarishi mumkin albatta, lekin halq ichida yurgan bir maqol to'g'ri: «Ust-boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi».

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga ham bog'liq. *Ta'sirning tashabbuskori* - bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida

ta'kidlangan vositalardan foydalanadi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o'rnidan turib kutib oladi, iltifot ko'rsatadi, xol-ahvolni ham quyuqroq so'raydi va so'ngra gapning asosiy qismiga o'tadi.

Ta'sirning adresati - ta'sir yo'naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo'lmasa, yoki adresat tajribalirok sherik bo'lsa, u tashabbusni o'z qo'lga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo'ladi.

Oxirgi yillarda «professionalizm» tushunchasi tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Chunki jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirish, mehnat unumdorligini «inson omili»ni takomillashtirish hisobiga oshirish davr talabi bo'lib qoldi. Ayniqsa, odamlarni boshqarish sohasidagi professionalizmga katta e'tibor qaratilmoqda. Juda ko'pchilik mutaxassislar barcha bajaradigan funksiyalari orasida odamlar bilan til topishish, ularga ta'sir ko'rsatish, ular faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish eng murakkablaridan ekanligini e'tirof etmoqdalar. Odamlar bilan normal munosabatlarni o'rnata olmaslik, ayniqsa, biznes sohasida amaliy sheriklarning holatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, o'z nuqtai nazariga o'zgalarni professional tarzda qo'ndira olmaslik, «birov»ni, uning ichki kechinmalari va o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada *kommunikativ uquvsizlik*, yoki *diskommunikatsiya* holatini keltirib chiqaradi. Bunda odamlar oddiy til bilan aytganda, bir - birlarini tushunolmay qoladilar, shuning oqibatida pishib turgan loyiha yoki yaxshi reja amalga oshmasligi, bir necha oylarga cho'zilib ketishi mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasining tadbqiqiy yo'nalishida, boshqaruv psixologiyasida katta yoshli odamlarni kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir korxonada, xususiy firma yoki davlat muassasasini boshqaruvchi menejer, rahbar tayyorlash muammosi ana shu rahbarlarni, boshqaruvchilarni psixologik jihatdan odamlar bilan ishlashga o'rgatish muammosini chetlab o'tolmaydi. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis - vrach, muhandis, o'qituvchi, iqtisodchi, agronom, quruvchi, jurnalist, madaniyatshunos yoki boshqalar ham kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamoaga kirishib, ko'pchilik bilan til

topishib, o'z professional mahoratini ko'rsata olmaydi. Har bir ziyo'li inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak.

Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ymoqda. To'g'ri, muloqotga kirishish - ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatlardan, u tabiiy va hayotiy narsa. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay, atrofidagilar bilan aktiv muloqotga kirisha boshlaydi. Lekin masalaning paradoksal tomoni ham shundaki, yillar o'tgan sari ongli, aqli odam har bir gapini o'ylab gapiradigan, har bir qadamini o'ylab bosadigan bo'lib qoladi, bu uning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi vositadir. Bu muloqotga kirishishga ruhan tayyorlanishning ahamiyatini ham odam anglashini taqozo etadi. Shunday qilib, ana shu eng tabiiy va bir qarashda oddiy inson faoliyati shu qadar murakkab va serqirradi, uning mexanizmlarini o'rganish, guruhlarda to'g'ri munosabatlarni tashkil etish va odamlarni samarali muloqotga o'rgatish muammosi bugungi ijtimoiy psixologiyaning muhim masalalaridandir.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlarning biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni - tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarining aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35 - 40 % oylik maoshlarini odamlarni «tinglaganlari» uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer «Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini

xoxlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy halaqit beruvchi narsa - bu bizning o'z fikr-o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida hayo'limiz boshqa yerda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz: *so'zma - so'z qaytarish* va *boshqacha talqin etish*. Birinchisi, suhbatdosh so'zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo'llab-quvvatlashni bildiradi. Ikkinchi usul esa - sherigimiz so'zlarini tinglab, undagi asosiy g'oyani muxtasar, o'zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, hattoki, undagi g'oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bundan tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo'lib, «Yo'g'-e?», «Naxotki?», «Qara-ya?», «Yasha!» luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o'z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs yetakchi, u suhbatning mutloq xokimi, degan tasavvur unchalik to'g'ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug'diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o'zi. Tinglayotgan odam ma'noli, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa, aksincha, o'zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o'rinli foydalanishga o'rgatishdir.

Professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

■ *aktiv holat*, bu - agar kreslo yoki divan kabi mebel bo'lsa,

unga bemalol yasanib, yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so'ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;

■ *suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish*, bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishning samarali yo'lidir.

■ *o'ychan jimlik*, bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo'li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o'z-o'ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo'lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yo'tadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o'rgatishga juda katta e'tibor beriladi. Bu boradagi fanning o'z uslubi bo'lib, uning nomi ***ijtimoiy psixologik trening*** (IPT) deb ataladi. IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

Amaliy muloqot treningi - IPTning bir ko'rinishi bo'lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo'ladigan kommunikativ malaka, ko'nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzoqaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo'l-yo'riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so'zlashga

o'rgatish, majlislar o'tkazish, janjalli, nizoli holatlarda o'zini to'g'ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bunday asosiy narsa - trening qatnashchilari ongiga birovlarini tushunish, o'zini o'zga o'rniga qo'ya olish, boshqalar manfaatlari bilan o'zinikini uyg'unlashtira olish g'oyasini singdirishdir. Treninglar mobaynida *guruhiy munozaralar, rolli o'yinlarning* eng optimal variantlarini sinab, mashq qilinadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1) Shaxs - ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi nimada?
- 2) Insoniy munosabatlarda shaxslaro munosabatlar qanday shakllanadi va namoyon bo'ladi?
- 3) Shaxslararo munosabatlarni o'rganish psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Siz bu fikrga nima deysiz?
- 4) Shaxslararo munosabatlarda muomalaning inson psixik dunyosiga ta'siri masalalarini qaysi psixolog olimlar o'z tadqiqot ishlarini olib borganlar?
- 5) Shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan uch hil vazifalar va murakkab jarayon tuzilmasini G.M.Andreeva "Ijtimoiy psixologiya" kitobida ushbu tuzilishini qanday taklif etadi?
- 6) O'zaro munosabatlarda muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligini B.F. Parigin qanday izohlaydi?
- 7) Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Siz bu fikrga qanday qaraysiz? O'z fikringizni bildiring
- 8) So'zlashishning sakkizta qoidasi haqida nima deya olasiz?
- 9) Professional tinglash texnikasiga nimalar kiradi?

Testlar

1. Shaxs - ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishi nimani anglatadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) shaxsning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi;
- b) shaxsning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatmaydi;
- c) shaxsning doimo o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi;
- d) shaxsning doimo o'zaro ta'sir doirasida bo'lmislini anglatadi.

2. Muloqot faoliyatiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) texnik vositalar orqali amalga oshiriladigan, biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi, sub'ekt-sub'ekt tipli, yoki sub'ekt-ob'ektki bo'lishi mumkin;

b) «yuzma-yuz» bo'lishi, yoki u yoki bu texnik vositalar orqali amalga oshiriladigan, biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi, sub'ekt-sub'ekt tipli, yoki sub'ekt-ob'ektki bo'lishi mumkin;

c) «yuzma-yuz» bo'lishi, yoki u yoki bu texnik vositalar orqali amalga oshiriladigan, do'stona bo'lishi, sub'ekt-sub'ekt tipli, yoki sub'ekt-ob'ektki bo'lishi mumkin;

d) «yuzma-yuz» bo'lishi, yoki u yoki bu texnik vositalar orqali amalga oshiriladigan, biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy bo'lishi, sub'ekt-sub'ekt tipli, yoki sub'ekt-ob'ektki bo'lishi mumkin.

3. Insoniy munosabatlar nimalarni nazarda tutadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, tashvishu - quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi;

b) odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalarni nazarda tutadi;

c) odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu - quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi;

d) odamlar o'rtasida ro'y beradigan his-kechinmalar, tashvishu - quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi.

4. Muomala shaxslararo munosabatlarda odamlar o'zaro psixik jihatdan qanday jarayonlarini kechiradilar? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) psixik jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashinadilar, ta'sirlanadilar, idrok etadilar, tushunish va baxolash jarayonlarini kechiradilar;

b) psixik jihatdan aloqaga kirishadilar, ta'sir o'tkazadilar, ta'sirlanadilar, idrok etadilar, tushunish va baxolash jarayonlarini kechiradilar;

c) o'zaro axborot almashinadilar, ta'sir o'tkazadilar, ta'sirlanadilar, idrok etadilar, tushunish va baxolash jarayonlarini kechiradilar;

d) psixik jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot

almashinadilar, ta'sir o'tkazadilar, ta'sirlanadilar, idrok etadilar, tushunish va baxolash jarayonlarini kechiradilar.

5. Shaxslararo munosabatlarda muomalaning inson psixik dunyosiga ta'siri masalalari bo'yicha kimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, B.G.Ananyev, A.V.Zaporojets, A.A.Bodalev, B.F.Lomov, A.A.Leontyev, M.I.Lisina;

b) S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, B.G.Ananyev, A.V.Zaporojets, A.A.Bodalev, B.F.Lomov, A.A.Leontyev, M.I.Lisina;

c) L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, B.G.Ananyev, A.V.Zaporojets, A.A.Bodalev, B.F.Lomov, A.A.Leontyev, M.I.Lisina;

d) L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, B.G.Ananyev, A.V.Zaporojets, A.A.Bodalev, B.F.Lomov, A.A.Leontyev, M.I.Lisina.

6. L.S.Vigotskiy qarashlari bo'yicha ichki nutq va tashqi nutq nima deb aytiladi?

a) ichki nutq - ekstereorizatsiya va tashqi nutq - ekstereorizatsiya;

b) ichki nutq - va tashqi nutq - intereorizatsiya;

c) ichki nutq - intereorizatsiya va tashqi nutq - ekstereorizatsiya;

d) ichki nutq - ekspluatatsiya va tashqi nutq - ekstereorizatsiya.

7. V.M.Bexterev muomalani shartli ravishda bevosita va bilvosita qanday turlarga ajratadi?

a) doimiy va bilvosita turlarga ajratadi;

b) bevosita va doimiy turlarga ajratadi;

c) o'tkinchi va bilvosita turlarga ajratadi;

d) bevosita va bilvosita turlarga ajratadi.

8. O'zaro munosabatlarda muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligini B.F. Parigin qanday misollar bilan isbotlaydi. To'liq va aniq javobni belgilang.

a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni, individlar o'rtasida axborot almashinuvi jarayoni, bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni, bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni, bir biriga hamdardlik bildirish imkoniyati, shaxslarning bir birini tushunishi jarayoni;

b) individlar o'rtasida axborot almashinuvi jarayoni, bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni, bir kishining

boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni, bir biriga hamdardlik bildirish imkoniyati, shaxslarning bir birini tushunishi jarayoni;

c) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni, bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni, bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni, bir biriga hamdardlik bildirish imkoniyati, shaxslarning bir birini tushunishi jarayoni;

d) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni, individlar o'rtasida axborot almashinuvi jarayoni, bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni, bir biriga hamdardlik bildirish imkoniyati, shaxslarning bir birini tushunishi jarayoni.

9. Psixologik ta'sir deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) bu turli vositalar yordamida insonlarning hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir;

b) bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir;

c) bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir;

d) bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

10. Verbal ta'sir deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir, bundagi asosiy vositalar muloqotdir;

b) bu hatti-harakatimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir, bundagi asosiy vositalar so'zlardir;

c) bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir, bundagi asosiy vositalar so'zlardir;

d) bu nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir, bundagi asosiy vositalar so'zlardir.

11. Paralingvistik ta'sir deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi omillar;

b) bu nutqning atrofidagi kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar;

c) bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni susaytiruvchi omillar;

d) bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar.

12. Professional tinglash texnikasiga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) aktiv holat, suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish, o'ychan jimlik;

b) suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish, o'ychan jimlik;

c) aktiv holat, suhbatdoshga nisbatan samimiy o'ychan jimlik;

d) aktiv holat, suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psycho.all.ru
7. www.psychology.net.ru

8.2. Pedagogning pedagogik faoliyatni egallashidagi psixologik muammolar. Kasbiy pedagogik ong va o'z-o'zini anglash.



Tayanch so'z va iboralar: Muomala-axborot jarayonidir, muomala vositasi, shaxsning o'tmishdagi tajribasi, talabalarning xatti-xarakatlari, muomala axloq ko'rki, Pedagogning nutqi, Muomala madaniyati, Muomalaning tarkibiy gismi, pedagogik jarayonda yetakchi kishi, Muomala odo biga rioya qilish, hamkorlik faoliyati, jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, O'qituvchi professiogrammasi.

Muomala-axborot jarayonidir. Pedagog bevosita shaxslar bilan muomalada o'z tarbiyalanuvchilari, umuman, jamoa haqida, undagi ichki jarayonlar haqida goyat hilma-hil axborotga ega bo'ladi va

xokazo. Pedagog ham o'z navbatida muomala jarayonida o'z tarbiyalanuvchilariga maqsadga qaratilgan axborotni ma'lum qiladi.

Pedagog muomala vositasi orqali qanday axborot olishini qarab chiqar ekanmiz, talaba shaxsi haqidagi axborotning muximligini aloxida ta'kidlab o'tish kerak. Muomala shaxsni goyat hilma-hil sharoit va ko'rinishlarda o'rgatishga imkon beradi. Pedagog talabalar bilan muomala qilar ekan, juda mayda gismlarni ham anglab olishga qodir bo'ladi. Bular sirtidan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmasada, shaxsda sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muxim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlari bo'lishi ham mumkin, bunda pedagog shaxsi katta rol o'ynaydi. Ayni paytda, xodisaning turli kishilar tomonidan talqini shaxsning o'tmishdagi tajribasiga bog'liqligi bilan izohlanadi, bu tajribaning uch jixati bor: umuman, xayotiy tajriba, pedagogik faoliyat tajribasi va muayyan jamoa bilan talabalar bilan muomalada bo'lish tajribasi.

Nixoyat, pedagogning talabalar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u talabalarning xatti-xarakteridagi chuqur ma'no va xaqiqiy sababni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida u o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va talabalarning xulq-atvor usullaridan foydalanadi. Pedagogning talabalar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi o'rnini to'ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatidan oldin sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala talabalarning faoliyatiga hamroxlik qiladi. Nixoyat, boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatidan keyin boradi.

Muomala axloq ko'rki sanaladi. Xar bir kishining qanday dunyoqarashga egaligi, bilimliligi uning muomalasidan ma'lum bo'ladi. Muomala insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositalaridir. Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo'lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro'-e'tibor topadi. So'zga chechanlik xech qachon insonga obro' keltirmaydi. Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlarimiz tilga, so'zga xurmat bilan yondashishlarini uqtirib o'tganlar. Ulug' bobomiz Alisher Navoiy muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati

tog`risida, shirinso`zlik haqida nurxikmat fikrlar bayon qilganki, bugungi kunimiz uchun ham o`z ahamiyatini yuqotgan emas. «Til shirinligi ko`ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa, foydali shirin so`z sof ko`ngillar uchun asal kabi totlidir» deydi A.Navoiy. Pedagog talabalarga bilim berish uchun bir qatorda ular nutqining rivojlanishiga ham aloxida ahamiyat beradi va bunda u turli pedagogik usullardan foydalanadi.

Talabalar nutqini o`stirishda pedagog (so`zi) muxim ahamiyatga ega: bir tomondan, uning nutqi talabani o`qitish va tafakkurini rivojlantirishning muxim omili bo`lib xisoblanadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, pedagogning nutqi obrazli, chiroyli, jarangdor, namunali bo`lmog`i, talaba diqqatini o`ziga tortmog`i lozim. Zotan, nutq pedagogning o`z mutaxassisligi qay darajada loyiq ekanligini ifodalaydigan o`lchov, ko`rsatkich xisoblanadi. Shuning uchun nutq ustida ishlash, nutq madaniyatini takomillashtirib borish xar bir pedagogning eng asosiy ijtimoiy burchi va mas`uliyati xisoblanadi. Ta`lim – tarbiya ichida nutqning ta`sir kuchi nixoyatda kattadir. Pedagogning nutqi talabalarining o`zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvori va fikr yuritishlariga ham ta`sir etuvchi kuchli vositadir. Pedagogning nutqida uning xissi, intilishlari iroda va e`tiqodi aks etadi. U nutq yordami bilan talabalarda xursandchilik, ruxlanish, muxabbat, sadoqat, g`azablanish, nafratlanish xislarini tug`diradi. Xalq bilan birga turish, birga yashash muosharat deb ataladi. Odamlarning bir-birlari bilan bo`lgan munosabatlarining go`zalligi, muloyimligiga «Muosharat odobi» deyiladi. Insonning eng ulug`, lekin murakkab va mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya`ni jamiyatda o`z o`rnini topib yashashida. Bu faoliyatning murakkabligi shundaki, ko`pchilikka qo`shilish, ular bilan (alohida) ahil bo`lib yashash uchun insonda shunga yarasha muomala va munosabat bo`lishi kerak. Muomala va munosabat ko`pchilikning diliga tog`ri kelmaydigan qo`pol va dilozor odamni ko`pchilik yoqtirmaydi. Insonlar xushfe`l, shirinsuxan, mard, muomalasi shirin kishilarni dildan yoqtirishadi va xurmat-e`tibor qilishadi. Insonlar orasida munosib o`rin topish, inoq, ittifoq yashash shartlaridan biri odamning kamtarligidir. Kamtarin inson xech qachon o`zining yutug`i bilan, boy-davlatliligi bilan, ilm-xunari bilan maqtanmaydi, hamma vaqt kamgap, sodda bo`ladi. Ammo insondagi kamtarlik

samimiy bo`lmog`i zarur.

So`z inson qalbini eritadi, so`z inson qalbini jaroxatlaydi. «Tig` yarasi ketar, so`z yarasi ketmas» degan xalq maqoli bekorga aytilgan emas. Chunki, so`zning qudrati benixoya katta. Inson o`z so`ziga, tiliga nixoyatda extiyotkor bo`lmogi lozim. Ayrim yoshlarimizda so`zga, tilga e`tibor ancha sust. Eng avvalo, yoshlarga muomala madaniyatini, kattalar oldida maxmadonalik qilmaslikni, kattalar gapini bo`lmaslikni, yoshi ulug`larga gap qaytarmaslikni o`rgatishimiz zarur.

Muomala madaniyati hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda shuning uchun ham biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz kerak. Insonning qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligini muomala orqali namoyon bo`ladi.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so`z yordamida yetkazadi, amalga oshiradi. Shu tufayli so`zlashuv munosabatlarini nihoyatda go`zal va muloyim bo`lishini xayot taqozo etadi. So`zga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan bo`ladi. Bundaylarni odamlar yoqtiradi, hurmat qiladi. So`zlashuv ham o`ziga xos san`atdir. Bu san`atni mukammal o`rganish xar bir insonga zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal o`rganmoq xar bir insonning muqaddas burchidir. Tilni bilgach: uni ishlata bilish san`atini egallamoq inson uchun zarurdir.

Shirin so`zlik va go`zal nutq xech qachon, xech qayerda sotilmaydi. Bunga erishmoqlikning birgina yo`li bor. Bu ham bo`lsa, tinimsiz shirin so`zlashni mashq qilmoqlikdir. Bu esa, asosan, ko`p kitob o`qish yo`li bilan amalga oshiriladi. Muomala insonning kimligini ko`rsatuvchi yuzidir.

Muomala kategoriyasi umumiy psixologiya fanining asosiy kategoriyalaridan biri xisoblanib, u o`z ichiga shaxslararo munosabatning eng muxim mexanizmlarini qamrab olgan. Psixologiya fanida muomala kategoriyasi keng aloqani mujassamlashtirib, odamlar o`rtasida o`zaro munosabatni aks ettiradi. Muomalaning eng muxim tarkibi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muxim rol o`ynaydi. Muomala hamkorlik faoliyatining extiyojidan vujudga kelib ko`p qirralari jarayonidir. Muomala quyidagi tarkibiy gismlardan tashkil topgan:

1) kommunikativ (bir tomonlama axborot o`zlash);

2) muomala o`z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o`zaro axborot almashinuvini qamrab olgan bo`lib, kommunikativ jabxa sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muxim vositalaridan biri tilga va nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar;

3) interfaol (ikki tomonlama ta`sir) muloqotga kirishuvchilarni o`zaro ta`siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so`z orqali fikr almashinuvi, balki xatti xarakati va xulq-atvori o`zaro ta`sir o`tkazish tushuniladi;

4) o`zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi. Bunda muloqotga kirishuvchilar o`zaro bir-birini idrok qilishi jarayoni namoyon bo`ladi. Ya`ni, ulardan biri ikkinchisining ishonchiga loyiq aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega inson sifatida idrok qilinadi.

Pedagogik muomala-bu pedagogning talabaga ta`sir o`tkazish, ularning bir-birlari bilan hamkorliklarining faoliyatidir.

Hamkorlik o`zaro axborot almashinuvi-turlicha kommunikativ vositalar yordamida pedagog tomonidan talabalar bilan o`zaro munosabatni tashkil qiladi. Pedagogik faoliyatda muomala muayyan dastur asosida maqsadni amalga oshirish, rejalashtirish va o`tkazish funksiyasini bajaradi. Ya`ni muomala:

- o`quv faoliyatini yakka xol bajarishning vositasi;

- tarbiya jarayonini ta`minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi;

- ta`lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta`minlovchi pedagog bilan talabalar o`zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning usuli;

- talaba individualligini takomillashtirish, iste`dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon sifatida xizmat qiladi.

Muallim pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o`qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham pedagogga, uning axloqiy sifatlariga talabalar bilan muomalasiga nisbatan aloxida yuksak talabalar qo`yiladi. Muallim xayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar-yosh talabalar bilan muloqotda bo`ladi. Talabalar ta`lim-tarbiya jarayonida umuminsoiiy va milliy axloq normalarini o`zlashtiradi. Talaba muomala odobini asosan pedagog

timsolida anglab oladi. Pedagoglar jamoasida pedagoglar o'rtasidagi muomala-munosabatlar insonparvarlik, ixtiyoriylik tamoyillariga asoslanadi. Ular odatda, ikki hil bo'lib, biri-rasmiy, ikkinchisi-norasmiy muomala deyiladi. Rasmiy muomala-munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunlari, direktiv xujjatlariga asoslanadi. Norasmiy muomala pedagogik etikaning qonuniyatlariga asoslanadi va jamoaning xar bir a'zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muomala odobi psixologik qonuniyatlar, odob normalari, qoidalarida talablari pedagoglar jamoasining fikri asosida bajariladi. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bir kishining ishi emas. Uni pedagoglar jamoasi bajaradi. Ta'lim-tarbiyada ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun o'quv yurti butun jamoasi, hamma pedagoglar birlashib xarakat qilishlari lozim. Xar bir muallimning xatti-xarakati, xulqi, muomalasi pedagoglar jamoasining maqsadi talablariga mos bo'lmog'i kerak. Jamoaning ayrim pedagogga ta'siri pedagoglar jamoasida shakllangan muomala odobi munosabatlariga bog'liq. Xar bir talabani tarbiyasi uchun ma'suliyatning birligi pedagoglar jamoasining talabaga nisbatan talablaridan biridir. Darsda talabalarning intizomi pedagogik jamoadagi muomala odobi axloqiy munosabatlar darajasini ko'rsatadi. Kollejda o'quv intizomini saqlash butun pedagoglar jamoasining ishi. Pedagoglar jamoasida o'zaro yordam va ishonchning mavjudligi muomala odobiga amal qilishning muxim shartidir. Muomala odobiga rioya qilish pedagoglar jamoasining maqsadiga pedagoglarning axloqiy saviyasiga bog'liq. Pedagoglar jamoasida o'zaro muomala munosabatlar o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishga mas'uliyat va intizomni saqlashga asoslanadi. Pedagogik jamoada sog'lom aqliy-ruxiy muxit mavjud bo'lsa, axloqiy norma va yo'l-yo'riqlar bajarilibgina qolmasdan, balki ular xar bir muallimning e'tiqodiga, odatiga aylanadi. Pedagoglar jamoasining shaxs va jamoa uchun foydali ishlariga asoslangan ta'siri natijasida muallimning ma'naviy qiyofasida chuqur sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Ijtimoiy burchni tog'ri anglash, xulqini tog'ri baxolay olish odati shakllanadi. Jamoada o'zaro muomala yaxshilanadi. Muomala jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonun-qoidalar muxim ahamiyatga ega. Bu nazoratda uchta muxim ta'sir etish vositasi ishtirok etadi: ma'qullamaslik, qoralash, jazolash.

Muomala jarayonida talaba yoki talaba xulqi ijtimoiy qonun-qoidalar maromiga zid kelsa, u xollda uning xatti-xarakati qoralanadi, e'tiroz, tanbex, eslatish kabi vositalar bilan ta'sir o'tkaziladi. Muomala vaqtida odob, odoblilik muxim ahamiyatga ega. Uning asosiy vazifalari: axborot almashuv, o'zaro ta'sir, o'zaro idrok qilish, turli amalga oshishini idora qilib turadi. Xar bir fikr bildirilganda, muloqotdosh qabul qilayotganini faxmlab turish, tashqi ko'rinishlari o'zgarishiga e'tibor berish, uzr so'rash tavoze bilan murojaat qilish evaziga muomala odobi ushlab turiladi. Muomala jarayonida ba'zi bir xatti-xarakat o'ylamay bildirilgan fikr, ortiqcha imo-ishora odobsizlikka olib keladi. Odobsizlik esa, nizoli vaziyat, qarama-qarshilik, ziddiyatli vaziyatni keltirib chiqaradi. Buning natijasida muomala fikr almashuv o'zini vazifasini nizoli vaziyatga bo'shatib beradi. Pedagogik muomalada psixologik aloqa o'rnatish aloxida ahamiyatga ega, chunki talaba bilan o'zaro munosabat, xurmat ishonch negizida quriladi.

Bunda pedagog talabaning xuquqiy majburiyatini, uning kollejdagi, jamoat joylarida, oilada bajaradigan vazifasi nimadan iborat ekanligini e'tibordan chetga chiqarmasligi lozim.

Pedagogning talabalarga ta'sir o'tkazish samarasi uning prinsipiialligi va talabchanligida o'z aksini topadi. Bundan tashqari u o'ziga ham o'ta talabchan bo'lmog'i, shaxsiy namunasi bilan tabiiy ravishda obro'-e'tibor qozonmog'i lozim. Muomala jarayonida va hamkorlik faoliyatida pedagogning talabalarga ta'sir o'tkazish natijasida ularda:

- o'z-o'zini va o'zgalarni xurmat qilish;
- o'z-o'zini va boshqalarning faoliyati, xulqini baxolash;
- o'z-o'zini boshqarish;
- o'z-o'zini nazorat va o'zgalarni nazorat qilish;
- o'z -o'zini takomillashtirish va yangi fazilatlarini egallash

shakllanadi.

Do'stona muomalada talaba bilan pedagog o'rtasidagi bilimlarni puxta o'zlashtirishni ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobi, muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga talabalarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon

bo'lishi mumkin. Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida pedagog bilan talaba o'rtasidagi muomala munosabatlar katta o'rin egadlaydi. Pedagoglar jamoasida ijodkorlik muxiti muomala odoibining shakllanishida jamoat tashkilotlarining roli kattadir. Ular muallimning obro'sini oshirish jamoat ishlariga faol qatnashtirish yo'li bilan pedagogning axloqiy pedagogik madaniyati, ma'suliyatini oshirishiga ko'maklashadi. Muallim xar-bir so'zini o'ylab gapirishi, boshqalarning, kasbdoshlarining so'zi, fikri, muloxazalarini tinglay olishi ham pedagogik jamoada o'zaro muomala munosabatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ota-onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar, o'quvchilar esa, o'qituvchilarni uch hil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar. Jumladan, **birinchidan**, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatliligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari; **ikkinchidan**, o'qituvchining sezgirligi, talabchanligi bilan bog'liq tashqi xislatlari va xulq atvoriga qarab; **uchinchidan**, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira bilishi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liq xislatlariga qarab xarakterlab beradilar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli hilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi. Shunisi muhimki, zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan shaxsiy xislatlarni batafsil ko'rib chiqish kerak. Bu qanday xislatlar ekan?

Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga o'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan N.V. Kuzmina, V. Slastenin, F.N. Gonobolin, o'zbekistonlik psixologlardan R.Z. Gaynutdinov, M.G. Davletshin, S. Jalilova, A. Jabborov, M. Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'qituvchilik kasbini atroflicha o'rganib,

uning kasbiy xislatlarini ancha batafsil ko'rsatib berish imkoniyatini yaratdi. O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu hildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi professiogrammasi ishlab chiqilgan.

Psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M. Abdullajonova, Ye. Gladkova, L. Mashhurov, T. Hamroqulov, E. Hidirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari o'zbek tili va adabiyoti, o'zbek maktablarida rus tili va adabiyoti, matematika, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari kabi qator mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining taxminiy modelini (namunasini) aniqlab olish imkoniyatini berdilar.

Professiogrammada muhim xislatlari borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining quyidagi xislatlari ko'rsatib berishi lozim:

1) O'qituvchining shaxsiy xislatlari:

- bolalarni yaxshi ko'rishi, ularni sevishi;
- amaliy-psixologik aql-farosatlilik;
- mehnatsevarlik;
- jamoat ishlarida faollik;
- mehribonlik;
- kamtarlik;
- odamiylik, dilkashlik;
- uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish;
- o'z bilimini oshirishga intilish.

2) Kasbiga xos bilimi:

- ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;
- psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi;
- etnopsixologik bilimlarni egallashi;
- hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi;
- hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallanganligi;

maktab yoshida bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi;

- o'z fanini chuqur bilishi;
- o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi;
- ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

3) O'z kasbiga xos xislatlari:

- milliy qayta qurish mafkurasi bilan mustaqil davlat mafkurasini tushunishi;

- zamonaviy maktabda olib boriladigan o'quv-tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an'analar va urf-odatlarining ahamiyatini tushunishi;

- o'qituvchining kuzatuvchanligi;
- o'z diqqat-e'tiborini taqsimlay olishi;
- pedagogik fantaziya (xayo'l)ning rivojlanishi;
- o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi;
- o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini tuta bilishi;
- pedagogik takt;
- nutqning emotsional ifodalanishi.

4) Shaxsiy - pedagogik uddaburonligi:

- dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;

- o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi;

- ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi;

- pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;

- bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi;

- o'quv massadlarini rejalashtira olishi;
- o'zining talim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

5) Tashkilotchilik malakalari:

- bolalar jamoasini uyushtira bilishi;
- turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi;
- bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;
- amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez hal qilib olishi.

6) Kommunikativ malakalari:

- bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi;
- bolalarning jamoalararo va jamoa ichida o'zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi.

7) Gnostik malakalari:

- bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi;
- o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olishi;
- psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi;
- o'quvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvor sabablarini tushuntirishni bilishi.

8) Ijodiy xislatlari:

- pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi;
- o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;
- o'zini o'quvchi o'rniga qo'yib, bo'lib o'tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi;
- avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati;
- o'zining o'quvchiga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra bilishga intilishi.

Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi;

- shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo'nalishi;
- pedagogik mahorat va qobiliyati;
- xarakterining psixologik xususiyatlari;
- bilish faoliyati;
- o'qituvchi shaxsining bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti,

Tayyorlangan o'qituvchi shaxsining yuqoridagi ana shu talablarga mos kelish yoki kelmasligi oliy pedagogika maktablarining qanday o'qituvchi tayyorlashini ko'rsatib beradi.

Pedagogik kasb, ma'lumki, har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatdan yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faoliyat bilan shug'ullanishga moyil, oqibat natijada esa, pedagogik qobiliyatga ega bo'lgan kishilargina erisha oladi.

O'qituvchining eng muhim xislatlari quyidagilardan iborat:

- o'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashidan iboratdir;

- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;

- oliyanoblighi, aqli, farosati, ma'naviy pokligi, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;

- o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatligidir.

Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir:

-shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomonidan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

-yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

-o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

- o'z ishiga ijodiy yondashishi;

- bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;

- pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

-o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga to'la javob bera oladigan bo'lishiga intilishi shart.

O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida tevarak-atrofidagi kishilar, maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim.

O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligining o'ziyoq muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga kelsada, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi, lekin bu talablar hamma vaqt ham bir biriga mos kelmasligi mumkin. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha xalq ta'limi bo'limlari va maktab direktorlari o'qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har hil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishini talab qilsalar, maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lishini bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar, maktab direktori esa, bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1) Nima uchun muomalani axborot jarayoni deyilar?
- 2) Pedagog muomala vositasi orqali qanday axborot oladi?
- 3) Pedagogning talabalar bilan kundalik muomalasi qanday bo'lishi lozim?
- 4) Muomala axloq ko'rki sanaladi deyilar. Bunga o'z shahsiy fikringizni bildiring.
- 5) Talabalar nutqini o'stirishda pedagog (so'zi) qanday ahamiyatga ega?
- 6) «Tig' yarasi ketar, so'z yarasi ketmas» degan xalq maqolining ma'nosini tushuntirib bering.
- 7) Shirin so'zlik va go'zal nutqga erishmoqlikning birgina yo'li nimada?
- 8) Muomala qaysi tarkibiy gismlardan tashkil topgan?
- 9) Pedagogik muomala deganda nimani tushunamiz?
- 10) Talabaning xulqi ijtimoiy qonun-qoidalar maromiga zid kelsa, u xollda uning xatti-xarakati qanday qoralanadi?

Testlar

1. «Til shirinligi ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa, foydali shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir» b? degan naql kimga mansub?

- a) A. Avloniy;
- b) X. X. Niyoziy;
- c) Amir Temur;
- d) A.Navoiy.

2. Talabalar nutqini o'stirishda pedagog (so'zi) qanday ahamiyatga ega? To'liq va aniq javobni tanlang.

- a) pedagogning nutqi talabani o'qitish va tafakkurini rivojlantirishning muxim omili bo'lib xisoblanadi;
- b) pedagogning nutqi talabani tafakkurini rivojlantirishning muxim omili bo'lib xisoblanadi;
- c) pedagogning nutqi talabani o'qitishini rivojlantirishning muxim omili bo'lib xisoblanadi;
- d) pedagogning nutqi o'qituvchini o'qitish va tafakkurini rivojlantirishning muxim omili bo'lib xisoblanadi.

3. Pedagogning nutqi qanday vosita hisoblanadi? To'liq va aniq javobni tanlang.

- a) u talabalarning xulq-atvori va fikr yuritishlariga ham ta'sir etuvchi kuchli vositadir;
- b) u talabalarning o'zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvori va fikr yuritishlariga ham ta'sir etuvchi kuchli vositadir;
- c) u talabalarning o'zlarini tuta bilishlariga va fikr yuritishlariga ham ta'sir etuvchi kuchli vositadir;
- d) u talabalarning o'zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvoriga ham ta'sir etuvchi kuchli vositadir.

4. Insonlar qandaylarni dildan yoqtirishadi va xurmat-e'tibor qilishadi? To'liq va aniq javobni tanlang.

- a) shirinsuxan, mard, muomalasi shirin kishilarni dildan yoqtirishadi va xurmat-e'tibor qilishadi;
- b) xushfe'l, mard, muomalasi shirin kishilarni dildan yoqtirishadi va xurmat-e'tibor qilishadi;
- c) xushfe'l, shirinsuxan, mard, muomalasi shirin kishilarni dildan yoqtirishadi va xurmat-e'tibor qilishadi;
- d) xushfe'l, shirinsuxan, mard kishilarni dildan yoqtirishadi va xurmat-e'tibor qilishadi.

5. Muomala qanday tarkibiy gismlardan tashkil topgan? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashinuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ jabxa sifatida tavsiflanishi mumkin, interfaol muloqotga kirishuvchilarni o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, xatti xarakati va xulq-atvori o'zaro ta'sir o'tkazish tushuniladi, o'zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi;

b) kommunikativ, o'zaro axborot almashinuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ jabxa sifatida tavsiflanishi mumkin, interfaol muloqotga kirishuvchilarni o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, xatti xarakati va xulq-atvori o'zaro ta'sir o'tkazish tushuniladi, o'zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi;

c) kommunikativ, muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashinuvini qamrab olgan bo'lib, interfaol muloqotga kirishuvchilarni o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, xatti xarakati va xulq-atvori o'zaro ta'sir o'tkazish tushuniladi, o'zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi;

d) kommunikativ, muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashinuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ jabxa sifatida tavsiflanishi mumkin, interfaol muloqotga kirishuvchilarni o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, xatti xarakati va xulq-atvori o'zaro ta'sir o'tkazish tushuniladi, o'zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi.

6. Pedagogik muomala deganda nima tushuniladi?

a) bu pedagogning talabaga ta'sir o'tkazish, ularning bir-birlari bilan hamkorliklarining faoliyatidir;

b) bu pedagogning hayotga ta'sir o'tkazish, ularning bir-birlari bilan hamkorliklarining faoliyatidir;

c) bu pedagogning tashqi muhitga ta'sir o'tkazish, ularning bir-birlari bilan hamkorliklarining faoliyatidir;

d) bu pedagogning o'qishga ta'sir o'tkazish, ularning bir-birlari bilan hamkorliklarining faoliyatidir.

7. Pedagogik faoliyatda muomala qanday funksiyasini bajaradi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) muayyan dastur asosida rejalashtirish va o'tkazish funksiyasini bajaradi;

b) muayyan dastur asosida maqsadni amalga oshirish,

rejalashtirish va o'tkazish funksiyasini bajaradi;

c) muayyan dastur asosida maqsadni amalga oshirish va o'tkazish funksiyasini bajaradi;

d) muayyan dastur asosida maqsadni amalga oshirish, rejalashtirish funksiyasini bajaradi.

8. Muomalaning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) o'quv faoliyatini yakka xol bajarishning vositasi, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi pedagog bilan talabalar o'zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning usuli, talaba individualligini takomillashtirish, iste'dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon sifatida xizmat qiladi;

b) tarbiya jarayonini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi pedagog bilan talabalar o'zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning usuli, talaba individualligini takomillashtirish, iste'dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon sifatida xizmat qiladi;

c) o'quv faoliyatini yakka xol bajarishning vositasi, tarbiya jarayonini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi pedagog bilan talabalar o'zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning usuli, talaba individualligini takomillashtirish, iste'dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon sifatida xizmat qiladi;

d) o'quv faoliyatini yakka xol bajarishning vositasi, tarbiya jarayonini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi pedagog bilan talabalar o'zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning usuli, iste'dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon sifatida xizmat qiladi.

9. Muomala jarayonida va hamkorlik faoliyatida pedagogning talabalarga ta'sir o'tkazish natijasida ularda qanday fazilatlarni egallash shakllanadi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) o'z-o'zini va boshqalarning faoliyati, xulqini baxolash, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat va o'zgalarni nazorat qilish, o'z-o'zini takomillashtirish va yangi fazilatlarni egallash shakllanadi;

b) o'z-o'zini va o'zgalarni xurmat qilish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat va o'zgalarni nazorat qilish, o'z-o'zini

takomillashtirish va yangi fazilatlarini egallash shakllanadi;

c) o'z-o'zini va o'zgalarni xurmat qilish, o'z-o'zini va boshqalarning faoliyati, xulqini baxolash, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini takomillashtirish va yangi fazilatlarini egallash shakllanadi;

d) o'z-o'zini va o'zgalarni xurmat qilish, o'z-o'zini va boshqalarning faoliyati, xulqini baxolash, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat va o'zgalarni nazorat qilish, o'z-o'zini takomillashtirish va yangi fazilatlarini egallash shakllanadi.

10. O'qituvchining shaxsiy xislatlariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevishi, amaliy-psixologik aql-farosatlilik, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik, mehribonlik, kamtarlik, odamiylik, dilkashlik, uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish, o'z bilimini oshirishga intilish;

b) bolalarni yaxshi ko'rish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik, mehribonlik, kamtarlik, odamiylik, dilkashlik, uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish, o'z bilimini oshirishga intilish;

c) bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevishi, amaliy-psixologik aql-farosatlilik, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik, uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish, o'z bilimini oshirishga intilish;

d) bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevishi, amaliy-psixologik aql-farosatlilik, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik, mehribonlik, kamtarlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish, o'z bilimini oshirishga intilish.

11. Pedagogning tashkilotchilik malakalariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) bolalar jamoasini uyushtira bilishi, bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi, amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez hal qilib olishi;

b) bolalar jamoasini uyushtira bilishi, turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi, bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi, amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez hal qilib olishi;

c) bolalar jamoasini uyushtira bilishi, turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi, bolalarni biror narsaga qiziqtirib, amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez hal qilib olishi;

d) bolalar jamoasini uyushtira bilishi, turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi, bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni

faollashtira olishi, tajribalarini ustalik bilan tez hal qilib olishi.

12. Pedagogning kommunikativ malakalariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni tanlang.

a) bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi, bolalarning jamoalararo bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi;

b) bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi, bolalarning jamoalararo o'zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi;

c) bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi, bolalarning jamoalararo va jamoa ichida o'zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi;

d) bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi, bolalarning jamoalararo va jamoa ichida o'zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psycho.all.ru
7. www.psychology.net.ru

MODUL IX. TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISH NAZARIYALARI.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: Bo'lg'usi o'qituvchining o'quv faoliyatini boshqarish, Oliy maktab psixologiyasida o'z-o'zini boshqarish, o'quv faoliyatini boshqarish (uni rejalashtirish, nazorat qilish, diqqatni idora qilish, qiziqishni maqsadga muvofiq yo'naltirish, aqliy faoliyat usullarini yangi sharoitga ko'chirish) usullarini kompleks, ko'p qirrali tarzda ayni bir shaxsda, muayyan sharoitda, ma'lum davrda shakllantirish ob'ektiv ma'lumotlar va materiallar to'plashga keng ko'lamda imkoniyatlar ochib berishga oid ko'nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- **ta'limiy maqsad:** modulning optimal mazmuni, o'rganiladigan bilimlar ko'lami, shakllantiriladigan ko'nikma va malakalarni oldindan aniqlab qo'yish, talabalarga modul va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, modulga oid tushunchalarni o'zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

- **tarbiyaviy maqsad:** talabalarda modulning o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, o'qishga oid motivlarni uyg'otish, bilish, o'qish, o'rganishga havas ishtiyoq qiziqishni shakllantirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

- **rivojlantiruvchi maqsad:** talabalarning kasbiy yetuklik darajasi, kasbiy dunyoqarashi va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish, mashg'ulot bosqichlarining o'zaro bog'liqligi, mashg'ulotda amalga oshiriladigan ishlar, o'quv topshiriqlarining o'zaro aloqadorligiga rioya qilish.

9.1. Bo'lg'usi o'qituvchining o'quv faoliyatini boshqarish.



Tayanch so'z va iboralar: o'z-o'zini boshqarish, o'quv faoliyatining motivatsion, operatsional va nazorat tarkibiy qismlari, o'quv faoliyatini rejalashtirish usullari, o'quv faoliyatini boshqarish, boshqarish muammolari, kasbiy sifatlarini shakllantirishning mexanizmlari va qonuniyatlari, soxaning yirik tadqiqotchilari, o'qituvchilik kasbi, psixologik treninglarni qo'llash, pedagogik qobiliyatlari tarkibi.

Oliy maktab psixologiyasida o'z-o'zini boshqarish «o'qituvchi-talaba» modeli tarzida namoyon bo'ladi. O'qituvchi bu o'rinda «axborotchi», talaba esa, «qabul tiluvchi» rovida maydonga chiqadi. Keyinchalik talaba tashqi qabul qilishdan o'z faoliyatini mustaqil boshqarishga o'tadi. Unda boshqarish o'quvi ma'lum tizimdagi usullarni egallagandan so'ng vujudga keladi.

Biz o'z tadqiqotimizda o'quv faoliyatining motivatsion, operatsional va nazorat tarkibiy qismlardan tuzilganligidan kelib chiqqan xolda o'quv faoliyatini boshqarish tizimini ishlab chiqdik. Boshqarish tizimi o'z ichiga shaxsiy qiziqishni idora qilish o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'z - o'zini nazorat qilish, o'z diqatini o'zi uyushtirish kabilarni qamrab oladi. SHu boisdan o'quv faoliyatini boshqarish deganda, maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtiriladigan, nazorat qilinadigan, tizimlashtiriladigan, tashkil qilinadigan, mustaqil bilim olishga imkon yaratadigan faoliyat tushuniladi.

O'quv faoliyatini rejalashtirish usullariga ish vaqtini, topshiriq hajmining murakkabligini, o'ziga jalb etish darajasini va qiziqarligini hisobga olgan holda oqilona taqsimlash, aqliy mexnatni kun tartibiga binoan oqilona tashkil qilish kiradi.

O'quv faoliyatini boshqarish (uni rejalashtirish, nazorat qilish, diqqatni idora qilish, qiziqishni maqsadga muvofiq yo'naltirish, aqliy faoliyat usullarini yangi sharoitga ko'chirish) usullarini kompleks, ko'p. qirrali tarzda ayni bir shaxsda, muayyan sharoitda, ma'lum davrda shakllantirish ob'ektiv ma'lumotlar va materiallar to'plashga keng ko'lamda imkoniyatlar ochib beradi. Mazkur holatda o'quv faoliyatining motivatsion-orientirlash, operatsional nazorat qilish, baholash, tekshirish, tahlil qilish tarkibiy qismlarini bir davrning o'zida tadqiq qilish boshqarishning psixologik mexanizmlari doirasini yanada kuchaytiradi, murakkab ichki holatlar to'g'risida yangi qonuniyatlar ochilishini ta'minlaydi.

Talabalarda o'quv faoliyatini boshqarishning barqarorligi, mustahkamligi, puxtaligi bo'lgusi mutaxassisning irodaviy zo'r bo'lishi ma'naviy ehtiyoji, shaxsiy e'tiqodi, dunyoqarashi, pozitsiyasi, o'quv motivlariga, ularning aqliy va axloqiy kamolot darajasiga bevosita aloqadordir. Boshqarishning oliy ta'lim tizimida amalga oshirilishi va samaradorliti bo'lgusi o'qituvchining maqsadiga, kun tartibiga, ish rejasiga, sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilishga bogliq. SHuning bilan birga bo'lgusi o'qituvchida

individual ishlash uslubining namoyon bo'lishi talabaning yosh davrlari xususiyati bilan emas, balki uning individual-tipologik xususiyatlari bilan belgilanishi qayd qilinadi. O'quv faoliyatini boshqarish muammosini talabalarda tadqiqot qilish natijasida uning yo'llari, hozirgi kundagi holati, o'quv dasturida va darsliklarda undan foydalanishning ahvoli, diagnostik metodikalarning ishonchlilik darajasi aniqlanadi. Shuning uchun psixologik ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ijodiy faoliyat mahsulini miqdor va sifat jihatdan o'rganish, talabalarni kuzatish, ular bilan suhbat qurish, anketa savollariga javob olish singari tadqiqot metodlari qo'llaniladi. Olingan natijalarning ilmiy ishonchlilik darajasi talaba kategoriyasi yordamida ishlab chiqildi va bu narsalar keng ko'lamda tatbiq qilishga joriy qilindi.

O'qituvchining psixologik xususiyatlari va shaxsiy fazilatlarini chuqur o'rganish ishlari XX chi asrning 30—40 yillarida keng yo'lga qo'yila boshlandi. Yirik psixolog S. L. Rubinshteyn ta'kidlab o'tganidek, pedagogik jarayon o'qituvchi-tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa, muallimning o'quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga, aksincha, unga extiyoj sezmasligiga bogliq. Bola shaxsining rivojlanishida o'qituvchining roli benihoyt muhimdir, chunki u ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Hozirgi sharoitda o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo'yiladi, shu boisdan ijtimoiy-tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko'lamini orttirishga bevosita bog'liq.

Yigirmanchi asrning 70—80 yillarida pedagogika va psixologiya fanlarida o'qituvchinning kasbiy tayyorgarligiga, layoqatiga, shuningdek, shaxsiy sifatlarini shakllantirish masalasiga oid tadqiqot ishlarining ko'lami keskin ravishda ortdi. O'qituvchining xarakter xislatlari, pedagogik qobiliyatlari, uning ixtisosiy ko'nikma va malakalari unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartlari o'rganilmoqda. Keyingi paytlarda o'qituvchining kasbiy sifatlarini shakllantirishning mexanizmlari va qonuniyatlarini kashf qiladigan maxsus ilmiy izlanishlar salmog'i tobora ortib bormoqda. Kasbiy tayyorgarlikka oid tadqiqotlarda o'quvchilarda o'qituvchilik kasbiga qiziqishning uyg'onishi, o'qituvchilik kasbini tanlashning motivlari, o'quvchilar va

talabalarda pedagogik yo'nalishni tarkib toptirish, tarbiya jarayonining ilmiy-nazariy muammolari, o'qituvchilik mahoratini egallashning psixologik manbalari, pedagogik qobiliyatlarining rivojlanish xususiyatlari, o'qituvchi bilan o'quvchining (talabalarning) hamkorlik faoliyati, pedagogik muloqotning psixologik asoslari ochib berilmoqda.

Bu soxaning yirik tadqiqotchilari qatoriga I. V. Straxov, N. V. Kuz'mina, A. I. Shcherbakov, F. I. Gonobolin, V. A. Slastenin, S. R. Rajabov, M. O. Ochilov, M. G. Davletshin, R. 3. Gaynutdinov va boshqalarni kiritish mumkin.

Rus psixologi I. V. Straxov «Pedagogik takt psixologiyasi» nomli asarida o'qituvchining psixologik odobi masalasini tadbiiq qilib, olingan natijalarni umumlashtirib bergan. Uning fikricha, pedagogik odobda asosiy o'rinni o'quvchiga ta'sir etishni maqsadga muvofiq kuzatish, kundalik pedagogik holatlarni hisobga olish zarurligi, hamkorlik faoliyatida o'quvchining shaxs xususiyatlari bilan uning imkoniyatlarini e'tiborga olishni talab etadi. Bu asarda pedagogik odobni (taktini) shakllantirish xususiyatlari va uning bosqichlari to'g'risida umumlashgan mulohazalarga yakun yasaladi. Ana shu sababdan I. V. Straxovning mazkur ishi o'qituvchi shaxsini tadbiiq qilishga bag'ishlangan dalil ilmiy qadam hisoblanadi.

Rus olimasi N.V. Kuz'mina o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarining roli va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy tadqiqod ishlarini olib borgan. Muallif shaxsiy tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarni gnostik (bilishga oid), proektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan), konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratib, ularning har biriga chuqur psixologik tasnif beriladi, har bir tarkibiy qism tajriba materiallari bilan mustahkamlanadi.

N. V. Kuz'mina pedagogik qobiliyatning muhim aloqa matnlari qatoriga kuzatuvchanlikni ham kiritadi, O'qituvchining bu hislatlari o'quvchining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari kabi omillarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu narsa o'quvchining faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish bilan bogliq xatti-harakatlarni yo'lga qo'yishga imkon yartadi, unda ayrim o'zgarishni ko'rish va tahlil qilish shart-sharoitlari tug'iladi. O'qituvchida kuzatuvchanlikning paydo bo'lishi natijasida u diagnostik sifatni vujudga keltiradi.

Rus psixologi A. Shcherbakov fikriga ko'ra, pedagogik faoliyat — bu o'quvchi oldiga jiddiy talablar qo'yadigan murakkab psixologik faktdir. Pedagogik faoliyat o'qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatga, mustahkam xarakterga yuksak ma'naviyatga ega bo'lishini taqozo etadi. A. I. Shcherbakov o'qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadi:

- 1) yuksak saviyadagi bilim va madaniyat;
- 2) yo'nalishning aniq ifodalanganligi;
- 3) yuksak axloqiy hislarning mavjudligi;
- 4) yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik;
- 5) qat'iy va silliq xarakter;
- 6) pedagogik qobiliyatlar.

A. I. Shcherbakov pedagogik faoliyatda mahorat juda muhim o'rin egallashini ta'kidlab, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, uning bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalari o'zaro birlashib pedagogik mahoratni vujudga keltiradi, deydi. Pedagogik mahoratning shakllanishi o'qituvchi shaxsini takomillashish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir.

Rus psixologi F. N. Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratib o'rganishni taklif qiladi:

- 1) didaktik qobiliyatlar;
- 2) akademik qobiliyatlar;
- 3) pertseptiv qobiliyatlar;
- 4) nutq qobiliyatlari;
- 5) tashkilotchilik qobiliyati;
- 6) avtoritar qobiliyatlar;
- 7) kommunikativ;
- 8) pedagogik xayolot;
- 9) diqqatni taqsimlash qobiliyati.

F. N. Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari, xossalari to'g'risida mukammal ma'lumotlar beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarining roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beradi.

Shunday qilib, ko'pgina olimlar o'z asarlarida o'qituvchining muhim fazilatlari mavjudligini bayon qilganlar. Eng asosiy sifatlar

qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: o'qituvchining har tomonlama barkamol bo'lishi, o'zining yuksak xislatlari, his-tuygulari bilan boshqa kasbdagi kishilardan ajralib turishi, bolalar ruhiyatiga oson kira olish qobiliyati, taraqqiyotda orqada qolganlar bilan yakkahol ishlash o'quvchanligi, o'quvchilar diqqatini o'ziga torta olish sexri, o'z kasbi, faoliyati va bolalarni sevishi, ta'limda hissiy bilish uslubidan unumli foydalanish o'quvi, mustaqil ishlash malakasini oshirish qobiliyati, psixologik muomala va odobga ega bo'lish kabilar. SHuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ular tomonidan tahlil qilingan o'qituvchining sifatleri to hozirgi kungacha o'z axamiyatini saqlab kelmoqda. Demak, ajdodlarimizning g'oyasini takomillashtirish evaziga hozirgi zamon ta'limini yuksak bosqichga ko'tarish mumkin.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boy ilmiy, madaniy merosiga asoslanib, o'zbekistonlik pedagog va psixolog olimlar o'qituvchilik kasbi, uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganganlar va o'rganishda davom etmoqdalar.

Yirik o'zbek olimi S. R. Rajabov butun umr va faoliyatini o'qituvchi shaxsini tadqiq qilishga, o'qituvchilar tayyorlashni takomillashtirishga, bo'lgusi muallimlarni sharqona tarbiyalashga bag'ishlagan. O'qituvchining yirik siymolar namunasida tarbiyalash axloqiy tarbiya umumtarbiyaning yetakchi ekanligi olimning asarlari mohiyatiga singib ketgandir. S. R. Rajabov va uning yuzlab shogirdlarining ishlari ham o'qituvchining pedagogik va psixologik xususiyatlariga qaratilgandir.

O'zbek olimi M. O. Ochilovning ko'p yillik tadqiqoti ichida o'qituvchi shaxsini shakllantirish markaziy o'rinni egallaydi. Umuminsoniy hislatlar va milliy xususiyatlari cho'qishtirgan holda bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini tarkib toptirish g'oyasi muallifning muhim yutug'idir.

Psixolog M. G. Davletshin va uning shogirdlari tomonidan o'qituvchi psixologiyasining turli jabhalariga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'qituvchilik kasbga o'quvchilarni yo'naltirish, o'qituvchilik kasbini tanlash motivlari, o'quv va tarbiyalash ishlarini takomillashtirish, professiogrammasiga asoslanib, xususiy ixtisoslikning xos jihatlarini kashf etuvchi tafakkuri kabi masalalar shular jumlasidandir.

R.Z. Gaynutdinov o'zbek maktablari o'quvchilarining ilmiy xarakteri, faoliyatning milliy o'ziga xosligi hamda ularni diagnostika qilish imkoniyatlari, rivojlantirish yo'l va vositalariga yunaltirilgan tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Ayniqsa, etnopsixologik xususiyatlari jahon psixologiyasi yutuqlari bilan cho'qishtirgan holda o'qituvchi shaxsini shakllantirish g'oyasi sharqona tarbiyani amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz mazkur muammoni o'rganishda quyidagi jabhalarga diqqatimizni qaratdik:

- 1) bo'lgusi o'qituvchining tafakkuri;
- 2) talabalarni o'z - o'zini baholashga o'rgatish;
- 3) amaliyotda o'quv faoliyatini o'zi boshqarish;
- 4) bo'lgusi mutaxassis aql-zakovatini tekshirish va rivojlantirish;
- 5) o'quv motivlari va qiziqishlarni boshqarish imkoniyatlari;
- 6) o'qituvchining pedagogik qobiliyatlari va boshqalar.

SHuningdek, o'qituvchi shaxsini o'rtanishda testlardan foydalanish va psixologik treninglarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha o'qituvchining pedagogik qobiliyatlari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) didaktik qobiliyat (oson yo'l bilan murakkab bilimlarni tinglovchilarga tushuntirish o'quvchanligi).
- 2) akademik qobiliyat (barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimga ega bo'lishlik).
- 3) pertseptiv qobiliyat (qisqa daqiqalarda auditoriya holatini idrok qila olish fazilati).
- 4) nutqiy qobiliyat (ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutqning jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi).
- 5) tashkilotchilik qobiliyati (sinf guruhi, yoki kursni uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi).
- 6) obro'ga (nufuzga) ega bo'lishlik qobiliyati (o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish, o'quvchanligi).
- 7) muomala va muloqot o'rnatish qobiliyati.
- 8) psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyati (insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati).

9) diqqatni taqsimlash qobiliyati (bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish o'quvi).

10) iymon-e'tiqodga, faol asosiy pozitsiyaga yo'naltirish qobiliyati;

11) tashabbusga, ijodga ilhomlantirish qobiliyati;

12) aqli donishlik qobiliyati (bilimdonlik);

13) konstruktiv qobiliyat (o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati);

14) gnostik qobiliyat (tadqiqotga layoqatlilik).

Bizningcha, o'qituvchilik faoliyati tarbiyaviy, ta'limiy va muomalaviy xususiyat kasb etib, u «talaba-o'qituvchi», «o'qituvchi-talaba», «talaba - talaba» sxemasiga asoslanadi. Muomala tarkibini biridan ikkinchisiga o'tish natijasida o'qituvchi bilan talabalar hamda talabalarining o'zaro hamkorlik faoliyati vujudga keladi.

O'qituvchi shaxsini o'rganish uchun testlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega, chunonchi, a) maqsadga o'quv testlari, b) intellekt testlari, c) shaxs testlari, d) proektiv testlar, e) ko'ruv va eshituv xotirasi testlar turkumi shulardan iborat. Bundan tashqari, dunyoga mashhur mumtoz testlarni qo'llash ham ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi, chunonchi, TAT, Rozentsveyg frustratsion testi, Vertegga testi, Rorshax testi, Kettell testi, Amtxauer testi, Veksler va Ayzenkarning testlari shular jumlasidandir.

SHunday qilib, biz yuqorida o'zbekistonlik pedagog va psixolog olimlarning o'qituvchi psixologiyasiga oid ayrim qarashlarini sharhlab o'tdik. Lekin bu yondashuv mukammal tahlildan iborat degan xulosaga kelishdan yiroqmiz. CHunki ularning o'nlab maqolalari va risolalari ustida to'la to'xtalish uchun imkoniyat yetishmaydi. SHunga qaramasdan, respublikamiz olimlarining bu sohadagi ishlari ko'pgina mamlakatlarda mashxurdir. Demak, yuqorida bildirilgan mulohazalarga asoslib, Rossiyalik va O'zbekistonlik olimlarning amalga oshirgan tadqiqot ishlari, ularning nazariy va amaliy natijalari jaxon psixologiyasi fanining rivojiga muhim ulush bo'lib qo'shiladi degan xulosaga kelimiz.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Oliy maktab psixologiyasida o'z-o'zini boshqarish «o'qituvchi-talaba» modeli tarzida namoyon bo'ladi. Sizning fikringiz qanday? O'z fikringizni bildiring.

2. O'quv faoliyatini rejalashtirish usullariga nimalar kiradi?

3. O'quv faoliyatini boshqarish deganda nimani tushunasiz? O'z fikringizni bildiring.

4. O'qituvchining psixologik xususiyatlari va shaxsiy fazilatlarini chuqur o'rganish ishlari qachon keng yo'lga qo'yila boshlandi?

5. Pedagogik muloqotning psixologik asoslari kimlar tomonidan keng ochib berildi?

6. A. I. Shcherbakov o'qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bular nimalardan iborat?

7. Rus psixologi F. N. Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni qaysi turlarga ajratib o'rganishni taklif qiladi?

8. O'zbek olimi M. O. Ochilovning ko'p yillik tadqiqoti ichida o'qituvchi shaxsini shakllantirish markaziy o'rinni egallaydi. Misollar bilan isbotlab bering.

9. Psixolog M. G. Davletshin va uning shogirdlari tomonidano'qituvchi psixologiyasining qaysi jabhalari o'rganilgan?

10. O'qituvchining pedagogik qobiliyatlari tarkibiga nimalarni kiritish mumkin?

Testlar

1. Oliy maktab psixologiyasida o'z-o'zini boshqarish modeli qanday tarzda namoyon bo'ladi?

- a) o'qituvchi- o'qituvchi modeli tarzida namoyon bo'ladi;
- b) o'qituvchi-talaba modeli tarzida namoyon bo'ladi;
- c) o'qituvchi-tarbiyachi modeli tarzida namoyon bo'ladi;
- d) tarbiyachi -talaba modeli tarzida namoyon bo'ladi.

2. Boshqarish tizimi o'z ichiga nimalarni qamrab oladi?

To'liq va aniq javobni belgilang.

a) shaxsiy qiziqishni idora qilish, o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'z - o'zini nazorat qilish kabilarni qamrab oladi.

b) o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'z - o'zini nazorat qilish, o'z diqatini o'zi uyushtirish kabilarni qamrab oladi.

c) shaxsiy qiziqishni idora qilish, o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'z - o'zini nazorat qilish, o'z diqatini o'zi uyushtirish kabilarni qamrab oladi.

d) shaxsiy qiziqishni idora qilish, o'z - o'zini nazorat qilish, o'z diqatini o'zi uyushtirish kabilarni qamrab oladi.

3.O'quv faoliyatini boshqarish deganda nima tushuniladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) rejalashtiriladigan, nazorat qilinadigan, tizimlashtiriladigan, tashkil qilinadigan, mustaqil bilim olishga imkon yaratadigan faoliyat tushuniladi;

b) maqsadga yo'naltirilgan, nazorat qilinadigan, tizimlashtiriladigan, tashkil qilinadigan, mustaqil bilim olishga imkon yaratadigan faoliyat tushuniladi;

c) maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtiriladigan, nazorat qilinadigan, tizimlashtiriladigan, mustaqil bilim olishga imkon yaratadigan faoliyat tushuniladi;

d) maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtiriladigan, nazorat qilinadigan, tizimlashtiriladigan, tashkil qilinadigan, mustaqil bilim olishga imkon yaratadigan faoliyat tushuniladi.

4.O'quv faoliyatini rejalashtirish usullariga nimalar kiradi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) ish vaqtini, topshiriq hajmining murakkabligini, o'ziga jalb etish darajasini va qiziqarligini hisobga olgan holda oqilona taqsimlash, aqliy mexnatni kun tartibiga binoan oqilona tashkil qilish kiradi;

b) ish vaqtini, o'ziga jalb etish darajasini va qiziqarligini hisobga olgan holda oqilona taqsimlash, aqliy mexnatni kun tartibiga binoan oqilona tashkil qilish kiradi;

c) ish vaqtini, topshiriq hajmining murakkabligini, qiziqarligini hisobga olgan holda oqilona taqsimlash, aqliy mexnatni kun tartibiga binoan oqilona tashkil qilish kiradi;

d) topshiriq hajmining murakkabligini, o'ziga jalb etish darajasini va qiziqarligini hisobga olgan holda oqilona taqsimlash, aqliy mexnatni kun tartibiga binoan oqilona tashkil qilish kiradi.

5.O'quv faoliyatini boshqarish qanday imkoniyatlarni ochib beradi?

a) usullarini kompleks, muayyan sharoitda, ma'lum davrda shakllantirish, ob'ektiv ma'lumotlar va materiallar to'plashga keng ko'lamda imkoniyatlar ochib beradi;

b) usullarini kompleks, ko'p qirrali tarzda ayni bir shaxsda, muayyan sharoitda, ma'lum davrda shakllantirish, ob'ektiv ma'lumotlar va materiallar to'plashga keng ko'lamda imkoniyatlar ochib beradi;

c) usullarini kompleks, ko'p qirrali tarzda ayni bir shaxsda, muayyan sharoitda, ma'lum davrda shakllantirish, materiallar

to'plashga keng ko'lamda imkoniyatlar ochib beradi;

d) usullarini kompleks, ko'p qirrali tarzda ayni bir shaxsda, muayyan sharoitda, ob'ektiv ma'lumotlar va materiallar to'plashga keng ko'lamda imkoniyatlar ochib beradi.

6. O'qituvchining psixologik xususiyatlari va shaxsiy fazilatlarini chuqur o'rganish ishlari qachon yo'lga qo'yila boshlandi?

- a) XX chi asrning 20-30 yillarida keng yo'lga qo'yila boshlandi;
- b) XX chi asrning 50-60 yillarida keng yo'lga qo'yila boshlandi;
- c) XX chi asrning 30-40 yillarida keng yo'lga qo'yila boshlandi;
- d) XX chi asrning 60-70 yillarida keng yo'lga qo'yila boshlandi.

7. Pedagogika va psixologiya fanlarida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga, layoqatiga, shuningdek, shaxsiy sifatlarini shakllantirish masalasiga oid tadqiqot ishlarining ko'lami qachon keskin ravishda ortdi?

- a) 20 asrning 40-50 yillarida;
- b) 20 asrning 50-60 yillarida;
- c) 20 asrning 60-70 yillarida;
- d) 20 asrning 70-80 yillarida.

8. Rus olimasi N.V. Kuz'minaning tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlar qanday turlarga ajratiladi?

a) pedagogik qobiliyatlarni gnostik, proektiv, konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratilib, ularning har biriga chuqur psixologik tasnif beriladi, har bir tarkibiy qism tajriba materiallari bilan mustahkamlanadi;

b) pedagogik qobiliyatlarni gnostik va kommunikativ turlarga ajratilib, ularning har biriga chuqur psixologik tasnif beriladi, har bir tarkibiy qism tajriba materiallari bilan mustahkamlanadi;

c) proektiv, konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratilib, ularning har biriga chuqur psixologik tasnif beriladi, har bir tarkibiy qism tajriba materiallari bilan mustahkamlanadi;

d) pedagogik qobiliyatlarni gnostik, proektiv, konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratilib, har bir tarkibiy qism tajriba materiallari bilan mustahkamlanadi.

9. Rus psixologi A. Shcherbakov o'qituvchi shaxsini nechta kasbiy tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

- a) 7 ta kasbiy tarkibiy qismdan;
- b) 6 ta kasbiy tarkibiy qismdan;
- c) 5 ta kasbiy tarkibiy qismdan;
- d) 4 ta kasbiy tarkibiy qismdan.

10. Rus psixologi A. Shcherbakov o'qituvchi shaxsini qaysi kasbiy tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) yuksak saviyadagi bilim va madaniyat, yo'nalishning aniq

ifodalanganligi, yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik, qat'iy va silliq xarakter, pedagogik qobiliyatlar;

b) yuksak saviyadagi bilim va madaniyat, yuksak axloqiy hislarning mavjudligi, yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik, qat'iy va silliq xarakter, pedagogik qobiliyatlar;

c) yuksak saviyadagi bilim va madaniyat, yo'nalishning aniq ifodalanganligi, yuksak axloqiy hislarning mavjudligi, yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik, qat'iy va silliq xarakter, pedagogik qobiliyatlar;

d) yuksak saviyadagi bilim va madaniyat, yo'nalishning aniq ifodalanganligi, yuksak axloqiy hislarning mavjudligi, yuqori darajada barqaror mustaqillik, qat'iy va silliq xarakter, pedagogik qobiliyatlar.

11. Rus psixologi F. N. Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni qaysi turlarga ajratib o'rganishni taklif qiladi? To'liq va aniq javobni belgilang.

a) didaktik qobiliyatlar, akademik qobiliyatlar, nutq qobiliyatlari, tashkilotchilik qobiliyati, avtoritar qobiliyatlar, kommunikativ, pedagogik xayolot, diqqatni taqsimlash qobiliyati;

b) didaktik qobiliyatlar, akademik qobiliyatlar, pertseptiv qobiliyatlar, nutq qobiliyatlari, avtoritar qobiliyatlar, kommunikativ, pedagogik xayolot, diqqatni taqsimlash qobiliyati;

c) didaktik qobiliyatlar, akademik qobiliyatlar, pertseptiv qobiliyatlar, nutq qobiliyatlari, tashkilotchilik qobiliyati, avtoritar qobiliyatlar, kommunikativ, diqqatni taqsimlash qobiliyati;

d) didaktik qobiliyatlar, akademik qobiliyatlar, pertseptiv qobiliyatlar, nutq qobiliyatlari, tashkilotchilik qobiliyati, avtoritar qobiliyatlar, kommunikativ, pedagogik xayolot, diqqatni taqsimlash qobiliyati.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya: O'quv qo'llanma. T. 2002.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.
3. G'ozuev E. Umumiy psixologiya. - T., 2002. 1- 2 kitob.
4. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voris nashriyot", Toshkent, 2012 y. 270 b
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psvcho.all.ru
7. www.psychologv.net.ru

XULOSA

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da har tomonlama etuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning mohiyati, zaruriyati, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanish talablariga mos, barkamol avlodni tarbiyalash masalalari izchillik bilan tahlil etilgan, dolzarb vazifalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Shu bois, talabalarni hozirgi zamon talabi ruhida tarbiyalash, olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, ko'nikma, malakalarini shakllantirishga qaratilgan ko'pgina ta'lim-tarbiya vositalari, uslubiy shakl yo'riqlari mavjud. Jumladan, bu borada talabalarni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llanilgan usullar, vositalar, tadbir shakllari, urf-odatlar va an'analar, g'oyalar, hayotiy tajribalardan iborat namunalar majmuasidir.

Darslikda mualliflar kasbiy faoliyat psixologiyasi talablari asosida faoliyat yuritish zarurligi bilan tanishtirish, kasbiy faoliyat psixologiyasi elementlari, faoliyatda ularni qo'llay bilish, kasbning ta'lim - tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatishi, psixologik muloqot funksiyalari, tuzilmasi va turlari, psixologik texnika elementlari, uni egallash yo'llari, kasbiy faoliyat psixologiyasining mazmuni, mohiyati, undan foydalanish, yo'l qo'yiladigan ba'zi kamchiliklar ustida ishlash, kasbiy faoliyat psixologiyaning qiyosiy tahlili, psixologik ta'sir ko'rsatish usullari xususida fikr yuritdilar. Talabalarning faoliyatida nazariy - metodologik asoslar, mazmun, funktsiya, ularning vazifalari, kasbni boshqarishda pedagogning pedagogic faoliyatni egalashidagi psixologik muammolarni aniqlab, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari aniq dalillar asosida yoritildi.

Maqsadimiz - talabalarga, xususan, pedagogik ma'lumoti bo'lmagan bakalavr yoki diplomli mutaxassis darajasidagi, ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan kadrlar, faoliyatini endigina boshlagan kimyoviy texnologiya yo'nalishi faoliyatiga tayyorlanayotgan talabalarga kasbiy faoliyat psixologiyasi talablari asosida faoliyat yuritish haqida ma'lumot berishdan iborat.

Ushbu darslikda kamchiliklar, hali qiyomiga etmagan fikrlar bo'lishi mumkin. Shu sababdan sizning fikr-mulohazalaringizni kutamiz va keyingi nashrlarda, ularni albatta inobatga olamiz.

GLOSSARIY

| | Ingilizcha | O'zbekcha | Ruscha | Izoh |
|----|--------------------------|-----------------------|------------------------------|---|
| 1. | Autonomic nervous system | Vegetativ nerv tizimi | Вегетативная нервная система | nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi |
| 2. | Adequacy | Adekvatlik | Адекватность | teng, o'xshash, muvofiq kelmoq |
| 3. | Analogy | Analogiya | Аналогия | psixik hodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o'xshashligi |
| 4. | Attitude | Ustanovka | Установка | yo'nalish, kishining tevarak-atrofdagi odamlarga va obyektlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lish, ularni idrok qilish, ularga baho berish va ularga nisbatan harakatining tayyorlik holati |
| 5. | Action | Harakat | Действие | maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. Ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir |
| 6. | Activity | Faoliyat | Деятельность | insonagagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'la- |

| | | | | |
|-----|------------------------|-------------------|----------------------------|--|
| | | | | digan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligi |
| 7. | Activist | Faollik | Активность | tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi |
| 8. | Analyse | Tahlil | Анализ | tafakkur qilish usuli, bunda murakkab ob'ektlar qismlarga bo'linib o'rganiladi |
| 9. | Apathy | Apatiya | Апатия | kishining tevarak atrofdagi olamga nisbatan befarqlik holati |
| 10. | Association | Assotsiatsiya | Ассоциация | psixik hodisalar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi |
| 11. | Asthenic | Astenik | Астеник | shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar |
| 12. | Attraction | Attraksiya | Аттракция | bir kishini boshqa kishi ko'rib qolganda, idrok etishda yuz beradigan tafakkur turi |
| 13. | Audiovisual perception | Audiovizual idrok | Аудиовизуальное восприятие | shaxsning bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rib idrok qilishi |
| 14. | Autogen training | Autogen mashq | Аутогенная тренировка | shaxsning o'z-o'zini ishonitirish va o'z- |

| | | | | |
|-----|---------------------|-----------------|----------------------|--|
| | | | | o'zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul |
| 15. | Affect | Affekt | Аффект | kechinmalar sifatida ro'y beradigan psixologik holat |
| 16. | Behaviorism | Bixeviorizm | Бихевиоризм | psixologiyaning o'rganish predmeti sifatida odam xulq-atvorini olinishi nazariyasi |
| 17. | Biographical method | Biografik metod | Биографический метод | Odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar orqali o'rganish usuli |
| 18. | Capability | Qobiliyat | Способность | shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati |
| 19. | Collective | Jamoa | Коллектив | insonparvarlik va javobgarlik mas'uliyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar hamda hamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiylik, jamoasidir |
| 20. | Cognition | Bilish, anglash | Познание | Dunyo haqidagi yangi bilimlar hisoblanadigan sub'yekt va |

| | | | | |
|-----|------------------|----------------|----------------|---|
| | | | | ob'yektning o'zaro ta'sirini, voqelikning ruhiyatga qayta ta'sir etilishi va aks ettirish jarayonidir |
| 21. | Communication | Kommunikatsiya | Коммуникация | shaxslararo munosabatlarda ma'lumot, axborot, g'oyalar almashinuvi jarayoni |
| 22. | Communication | Muloqot | Общение | ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi |
| 23. | Competence | Malaka | Умение | mashq qilish jarayonida ish harakatlari bajarilishining avtomatlashgan usullari |
| 24. | Comparison | Taqqoslash | Сравнение | narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi |
| 25. | Content analysis | Kontent-analiz | Контент-анализ | tekshirilayotgan matnda so'z, ibora, abzaslarni ma'nomo-hiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli |
| 26. | Conflicts | Nizolar | Конфликты | o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, |
| 27. | Conversation | Suhbat | Беседа | kuzatuv juda yetarli darajada aniq, bo'lmagan zarur axborotni olish uchun |

| | | | | |
|-----|---------------|------------------|---------------|--|
| | | | | qo'llana-digan tadqiqot metodi |
| 28. | Conviction | E'tiqod | Убеждение | shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va hodisalarning qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'zining xatti-harakatlariga bo'lgan sub'yektiv munosabati |
| 29. | Conclusion | Xulosa chiqarish | Умозаключение | tafakkurning mantiqiy shakllaridan bo'lib, bir qancha hukmlar asosida ma'lum xulosa chiqariladi X.ch. induktiv, deduktiv va analogik turlarga ajratiladi |
| 30. | Comprehension | Tushunish | Понимание | biror narsaning ma'nosi va ahamiyatini ang-lash qobiliyati, asosiy erishilgan natijasi |
| 31. | Concept | Tushuncha | Понятие | narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli |
| 32. | Depression | Depressiya | Депрессия | tushkunlik kayfiyati |
| 33. | Dialog | Dialog | Диалог | ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro og'zaki gaplashishi |

| | | | | |
|-----|-------------------------------|--------------------------|------------------------|---|
| 34. | Distribution of the attention | Diqqatning taqsimlanishi | Распределение внимания | diqqatning bir vaqtda bir necha ob'jektga taqsimlanish xususiyati |
| 35. | Dominant person | Dominant shaxs | Доминантная личность | boshqalar bilan muomala va munosabat o'rnatishda o'z fikrini o'tkazish xislatining yorqin namoyon bo'lishi |
| 36. | Educational process | Pedagogik jarayon | Педагогический процесс | ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari |
| 37. | Educational competence | Pedagogik malaka | Педагогическое умение | muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorligi darajasi va turi |
| 38. | Education | Ta'lim | Обучение | 1)shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayon, ijtimoiy etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; |

| | | | | |
|-----|---------------|-----------------|-------------------|---|
| | | | | 2)muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy kadr, malaka,ko'nikma, axloq me'yorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim |
| 39. | Envy | Hasad | Зависть | o'zgalarning muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslikdan kelib chiqadigan tuyg'u |
| 40. | Egocentrism | Egotsentrizm | Эгоцентризм | men, markaz ma'nosida individualizm va egoizmning eng tuban turi |
| 41. | Extrovert | Ekstrovert | Экстрове́рт | shaxsning har qanday sharoit va holatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi |
| 42. | Emotion | Emotsiya | Эмоция | odam va hayvonlarning sub'yektiv ifodalangan ichki va tashqi o'zg'atuvchilar ta'siriga javob reaksiyasi |
| 43. | Empathy | Empatiya | Эмпатия | boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati |
| 44. | Empiric | Empirik | Эмпирик | tajribaga asoslangan |
| 45. | Empiric stage | Empirik bosqich | Эмпирический этап | tadqiqot ob'yekti to'g'risida har tomonlama tasavvur hosil qilish, ta'lim |

| | | | | |
|-----|----------------|----------------|-----------|---|
| | | | | amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va hodisalar mohiyatiga erishishga bo'lgan talab o'rtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash |
| 46. | Family | Oila | Семья | turmush qurish, qarindosh-urug'chilik asosidagi kichik gu-ruh |
| 47. | Flegmatic | Flegmatik | Флегматик | temperament turlaridan biri bo'lib, harakatlar sekinligi, barqarorligi, emotional holatlarning tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi |
| 48. | Game | O'yin | Игра | faoliyat turlaridan biri bo'lib, bolalarning kattalar faoliyatini, ish harakatlari aks ettirishda ifodalanadigan va atrofni bilishga qaratilgan faoliyatdir |
| 49. | Generalization | Umumlashtirish | Обобщение | voqelikdagi narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni |
| 50. | Genotype | Genotip | Генотип | ota-onadan farzandga o'tadigan irsiy belgilar majmui |

| | | | | |
|-----|------------------|--------------------|------------------|--|
| 51. | Gnostic | Gnostik | Гностик | butun borliqni bilishga yo'naltirilgan faoliyat |
| 52. | Goal | Maqsad | Цель | bo'lg'usi natijalar haqida har doim aqlan o'ylab qurilgan, rivojlantirilgan xayo'liy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar |
| 53. | Group | Guruh | Группа | odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa |
| 54. | Heterochronicity | Gerantopsixologiya | Гетерохронность | psixologiya tarmog'i, qarilik davri psixologi-yasini o'rganadi |
| 55. | Habit | Ko'nikma | Навыки | odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinadigan qobiliyati, mahoratning asosini tashkil etadi. |
| 56. | Individuality | Individuallik | Индивидуальность | individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi, qaytarilmasligi |
| 57. | Interactive | Interaktiv | Интерактивность | O'zaro birgalikdagi (hamkorlikdagi) faoliyat ko'rsatish jarayoni |
| 58. | Introvert | Introvert | Интроверт | shaxsning har qanday sharoit va holat- |

| | | | | |
|-----|-----------------------------|-----------------------|---------------------------|--|
| | | | | larida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi |
| 59. | Interest | Qiziqish | Интерес | shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli narsa yoki hodisalarga munosabati |
| 60. | Informal | Norasmiy | Неформальный | odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, bir hil qarash va maqsadlarning ko'zda to'tilishi |
| 61. | Indo'strial psychology | Sanoat psixologiyasi | Индустриальная психология | sanoat va ishlab chiqarishda turli yuzaga keladigan muammo va holatlarni psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilib olishga qaratilgan xizmatlari turi |
| 62. | Interpersonal communication | Shaxslararo munosabat | Межличностное общение | muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sir etish natijasida ro'y beradigan ijtimoiy-psixologik hodisalar |
| 63. | Labor | Mehnat | Труд | Inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat |
| 64. | Labor psychology | Mehnat psixologiyasi | Психология труда | kishi mehnat faoliyati psixologik xusu- |

| | | | | |
|-----|--------------------|--------------------|--------------------------|---|
| | | i | | siyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadigan fan |
| 65. | Learning | O'qish | Учение | o'quvchining o'z qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan harakat |
| 66. | Learning | O'qish | Учение | shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni |
| 67. | Lesson | Dars | Урок | ma'lum maqsad asosida, belgilangan vaqtda alohida, bir hil yoshdagi o'quvchilar, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan ta'lim jarayoni |
| 68. | Longitute research | Longityud tadqiqot | Лонгитюдное исследование | sinaluvchini uzoq muddat va doimiy ravishda tadqiqot o'rganish |
| 69. | Melancholic | Melanxolik | Меланхолик | temperament turlaridan biri bo'lib, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, hatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotda berilishi bilan xarakterlanadi |

| | | | | |
|-----|--------------------------------|----------------------------|----------------------|---|
| 70. | Method | Metod | Метод | bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari |
| 71. | Moral, behavior and efficiency | «Axloq», «xulq» va «atvor» | Мораль, поведение | «Axloq», «xulq» va «atvor» so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida qo'llaniladi Axloq kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmuidir Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, hamma sohalarda kishi-larning xatti-harakat-larini tartibga solish funksiyalarini bajaradi |
| 72. | Monolog | Monolog | Монолог | ma'ro'zachi tomondan nutq so'zlanishi, ma'ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo'lgan jarayon |
| 73. | Monologue speech | Monologik nutq | Монологическая речь | bir odamning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi |
| 74. | Motive | Motiv | Мотив | ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga |
| 75. | Motivation | Motivatsiya | Мотивация | odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui |
| 76. | Mental processes | Psixik jarayonlar | Психические процессы | u yoki bu psixik mahsulot va natijalarni (psixik obrazlar, holatlar, tushuncha- |

| | | | | |
|-----|--------------------|-------------------|-----------------------|--|
| | | | | lar, hissiyot va shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon) hosil qiluvchi |
| 77. | Mental cases | Psixik holatlar | Психическое состояние | psixik hayot shakllari, diqqat, hissiyot, iroda jarayonlariga aytiladi (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat'iylik, tirishqoqlik) shaxslarda ma'lum darajada barqaror bo'lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi |
| 78. | Negativism | Negativizm | Негативизм | individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavgeni namoyon qilishi |
| 79. | Need | Ehtiyoj | Потребность | individning biror narsa-hodisaga muhtojligi va kishining ruhiy quvvati hamda faolligi manbai hisoblanadigan asosiy xususiyati |
| 80. | Nonverbal | Noverbal | Новербал | nutqsiz ifodalangan harakat, mimika, holatlarning boshqa shaxsga yo'naltirilish |
| 81. | Object of research | Tadqiqot ob'yekti | Объект исследования | ziddiyat va muam-moli vaziyat tug'diruvchi, bilishga qa- |

| | | | | |
|-----|---------------------------|-------------------|---------------------------|---|
| | | | | ratilgan ilmiy tahlilga muhtoj ob'yekt |
| 82. | Observation | Kuzatish | Наблюдение | sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog'liq ravishda tekshirish, o'rganish, ma'lumotlar to'plash metodi |
| 83. | Orientation | Yo'nalganlik | Направленность | shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat'iy nazar ma'lum yo'lga yo'naltiruvchi barqaror motivlar yig'indisi |
| 84. | Outlook | Dunyoqarash | Мировоззрение | odamning tevarakatofdagi olamga va unda o'zining tutgan o'rniga qarashlaridan kelib chiqqan tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig'indisi |
| 85. | Pedagogical skill | Pedagogik mahorat | Педагогическое мастерство | -pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil etish, harakatga keltirish olish (A.S.Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi |
| 86. | Pedagogical Communicative | Pedagogik muloqot | Педагогическое общение | ta'lim oluvchilarning maqsadlari hamda |

| | | | | |
|-----|-----------------------|-------------------|------------------------|--|
| | tion | | | ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmuni- dan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni |
| 87. | Pedagogical tacts | Pedagogik takt | Педагогический такт | shaxslar faoliyatining turli doiralarida ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, talabalar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi |
| 88. | Pedagogical technique | Pedagogik texnika | Педагогическая техника | 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishning samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar |
| 89. | Person | Shaxs | Личность | ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va |

| | | | | |
|-----|------------------|-------------------|-------------------------|--|
| | | | | ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi be-takror odam |
| 90. | Perceptual side | Perseptiv tomon | Перцептивная сторона | shaxslararo munosabatlarda tushunish, his etish, idrok etish-ga qaratilgan jarayon |
| 91. | Pilot research | Pilotaj tadqiqot | Пилотажное исследование | tadqiqotning muam-moli izlovchi turi, asosiy tadqiqotgacha o'tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli |
| 92. | Polilog | Polilog | Полилог | guruh ichidagi mu-nozara bo'lib, bar-cha ishtirokchilar fa-ollashuvi kuzatiladi |
| 93. | Profession | Kasb | Профессия | faoliyat shakllari birlashmasi bo'lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat sub'yektini tayyorlashga |
| 94. | Professio-gram | Professiogra m-ma | Профессии-грамма | kasbning turli ob'-yektiv xarakteristi-kalarining tasnifi |
| 95. | Professio-graphy | Professiogra fiya | Профессии-графия | mehnat sub'yekti-ni faoliyat tarkibi-lari (uning mazmuni, vositalari, sharoitla-ri, tashkilot) bilan o'zaro munosabati va bog'liqligini o'r-ganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metod |

| | | | | |
|-----|------------------------|-------------------|------------------------|--|
| 96. | Psyche | Psixika | Психика | yuksak darajada tashkil topgan materiya, miyaning funksiyasi bo'lib, uning mohiyati tuyg'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko'rinishida aks ettirishdan iborat |
| 97. | Psychodiagnosics | Psixodiagnostika | Психодиагностика | shaxsning individual psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli psixik hodisalarni va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o'rganishning asosiy yo'l-yo'riq va usullari |
| 98. | Psyco-correction | Psixokorreksiya | Психокоррекция | shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo'llash jarayoni |
| 99. | Psychological services | Psixologik xizmat | Психологическая служба | psixologiyani amaliyotda qo'llash tizimi U turli sohalarda diagnostika, konsultatsiya, eks-pertiza vazifalarini bajaradi. Psixologik maslahat -shaxsning turli darajadagi o'z muammolarini yakka tartibda psixolog bilan tahlil etishiga |

| | | | | |
|------|--------------------|-----------------------|-------------------|---|
| | | | | qaratilgan psixologik xizmat turi |
| 100. | Psychology | Psixologiya | Психология | odamning ob'yektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-hissiyot va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan |
| 101. | Psychology | Psixologiya | Психология | 1)shaxsning ob'yektiv borliqni faol aks ettirish jarayonini o'rga-nuvchi fan; 2)ma'lum bir faoliyat to'rining o'zaro shartlangan psixik jarayonlar to'plami; 3)psixika, xarakter xususiyati, ko'ngil xazinasi |
| 102. | Psychology methods | Psixologiya metodlari | Методы психологии | psixik hodisalarni va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o'rganishning asosiy yo'l-yo'riq va usullari |
| 103. | Questionnaire | Anketa | Анкета | metodlardan biri bo'lib, respondent to'g'risida aniq ko'zlangan ma'lumotlarni yig'ish maqsadida qo'llaniladi |
| 104. | Questioning | So'rov | Опрос | asosiy metodlardan biri bo'lib, nutq mulqoti yordamida bevosita yoki bavoisita ma'lumot olinadi |

| | | | | |
|------|------------------------------------|------------------------|--------------------|---|
| | | | | Ta'lim maskanlari psixodia-gnostikasi shaxsni ta'lim tizimida qobiliyati, iqtidori, iste'dodini aniqlab olish maqsadida olib boriladigan psixologik xizmat turi |
| 105. | Range of attention | Diqqatning ko'lami | Объём внимания | bir vaqtning o'zida diqqatning bir qancha ob'jektga qaratilishi imkoniyati |
| 106. | Relaxation | Relaksatsiya | Релаксация | kuchli hayajon va jismoniy zo'riqishdan so'ng yengil yurish, tinchlanishning umumiy holati |
| 107. | Retrospective | Retrospektiv | Ретроспектив | o'tmishga murojaat etish |
| 108. | Reference group | Referent guruh | Референтная группа | shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yaqin tutgan guruhi |
| 109. | Rigid personality | Rigid shaxs | Ригидная личность | shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining past darajada kuzatilishi |
| 110. | Self- assessment | O'z-o'ziga baho berish | Самооценивание | shaxsning o'z-o'ziga baho berishi |
| 111. | Self evaluation (assessment) | O'z-o'zini baholash | Самооценка | shaxsning o'z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmatini, kamchiliklarini baholay olishi |

| | | | | |
|------|-------------------------|------------------------|-----------------------|---|
| 112. | Self – upbringing | O'z-o'zini tarbiyalash | Самовоспитание | 1)shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2)shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish |
| 113. | Small group | Kichik guruh | Малая группа | a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo'luvchi kishilar guruhi |
| 114. | Sanguine person | Sangvinik | Сангвиник | temperament turlaridan bo'lib, chaqqon,harakatchan, taassurotlari tez o'zgaradigan, boshqalarga nisbatan dilkashlik, mehribonlik xislatlari bilan xarakterlanadi |
| 115. | Sanguine person | Sangvinik | Сангвиник | temperament turlaridan bo'lib, chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez o'zgaradigan, boshqalarga nisbatan dilkashlik, mehribonlik xislatlari bilan xarakterlanadi |
| 116. | Socialization of person | Shaxs ijtimoiylashuvi | Социализация личности | inson tomonidan ijtimoiy tajribani egalash va hayot – faoliyat jarayonida uni |

| | | | | |
|------|---------------------------------|---------------------------------|---------------------------------------|---|
| | | | | faol tarzda o'zlash-tirish jarayonidir |
| 117. | Sympathy | Simpatiya | Симпатия | bir kishida bosh-qasiga nisbatan kuza-tiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo'lishi |
| 118. | Subject of research | Tadqiqot predmeti | Предмет исследования | -bevosita o'rganilishi lozim bo'lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan ob'yektning mohiyati, ma'lum bir tomoni, xususiyati |
| 119. | Sympathy | Simpatiya | Симпатия | bir kishida bosh-qasiga nisbatan kuza-tiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo'lishi |
| 120. | Social psychological experiment | Ijtimoiy psixologik eksperiment | Социально-психологический эксперимент | asosiy metodlardan biri bo'lib, o'zgaruvchan mustaqil jarayonlarga ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlariga tayanadi |
| 121. | Social imagination | Ijtimoiy tasavvurlar | Социальное представление | shaxsga jamiyat orqali ta'sir etgan narsa va hodisalarning yaqqol obrazi |
| 122. | Social psychology | Ijtimoiy psixologiya | Социальная психология | psixologiya fanining o'ziga xos maxsus tarmog'i bo'lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari o'rganiladi |

| | | | | |
|------|----------------------------|-------------------------|-------------------------|--|
| 123. | Socialization | Ijtimoiylashuv | Социализация | inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni |
| 124. | Stability of the attention | Diqqatning barqarorligi | Устойчивость внимания | diqqatning ma'lum ob'yektga uzoq vaqt davomida muttasil qaratilishi |
| 125. | Subjectivity of perception | Idrokning predmetligi | Предметность восприятия | jamiki olamdan olingan ma'lumotlarni ichki olam ob'yektiga kiritish xususiyati |
| 126. | Talent | Iste'dod | Талант | shaxsning ma'lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi |
| 127. | The stages | Bosqichlar | Этапы | muloqotda mavjud bo'lgan shaxsning o'zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni |
| 128. | Textbook | Darslik | Учебник | maxsus ravishda o'quvchilar uchun yozilgan kitob darslik deb ataladi |
| 129. | Thought | Tafakkur | Мышление | inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o'rab olgan dunyodagi o'zaro bog'langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his |

| | | | | |
|------|-----------------|-----------------|-------------|---|
| | | | | qilish va muam-molarni hal qilish, ma'lum bo'lma-gan voqea hodisalarni qi-dirish, kelajakni ko'-ra olish Tafakkur, tushuncha, hukm, xu-losa shakllarida na-moyon bo'ladi |
| 130. | Temperament | Temperamen t | Темперамент | shaxsning individual-psixologik xususi-yatlari majmui bo'lib, u kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emotsi-onal tomonlari bilan xarakterlanadi |
| 131. | Temperame nt | Temperame nt | Темперамент | 1)shaxsning psixik faoliyati dinamikasi-ning turli jihatlarini bildiradigan turg'un individual xususiya-tlarining qonuniy munosabatlari; 2)shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik,tezlik, temp, psixik jarayon-lar va holatlar ritmi |
| 132. | Testing | Test | Тест | sinaluvchini tekshi-rish jarayonida maxsus qo'llaniladi-gan metodlardan bi-ri bo'lib, bu metod orqali aniq bir psi-xologik xususiyyat aniqlanadi |

| | | | | |
|------|---------------------------|----------------------|-----------------------|---|
| 133. | Training | Trening | Тренинг | mashq qilmoq, guruhlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo'lib, shaxsning muloqotga o'rgatish va obro'li bo'lishini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi |
| 134. | Teaching | O'qitish | Обучение | ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'qituvchining faoliyati |
| 135. | Upbringing | Tarbiya | Воспитание | 1)shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq, ta'sir etish; 2)pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati |
| 136. | Changing of the attention | Diqqatning ko'chishi | Переключение внимания | Diqqatni ixtiyoriy ravishda bir ob'yekt-dan ikkinchisiga ko'chirish |
| 137. | Character | Xarakter | Характер | kishidagi barqaror psixik xususiyatlarining individual birligi bo'lib, shaxsning mehnatga, narsa va hodisalarga, o'ziga va boshqa kishilarga |

| | | | | |
|------|----------------|-----------------|--------------------|---|
| | | | | munosabatlarida namoyon bo'ladi |
| 138. | Choleric | Xolerik | Холерик | temperament turi bo'lib, hissiyot jo'shqinligi, qayfiyatning tezda o'zgarishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ajralib turishi xosdir |
| 139. | Verbal | Verbal | Вербал | og'zaki ifodalangan nutq |
| 140. | Working memory | Operativ xotira | Оперативная память | xotira turlaridan biri bo'lib, faoliyat bajarish jarayonida uzoq xotiradan vaqtincha foydalaniladi |

TEST DESHIFRATORI

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|----------|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| avz u | .1 | .2 | .3 | .4 | .1 | .2 | .1 | .2 | .1 | .1 | .2 | .1 | .2 | .1 | .2 | .1 | .2 | .1 |
| est | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 0 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 1 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 2 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 3 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 4 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 5 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 6 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 7 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 8 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 9 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 0 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |

ILOVALAR
PSIXOLOGIYA FANI O'QITUVCHISIGA AMALIY YORDAM

1 - metodika

SHAXS KARTASI

1. Mazkur anketa to'ldirilgan kun _____
2. O'quvchining familiyasi va ismi _____
3. Yoshi _____
4. O'qiyotgan sinfi _____
5. Sog'lig'i _____
6. Jismoniy chiniqishi va unga munosabati _____
7. Oila sharoiti _____
8. Sinf jamoasi va tengdoshlari orasida tutgan o'rni _____
9. Qobiliyatlarning namoyon bo'lishi: _____
- 9.1 Sportga oid qobiliyatlar _____
- 9.2 Musiqaga oid qobiliyatlar _____
- 9.3 Aktyorlik san'atiga oid qobiliyatlar _____
- 9.4 Badiiy qobiliyatlar _____
- 9.5 Texnikaga oid qobiliyatlar _____
- 9.6 Matematikaga oid qobiliyatlar _____
- 9.7 Adabiyotga oid qobiliyatlar _____
- 9.8 Ilmiy yoki intellektual qobiliyatlar _____
- 9.9 Pedagogik qobiliyatlar _____
- 9.10 Tashkilotchilik qobiliyatlari _____
10. Xarakterning umumiy xususiyatlari _____
- 10.1 G'oyaviy dunyoqarash _____
- 10.2 Vatanparvarlik _____
- 10.3 Qat'iylik _____
- 10.4 Sofdillik _____
- 10.5 Tashabbuskorlik _____
- 10.6 Faollik _____
- 10.7 Tashkilotchilik _____
- 10.8 Jamoachilik _____
- 10.9 Iltifotlilik _____
11. Shaxs yo'nalishi _____
- 11.1 Umumiy yo'nalish darajasi _____
- 11.2 Kengligi _____
- 11.3 Barqarorligi _____
- 11.4. Mehnatga va o'z imkoniyatlarini rivojlantirish munosabati _____
12. Psixik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari _____
- 12.1 Emotsional qo'zg' alish _____
- 12.2 Diqqatlilik _____
- 12.3 Xotira samaradorligi _____
- 12.4 Tafakkur sifati _____
- 12.5 Ijodiy xayol _____
13. Temperament _____
- 13.1 Harakatchanligi _____
- 13.2 Muvozanatlashganligi _____

«SHAXS KARTASINI» TO'LDIRISH UCHUN MO'ljALLANGAN KO'RSATMALAR BAYONI

Qaydnomadagi birinchidan to'rtinchi savolgacha tushuntirish va baho qo'yish talab qilinmaydi.

5. Sog'lig'ini baholash: 5-«a'lo» darajada; 4-sog'lig'i asosan bezovta qilmaydi; 3-ba'zan tez o'tadigan kasalliklarga chalinib turadi; 2-ishlash va o'qish qobiliyatiga ayrim asoratli kasalliklar ta'sir qiladi; 1-asoratli kasalliklari ko'p va ular ishlash qobiliyatiga katta salbiy ta'sir qiladi.

6. Jismoniy chiniqish va unga munosabati quyidagicha baholanadi: 5- sport bilan muntazam shug'ullanadi, «razryadi» ham bor; 4-bola sport bilan muntazam bo'lmasada, qiziqish bilan shug'ullanadi; 3-faqat ertalabki badantarbiya bilan shug'ullanadi; 2-sport bilan juda kam shug'ullanadi; 1-sport bilan mutlaqo shug'ullanmaydi.

7. Oila sharoiti: 5-har tomonlama barkamol; 4-barkamol, lekin hamisha ham qoniqtirmaydi; 3-mavhum, aniq aytish qiyin (yaxshi ham deb bo'lmaydi, yomon ham); 2-tarbiyaviy iqlim o'rtacha, ko'ngilsiz holatlar uchrab turadi; 1-salbiy vaziyatlar juda ko'p uchraydi va bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qila boradi.

8. Sinf jamoasi yoki tengdoshlari orasida tutgan o'rni: 5-sinfda eng yaxshi obro'ga ega. Hamma tengdoshlari uni hurmat qiladi. Sinfda ijobiy lider hisoblanadi; 4-tengdoshlari orasida yaxshi obro'ga ega; 3-jamoadada o'rtacha mavqega ega; 2-ba'zi tengdoshlari bilan hamisha janjallashib yuradi; 1-ko'pchilik tengdoshlari bilan til topisha olmaydi.

9. Qobiliyatlarning namoyon bo'lishi. Shaxsning muayyan faoliyatini muvaffaqiyatli egallashi, shuningdek uni ijodiy ravishda amalga oshirishning shartlari hisoblangan xususiyatlariga qobiliyat deyiladi. Kishi qobiliyatlari ikkita asosiy turga: maxsus qobiliyatlar va umumiy qobiliyatlarga bo'linadi. Kasbiy faoliyatning faqat ayrim turlarida (masalan, musiqa, matematika, sport va boshqalar) namoyon bo'ladigan qobiliyatlarni maxsus qobiliyatlar deb ataydilar. Intellektual qobiliyatlar (ziyraklik va topqirlik diqqatning taqsimlanishini, biror mavzuni tez esda qoldirish, aqlning o'tkirligi va boshqalar) umumiy qobiliyatlarga misol bo'la oladi.

O`quvchida mazkur sifatlarning bor-yo`qligi va qay darajada namoyon bo`lishiga qarab ko`rsatilgan har bir yo`nalishga (9.1dan 9.9 gacha) quyidagicha baho berish mumkin:

5- mazkur sohaga oid qobiliyatlarning yaqqol namoyon bo`lishi;

4- qobiliyatlarning qisman bo`lsada ifodalanishi bilan boshqalardan ajralib turishi;

3- mazkur sohaga oid qiziqish, ko`nikma va malakalarning namoyon bo`lishi;

2- qobiliyatning yo`qligi, malakalarning yetarli emasligi;

1- mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyatsizlik va qiziqishlarning yo`qligi.

10. Xarakterning umumiy sifatlari. Xarakter shaxsning hayoti jarayonida tarkib topgan intellektual, emotsional va irodaviy xususiyatlari yo`nalishining yig`indisidan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, xarakter - bu shaxsning aniq hayot sharoitlari ta`sirida vujudga kelgan muayyan xulq tarzidir. Kishining xarakterida, odatda, avvalo shaxs xulqining hamma tomonlarida iz qoldiradigan ba`zi bir xilma-xil tartibda birga qo`shilib keladigan umumiy xislatlar ajralib turadi. Xarakterning mukammalligi, barqarorligi, qat`iyligi va kuchi bunday xislatlar qatoriga tegishlidir. Masalan, xarakterning juda kuchli bo`lishi bilan birgalikda uning bir tomonlama va tor ekanligi yoki yetarlicha barqaror bo`lmagan to`liqligini ham uchratish mumkin.

O`quvchi faoliyatida namoyon bo`luvchi (shaxs kartasida ko`rsatilgan) 10 ta xarakter sifatiga quyidagicha baho qo`yish talab qilinadi:

5- mazkur sifat to`liq va barqaror namoyon bo`ladi;

4- mazkur sifat tez-tez namoyon bo`lib turadi; 3- mazkur sifat ba`zida namoyon bo`ladi;

2- mazkur sifatning o`quvchi xulq-atvorida ifodalanishi noma'lum;

1- mazkur sifat xali shakllanmagan va xulqida ifodalanmagan.

11. O`quvchining shaxs sifatidagi yo`nalishi. Shaxsning yo`nalishi - ehtiyojlari, motivlari, qiziqishlari, ishtiyoqi, ideallari yo`nalishning mazmunini tashkil etadi. Xuddi mana shular kishining borliqda, ijtimoiy voqea va hodisalarga, jamiyatga, jamoaga hamda boshqa kishilarga, shaxs sifatida o`z-o`ziga bo`lgan munosabatlari

xususiyatini belgilaydi. Shaxs yo`nalishini belgilashda, avvalo, o`quvchining o`z hayotida qanday maqsadlarga erishishni eng yuqori va muhim deb hisoblashi, qiziqishlar ko`lami, kasb tanlashga ongli munosabati, mehnatga va o`z-o`zini rivojlantirishga munosabati hamda tegishli ma`lumotga ega bo`lish talab qilinadi.

Baholash tartibi quyidagicha:

11.1. Umumiy yo`nalish darajasini baholash bo`yicha:

5- e`tiqodi, qiziqishlari va ishtiyoqlarining yuksakligi hamda ularning jamiyat istiqbolini ifodalovchi axloqiy mezonlar bilan to`la mos tushishi;

4-yuqori e`tiqodga ega bo`lish bilan birga ayrim qiziqishlarning axloqiy mezonlarga to`g`ri kelmasligi;

3- qiziqishlarida ijobiy va salbiy sifatlarning tez-tez namoyon bo`lib turishi;

2- beqaror qiziqishlar;

1- axloqiy mezonlarga zid yo`nalishning yaqqol ifodalanishi.

11.2. Yo`nalish kengligi bo`yicha:

5- kasbiy, adabiy, badiiy, musiqaviy, sport, texnika va boshqa shu kabilarga nisbatan qiziqishlarning keng ko`lamda ifodalanishi;

4-bir-biriga bog`langan uch-to`rt xil yo`nalishdagi qiziqishlarning ifodalanishi;

3- ma`lum kasbga oid qiziqishlar va malakalarning ifodalanishi;

2- faqat bir yo`nalishdagina qiziqishlarning namoyon bo`lishi;

1-beqaror qiziqishlar.

11.3. Yo`nalish barqarorligi bo`yicha:

5- yoshlikdayoq shakllangan qiziqishlar va yo`nalishlarning hali o`zgarmaganligi;

4- yo`nalish hayotda bir martadan ortiq o`zgartirilmagan;

3- yo`nalish ba`zan o`zgarib turadi;

2- yo`nalish bir yilda bir necha marotaba o`zgaradi; 1-yo`nalish hamisha beqaror.

11.4. Mehnatga va o`z imkoniyatlarini rivojlantirishga munosabati:

5- mehnatsevar, irodali, o`z maqsadi yo`lida qat`iy, o`z imkoniyatlarini rivojlantirishga hamisha intiladi. O`z-o`ziga talabchan. Hamisha har bir ishga ijodiy va mustaqil yondasha oladi;

4- mehnatsevar. Faqat aytilgan va ko`rsatib berilgan ishlarni

astoydil bajaradi. Faqat ayrim hollardagina ishga ijodiy va mustaqil yondashishga intiladi;

3- o'zi uchun oson va qiziqarli bo'lgan paytdagina o'quv va mehnat topshiriqlarini bajarishga harakat qiladi. Mustaqil ishlay olmaydi;

2- ishga va o'z-o'ziga loqayd. O'quv va mehnat topshiriqlarini hafsalasizlik bilan bajaradi;

1-dangasa, o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga sovuqqonlik bilan qaraydi.

12. Psixik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.

12.1. Emotsional qo'zg'alish va uning faoliyatga ta'siri:

5- har qanday emotsional harakatlarda va affektiv holatlarda o'zini tuta oladi; Emotsional qo'zgalish faoliyatga ijobiy ta'sir etadi;

4- murakkab vaziyatdagi kuchli emotsional holatlarda psixik ijobiy harakat yo'nalishi qisman buziladi, bu esa, faoliyatga ham ta'sir etadi;

3- ijobiy va salbiy emotsional harakatlar tez-tez namoyon bo'lib turadi;

2- psixik harakatlardagi emotsional buzilishlarni bartaraf etish uchun alohida kuch sarflash talab qilinadi;

1- ifodalangan emotsional harakatning buzilishini to'xtatib bo'lmaydi. Bu esa, faoliyatga ko'pincha salbiy ta'sir ko'rsatadi.

12.2. Diqqatlilik:

5- bir vaqtning o'zida turli narsalarga diqqatini to'g'ri va samarali taqsimlay oladi. Ixtiyoriy diqqat ko'p hollarda barqaror;

4- diqqatni osonlik bilan to'play oladi. Har qanday vaziyatda diqqatni boshqara oladi;

3- diqqatni taqsimlash va yig'ishda qiynaladi;

2- bir vaqtning o'zida faqat bitta narsagagina diqqatni qarata oladi. Diqqatni to'g'ri va unumli taqsimlay olmaydi;

1- diqqatni bir nuqtaga to'play olmaydi.

12.3. Xotira samaradorligi:

5- Esda saqlab qolish va esga tushirish jarayoni kuchli. Narsa va hodisalarni uzoq muddatga esda eslay oladi. Mantiqiy xotirasi ancha ustun.

4- Har bir hodisani mexanik ravishda esda saqlaydi. Mexanik ravishda uzoq muddatda yodda saqlay oladi;

3- Qisqa muddatda yaxshi esda saqlaydi, lekin tez unutadi, ixtiyorsiz xotira ustun;

xotira tiplari va jarayonlarida ayrim kamchiliklar mavjud;

1- xotirasi nihoyatda zaif. Parishonxotir.

12. 4. Tafakkur sifati:

5- konkret-amaliy; konkret obrazli; mavhum tafakkur turlari kuchli, narsa, hodisa va tushunchalarni osonlik bilan tahlil va targ'ib qila oladi, mazmunli hukm va xulosalar chiqara oladi;

4- tafakkurning ayrim turlari juda kuchli rivojlangan;

3- narsa va hodisalar to'g'risida fikrlash va xulosalash jarayonida ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yadi,

2- ilmiy fikrlash va aqliy faoliyat faolligi ko'rinmaydi;

1-tafakkuri sezgilar va idrok darajasida, ya'ni narsa va hodisalarni bevosita aks ettiradi, xolos. Fikrlash jarayoni nihoyatda bo'sh.

12.5. Ijodiy xayol:

5-xayolini boshqara oladi. Tafakkur orqali yangi-yangi obrazlarni o'ylab topadi, mavhum narsalardan aniq narsalarni keltirib chiqaradi. Ayrim fantaziyalardan kichik kashfiyotlarni keltirib chiqarishi mumkin. Aktiv va tasavvur xayoli kuchli;

4- mustaqil ravishda yangi obrazlar yarata oladi;

3- aktiv va passiv (shirin) xayol turlari tez-tez almashinib turadi;

2-xayolidagi salbiy illatlarni boshqara olmaydi; 1- real hayot va real imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydigan xayollarga juda ko'p beriladi

13. Shaxs tuzilishining biologik asosi

Shaxs tuzilishining biologik asosi, avvalo, oliy asab faoliyatining o'ziga xos sifatlari «kuchi», «harakatchanligi» va «muvozanatlashganligi» bilan bevosita bog'liqdir. I.P.Pavlov o'zining ko'p yillik tadqiqotlarida buni har tomonlama asoslab bergan. Demak, o'quvchilarning xulq-atvori, qabul qilishi, odamlarga munosabati va o'quv topshiriqlarini qay darajada bajara olishi ko'p jihatdan ularning asab tuzilishi sifatiga, aniqrog'i yuqorida aytilgan uchta sifatning (kuchi, harakatchanligi va muvozanatlashganligi) shakllanganlik darajasiga ham bog'liq ekan. O'qituvchi esa, o'z o'quvchilaridagi bunday o'ziga xos sifatlarni bilish va shu asosda ish tutishi lozim.

13.1. Asab jarayonlari xususiyatlarining kuchiga, ya'ni asab sistemasining kuchli qo'zg'ovchilariga chegaradan tashqari tormozlanishga uchramasdan, uzoq vaqt bardosh bera olish qobiliyati kiradi. Qat'iy va uzoq vaqt davom etadigan qo'zgalish jarayoni hosil qiladigan qo'zg'ovchilar kuchli qo'zg'ovchilar deyiladi. Bunda inson narsa va hodisalarni tez qabul qila oladi va uzoq muddatda ular haqida chuqur fikrlay oladi, tegishli xulosalar chiqarishga qodir. Ushbu holat yorqin va hamisha namoyon bo'lib turadigan kishilarga eng yuqori ball - 5 ball yoki 4 ball hisoblanadi. Asab faoliyati qo'zgalishining o'rtacha darajasiga 3 ball, nisbatan past darajada bo'lishiga esa 2 yoki 1 ball qo'yilishi mumkin.

13.2. Asab jarayonlarining ikkinchi xususiyati - ularning harakatchanligi, ya'ni asab sistemasining, hayot sharoitlarining talabiga ko'ra qo'zgalish jarayoni tormozlanish jarayoni bilan va, aksincha, tormozlanishni qo'zgalish bilan tez almashtira olishidir. Bunda insonning epchilligi, ishbilarmonligi, har **qanday** vaziyatda sharoit talabiga tez moslasha olishi ko'zda tutiladi. Jarayonni baholashda ham eng yuqorisi 5-4 ball va quyisi 2-1 ball hisoblanadi;

13.3. Asab jarayonlarining uchinchi xususiyati qo'zgalish va tormozlanish jarayonlarining muvozanatliligi (barqarorligi yoki o'zgarmasligi) dir. Bunda insondagi qo'zgalish jarayoni ham, tormozlanish jarayoni ham barobar kuchga ega. Narsa va buyumlar, voqea va hodisalarga nisbatan munosabatda qay darajada qo'zgalish bo'lsa, shu darajada tormozlanish namoyon bo'ladi. Eng yuqori baho - 5 ball, quyi baho esa 2 yoki 1 ball hisoblanadi.

Shunday qilib, ushbu ko'rsatmalar «Shaxs kartasi»ni shartli ballar (yoki baholar) misolida to'ldirish uchun bir asos sifatida xizmat qilmog'i, o'qituvchi esa, har bir qo'yilgan bahoning mohiyatini pedagogik-psixologik jihatdan to'g'ri tushunmog'i va talqin qilmog'i lozim.

**BIR SOATLIK DARSNING PSIXOLOGIK TAHLILI BILAN
BOG'LIQ ASOSIY YO'NALISHLAR**

**1 DARSNING MAQSADI VA TA'LIM-TARBIYAVIY
VAZIFALARI.**

1. Darsni tashkil qilish.

Javob:

| |
|--|
| |
| |
| |
| |

1NO'quvchilarning bilim ko'nikma va malakalarini tekshirishdan maqsad va uning metodikasi (og'zaki va yozma topshiriqlarning mazmuni va ahamiyati)

Javob:

| |
|--|
| |
| |
| |
| |

2NYangi bilimlarning mazmuni, hajmi, tarbiyalovchilik xarakteri. Bayon etishdagi sistema va obrazlilik, bayon etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi.

Javob:

| |
|--|
| |
| |
| |
| |

II. O'QUVCHI FAOLIYATINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH

1NO'quvchilarning mazkur fanga qiziqish darajasi, ilgarigi mavzu mazmunini o'zlashtirilganligi (yoki o'zlashtirmaganligi).

Javob:

| |
|--|
| |
| |
| |

| |
|--|
| |
| |
| |
| |

RNO’quvchilarning o’quv topshiriqlarni bajarishga munosabati (mustaqil fikrlay olish, nuqul doskadan ko’chirish, topshiriqlardan qoniqish yoki qoniqmaslik va hokazolar).

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |

SNO’quvchilar faoliyatidan “tashqi” va “ichki” ning o’zaro munosabati namoyon bo’lgan aqliy faoliyatni tashqi ko’rinishini (o’quvchilarni aniq va ishonchli javoblari, harakati, materialni qabul qilishi, tashqi va ichki nutqning namoyon bo’lishi).

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |

TNO’quvchilardagi darsning borishi bilan bog’liq bo’lgan emotsional holatlarning namoyon bo’lishi va o’quvchi faolligiga ta’siri.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |

UNMunosabatlarning qat’iyligi va dinamikasi: o’quvchilarning mazkur darsga munosabatini (boshdan oxirigacha bir xilda bo’ldimi yoki o’zgarib turdimi) yo’naltiruvchi usullar va holatlar.

| |
|--------|
| Javob: |
| |

| |
|--|
| |
| |
| |
| |
| |
| |

VNO'quvchilarda o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan quyidagi komponentlar qay tariqa namoyon bo'ladi.

a) Kognitiv (bilimga asoslangan) komponent topshiriqlarni ma'lum bilimlar asosida mustaqil bajarish.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

b) Emotsional irodaviy komponent dars mazmunidan va rag'batlantirishdan qoniqqan holda barcha qiyinchiliklarni yechishga harakat qilish) irodaviy sifatlarni namoyon qilish.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

c) O'z-o'zini baholash komponenti o'z imkoniyatlarini to'g'ri (obyektiv baholashga odatlanish va hokazolar.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |

7NO'quvchilarni yangi mavzu maqsadini tushunganligi va uni o'zlashtirganlik darajasi.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

XNDars davomida namoyon bo'lgan boshqa barcha ijobiy va salbiy sifatlar.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

III. O'QITUVCHI FAOLIYATINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH

INO'qituvchining ma'lumot yoki dars mavzusini tushuntira olish malakasini (aniqlik, birin - ketinlik, eng asosiylarini ajrata olish, o'quvchilarning oldingi va malakalarini hisobga olish, metodik mahorati).

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

RNO’quvchilarning ayrim psixologik holatlarini to’g’ri idrok qila olish malakasi, xulq – atvori, bilimi, yoshi va individual xususiyatlariga mos munosabatda bo’lish.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

SNTashkiliy vazifalar: o’quvchilar jamoasini boshqara olish, dars bosqichlariga rioya qilish, mavzuni hayot bilan o’quvchilarning imkoniyatlar bilan bog’langan holda muammoli masalalar, bilimga oid vazifalarni qo’ya olish. Aqliy faoliyatini ijodiylik va mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni qo’llash.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

TNKommunikativ (nutqiy aloqa o’rnatish)lik xususiyatlari: muomala usuli, nutqi tasnifi, so’z boyligi, ohangi va ta’sirchanligi. Har bir so’zning o’rnida ishlatilishi.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

UNO’quvchilar faoliyatini nazorat qila borish (kamchiliklarni tuzatish, nutqlar uchun rag’batlantirish). O’quvchilar javobiga

qo'yiladigan baholarning obyektivligi. Ayrim passiv o'quvchilarga e'tiborni qaratish.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

VNPedagoglikka oid barcha muhim sifatlar (qobiliyatlar elementlar) uning namoyon bo'lishi:

a) Yuksak umumiy madaniyat, ko'p qirrali bilim egasi bo'lish pedagogik takt va pedagogik nazokat.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

b) O'qituvchining emotsionalligi va irodaviy sifatlar.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

c) O'quvchining diqqatini taqsimlay olish va kuzatuvchanlik qobiliyati.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |

| |
|--|
| |
| |
| |
| |

d) O'quv materialini induktiv va deduktiv metodlardan foydalangan holda tushuntira olish.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

e) O'qituvchining o'z - o'ziga va o'quvchilarga bo'lgan talabchanligi.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |

g) O'quvchilarni qiziqтира bilish, ularda tashabbuskorlikka va aktivlikka ixlos uyg'otish va zarur bo'lgan emotsiyani (his-tuyg'uni) tarbiyalab muayyan ishga jalb qila olish.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |

j) pedagogik muomalaning boshqa barcha muhim sifatleri...

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |

IV. BILISH JARAYONLARINING NAMOYON BO'LISHI VA UNING O'QITUVCHI TOMONIDAN BOSHQARILISHI

1. DIQQAT

Darsda o'qituvchining o'quvchilar diqqatini to'plash usullari: O'qituvchining tashqi ko'rinishi, mimikasi va pantomimikasi, mehribonligi, ko'rgazma qurolining yorqin va yangiligi, o'qituvchi nutqining obrazlilik va mantiqiyliigi. Darsning turli bosqichlarida o'quvchilar diqqatini namoyon bo'lishi va uning barqaror bo'lishini ta'minlash, diqqatning bir narsadan bir narsaga ko'chishi. Diqqatni tarbiyalashda uning bir biriga zid xususiyatini taqsim qilish va yig'ish (konstratsiyalash) ning namoyon bo'lish darajasi.

2. SEZGI VA IDROK

Sezgi turlarining namoyon bo'lishi:

O'quvchilar yoshiga ko'ra idrokning xususiyatlari (to'laligi, aniqligi) ning namoyon bo'lishi. Ko'rsatmalilik asosida o'quvchilar idrokini rivojlantirish yo'lari.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |

S/ XOTIRA

Ilgari egallangan bilimlarni yanada, mustahkamlash. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira. Esda qoldirilishi lozim bo'lgan materiallarni oldindan to'g'ri rejalashtira olish. Mantiqiy xotira. O'quvchilar xotirasining barcha tiplarini rivojlantirish.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |

4/TAFAKKUR

Dars maqsadining vositali va umumlashtirilgan holda o'quvchiga aks etirilishi. Konkret amaliy, konkret-obrazli, abstrakt tafakkur. Yangi temaga oid muhim tushunarli analiz sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish, kvalifikatsiyalash va sistemalashtirish. Ilmiy fikrlashni va aqliy faoliyat aktivligini yanada rivojlantirish.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |

UNXAYOL

Ilgari idrok etilgan materiallar va bilimlar asosida yangi obrazlar va g'oyalar yaratish. Tasavvur va ijodiy xayolning namoyon bo'lishi va uni o'stirish. Xayol, orzu va ayrim fantaziyalar orqali kasbga yo'naltirish, ijobiy fazilatlarni shakllantirish.

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |
| |

6. DARSNING NATIJASIGA OID UMUMIY XULOSALAR

(Dars maqsadiga mos ravishda tegishli bilimlarning, ko'nikma va malakalarning yetarlicha ekanligi). Mazkur darsdagi rivojlantiruvchilik va egallovchilik funksiyasining samaradorligini hisobga olgan holda umumiy baho chiqarish.

1. YUTUQLAR

| |
|--------|
| Javob: |
| |
| |
| |
| |

**SOTSIOMETRIYA. GURUHDAGI IJTIMOY PSIXOLOGIK
MUHIT VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR XUSUSIYOTLARINI
O'RGANISH**

Sotsiometriya usuli guruhdagi shaxslararo munosabatlarni aniqlovchi eng samarali usullardan biridir.

Bu usulni amalga oshirish davomida tekshiruvchiga nisbatan bir qator talablar borki, bu talablarga tekshiruvchi qat'iy rioya qilishi lozim.

1. Avvalo, berilgan javoblar qattiq sir saqlanishini tekshiruvchilar bilishlari joiz.

2. Javob berish chog'ida har bir tekshiriluvchining mustaqil hamda erkin bo'lishiga sharoit yaratish lozim.

3. Tekshirish davomida tekshiruvchi o'zini ochiq yuz bilan quvnoq holda tutishi kerak.

Demak, sotsiometriya metodida odatda 3 tadan 5 tagacha savol bo'lishi mumkin.

Tekshiriluvchiga quyidagi savol bilan murojaat qilinadi.

Siz guruhingizdagi (sinfingizdagi) talabalar (o'quvchilar) orasidan kimni ko'proq hurmat qilasiz?

1-shakl

Abdullayeva E.

IN _____

RN _____

Ma'lumotlarni qayta ishlash

Javoblarni tahlil qilishda sotsiometrik matrisa (1-jadval) tuziladi. Bunda guruhdagi shaxslararo munosabatlar va o'zaro sheriklik munosabatlari aks ettiriladi. Shuningdek, o'zaro bir-birini tanlashlar belgilanadi (bir-birlarini tanlash) va matrisa doira ichiga olib qo'yiladi (☐) keltirilgan sotsiometrik matrisani quyidagi (1-jadvalda) ☐ to'ldirish uchun dastavval guruhning tadqiqotda ishtirok etgan a'zolarining ro'yxati alifbo bo'yicha yozib olinadi va unda nechta kishi ishtirok etgan bo'lsa familiyalardan so'ng jadvalda shuncha ustun qoldiriladi va tartib bo'yicha ularga ham raqamlar qo'yib chiqiladi.

Namuna 2-jadval

Sotsiometrik matritsa

| No | F.I.Sh. | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
|-------------------------------|-----------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| 1. | Abdullaye va Y. | ■ | | | | | | ☐ | | ☐ | | | | ☐ | | |
| 2. | Azizov B. | | ■ | ☐ | | | | | | | + | | | | | + |
| 3. | Alimov A. | | ☐ | ■ | | | | | | | + | | | | | |
| 4. | Bahliev U. | | | | ■ | + | | | | | + | | | | ☐ | |
| 5. | Boymirov X. | + | | | | ■ | | + | | | | | | + | | |
| 6. | Kabirov S. | | | + | | | ■ | | ☐ | | | | | | ☐ | |
| 7. | Maxmudo v I. | ☐ | | | | | | ■ | | + | | | | ☐ | | |
| 8. | Maxmudo v E. | | + | | | | ☐ | | ■ | | | | | | | ☐ |
| 9. | Musayev O. | ☐ | + | + | | | | | | ■ | | | | | | |
| 10. | Sobirov I. | | | | | | | | + | | ■ | ☐ | | | | + |
| 11. | Tolipov Sh. | | | | | | | + | | | ☐ | ■ | | | | ☐ |
| 12. | Hamidov Sh. | | + | | | | | + | | | | + | ■ | | | |
| 13. | Yuldashev R | ☐ | | | | | | ☐ | | | | + | | ■ | | |
| 14. | Eminov O. | | | | ☐ | | ☐ | | + | | | | | | | ■ |
| 15. | O'ktamov A. | | | | | | | + | ☐ | | | ☐ | | | | ■ |
| Tanlashlar soni | | 4 | 4 | 3 | 1 | 1 | 2 | 6 | 4 | 2 | 1 | 7 | 0 | 3 | 2 | 5 |
| O'zaro tanlashlar soni | | 3 | 1 | 1 | 1 | 0 | 2 | 2 | 2 | 1 | 1 | 2 | 0 | 2 | 2 | 2 |

SOTSIOMETRIYA METODI ASOSIDA TO'LDIRILISHI LOZIM BO'LGAN MATRITSA

Shundan so'ng sotsiometrik kartochka bo'yicha sinaluvchi kimlarni tanlagan bo'lsa, kartochkalar bo'yicha uni shu kartochka egasining familiyasi yozilgan qatorga u tanlagan guruh a'zosining ro'yxat tartib raqami aks ettirilgan ustun ostiga "+" belgisi qo'yib chiqiladi. Hamma sotsiometrik kartochkalar bo'yicha tanlashlar matrisaga belgilab bo'linganidan keyin har bir ustunda "+" lar

yig'indisi hisoblab chiqilib, jadval pastki qismining "Tanlashlar soni" - deb ko'rsatilgan qatoriga yozib qo'yiladi.

O'zaro tanlashlar esa, sinaluvchilar bir-birlarini tanlash bilan belgilanadi. Matrisada o'zaro tanlashlarni ko'rsatuvchi "+" belgilari doira ichiga olib qo'yiladi (□). Ustunlar bo'yicha doira ichiga olingan "□" lar miqdori matritsadagi (eng pastki qatordagi) "O'zaro tanlashlar soni" - deb yozilgan qatorga yoziladi.



Bu misolda sinf jamoasining guruhviy tabaqalanishi aks etgan bo'lib, qizlar aylana, o'g'il bolalar uchburchak belgisi orqali ko'rsatilgan. Aynan ushbu misoldan kelib chiqqan holda siz ham o'rgangan guruhingizni aynan shu jadval asosida to'liq belgilashingiz talab qilinadi.

**NIZOLASHUVCHANLIK DARAJASINI ANIQLASH
SO'ROVNOMASI**

Mazkur so'rovnoma shaxsga nizolashuvchanlik xususiyati qanchalik xos ekanini aniqlashga xizmat qiladi.

Har bir "a" variant - 4 ball

Har bir "b" variant - 2 ball

Har bir "c" variant - 0 ball

1. Jamoat transportida boshlanib ketgan tortishuvga sizning munosabatingiz qanday bo'ladi?

a) ishtirok etaman;

b) qaysi tomonni haq deb bilsam, uning oldini olib, biror narsa deyman;

c) faol aralashib, butun zarbani o'zimga olaman.

2. Majlislarda rahbariyatni tanqid qilib chiqasizmi?

a) yo'q;

b) yetarli asosga ega bo'lsam, tanqid qilaman;

c) har qanday sabab bilan nafaqat rahbariyatni, balki uning oldini olganlarni ham tanqid qilaman.

3. Do'stlaringiz bilan tez - tez tortishib turasizmi?

a) hafa bo'lmaydiganlari bilan tortishaman;

b) faqat ayrim jiddiy masalalarda tortishaman;

c) tortishuv menga suv va havodek zarur.

4. Yaqinda kelib, navbat boshiga suqilib kirayotgan kishiga munosabatingiz qanday bo'ladi?

a) ichimdan norozi bo'laman-u, indamayman;

b) e'tiroz bildiraman;

c) o'zim navbat boshiga turib, odamlarni tartibga chaqiraman.

5. Uyda dasturxonga tuzi past taom tortilganda, reaksiyangiz qanday bo'ladi?

a) arzimagan narsani deb dod -voy solmayman;

b) indamay tuzdonni olaman;

c) piching qilaman, ovqatlanishdan namoyishkorona bosh tortaman.

6. Ko'chada yoki transportda oyog'ingizni bosib olishsa,

reaksiyangiz qanday bo'ladi?

a) aybdor odamga kinoyali qarab qo'yaman;

b) ikki og'iz e'tiroz bildiraman;

c) bisotimdagi hamma "chiroyli" so'zlarni to'kib sochaman.

7. Yaqinlaringizdan biri sizga yoqmaydigan narsa harid qilganda reaksiyangiz qanday bo'ladi?

a) indamay qo'ya qolaman;

b) qisqacha fikr bildirib qo'yaman;

c) tanqid qilib tashlayman.

8. Lotoreyada omadingiz chopmasa, bunga qanday munosabatda bo'lasiz?

a) o'zimni xech narsa bo'lmaganday ko'rsataman, ammo ichimda boshqa o'ynamaslikka o'zimga va'da beraman;

b) hafaligimni berkitmayman va bir kunmas olamimni olmasam bo'lmaydi deb o'ylab qo'yaman;

c) anchagacha kayfiyatim buzuq bo'lib yuraman.

Natijalarni talqin etish

22 – 32 ball. Siz tinchliksevar, nizolardan osonlik bilan chiqib ketadigan, uyda ham, ishda ham tortishuvli vaziyatlardan o'zini olib qochadigan odamsiz. Shuning uchun odamlar sizni moslashuvchan inson, deb biladi. Unutmang, vaziyat taqazo qilganda prinsipiiallikni namoyon etish ham hurmatga loyiq xususiyat.

12 – 20 ball. Siz nizolashuvchanroq odamsiz, biroq ilojsiz holatlardagina nizoga kirishasiz. Siz vaqti kelganda amalingiz va do'stlaringizni yo'qotib qo'yishdan qo'rqmay o'z fikringizni qattiq turib imoya ilasiz. Bunda obod – ahloq me'yorlaridan chetga chiqmaysiz, odamni haqorat qilmaysiz. Shuning uchun odamlar sizni hurmat qilishadi.

0 – 11 ball. Bahs, munozara, tortishuv – siz nafas oladigan havo. Boshqalarni tanqid qilishni yaxshi ko'rasiz, ammo sizni tanqid qilganlarni tiriklay "yeb yuborishga" tayyorsiz. Vazminlikning yetishmasligi va qo'rslik odamlarni sizdan bezdiradi. Do'stlaringiz ko'pmi? Ko'p bo'lishini istasangiz, xarakteringiz ustida ishleng.

Metodika manbasi: Ратанова Т.А., Шляхта Н.Ф.
Психодиагностические методы изучения личности:

Учебное пособие – Переработанное и дополненное издание пособия: Т.А. Ратанова, Л.И. Золотарева, Н.Ф.Шляхта «Методы изучения и психодиагностика личности» - М.: Московский психолого – социальный институт: Флинта, 1998. 259 – 260 стр.

5-metodika GURUHDAGI PSIXOLOGIK IQLIMNI O'RGANISH METODIKASI

Mazkur metodika guruhdagi ijtimoiy – psixologik iqlimni o'rganishga mo'ljallangan, maxsus ikki qutbli shkaladan tashkil topgan. Shkala F. Fidler tomonidan taklif qilingan.

Ko'rsatma: «Quyida ma'no jihatidan bir – biriga zid o'n juft jumla keltirilgan. Ushbu jumlar yordamida guruhdagi shaxslararo munosabatlar-ga baho berish mumkin. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki, baho chap tomonga yaqinlashgan sari chap tarafdagi xususiyat darajasi, o'ng tomonga yaqinlashgan sayin o'ng tarafdagi xususiyat darajasi ortadi. Endi o'ylab ko'ring: guruhingiz a'zolari o'rtasidagi munosabat uchun ko'proq qaysi xususiyatlar xos?».

| | 8 | 7 | 6 | 5 | 4 | 3 | 2 | 1 | |
|----------------------------|---|---|---|---|---|---|---|---|-------------------------------|
| Do'stona munosabat | | | | | | | | | Dushmanlik kayfiyati |
| Kelisha olish | | | | | | | | | Kelisha olmaslik |
| Guruhdoshlar dan qoniqish | | | | | | | | | Guruhdoshlard an qoniqmaslik |
| Guruh ishlariga qiziqish | | | | | | | | | Guruh ishlariga befarqlik |
| Bir – birini himoya qilish | | | | | | | | | Bir – birini himoya qilmaslik |
| Inoqlik, ahillik | | | | | | | | | Chiqishmaslik, noahillik |

| | | | | | | | | | | |
|--------------------------------------|--|--|--|--|--|--|--|--|--|-------------------------------------|
| Hamkorlik, hamfikrlik | | | | | | | | | | Bir – biriga ishonmaslik |
| O'zaro yordam | | | | | | | | | | Yaxshilikni ravo ko'rolmaslik |
| Guruhdosh- larni xurmat qilish | | | | | | | | | | Guruhdoshlarga xurmatsizlik |
| Guruhdosh yutug'idan quvonish | | | | | | | | | | Guruhdosh yutug'iga befarqlik |

Natijalarni qayta ishlash va izohlash:

1) Barcha jumalarga qo'yilgan ballarning yig'indisi topiladi (80 - eng yuqori ko'rsatkich, 10 - eng quyi ko'rsatkich); 2) har bir juftlik bo'yicha barcha ishtirokchilar to'plagan o'rtacha ballar hisoblab chiqiladi (har bir juftlik bo'yicha barcha ishtirokchilarning ballari o'zaro qo'shilib, yig'indisi ishtirokchilar soniga bo'linadi); 3) o'rtacha ballarning bandlari o'zaro birlashtirilib chiqiladi (hosil bo'lgan egri chiziq ishtirokchilar guruhdagi psixologik iqlim haqida qanday fikrda ekanini aks ettiradi)

Eslatma: Guruhning umumiy ko'rsatkichlarini har bir ishtirokchining ko'rsatkichlari bilan solishtirish orqali guruhdagi ijtimoiy – psixologik iqlimga noadekvat yuqori yoki past baho beruvchi sinaluvchilarni aniqlab olish mumkin.

Metodika manbasi: Ратанова Т.А, Шляхта Н.Ф. *Психодиагностические методы изучения личности: Учебное пособие. – Переработанное и дополненное издание пособия Т.А.Ратанова, Л.И. Золотарева, Н.Ф. Шляхта «Методы изучения и психодиагностика личности» - М.: Московский психолого – социальный институт Флинта, 1998. 101 – 102 стр.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutqi. - T.: O'zbekiston, 2016. -56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ro'za. 2016 yil 7 dekabr. - T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b.
3. "Ilm-fan yutuqlari - taraqqiyotning muhim omili". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yangi yil arafasida - 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvidagi ma'ro'zasi. //Xalq so'zi. 2016 yil 31 dekabr.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017.-108 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent: "O'zbekiston",1 jild, NMIU, 2017,-592 b.
7. Axmetjanov M.M., Olimov SH.SH., Avezov S.S. Pedagogik mahorat. Toshkent, LESSON PRESS MCHJ nashriyoti 2018. 286 b.
8. Axmetjanov M.M., Olimov SH.SH., Pedagogika. Toshkent, "Muharrir" nashriyoti 2018. 371 b.
9. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. -T.: Yangi asr avlodi. 2007. - 327 b.
10. Dushanov R.X., Farfiyev Y.A. Kasbiy psixologiya, O'quv qo'llanma. - T., 2010.
11. Fayziev Ya.M., Eshboev E.X., Umumiy va tibbiy psixologiya: Tibbiyot kollejlari uchanovhun darslik. - T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr., 2003.
12. Ivanov P.I., Zufarova M.E. "Umumiy psixologiya" T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 480 b.
13. Isqandarova SH.T., SHoyimova SH.S., Mizayeva N.A. Psixologiya.
14. Ismailov I. Jinoyatchilikda uyushganlikning oldini olishni xuquqiy ta'minlash. - T., 2007.
15. Ismailov I., Burxanov D. Uyushgan jinoiy tuzilmalar shakllanishi va faoliyatining oldini olishda xamkorlikni tashkil etish (muammo va yechimlar). - T., 2007.
16. Karimova V.M. Psixologiya. T.: Sharq, 2014. -256 b.
17. Karimova V.M., Sunnatova R.I. «Mustaqil fikrlash» o'quv qo'llanmasi

bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubi. T.: Shark, 2000.

18. Karimova V., Hayitov O., Akramova F., Lutfullayeva N. Psixologiya: Nopedagogik va nopsixologik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Tashkent. T.: TDIU, 2007. - 435 b.

19. Karimova V.M., Holiyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014.

20. Oila psixologiyasi. Prof. Shoumarov taxr. ostida. - T.: Shark, 2001.

21. Shoumarov G`. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. T., Mehnat. 2000.

22. Tulaganova G. K. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. - T., 2005.

23. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- "Voriz nashriyoti", Toshkent, 2012 y. 270 b

24. Umumiy psixologiya. A.V. Petrovskiy taxriri ostida. - T.: «O'qituvchi», 1992.

25. Xayitov O.E., Lutfullaeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. - T. 2005.

26. G'oziyev E.G. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. 2003.

27. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T.: -2001.

28. G'oziyev E.G. «Psixologiyada mukammal lug'at tuzish xususiyatlari» 2005.

29. G'oziev E.G., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001.

30. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 kitob.

Xorijiy adabiyotlar

1. Айзенк Г. Классические IQ тесты. Москва. Изд-во Эксмо, 2004.

2. Айзенк М. Психология для начинающих. «Питер», 2000.

3. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. «Питер», 2001.

4. Белинская Е.П., Тихомандрицкая О.А. Социальная психология личности. - М., 2001.

5. Билл Уизерс. Управление конфликтами. - СПб., 2004.

6. Болотова А.К, Макарова И.В. Прикладная психология: Учебник для вузов. - М. Аспект Пресс, 2002.

7. Бурлачук Ф. Психодиагностика. «Питер», 2002.

8. Веденская Л.В, Павлова Л.А. Деловая риторика: учебное пособие для вузов. М.:ИКЦ «Март», 2004.

9. Вердервер Р., Вердервер К. Общение. - СПб., 2005.

10. Воспитай своего лидера. Как находить, развивать и удерживать в организации талантливых руководителей. - Пер. с англ. М.: Издательский дом «Вильямс», 2002.

11. Гамильтон Я.С. Что такое психология? «Питер», 2002.

12. Грейс Крайг, Дон Бокум. Психология развития. 9-издание. ПИТЕР, 2008.

13. Гришина Н. В. Психология конфликта. - СПб., 2005.

14. Дружинина В. Психология . Учебник. «Питер», 2003.
15. Дьяченко М.И., Кандыбович М.А., Кандыбович С.Л. Психология высшей школы. Мн.: Харвет, 2006.
16. Зельдович Б. З. Психология и педагогика в профессиональной деятельности юриста. - М., 2003.
17. General Psychology by Dr. C. George Boeree, Shippensburg University. File Type :Online. Number of Pages :NA
18. Леонов Н. И. Конфликты и конфликтное поведение - СПб., 2005.
19. Ложкин Г.В. Повякель Н.И. Практическая психология в системах «человек техника»: Учеб. пособие.- К.: МАУП, 2003.
20. Лучинин А. С. История психологии. - М., 2005.
21. Майерс. Д. Социальная психология. - СПб., 2005.
22. Маслоу А. Мотивация и личность. 3-е издание. ПИТЕР, 2008.
23. Мешерекова Б. Г., Зинченко В. П. Большой психологический словарь. - СПб., 2005.
24. Немов Р.С. Практическая психология. Познание себя: Влияние на людей: Пособие для уч-ся. - М: Гуманит. Изд.Центр ВЛАДОС, 2003.
25. Платонов Ю. П. Социальная психология поведения. - СПб., 2006.
26. Психология: Учебн.Т-2. «Прспект». Москва - 2004.
27. Психология и педагогика. Под редакцией А.А.Радугина. Изд. «Центр» 2003.
28. Psychology Applied to Work, Eighth Edition. Paul M. Muchinsky. 2006 Thomson Wadsworth. Printed in the United States of America.
29. Реан А., Бордовская Н., Розум С. Психология и педагогика. ПИТЕР, 2005.
30. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. - СПб., 2006.
31. Сельченков К. В. Психология лидерства. - Минск, 2004.
32. Семечкин Н. И. Психология социального влияния. - СПб., 2004.
33. Филипп Зимбардо, Майкл Ляйппе. Социальное влияние. СПб, 2000.
34. Шейнов В. П. Психология обмана и мошенничества. - М., 2002.
35. Чалдини Р. Психология влияния. СПб.: «Питер», 2000.

Internet saytlari

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psychology.all.ru
3. www.psychology.net.ru
4. www.psv.piter.com
5. www.pedagog.o'z

MUNDARIJA

| | |
|---|------------|
| KIRISH | 4 |
| MODUL I. KASB PSIXOLOGIYASINING TADQIQOT METODLARI .. | 6 |
| 1.1. Kasbiy psixologiya bo'limiga kirish. Kasb psixologiyasining predmeti, vazifalari va ahamiyati..... | 6 |
| 1.2. Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Kasb psixologiyasining ijtimoiy hayotda tutgan o'rne..... | 25 |
| 1.3. Kuzatish metodlari. Test metodlari | 42 |
| 1.4. Kasbning psixologik mohiyatini ochishda fanlar integratsiyasiga asoslanuvchi kompleks (majmuaviy) metodlari..... | 54 |
| MODUL II. KASBIY LAYOQAT TASHXISI..... | 62 |
| 2.1. Kasbiy layoqatni aniqlovchi testlarning ishonchliligi. Shaxs psixodiagnostikasi | 62 |
| 2.2. Kasbiy psixodiagnostika. Professiogramma (professiografiya) tarixi: kelib chiqish sabablari, imkoniyatlari, takomillashishi. | 78 |
| MODUL III. PROFESSIOGRAFIYANING MOHIYATI, UNING YUZAGA KELISH TARIXI. | 101 |
| 3.1. Professiografiyaning mohiyati va uning asosiy tamoyillari, Professiografik tadqiqotlarni o'tkazish. | 102 |
| 3.2. Professiografiyaning tuzilishi. Psixogramma tushunchasi. Turli kasblarning shaxs oldiga qo'yadigan talablari..... | 114 |
| MODUL IV. ILK O'SPIRINLIK YOSHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI..... | 124 |
| 4.1. Ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari. Ilk o'spirinlik davrida aqliy rivojlanish. Ilk o'spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari | 124 |
| MODUL V. TALABALAR PSIXOLOGIYASI VA O'QUV FAOLIYATI. | 146 |
| 5.1. Talabalarning psixologik xususiyatlari. Talabalar tafakkurining xususiyatlari. Talaba shaxsining ijtimoiy - psixologik xususiyatlarini tekshirish | 146 |
| 5.2. Oliy ta'limdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo'llari. Darsni psixologik tahlil qilish..... | 155 |

| | |
|--|------------|
| MODUL VI. RIVOJLANTIRUVCHI O'QITISH..... | 170 |
| 6.1. O'qitish psixologiyasi. O'rgatish modellari va tajribani o'zlashtirish mexanizmlarining tavsifi..... | 170 |
| 6.2.O'qitishning turli modellarini rivojlantirish | 179 |
| imkoniyatlari. O'qitish texnologiyalarining | 179 |
| psixologik tavsifi. | 179 |
| MODUL VII. TARBIYA PSIXOLOGIIYASI..... | 197 |
| 7.1.Xulq-atvor va odatni shakllantirish - shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida..... | 197 |
| 7.2.Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlar. Tarbiyasi "qiyin" bolalar psixologiyasi. | 214 |
| MODUL VIII. PEDAGOG FAOLIYATINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI..... | 231 |
| 8.1. Tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash psixologiyasi. O'qituvchi va o'quvchi: ta'lim jarayonida muloqot va hamkorlik | 231 |
| 8.2. Pedagogning pedagogik faoliyatni egallashidagi psixologik muammolar. Kasbiy pedagogik ong va o'z-o'zini anglash..... | 249 |
| MODUL IX. TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISH NAZARIYALARI. | |
| | 267 |
| 9.1. Bo'lg'usi o'qituvchining o'quv faoliyatini boshqarish. | 267 |
| ILOVALAR..... | 306 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... | 332 |

СОДЕРЖАНИЕ

| | |
|--|------------|
| Введение..... | 4 |
| Модуль I. МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ПСИХОЛОГИИ ПРОФЕССИИ..... | 6 |
| 1.1. Поступление на факультет профессиональной психологии. Предмет, задачи и значение профессиональной психологии..... | 6 |
| 1.2. Связь психологии профессий с другими науками. Роль профессиональной психологии в общественной жизни. | 25 |
| 1.3. Методы наблюдения. Методы испытаний..... | 42 |
| 1.4. Комплексные (комплексные) методы, основанные на интеграции наук, в раскрытии психологической сущности профессии..... | 54 |
| МОДУЛЬ II. ДИАГНОСТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПРИГОДНОСТИ..... | 62 |
| 2.1. Достоверность тестов, определяющих профессиональную пригодность. Психодиагностика личности..... | 62 |
| 2.2. Профессиональная психодиагностика. История профессиограммы (professiography): причины возникновения, возможности, совершенствование..... | 78 |
| МОДУЛЬ III. СУЩНОСТЬ ПРОФЕССИОГРАФИИ, ИСТОРИЯ ЕЕ ВОЗНИКНОВЕНИЯ..... | 101 |
| 3.1. Сущность профессиографии и ее основные принципы, проведение Профессиографических исследований..... | 102 |
| 3.2. Структура профессиографии. Понятие психограммы. Требования различных профессий к личности..... | 114 |
| МОДУЛЬ IV. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАННЕГО ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА..... | 124 |
| 4.1. Психические особенности раннего подросткового возраста. Умственное развитие в раннем подростковом возрасте. Особенности личности молодежи в раннем подростковом возрасте..... | 124 |

| | |
|---|-----|
| Модуль V. ПСИХОЛОГИЯ УЧАЩИХСЯ И УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ | 146 |
| 5.1. Психологические особенности учащихся. Особенности мышления учащихся. Обследование социально-психологических особенностей личности школьника..... | 146 |
| 5.2. Пути преодоления трудностей в высшем образовании. Психологический анализ урока..... | 155 |
| МОДУЛЬ VI. РАЗВИВАЮЩЕЕ ОБУЧЕНИЕ | 170 |
| 6.1. Психология обучения. Описание моделей обучения и механизмов усвоения опыта..... | 170 |
| 6.2. Разработка различных моделей обучения варианты. Технологии обучения психологическая характеристика. | 179 |
| МОДУЛЬ VII. ПСИХОЛОГИЯ ВОСПИТАНИЯ | 197 |
| 7.1. Формирование поведения и привычки-как основное направление воспитания личности..... | 197 |
| 7.2. Факторы, психологические предпосылки, влияющие на формирование личности. Воспитание "трудных " детей психология..... | 214 |
| МОДУЛЬ VIII. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА | 231 |
| 8.1. Психология воспитания и самовоспитания. Учитель и ученик: общение и сотрудничество в образовательном процессе..... | 231 |
| 8.2. Психологические проблемы овладения педагогом педагогической деятельностью. Профессионально-педагогическое сознание и самосознание..... | 249 |
| МОДУЛЬ IX. ТЕОРИИ УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ | 267 |
| 9.1. Управление учебной деятельностью будущего учителя..... | 267 |
| Приложений..... | 306 |
| ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА | 333 |

CONTENTS

| | |
|--|-----|
| Introduction..... | 4 |
| Module I. RESEARCH METHODS OF PROFESSIONAL PSYCHOLOGY | 6 |
| 1.1.Introduction to the Department of Professional Psychology. The subject, functions and significance of Professional Psychology..... | 6 |
| 1.2.Relationship of Professional Psychology with other sciences. The role of Professional Psychology in social life..... | 25 |
| 1.3.Observation techniques. Test methods..... | 42 |
| 1.4.Komplex (complex) techniques based on the integration of Sciences in the opening of the psychological essence of the profession..... | 54 |
| MODULE II. DIAGNOSIS OF PROFESSIONALISM | 62 |
| 2.1. Reliability of tests that determine professional merit. Personality psychodiagnostics..... | 62 |
| 2.2. Professional psychodiagnostics. History of professiogram (professiography): reasons of origin, options, improvements..... | 78 |
| MODULE III. THE ESSENCE OF PROFESSIONALISM, THE HISTORY OF ITS OCCURRENCE | 101 |
| 3.1. The essence of professionalism and its basic principles, conducting professional research..... | 102 |
| 3.2. Structure of professionalism. The concept of psychogram. The requirements that different professions put before the person.... | 114 |
| MODULE IV. PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FIRST GERM AGE | 124 |
| 4.1. Psychic properties of the first Capricorn period. Mental development in the early maturation period. Personal characteristics of young people in the period of early adolescence..... | 124 |
| Module V. STUDENT PSYCHOLOGY AND EDUCATIONAL ACTIVITIES | 146 |
| 5.1. Psychological characteristics of students. Features of student thinking. Examination of the socio - psychological characteristics of the student's personality..... | 146 |
| 5.2.Ways to overcome difficulties in higher education. Psychological analysis of the lesson..... | 155 |

| | |
|--|-----|
| MODULE VI. DEVELOPING TRAINING | 170 |
| 6.1. Teaching psychology. Description of teaching models and experience mastering sounds..... | 170 |
| 6.2. Development of different models of teaching..... | 179 |
| options of educational technologies psychological description..... | 179 |
| MODULE VII. PSYCHOLOGY OF UPBRINGING | 197 |
| 7.1. Formation of behavior and habit-as the main direction of the upbringing of the individual..... | 197 |
| 7.2. Factors affecting the formation of personality, psychological conditions. Upbringing "difficult" children's psychology..... | 214 |
| MODULE VIII. PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF PEDAGOGICAL ACTIVITY | 231 |
| 8.1. Psychology of upbringing and self-education. Teacher and pupil: communication and cooperation in the educational process..... | 231 |
| 8.2. Psychological problems of the teacher in the possession of pedagogical activity. Professional pedagogical consciousness and self-awareness..... | 249 |
| MODULE IX. THEORIES OF EDUCATIONAL PROCESS MANAGEMENT | 267 |
| 9.1. Management of the educational activities of the future teacher. | 267 |
| Applications..... | 306 |
| USED LITERATURE | 333 |

Qaydlar Uchun

Axmetjanov M.M., Jumayev U.S., Xaitov J.N.

KASBIY FAOLIYAT PSIXOLOGIYASI

Muharrir:

Texnik muharrir:

Musahhih:

Sahifalochi:

G'.Murodov

G.Samiyeva

M.Raximov

M.Arslonov



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original –
maketdan bosishga ruxsat etildi: 29.12.2020. Bichimi 60x84.
Kegli 16 shponli. « Palatino Linotype» garn. Ofset bosma
usulida. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tabog'i 21.5 Adadi 100.
Buyurtma № 118



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O'zbekiton Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46



AXMETJANOV MANSUR MAXMUDOVICH – pedagogika fanlari nomzodi, professor. Buxoro muhandislik – texnologiya institutining Ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i, o'rindoshlik sifatida «Kasbiy ta'lim» kafedrası professori, 180 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, 4 ta darslik, 8 ta o'quv qo'llanma, 3 ta monografiya va pedagogika fanidan o'qitish texnologiyasi bo'yicha majmua muallifi hamda rahbarligida 1 ta fan nomzodi chiqarilgan. Talabalarning o'quv-biluv faoliyatini oshirish yo'nalishida ilmiy ishlar olib bormoqda.



JUMAYEV ULUG'BEK SATTOROVICH – Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi. 8 ta o'quv qo'llanma, 2 ta monografiya, 10 ta o'quv uslubiy qo'llanma, 1 ta patent, 2 ta mualliflik guvohnomasi muallifi, shuningdek 2 ta Xalqaro grant ishtirokchisi. Jahonning nufuzli hisoblangan jurnallarida (Scopus, Impact factor (IF), Web of Science) 10 ta maqola, 120 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri tomonidan "Tashakkurnoma" bilan taqdirlangan. Hozirgi paytda "Globalashuv sharoitida madaniyatlararo gomogenlashuvning ijtimoiy-psixologik fenomenlari" nomli 19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya mutaxassisligi bo'yicha doktorlik (Doctor of Science) dissertatsiyasi ustida ilmiy tadqiqot ishini olib bormoqda.



HAYITOV JUMAQUL NEGMATOVICH – yoshlarni istiqloлга sadoqat, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirish, yurtimizda badminton sport turini rivojlantirishda o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda. Shu kunga qadar uning 100 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari, 40 dan ortiq voleybol, basketbol, futbol, yengil atletika, qo'l to'pi sport turlaridan uslubiy ko'rsatma va monografiyalar chop ettirilgan.



ISBN 978-9943-7078-4-9



9 789943 707849